



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI HUZURIDAGI
“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



“YANGI O'ZBEKISTON OILADAGI ZO'RAVONLIKKA QARSHI: HOLAT, MUAMMO VA YECHIMLAR”

*mavzusidagi xalqaro anjuman
materiallari to'plami*

“Mahalla va oila nashriyoti”
Toshkent – 2022

UO'K: 364.632-055.2(575.1)

KBK: 60.56(50')

E 18

“Yangi O'zbekiston oiladagi zo'ravonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to'plami. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 344 b.

Mas'ul muharrir:

N.Egamberdiyeva, *pedagogika fanlari doktori, professor*

Tuzuvchi va tartib beruvchi:

S.Jumayev

Tahrir hay'ati:

O.Musurmonova, X.Abduramanov, B.Mavlonov,
U.Yunusov, S.Xodjayev, F.Sodiqov

Ushbu to'plamda O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligida “Yangi O'zbekiston oiladagi zo'ravonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar” mavzusidagi 2022-yil 9-dekabr kuni tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari o'rin olgan.

ISBN 978-9943-8747-3-2

© Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, 2022

© “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti, 2022

© “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022

BIRINCHI SHO'BA:

OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH VA UNING OLDINI OLISH

Tursunov Axtam Salomovich,

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Jazoni ijro etish faoliyati kafedrasini professori,
yuridik fanlar doktori, professor*

Murodov Alisher Sharofxonovich,

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Jazoni ijro etish faoliyati kafedrasini dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING FUQAROLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH BO‘YICHA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikning samarali profilaktikasi bo‘yicha huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka, viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etishga doir fikr va mulohazalar bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, tazyiq, zo‘ravonlik, himoya orderi, huquqbuzar, jabrlanuvchi, huquqiy targ‘ibot, maishiy nizo, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Аннотация. В статье приводятся мнения и комментарии по поводу эффективной организации общей, специальной, индивидуальной, виктимологической профилактики преступлений, эффективной профилактики домогательств и насилия в семье.

Основные понятия: семья, притеснение, насилие, охранный ордер, правонарушитель, потерпевший, адвокатская защита, бытовой конфликт, профилактика правонарушений.

Annotation. The article expresses opinions and comments on the effective organization of general, special, individual, victimological crime prevention, effective prevention of harassment and domestic violence.

Keywords: family, harassment, violence, protective order, offender, victim, lawyer protection, domestic conflict, prevention of offenses.

Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha faoliyatini samarali tashkil qilish bo‘yicha ma‘muriy hududdagi har bir oilani o‘rganib chiqishi hamda notinch bo‘lgan oilalarni aniqlab, ular bilan profilaktik ishlarni olib borishi va ularga ijtimoiy jihatdan yordam ko‘rsatishi, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda ularning maishiy va boshqa muammoli masalalarini hal etishga ko‘maklashishi¹ lozim. Mazkur vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishiga olib kelgan sabab va sharoitlar ham tahlil qilinadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2896-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 17-сон, 288-модда.

Профилактика инспекторларining fuqarolarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha vakolatlarini huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi to'rtta turi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

1. Профилактика инспекторларining fuqarolarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha umumiy tartibdagi profilaktika chora-tadbirlari.

Профилактика инспекторларining fuqarolarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha umumiy tartibdagi profilaktikasi faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi bo'lib, ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatdan xabardor bo'lish, sodir etilishi mumkin bo'lgan nizolarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Профилактика инспектори bevosita o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududlarda tazyiq va **zo'rvonlikning umumiy profilaktikasini amalga oshirish borasida, eng avvalo**, shaxs huquqlari va erkinligini ta'minlash, oilaviy-maishiy hayotda yuzaga kelgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, aholi o'rtasida targ'ibot-tushuntirish ishlarini olib borish, sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida fuqarolik jamiyatiyati institutlari va keng jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etadi. Shuningdek, oiladagi zo'rvonlikdan jabrlangan hamda oila turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshiradi.

Профилактика (katta) инспекторlari tomonidan ushbu yo'nalishda профилактика faoliyatining tashkil etilishi *birinchidan*, jamiyatga zid turmush tarzini kechiruvchi shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlashga, *ikkinchidan*, g'ayriijtimoiy hodisa va jarayonlar, voqea va hodisalardan xabardor bo'lishga, *uchinchidan*, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, *to'rtinchidan*, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish, kuchsizlantirish va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy vositalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ayrim yuridik adabiyotlarda mazkur faoliyat "oldini olish", "yo'l qo'ymaslik", "профилактика qilish" kabi atamalardan ham foydalanilgan².

Jinoyatlarning oldini olish shunisi bilan afzalki, bu faoliyatga jinoyat sodir etgan shaxsning jazolanishi muqarrarligini ta'minlash uchun sarflanadigan ancha kam xarajat qilinishi bilan bir vaqtda, insonni, ayniqsa, yoshlarni jamiyatda o'z o'rnini topishga, hayotda atrofidagi yaqin kishilari, boshqa insonlar va jamiyat uchun foydali bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi hamda uni amalga oshirishda ko'maklashadi³.

Jinoyatlarning oldini olish to'g'ri tashkil etilsa, mamlakatimizda jinoyatchilikning ahvolini tubdan o'zgartira olmasa ham, unga qarshi amaliy kurash muayyan jinoyatlar rivojlanishidagi salbiy omillarga amalda qarshilik ko'rsatish mumkin⁴.

² Долгова А.И. Криминология. – Москва: Норма, 2006. – С. 284.

³ Исмаилов И. Уюшган жиноий тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-хуқуқий таъминлаш: Юрид. фан. док-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 199.

⁴ Ахмедова Г.Ў. Уюшган гуруҳлар кичик тадбиркорлик соҳасида содир этиладиган жиноятларнинг олдини олиш: юрид. фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2006. – Б. 101.

Profilaktika xizmati tomonidan hududdagi har bir jinoyatning sabab va sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish, kuchsizlantirish, ta‘sirini yo‘qotish hamda ularga to‘siqlar qo‘yish bo‘yicha manfaatdor profilaktika subyektlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim⁵.

Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha umumiy profilaktikasi doirasida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

1) **ma‘muriy hududdagi har bir xonadon haqida barcha ma‘lumotlarga ega bo‘lish:** aholi hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o‘rganish; nosog‘lom turmush tarzi kechirayotgan fuqarolarni aniqlash; oila turmush doirasida huquqbuzarliklar sodir etayotgan shaxslarni aniqlab tegishli choralar ko‘rish; huquqbuzarliklarga imkon berayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga;

2) **profilaktik suhbat:** oilada oila a‘zolari, ya‘ni er-xotin, aka-uka, opa-singil, qaynona-kekin, qarindosh-urug‘lar o‘rtasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlab ularga huquqiy va psixologik ta‘sir ko‘rsatish; farzandining tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan, ularga shafqatsiz munosabatda bo‘layotgan ota-onalarni aniqlash ularga nisbatan ta‘sirchan choralarni qo‘llash; fuqarolarga oiladagi nizolarning shaxs hayoti va taqdiriga salbiy ta‘siri va ularning oqibatlarini tushuntirish;

3) **huquqiy targ‘ibot:** yangi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish; huquqiy bilim saviyasi yuqori bo‘lmagan shaxslarning huquqiy ongi va saviyasini oshirish. Fuqarolarni qonunchilikka rioya etish va ulardan xabardor qilib borish;

4) **oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasining faoliyatini samarali tashkil etish:** notinch oilalarni yarashtirish; oiladagi nizolar tufayli buzilgan munosabatlarni tiklash choralarini ko‘rish; oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxslarga chora ko‘rish; nizoli oilalardagi muammolarni hal etish; farzandining tarbiyasi bilan shug‘ullanmaydigan ota-onalarning xulq-atvorini muhokama qilish; to‘y-maraka va boshqa tadbirlarni ortiqcha dabdabasiz o‘tkazish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish oiladagi zo‘ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, xalq bilan tizimli, manzilli muloqotni, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikni o‘rnatish, aholining eng muhim muammolarini hal etishga har tomonlama ko‘maklashish⁶ har bir profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

2. Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha maxsus tartibdagi profilaktika chora-tadbirlari.

Fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bilan bog‘liq qilmishlarning maxsus profilaktikasi deganda ushbu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi

⁵ Мухторов Ж.С. Ички ишлар идоралари профилактика хизматлари фаолиятининг ташкилий ҳуқуқий асослари: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир юрид. фан. доктори И.Исмаилов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. – Б. 32.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги “Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-2883-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил. 15-сон, 247-модда.

sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlar tushuniladi.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini ishlab chiqish va amalga oshirishda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ushbu faoliyat ustidan doimiy nazorat, tahlil ishi hamda rejalashtirishning o'z vaqtida amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega⁷.

Jinoyatlarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish va zararsizlantirishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-marifiy va boshqa profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim⁸.

Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotida, profilaktikaning ana shunday turidan kedib chiqib, oila turmush sohasida huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslar ko'payganda ma'muriy hududlarda "Xonadon", "Turmush", "G'amxo'rlik" kabi maxsus profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi doirasida ma'muriy hududda yashovchi spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni o'z vaqtida aniqlab, ularni majburiy davolashga yuborish muhim ahamiyatga ega bo'lib, spirtli ichimlik ta'sirida kelib chiqadigan huquqbuzarliklar profilaktikasining eng samarali profilaktikasi hisoblanadi.

Ayniqsa, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgandan so'ng, sud davolash bilan birga yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi⁹. Profilaktikaning ushbu turi oila turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barvaqt profilaktikani tashkil etish kriminogen oilalar haqidagi axborotlarni o'z vaqtida olinishini va kerakli profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi¹⁰.

Profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

1) ilgari sudlangan shaxslarning oilaviy ahvoli hamda turmush tarzini o'z vaqtida o'rganish va kerakli profilaktikaning turini qo'llash;

2) oila turmush doirasida muntazam ravishda alkogol yoki giyohvandlik vositalarni iste'mol qiluvchi shaxslarni aniqlash va ularni o'rganib majburiy davolash muassalariga yuborish;

3) oila turmush doirasida muntazam ravishda huquqbuzarliklar sodir etuvchi va unga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va tegishli choralar ko'rish;

⁷ Хўжакулов С.Б. Ички ишлар органларининг ҳуқуқбuzарликлар профилактикаси фаолияти // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2017. – Б. 45.

⁸ Мухторов Ж.С. Ички ишлар идоралари профилактика хизматлари томонидан жиноятларнинг олдини олишни таъминлаш: юрид. фан. номз. дис. ...афтореф. – Тошкент, 2009. – Б. 16.

⁹ Файзуллаева Т.Х. Тиббий йўсиндаги мажбурулов чораларини тайинлаш муаммолари: юрид. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2009. – Б.42.

¹⁰ Зокирова А.Г. Рашк мативи билан содир этиладиган жиноятларга қарши кураш муаммолари. – Тошкент, 2004. – Б. 169.

4) tarbiyasi og‘ir, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish.

Oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklarning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

oila turmush sohasidagi huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

oila turmush sohasidagi huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularning profilaktikasi bo‘yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

oila turmush sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;

oila turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etuvchi va moyil bo‘lgan shaxslarning huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va shart-sharoitlarining oldini olish, ularni bartaraf etish;

spirtli ichimlikka va giyohvandlikka ruju qo‘ygan shaxslarni aniqlash, ularning oilaviy ahvoli va turmush tarzini o‘rganish hamda ularni majburiy davolash muassasalariga yuborish choralarini ko‘rish.

3. Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlari.

Fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bilan bog‘liq qilmishlarning yakka tartibdagi profilaktikasida g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlash, xulq-atvorini o‘rganish, huquqbuzarlik sodir etishga olib kelgan sabab va sharoitlarni o‘rganish orqali ularga ta‘sir etish choralarini qo‘llashdan iborat faoliyat tushuniladi.

Fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bilan bog‘liq qilmishlarning yakka tartibdagi chora-tadbirlari muayyan shaxsning xislatlari, uning ijtimoiy muhitiga xos jihatlar, ijtimoiy-maishiy shart-sharoiti va turmush tarzi, g‘ayriijtimoiy xulq-atvori, maishiy zo‘ravonlik sodir etishga moyilligi, shuningdek u oila-turmush doirasida sodir etgan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalovchi boshqa omillar bilan belgilanadi.

Shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvori, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma‘lumotlarning mavjudligi maishiy zo‘ravonlikning oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Fuqarolarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar bilan bog‘liq qilmishlarning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxs ijtimoiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, turmush tarzi, g‘ayriijtimoiy xulq-atvori, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi hamda sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, odamning yashashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shaxsning muayyan jinoyat

sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni o'rganish bilan jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratiladi¹¹. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olishning yakka tartibdagi profilaktikasida muayyan shaxs tomonidan g'ayriijtimoiy qilmish yoki jinoyat sodir etilishining oldini olish, uni zararsizlantirishga qaratilgan faoliyat tashkil etilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Yakka tartibdagi profilaktika shaxsda ijtimoiy salbiy qarashlar va salbiy xulqning shakllanishini bartaraf qilishga, agar shunday xulq shakllanib qolgan bo'lsa undagi ijtimoiy xususiyatlarni o'zgartirish va shu yo'l bilan jinoyat sodir etishi mumkinligining oldini olish, uni to'xtatishga qaratilgan choralar kiradi. Shunday qilib, muayyan shaxsga qaratilgan yakka tartibda ta'sir qilish keng ma'noda ma'lum bir faoliyatni tashkil etadi. Ushbu faoliyat maxsus subyektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika faoliyati mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) o'zining qarashlari, xulq-atvori bilan jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan ishlarni tashkil etish;
- b) shunday shaxslarni aniqlash va ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni aniqlash;
- d) ularga zararli ta'sir etuvchi manbalarni kuchsizlantirish va bartaraf etish;
- e) huquqbuzarlik sodir etgan hamda sodir etishga moyil shaxslarga tarbiyaviy profilaktik ta'sir ko'rsatish.

Amaliyot tahlillarining ko'rsatishicha, fuqarolar asosan profilaktika inspektorlariga oiladagi nizolarni hal qilish uchun quyidagi mazmundagi arizalar bilan murojaat etishadi:

1. Oilada qaynona-kelin o'rtasida sodir etilgan nizoli vaziyatlar.
2. Erining spirtli ichimlikka ruju qo'yganligi.
3. Erining kaltaklashi va bolalariga shafqatsiz munosabatda bo'layotganligi.
4. Qarindosh urug'larning oilaga aralashuvi (ko'pincha yosh kelinlarga onasining ta'siri) oqibatida kelib chiqayotgan nizolar xususida.
5. Mol-mulkni bo'lish yoki meros talashish masalasida.
6. Erining xiyonatkorligi yoki xotinini xiyonatda ayblayotganligi.
7. Farzandining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar to'g'risida.
8. Oiladagi ma'naviy-muhitning nosog'lomligi, shaxsning salbiy xulq-atvori va ularning boshqa oila a'zolariga ta'siri haqida.

Profilaktika inspektorlari ushbu nizoli xarakterdagi ariza va shikoyatlarni qonuniy hal qilishlari bilan birga ***birinchidan***, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga, ***ikkinchidan***, oila turmush doirasida sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishlarning oldini olishga, ***uchinchidan***, nizolar oqibatida huquqbuzar va jabrlanuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar buzulishining oldini olishga erishish mumkin.

¹¹ Ўразалиев М.К. Оилада вояга етмаганларга нисбатан зўрлик ишлатиб содир этиладиган жинсий жиноятларни олдини олиш: диссертация. – Тошкент, 2011. – Б. 92.

Ta’kidlash kerakki, oila turmush doirasidagi nizolarni ko‘rib chiqishda profilaktika inspektorlaridan yuksak kasbiy mahorat va psixologik bilimlar talab etiladi. Ayniqsa, bunday jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish uchun mutaxassis maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim¹². Chunki har bir holat zahirida oila, inson taqdiri, qarindosh-urug‘chilik, er-xotinning o‘zaro munosabatlari yotadi. Agar bunday vaziyatlarda oiladagi nizolarni bartaraf etish, er yoki xotinni murosaga keltirishga yuzaki yondoshilsa oilaning barbod bo‘lishi tabiiy hol. Shu bois, oilada sodir etilgan huquqbuzarliklarni sinchkovlik bilan muhokama qilish, uning sabablarini atroflicha o‘rganib chiqish, ularni murosaga keltirish borasida xolisona qaror qabul qilish masalasi profilaktika inspektorlariga katta mas’uliyat yuklaydi.

4. Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha viktimologik profilaktika chora-tadbirlari.

Fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasida shaxsning ma’muriy yoki jinoiy qilmishlardan jabrlanishi yoxud ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni kompleks tarzda o‘rganishga hamda huquqbuzarliklardan shaxsning jabrlanish ehtimolini maksimal darajada kamaytirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Mazkur profilaktik chora-tadbirlarda viktimogen omillarni aniqlash, bartaraf etish, zararsizlantirish va ularning ta’sirini kamaytirish, viktimlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash, ulardagi viktimlik darajasini pasaytirish va ularning jinoiy tajovuzlar qurboni bo‘lish xavfini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Viktimologik profilaktikada huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxs emas, balki undan jabrlanishi mumkin bo‘lgan toifadagi shaxslarga ulardagi bunday moyillikni shakllantiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari, birinchi navbatda, aholiga ayniqsa, huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarga ular ishtirokida vujudga keladigan nizolarni hal etish, jismoniy va ruhiy xavfsizlikni ta’minlash, qonunda nazarda tutilgan o‘zini o‘zi mudofaa qilish usullari va vositalarini o‘rgatish orali amalga oshiraladi¹³. Viktimologik profilaktika nuqtayi nazaridan viktim holatlarning yuzaga kelishini o‘rganish va ularni aholiga o‘rgatish ham muhim ahamiyatga egadir.

Viktimologik profilaktika – viktimogen faktorlarning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni bartaraf qilish yoki neytrallashtirish choralari qo‘llash, jinoyatning potensial qurbonlarini aniqlash va ularni himoya qilish imkoniyatlarini oshirish yo‘li bilan ayrim turdagi jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi¹⁴.

¹² Пулатов Ю.С., Асямов С.В. Психологический тренинг сотрудников органов внутренних дел. – Ташкент, 2002. – С. 18.

¹³ Исмаилов И. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг таъминланиши // Ҳуқуқшунослик истиқболлари: Илмий мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчилар Ш.О.Мамадалиев ва бошқ. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 27.

¹⁴ Юридик атамаларнинг изоҳли луғати: 1-жилд. –Тошкент, 2007. – Б. 187.

Профилактика инспектори viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida oiladagi tazyiq va zo'rvonliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni o'z vaqtida aniqlab, ularning xulq-atvori, oiladagi o'rni, oilaviy munosabatlar jarayonida o'zini tutishi, huquqbuzarlik sodir etilishida jabrlanuvchining roli hamda boshqa sabab va sharoitlarni aniqlab, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Профилактика инспекторlari ma'muriy hududda aholining ijtimoiy zaif qatlamlari bilan manzilli profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida olib bormasa, ushbu yo'nalishdagi ishlar o'z holiga tashlab qo'yilsa oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning sodir etilishi ko'payishi mumkin. Misol uchun, ba'zi hududlarda oilaviy nizolar barvaqt emas, balki uning salbiy oqibati kelib chiqqanidan keyingina mahallada muhokama qilinishi natijasida oila-turmush doirasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning sodir etilishi kuzatiladi.

Ichki ishlar organlari inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning buzilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda o'z vaqtida bartaraf etish borasidagi faoliyati samarali tashkil etilishini ta'minlash¹⁵ borasidagi ishlarni to'g'ri tashkil etishi ***birinchidan***, inson huquq va erkinligini ta'minlash, ularning buzilishining oldini olishga, ***ikkinchidan***, inson huquqlari buzilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishga, ***uchinchidan***, oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Профилактика инспекторlari fuqarolarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha quyidagi viktimologik profilaktik choralarni amalga oshirishlari lozim:

1) ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalarni o'z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo'lgan oilalar bilan viktimologik profilaktikani tashkil etish;

2) huquqbuzarlik yoki jinoyatlardan jabrlanishga moyilligi bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning zo'rvonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

3) ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;

4) ijtimoiy mavqeyi, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog'liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash;

5) huquqbuzarliklar sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

6) notinch oilalarda yashayotgan shaxslarning zo'rvonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida tushuntirish ishlarini olib borish;

7) oiladagi zo'rvonliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifalarini aniqlash;

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги "Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-2883-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 15-сон, 247-модда.

8) huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktika tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, amaldagi qonunchiligimizda oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni himoya qilishga doir qator normalar mavjud bo‘lib, profilaktika inspektorlari o‘zlariga biriktirilgan ma‘muriy hududlarda oilada yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal etish yo‘llari, ayniqsa, jabrlanishning oldini olish borasida ularning huquq va erkinliklarini tushuntirishga doir targ‘ibot-tashviqot ishlarini yetarli darajada olib borishga alohida e‘tibor qaratishlari bu boradagi huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2896-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 17-сон, 288-модда.
2. Долгова А.И. Криминология. – Москва: Норма, 2006. – С. 284.
3. Исмаилов И. Уюшган жиноий тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-ҳуқуқий таъминлаш: юрид. фан. докт. дис. ...автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 199.
4. Ахмедова Г.Ў. Уюшган гуруҳлар кичик тадбиркорлик соҳасида содир этиладиган жиноятларнинг олдини олиш: юрид. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 101.
5. Мухторов Ж.С. Ички ишлар идоралари профилактика хизматлари фаолиятининг ташкилий ҳуқуқий асослари. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: И.Исмаилов, юрид. фан. докт. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. – Б. 32.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги “Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-2883-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 15-сон, 247-модда.
7. Хўжакулов С.Б. Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2017. – Б. 45.
8. Мухторов Ж.С. Ички ишлар идоралари профилактика хизматлари томонидан жиноятларнинг олдини олишни таъминлаш: юрид. фан. номз. дис. ...афтореф. – Тошкент, 2009. – Б. 16.
9. Файзуллаева Т.Х. Тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини тайинлаш муаммолари: юрид. фан. номз. дис. – Тошкент, 2009. – Б.42.
10. Зокирова А.Г. Рашк мотиви билан содир этиладиган жиноятларга қарши кураш муаммолари. – Тошкент, 2004. – Б. 169.
11. Ўразалиев М.К. Оилада вояга етмаганларга нисбатан зўрлик ишлатиб содир этиладиган жинсий жиноятларни олдини олиш. – Тошкент, 2011. – Б. 92.
12. Пулатов Ю.С., Асямов С.В. Психологический тренинг сотрудников органов внутренних дел. – Тошкент, 2002. – С. 18.
13. Исмаилов И. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг таъминланиши // Ҳуқуқшунослик истиқболлари: Илмий

мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчилар Ш.О.Мамадалиев ва бошқ. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2015. – Б. 27.

14. Юридик атамаларнинг изоҳли луғати: 1-жилд. – Тошкент, 2007. – Б. 187.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги “Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чоратadbирлар тўғрисида”ги ПҚ-2883-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 15-сон, 247-модда.

* * *

Murodov Alisher Sharofxonovich,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Jazoni ijro etish faoliyati kafedrasi dotsenti,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

NOTINCH OILALAR BILAN MANZILLI PROFILAKTIKA ISHLARINI TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya. *Maqolada notinch oilalar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish hamda oila-turmush doirasidagi zo'ravonlikning oldini olishga doir fikr va mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *notinch oila, nosog'lom turmush-tarzi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, manzilli profilaktika, huquqbuzar, huquqbuzarliklar profilaktikasi.*

Аннотация. *В статье содержатся мнения и комментарии автора по вопросам организации адресной профилактической работы с неблагополучными семьями и предупреждения домашнего насилия.*

Основные понятия: *неблагополучная семья, нездоровый образ жизни, потерпевший от преступления, адресная профилактика, правонарушитель, профилактика правонарушений.*

Annotation. *The article contains opinions and comments on the organization of targeted preventive work with dysfunctional families and the prevention of domestic violence.*

Keywords: *dysfunctional family, unhealthy lifestyle, victim of crime, targeted prevention, offender, prevention of offenses.*

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda profilaktika inspektori o'ziga biritkilgan ma'muriy hududda nosog'lom turmush tarzi kechirayotgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab ular bilan manzilli profilaktika ishlarini olib borishlari bu boradagi huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, profilaktika inspektori va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatdan xabardor bo'lishi, sodir etilishi mumkin bo'lgan oiladagi jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishi talab etiladi. Ayniqsa, nosog'lom turmush tarzini kechirayotgan oilalarni toifalarga ajratish hamda ular bilan manzilli

ishlarni tashkil etish oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda muhim omil hisoblanadi¹⁶.

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida oilalarni quyidagi toifalarga ajratish va ular bilan manzilli profilaktika ishlarini olib borish lozim:

- 1) nosog‘lom turmush tarzini kechirayotgan oilalar;
- 2) kam ta‘minlangan oilalar;
- 3) huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud shaxslar yashaydigan oilalar;
- 4) spirtli ichimlik va giyohvandlikka ruju qo‘ygan shaxslar yashaydigan oilalar.

Nosog‘lom turmush tarzini kechirayotgan oilalar bilan quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni tashkil etish lozim:

- shaxs huquqlari va erkinligini ta‘minlash, oilaviy-maishiy hayotda yuzaga kelgan nizolarni tinch yo‘llar bilan hal etish hamda oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash;

- oilaviy ajralishlarning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, fuqarolik jamiyatiyati institutlari va keng jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida aholi o‘rtasida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini olib borish;

- oila-turmush munosabatlari doirasida shaxsga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish choralari ko‘rish;

- oila turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshirish;

- ma‘muriy hududlarda yashovchi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarni o‘z vaqtida aniqlab, ularga ijtimoiy, huquqiy va ma‘naviy jihatdan yordam ko‘rsatish, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni tashkil etish;

- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan notinch oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo‘lgan oilalar bilan viktimologik profilaktika ishlarini tashkil etish;

- ma‘muriy hududda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish¹⁷;

- ijtimoiy mavqeyi, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog‘liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash;

¹⁶ Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarini jilovlash b‘yicha “fuqarobay”, “oilaabay” va “mahalabay” ishlar tizimini tashkil etish metodikasi: Yuqum-metodik qullanma / M.3.Zi‘duullaev, A.S.Tursunov, A.II.Murodov va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 25 b.

¹⁷ Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Darслик / Matlyubov B.A, Tursunov A.C, X‘jajukulov C.B. va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 48.

- notinch oilalarda yashayotgan shaxslarni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida notinch oilalardagi nizoli holatlarni bartaraf etish choralari ko'rish yuzasidan hamkorlik ishlarini kuchaytirish.

Kam ta'minlangan oilalar bilan quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- ma'muriy hududdagi oilalarni uyma-uy yurish orqali o'rganish asosida kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularni ro'yxatini shakllantirish;

- oilalardagi mavjud muammolarni o'rganish va ularni aniqlashga qaratilgan amaliy ishlarni tashkil etish;

- kam ta'minlangan oilalar bilan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida ma'muriy hududga birlashtirilgan hokimiyat idoralari bilan ularga yordam amaliy ko'rsatish choralari ko'rish;

- hududdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

- uyma-uy yurish va o'rganish asosida aniqlangan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish.

- shaxsning oilaviy sharoitini, yaqinlari va atrofdagilar bilan o'zaro aloqalarini o'rganish;

- xonadonda, oilada mavjud muammolar aniqlash hamda ularni iloji boricha joyida hal qilish choralari ko'rish;

- kam ta'minlangan va ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan oilalarga ijtimoiy va moddiy jihatdan yordam ko'rsatish orqali ularning turmush tarzi va daromad manbayiga ega bo'lishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish;

- oilalarda muayyan darajada yetishmovchilik yoki qiyinchilik mavjud bo'lsa, sabr bilan oilada yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'rish;

- oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar mavjud bo'lgan oilalar o'rganilganida ularning aksariyati ishsiz doimiy daromad manbayiga ega bo'lmagan shaxslarni aniqlab ularni ish bilan ta'minlash choralari ko'rish;

Huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud shaxslar yashaydigan oilalar bilan quyidagi yo'nalishlarda ishlarni tashkil etish lozim:

- maishiy zo'rlikdan jabrlangan shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida himoya orderi berish tizimini samarali tashkil etish va uning nazoratini ta'minlash¹⁸;

- oila-turmush doirasida zo'ravonlikka duchor bo'layotgan shaxslar o'rtasida maqsadi yashiringan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda ushbu qilmishlarning latentligini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- maishiy zo'rlikning sabab va sharoitlarini o'rganish, tahlil qilish va ularning barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan tizim yaratish;

¹⁸ Муродов А.Ш. Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан жабрланишини олдини олиш масалалари: Ҳуқуқбuzарликлар профилактикаси тизимидаги долзарб муаммолар ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Малака ошириш институти. – Б. 135.

- maishiy zo‘rlikdan jabrlanganlarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari hamda ishonch telefonlari faoliyatini samarali tashkil etish;

- zo‘rlik ishlatilishidan jabr ko‘rgan shaxslarga o‘z vaqtida va manzilli yordam ko‘rsatish va ularni himoya qilish, o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvor paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va unga erta barham berish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirish;

- oila-turmush doirasida jinoyatlar, ularning salbiy oqibatlari va kelib chiqishiga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni o‘rganish hamda ommaviy axborot vositalari orqali aholini muntazam xabardor etib borish;

- oiladagi dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan jamoatchilik fikrini o‘rganish, ularning asosida nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatish va o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni bartaraf etishga doir dasturlar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- oilada sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish va tahlil qilish;

- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan notinch oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo‘lgan oilalar bilan viktimologik profilaktikani tashkil etish;

- ma‘muriy hududda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish;

- ijtimoiy mavqeyi, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog‘liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash;

- huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o‘rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish¹⁹;

- notinch oilalarda yashayotgan shaxslarning zo‘ravonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida tushuntirish ishlarini olib borish;

- oiladagi zo‘ravonliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar toifalarini aniqlash;

- huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktika tadbirlarni ishlab chiqish.

Spiritli ichimlikka ruju qo‘ygan shaxslar yashaydigan oilalar bilan quyidagi yo‘nalishda ishlarni tashkil etish lozim:

- spiritli ichimlikka ruju qo‘ygan shaxslar yashaydigan oilalarni aniqlash va ularning ro‘yxatlarini shakllantirish;

- spiritli ichimlikka ruju qo‘ygan shaxslarni majburiy davolash muassasalariga yuborish ishlarini tashkil etish;

¹⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Хуқуқбузарликлар профилактика-си тўғрисида”ги Қонунига илмий-амалий шарҳ / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. – Б. 58.

- spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni ish bilan bandligini ta'minlash choralari ko'rish;

- jamoatchilikni spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar yashaydigan oilalardagi muhitni ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha tarbiyaviy ishlarga jalb etish;

- oilada maishiy nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri – bu shaxsning spirtli ichimlikka ruju qo'yishidir. Spirtli ichimlik iste'mol qilish natijasida shaxs o'z xatti-harakatining oqibatini anglab yetmasligi natijasida jamiyatga, atrofdagilarga befarqlik va hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishini inobatga olib, ushbu illatni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarini o'rganish;

- spirtli ichimlikni oila-turmush doirasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi eng faol kriminogen omil ekanligini o'rganish.

Oilaturmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) biriktirilgan hududdagi har bir oilani aylanib chiqish, notinch oilalarni aniqlash, ularni hisobini yuritish, oila-turmush doirasida nizolar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

2) oilaviy janjallar oqibatida yuzaga kelgan er-xotin, aka-uka, opa-singil, ota-ona va farzand, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasida sodir etilgan nizolar tufayli buzilgan munosabatlarni tiklash borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3) ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, notinch va kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularni ro'yxatini shakllantirish hamda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish yuzasidan hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xotin-qizlar, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish qo'mitasi bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish;

4) oilada milliy qadriyat va urf-odatlariga zid, axloq-odob doirasidagi nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'yayotgan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, tarbiyaviy ta'sir choralariga muhtoj bo'lgan, oilada huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslar aniqlab ular bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etish;

5) profilaktika xizmatining jamoatchilik bilan o'zaro axborot almashuv va amaliy hamkorligi samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni to'g'ri va tizimli tashkil etish;

6) oilaviy-maishiy sabablarga ko'ra sodir etilgan huquqbuzarliklar, shu jumladan ayollar, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar muhokamasini tashkil etish va o'tkazish, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish;

7) ma'muriy hududda sodir etilgan oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va kelgusida ushbu turdagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

8) profilaktika inspektorlari o‘ziga javobgar bo‘lgan hududdagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, xotin-qizlar masalasi bo‘yicha mutaxassis bilan hamkorlikda ertalabki yo‘riqnomalarda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishga qaratilgan rejalarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar profilaktika xizmatlari oldiga fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tuzilmalari va keng jamoatchilik bilan barvaqt huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikning yangi usul va shakllarini ishlab chiqishga majbur etmoqda. Chunki, barcha ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari o‘rtasidagi hamkorliklarda ham huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha asosiy ma’lumotlar jamoatchilikdan kelib tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 1. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятларни жилавлаш бўйича “фуқаробай”, “оилабай” ва “маҳаллабай” ишлаш тизимини ташкил этиш методикаси. Ўқув-методик қўлланма / М.З.Зиёдуллаев, А.С.Турсунов, А.Ш.Муродов ва бошқ. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2021. – 25 б.
2. 2. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси. Дарслик / Матлюбов Б.А., Турсунов А.С., Хўжақулов С.Б. ва бошқ. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б. 48.
3. 3. Муродов А.Ш. Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан жабрланишини олдини олиш масалалари: Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимидаги долзарб муаммолар ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент, Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти. – Тошкент, –Б. 135.
4. 4. Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонунига илмий-амалий шарҳ / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. – Б. 58.

* * *

Malohat SAIPOVA,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent*

MEHNAT MIGRANTLARINING OILAVIY HOLATI, ULAR DUCH KELADIGAN ZO'RAVONLIK TURLARI

Migratsiya jarayoni insoniyat tarixida hamisha ulkan rol o'ynagan. Aynan migratsiya odamlarni Yer sharining bir nuqtasidan chiqib, dunyo bo'ylab tarqalishiga olib keldi. Ular turli xalqlar va madaniyatlarning, zamonaviy dunyoning irqiy, etnik va tilga oid turli-tumunligini shakllanishi uchun zamin yaratdilar. Ular butun Yer yuzida birmuncha ilg'or texnologiyalarni, iqtisodiy va madaniy yangiliklarni tarqalishiga ko'maklashdi. Bunda deyarli barcha yirik migratsiya harbiy-siyosiy bo'htonlarni o'zida aks ettirgan. Faqat keyinchalik aholining ko'chib yurib, bo'sh yerlarni egallashi nisbatan tinch yo'l bilan sodir bo'lgan. Bugungi kunda migratsiya insoniyatning zamonaviy iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Faqat avvalgilaridan farqli ravishda migratsiya natijasida o'zgarishlarning tarixan solishtirganda yaqqol ifodalanish vaqti qisqargani, bizning ko'z o'ngimizda yuz berayotgani bo'ldi. Hozirda keng qamrovga ega bo'lib ulgurgan migratsiya nafaqat hukumatning mutasaddi tashkilotlari xodimlarini, balki tadqiqotchilarni ham bu mavzuga e'tibor qaratishlarini taqozo qiladi.

“... migratsiyani aholining yakuniy hisobda hududiy qayta taqsimlanishiga olib keladigan borliqqa oid harakatlanishi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bu mazmunda borliqqa oid ko'chib yurishni migratsiyaga kiritish haqiqatan bir joydan boshqasiga ko'chib o'tishi bilan belgilanadi. Zamonaviy olamda migratsiya oqimining muhim tarkibiy qismi mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Mehnatga oid resurslarning harakatlanishi butunjahon xo'jaligini uyushtirishning barcha bo'g'inlarini qamrab oladi, dunyo davlatlari va mintaqalari o'rtasida bo'lgani kabi milliy chegaralar ichida ham, uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari o'rtasida ham amalga oshiriladi. Bu ko'chib yurish natijasida ishchi kuchining global jahon bozori shakllanadi”²⁰.

“Xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallamoqda. Chunki hozirgi davrda insonning yashashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi. Odatda migratsiyaning asosiy sabablaridan biri sifatida iqtisodiy omil ko'rsatiladi”²¹.

“Bir narsa aniqki, migratsiyaga oid qonun hujjatlari sohasidagi siyosatning kelgusida chuqurlashuvchi Rossiya sog'liqni saqlash tizimi holatini yaxshilamaydi, chunki kasallik fuqarolikka bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan bir vaqtda, migrantlarning malakali tibbiy

²⁰ Гибадуллин М.З., Нуриева А.Р. Миграция в России: проблемы и последствия. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г. Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – С. 89-90.

²¹ Azamatova G.B. Xalqaro mehnat migratsiya jarayonida jahon va O'zbekiston ishtirokining o'ziga xos jihatlari // <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-12>.

yordam olishga bo‘lgan huquqlari va imkoniyatlarini cheklash zamonaviy jamiyatda tinch mavjud bo‘lish va insonparvarlikka ziddir”²².

Salomatlik – turmush sifatining nihoyatda muhim indikatoridir. Migrantlarning salomatlik holatini tibbiy jihatdan nazorat qilish migrantlarni o‘zlari kabi qabul qiluvchi mamlakat aholisining ham farovonligi kafolati hisoblanadi. Biroq shuni sharhlash zarurki, ko‘pchilik migrantlar quyidagi sabablarga ko‘ra tibbiy yordam uchun murojaat qilmaydilar: o‘z salomatligiga uzoqni ko‘ra olmaydigan munosabati, Rossiya hududida noqonuniy bo‘lishi uchun jarimadan qo‘rqish, moliyaviy xarajatlardan cho‘chish. Statistik ma’lumotlarning dalolat berishicha, rejali tibbiy yordamga – 40% ayol-migrantlar, 9%i – bepul tibbiy yordamga murojaat qilganlar, 12%i – mustaqil davolanaganlar, 38% ayollarda tibbiy xizmatlarga ehtiyoj yuzaga kelmagan. Tadqiqotchilar ta’kidlaydilar, ko‘pchilik migrantlar to‘laqonli davolanish imkoniyatiga ega emaslar, kasal bo‘lganlarning faqat 15 %i kasallik varaqasini olishga erishganlar²³. Surunkali kasalligi bo‘lgan migrantlarning holati qiyin, adekvat davolanishning yo‘qligi, uning pulli ekani migrantlarni vataniga qaytguniga qadar davolanishni orqaga surishga olib keladi, bu esa salomatlikka yomon ta’sir ko‘rsatadi²⁴.

Aytib o‘tish joizki, mehnat migrantlari quyidagi muammo va qiyinchiliklarga duch keladilar:

birinchidan, fuqarolik belgisi va gender asosida kamsitilish holatlariga uchraydilar;

ikkinchidan, mehnatga haq to‘lashda ularning ma’lumoti, tajribasi inobatga olinmaydi;

uchinchidan, mehnat shartnomasi tuzishda muammolar yuzaga keladi.

Xotin-qizlar esa ko‘p hollarda:

1) majburiy mehnat, jinsiy zo‘ravonlikka duch keladilar;

2) uydagi qullikka majburlanadilar;

3) odam savdosiga – iqtisodiy foyda olish maqsadida fohisha sifatida foydalanishga duchor qilinadilar.

“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi o‘tkazgan tadqiqotlarga, asosan, odam savdosidan jabr ko‘rganlar ayollarning 53,6%i ajrashgan ayollardir. Fuqarolarning 52,5%i tasodifiy, notanish odamlar, 41%i yaxshi taniydigan insonlar, 3,2 foizi qarindoshlar tomonidan ekspluatatsiyaga duchor qilingan²⁵.

Hozirda qator muassasalar va nodavlat-notijorat tashkilotlari aholini mehnat migratsiyasiga chiqib ketishdan oldin xabardorligini oshirish borasida faoliyat olib bormoqda.

²² Кадырова Л.Р. Проблемы медицинского обслуживания мигрантов. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г. Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – С. 130-131.

²³ Женщины-мигранты из стран СНГ в России. Изд-во: Макс Пресс, 2011. – 119 с.

²⁴ Карасик Е.А., Акифьева М.В. Вопросы оценки качества жизни трудовых мигрантов в современной России. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г. Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – С. 141-142.

²⁵ Гибадуллин М.З., Нуриева А.Р. Миграция в России: проблемы и последствия. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г. Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. 89-90-б.

Hukumat doirasida esa mehnat migratsiyasi jarayonlarini idora qilish, tartibga solish, shuningdek, mehnat migrantlari oilalarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan muayyan islohotlar olib borilmoqda. 2018-yilda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning to'laqonli a'zosiga aylangan O'zbekiston Respublikasi MXT Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilgan. Shuningdek, hukumat tomonidan qabul qilingan qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlarni alohida ta'kidlash o'rinli. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"gi 5785-sonli Farmoni, 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 404-sonli, 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4829-sonli, 2021-yil 30-iyuldagi "Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5205-sonli, 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 149-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 713-sonli qarori shular jumlasidandir.

Garchi mehnat migratsiyasiga chiqib ketish va ularning mamlakatda qolgan oilalarini qo'llab-quvvatlash masalalariga qonun doirasidagi yondashuv amalga oshirila boshlangan bo'lsa-da, mehnat migratsiyasining xotin-qizlar, bolalar taqdiriga ta'siri va oqibatlarini chuqur o'rganish, ularning psixologik-emotsional holatlarini tahlil qilish, buning oldini olish maqsadida psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, yurisprudensiya, falsafa yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, tegishli taklif va tavsiyalarni tayyorlash hamda mutasaddi idoralarga ijro uchun yo'llash hamisha dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azamatova G.B. Xalqaro mehnat migratsiya jarayonida jahon va O'zbekiston ishtirokining o'ziga xos jihatlari // <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-12>.
2. Гибадуллин М.З., Нуриева А.Р. Миграция в России: проблемы и последствия. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г. Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – С. 89-90.
3. Женщины-мигранты из стран СНГ в России. Изд-во: Макс Пресс, 2011. – 119 с.
4. Кадырова Л.Р. Проблемы медицинского обслуживания мигрантов. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г.

- Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – С. 130-131.
5. Карасик Е.А., Акифьева М.В. Вопросы оценки качества жизни трудовых мигрантов в современной России. // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г.Багаутдиновой, Е.В.Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – С. 141-142.
6. www.podrobno.uz – В Узбекистане определили социальный портрет жертвы торговли людьми. Почти 50% опрошенных пытались сбежать из рабства. 17 августа 2019 г.

* * *

Yusupova Mexribon Uktamovna,
*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Urganch filiali*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС СОЗДАНИЯ ИДЕАЛЬНОЙ СЕМЬИ

Аннотация. В статье рассматривается проблема трансформации модели семьи в современном обществе. Отмечается, что кризис института семьи изменяет ценности ориентации нескольких поколений на семейной образ жизни.

Ключевые слова: семья, ценности, трансформация, брак, проблемы семьи, общество.

Annotatsiya. Maqolada oilaning zamonaviy jamiyatda shakllanishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, oila institutlarining krizisi mazkur oila vakillarida hayotiy qarashlarning o‘zgarishiga olib kelishi nazarda tutiladi.

Kalit so‘zlar: oila, qadriyatlar, o‘zgarish, nikoh, oilaviy muammolar, jamiyat.

Annotation. The article considers the problem of transformation of the model of the family in modern society. It is noted that the crisis of the family, changes the value orientation of multiple generation of family life.

Keywords: family, values, transformation, marriage, family problems, society.

В условиях современной глобализации происходят существенные изменения во всех сферах общества, что приводит к изменениям и в традиционной семье и браке. Важность исследования проблемы семьи выражается в том, когда необходимо выяснить соответствие образа жизни семьи, ее функций современным общественным потребностям. Как правило, проблемы семьи возникают тогда, когда не реализуется или слабо реализуется ее функции. Это подтверждается социологическими, статистическими, публицистическими материалами.

Переход от традиционного к современному информационному обществу привел к изменениям функций социального института семьи, что отразилось как на обществе в целом, так и на отдельном человеке. Меняются почти все жизненные

представления, система приоритетов, тип рациональности, психический склад личности, доминирующей в обществе²⁶.

По мнению социологов, современная семья со временем утрачивает характерные ей признаки и функции. Семья перестает быть кооперативно – трудовым объединением, так как происходит переход от семейного производства к семейно-бытовому самообслуживанию. В связи с тем, что современная женщина более эмансипирована, все активнее вовлекается в производственную и общественно-политическую жизнь, изменяется статус и роль, что приводит к разрушению гендерных ролей в семье²⁷.

Следует отметить, что происходит переход от увеличения числа разводов по инициативе мужа (чаще всего из-за бездетности) к разводу, вызванному межличностной несовместимостью супругов²⁸.

Разногласие и отсутствие любви между отцом и матерью весьма тесно связаны с развитием у детей склонности к нежелательному поведению. Чем длительнее по времени разногласия в семье, тем сильнее их отрицательное влияние на ребёнка.

Необходимо учитывать факторы, влияющие на стабильность семьи. К ним относятся:

Объективные: общая дестабилизация всей социально-экономической системы, в которой находится семья. Государственные структуры, ожидая от семьи выполнения ее основных функций, не создают даже минимальных условий для ее выживания. Уровень семейного бюджета не соответствует уровню прожиточного минимума. Резко обострились проблемы улучшения жилищных условий. Возникла реальная возможность безработицы (особенно для женщин).

Субъективные: семья как психологическая общность находится в процессе формирования новой модели межличностного взаимодействия супругов, родителей и детей. Наибольшая трансформация произошла в сознании женщины. Потребности и интересы, модели ролевого поведения мужчины и женщины в семье сблизились, приобрели «усредненный» стиль. Широкий диапазон ролевого репертуара современного человека порождает своеобразную имитацию семейного взаимодействия. Супруги, родители и дети имитируют семейные отношения, сохраняя традиционную внешнюю форму и не вкладывая в них необходимое внутреннее содержание; семейные отношения создают психологическую общность взрослых и детей только тогда, когда все члены семьи испытывают потребность быть «Мы».

В ситуации, когда одновременно происходят дестабилизация социальной среды, в которой существует семья, ломка традиционных стереотипов внутреннего семейного взаимодействия, особое значение приобретают научно-обоснованные социальные программы помощи семье, целенаправленное

²⁶ <http://www.bibliotekar.ru/gavrov-2/5.htm>

²⁷ Здравамыслова О. Статус и карьера женщины в современных условиях. – Москва, 2002.

²⁸ Пронин А.А. Положение женщин в современной России: общая характеристика. – Москва, 2002.

формирование в общественном сознании значимости важнейших ценностей семьи.

Затянувшийся кризис экономики привел к тому, что большинство семей попало в разряд малообеспеченных, а немало – и в разряд нищих.

Смертность обогнала рождаемость. Многие молодожены откладывают на неопределенный срок появление первого ребенка. Государственная семейная политики должна способствовать свободной, самостоятельной организации молодежи семейной жизни, повышению ее социального статуса, укреплению и развитию семейно-брачных отношений. При реализации молодежной политики в этой области необходимо обеспечить:

- предоставление льгот и привилегий молодым семьям (заключение трудового договора с гарантиями предоставления единовременного кредита на обзаведение и дополнительного кредита на приобретение (строительство жилья и пр.);

- создание социальной и психолого-педагогической службы помощи молодой семье для решения различных вопросов;

- увеличение числа публикаций и изданий для молодежи на темы семейной жизни;

- разработку структурно-функциональной модели городских ведомств и служб, отвечающих за социально-экономическую, психолого-педагогическую и медико-гигиеническую сферы жизнедеятельности семьи.

Без такой модели все прогрессивные научно проработанные и обоснованные программы останутся на уровне теоретических концепций.

Современная семья переживает сложный переходный период от традиционной модели семейной организации к новой: упрощается структура семьи, изменяется система власти и подчинения, снижается значимость традиционных функций семьи – рождения и воспитания детей, решение чисто бытовых вопросов приобретает особую значимость, семья все больше становится психологическим «убежищем» человека.

Ломка традиционных семейных стереотипов в быденном сознании происходит на фоне серьезнейших социально-экономических трудностей, общей дестабилизации жизненного уклада, что создает своеобразную конфликтную среду существования человека, усиливающую неустойчивость современной семьи. Подобное положение диктует необходимость решения следующих основных задач:

Комплексное изучение современной семьи с ее различными характеристиками структуры, стажа совместной жизни супругов, возраста ребенка, социально-экономическими условиями семейной жизни, устойчивостью семейной организации с целью научного обоснования государственных программ помощи семье.

Разработка и внедрение практических программ социальной помощи семье, психолого-педагогического содействия супругам, родителям и детям с

целью стабилизации семейных отношений на разных этапах формирования семейной общности. На рис. 1 показаны факторы, влияющие на формирование и существование семьи.

Формирование семей во многом зависит от демографической ситуации, а также, социально-экономическая обстановка — важный фактор, который может или препятствовать заключению брака, или, наоборот, способствовать ему. К числу социально-экономических факторов можно отнести доходы семьи, питание, обеспеченность жильем и его качество.

Тесно связаны между собой такие факторы, как исторический фон, религия и местные обычаи. На протяжении веков у разных народов складывалось представление о нормах семейной жизни. Например, у всех народов запрещены браки между близкими родственниками. Практически во всех религиозных конфессиях в жесткой или более мягкой форме существуют запреты на браки с иноверцами. В нерелигиозных семьях эти запреты действуют в виде принятых обычаев.




Рис. 1. Основные факторы, влияющие на формирование и существование семьи

Чрезвычайно важным элементом среды обитания человека, влияющим на формирование семьи и ее жизнедеятельность, служит уровень урбанизации. Жизнь в городах резко меняет сложившиеся у людей социально-психологические установки, снижает или полностью нивелирует многие нормы поведения и следование обычаям. В городе, как и в сельской местности, семья играет определяющую роль в жизни людей, но между современной городской и сельской семьями, как мы говорили, существуют заметные различия.

В ответ на воздействие внешних факторов формируются те или иные свойства семьи. Для поддержания жизнеспособности семьи, высокого уровня здоровья ее членов необходимо разумное самосохранительное поведение, т.е. забота о собственном здоровье и здоровье своих близких. Одно из важных условий самосохранительного поведения – здоровый образ жизни.

В заключении можно сказать, что семья представляет собой очень древнее образование. Это социальная единица существует сегодня во всех частях света. Глядя назад, можно заметить признаки существования семьи во всех цивилизациях, сведения о которых до нас донесла история.

Выживание семьи зависит от успешности её адаптации к меняющимся жизненным обстоятельствам. Меняющийся образ жизни неизбежно ведёт к переменам, в сущности, семьи, но в то же время, несомненно то, что семья переживает любой экономический уклад или социальный строй, и в связи с этим, меняется динамика отношений и система взаимодействий в семье.

Таким образом, семья не есть что-то статичное, наоборот, семья представляет собой живую, развивающуюся, постоянно меняющуюся, гибкую систему, чутко реагирующую адаптационными изменениями на внешние и внутренние воздействия.

В реалиях XXI века еще острее стоят вопросы по поводу того, как нам обрести устойчивый, гармоничный союз с другим человеком и каким образом сохранить этот союз на протяжении всей жизни.

Список использованной литературы:

1. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений. Курс лекций. – Москва: Апрель-Пресс, Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000. – С. 132-133. – 512 с.
2. <http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B5%D0%BC%D1%8C%D1%8F>
3. Сатир В. Как строить себя и свою семью. – Москва, 1992. – С. 11
4. Целуйко В.М. Быть вместе нельзя расставаться: как спасти отношения. – Екатеринбург: У-Фактория; – Москва: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2008. – 334 с.
5. [Http://www.bibliotekar.ru/gavrov-2/5.htm](http://www.bibliotekar.ru/gavrov-2/5.htm)
6. Здравамыслова О. «Статус и карьера женщины в современных условиях». – Москва, 2002.
7. Пронин А.А. «Положение женщин в современной России: общая характеристика». – Москва, 2002.

* * *

Razzakova Nafisa Ikramovna,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti,
xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi*

OILAVIY ZO'RAVONLIKNING HAR QANDAY KO'RINISHIGA QARSHIMIZ!

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali mamlakatimizdagi xotin-qizlarning tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan vazifalar, qolaversa, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar xususida muhim ma'lumotlar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: oila, ayollar, gender tenglik, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, qonun, qaror, farmon, mo'jaz maskan.

Аннотация. Посредством данной статьи поставлены задачи, направленные на обеспечение реализации нормативно-правовых документов, принятых в целях защиты женщин от домогательств и насилия в нашей стране, и их всяческой поддержки, кроме того важная информация о работе, проводимой в нашей стране.

Ключевые слова: семья, женщины, гендерное равенство, Новый Узбекистан, Третий Ренессанс, закон, решение, указ, чудотворное место.

Annotation. This article presents the tasks aimed at ensuring the implementation of legal and regulatory documents adopted so as to protect women from harassment and violence and to promote them in every way. In addition, important information about the work being carried out in this regard are also included in the article.

Keywords: family, women, gender equality, New Uzbekistan, Third Renaissance, law, decision, decree, miraculous place.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimiz tarixida oila jamiyatning mustahkam poydevori, uni harakatga keltiruvchi qudratli ma'naviyat o'chog'i sifatida shakllanib kelgan. U inson kamolotining eng muhim bo'g'ini, elimizning go'zal urf-odatlarini hamda qadriyatlarini o'zida saqlaydigan muqaddas va mo'jaz maskan hisoblangan. Tarixiy, ilmiy-nazariy, hayotiy nuqtayi nazardan ahamiyat qaratilganda oilaning ma'naviy poydevorini esa oilaviy milliy, umuminsoniy an'ana, qadriyatlar bilan izohlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"²⁹.

Darvoqe, shu o'rinda, Fitratning "Oila" asarida keltirilgan: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki,

²⁹ Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.

farzandlarimiz imonli, fidokor bo‘lib ulg‘ayib, o‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”³⁰, – degan fikrlarni qayd etish lozimdir. Oila ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lsa, uning farovonligi, tinchligi, xotirjamligi ham mustahkam bo‘ladi.

Demak, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi oilalarning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog‘liq jarayonligi namoyon bo‘lmoqda. Oilaviy munosabatning qonuniy himoyalaniishi mamlakatimiz Konstitutsiyasida, Oila kodeksida ham o‘z ifodasini topgan. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan farovon oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan, ruhan sog‘lom bo‘lgan farzandlarning dunyoga kelishiga qulay shart-sharoitlarni yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan davrda oila institutini mustahkamlash, uning tinchligini, xotirjamligini hamda gender tenglikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan izchil va samarali ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbarining “Ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish islohotlar samaradorligi hamda iqtisodiy o‘rishini ta’minlashi – amaliyotda o‘z isbotini topgan haqiqat. Jinslar tengligiga erishish mohiyatan insonga shaxs sifatida namoyon bo‘lishga halal beruvchi barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va bartaraf etishdan iborat”³¹, – degan so‘zlari ham tizimli vazifalarni yanada takomillashtirgan holda o‘z vaqtida bajarish zarur ekanligidan dalolat beradi. Vaholanki, ushbu sohada hamda yo‘nalishda, shu vaqtga qadar, juda katta hamda olamshumul ishlar amalga oshirilganini ham e’tirof etish lozimdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida³² belgilab berilgan 7 ta yo‘nalishning beshinchi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishi bo‘yicha 71–78-maqсадlarning mohiyati ham oilaning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni³³ hamda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarorida³⁴ ham Yangi O‘zbekistonda oila institutini rivojlanishida qadriyatlardan foydalanishga alohida e’tibor berilgan. Mamlakatimiz miqyosida bo‘lib

³⁰ A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 112.

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 278.

³² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Toshkent, 2022-yil 28-yanvar.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni. Toshkent, 2022-yil 7-mart.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarori. Toshkent, 2022-yil 1-mart.

o'tayotgan "Zo'ravonlikka qarshi birgalikda kurashamiz!" shiori ostidagi "Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" kompaniyasi ham aynan mana shu yo'nalishdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda jamiyatimizda duch kelinayotgan xotin-qizlarning zo'ravonlik va tazyiqqa uchrashishining oldini olish va bunday holatlarni bartaraf etish, qolaversa, umuman, yo'l qo'yilmasligiga erishish uchun barcha inson bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozim. Chunki xotin-qizlarga qaratilgan zo'ravonlikning har qanday shakli, turi jamiyatimizning ravnaqiga katta zarar ko'rsatadi. Ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo'ravonlik tufayli ular erkaklarga qat'iy bo'ysunuvchi shaxsga aylanishga majbur bo'lishadi. Buning oqibatida erkin fuqaroning asosiy huquqlariga daxl qilinadi. Zo'ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo'rlash, iqtisodiy cheklovlar qo'yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo'ravonlik sifatida baholanadi. Ba'zi erkaklar tomonidan oilaga tushgan kelin barcha masalada eriga va uning oila a'zolariga buysunish kerakligi aytiladi. Shu bois, ko'pgina erkaklar zo'ravonlik o'tkazadi, ular zo'ravonlikning ayrim ko'rinishlari odatiy holdek tuyuladi. Xonadondagi zo'ravonlik, shunchaki, uydagi janjal-oilaning ichki ishlari sifatida qabul qilinadi. Oilaviy zo'ravonlikni hech qanday sharoitda oqlab bo'lmaydi.

Bilamizki, oilada qiz bolalar itoatli, so'zsiz bo'ysunuvchi, kattalarga hurmat ko'rsatish ruhida kamolga yetishadi. O'g'il bolalar esa ancha erkin o'sadi. Natijada, ular zaif jins vakillariga nisbatan ustunliklarini his qilib turishadi. Shuning uchun uydagi zo'ravonliklarning oldini olishning huquqiy mexanizmi to'g'risida ayollar o'z huquqlarini mukammal darajada bilishi darkor. Axir, qonun har bir fuqaroni zo'ravonlikning har qanday turidan himoya qiladi.

Aslida, ushbu muammo jahondagi hech bir mamlakatni chetlab o'tmagan, u xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan yoki uchinchi dunyo davlati bo'lsa ham. Shunga yarasha, bu muammoni bartaraf etish yo'nalishida ko'pgina mamlakatlar o'ziga xos tajriba to'plagan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash borasida shart-sharoitlar yaratilmoqda. Oilaviy mojarolar va sodir etilayotgan holatlar natijasida buzilib ketayotgan oilalar muammolari mavjudligi va bundan ko'proq ayollar aziyat chekayotganini inobatga olgan holda, ularga ko'rsatiladigan psixologik, tibbiy va ruhiy reabilitatsiya yo'nalishlarida amaliy chora-tadbirlar kuchaytirildi.

Shu o'rinda aytish kerakki, har qanday sohani takomillashtirishda xorijiy tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarimizga moslashtirgan holda samarali tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tenglik ham bundan mustasno emas. "Gender bu oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqlar tengligi hamda jamiyatda va shaxsiy hayotda erkaklar va ayollarning ijtimoiy roli, mavqeyi va vazifalarini ifodalovchi tushunchadir"³⁵. Mazkur ta'rifdan kelib, aytadigan

³⁵ Xolikova M., Ishanxanova G., Po'latova Sh. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 11-13.

bo‘lsak, bizning nazarimizda gender tengligi – ijtimoiy tushuncha bo‘lib, jamiyatda erkak hamda ayolga yaratilayotgan huquq va imkoniyatlarning tengligi tushuniladi. Shuning uchun xotin-qizlarimizga nisbatan tazyiq hamda zo‘ravonlikning oldini olish borasida O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish haqida”gi Qonuni³⁶ qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida ham gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat ekanligi belgilangan.

Bunda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash hamda hayotga moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda bu sohada faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassisdan kuchli bilim, mahorat, psixologik va individual yondashuv talab qilinadi. Shuni yodda tutish kerakki, qaysi jamiyatda ayol qadrlanar ekan, oilalar farovon, farzandlar tarbiyasi to‘la-to‘kis bo‘ladi. Bu esa kelajakka tomon yorqin yo‘ldir.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, gender tenglikka erishish haqiqiy demokratik qadriyatlarning ajralmas qismi sifatida eng ustuvor maqsadlarimiz qatoriga qo‘yilgan. O‘zbekiston ham turli mutasaddi tuzilmalar, jamoat tashkilotlar hamda keng jamoatchilikning bu yo‘nalishdagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi xorijiy tajribasidan foydalanmoqda. Bu ayniqsa, tegishli yo‘nalishda qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning ustida ishlashda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘nalishida ham muhim vazifalar bajarilmoqda.

Xalqimiz yangi O‘zbekistonni qurish, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishdek ezgu va ulug‘vor maqsad yo‘lida bormoqda. Bu jarayonlarda mamlakatimizda gender tenglikni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar albatta, o‘z samarasini beradi. Jamiyatda gender tenglikni ta‘minlashdan maqsad esa xalqimiz demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdek, niyatlarni ro‘yobga chiqarish, yurt taraqqiyotini yuksaltirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shubhasiz, ushbu maqsad sari tashlangan har bir dadil qadam farovonlikka erishishda muhim poydevor bo‘ladi. Zero, davlatimiz rahbari tomonidan ta‘kidlanganidek, “Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtlidir”³⁷. Shunday ekan, bugun yurtimizda har bir yo‘nalish bo‘yicha islohotlar olib borilayotgan davrda xotin-qizlarning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish haqida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma‘qullangan.

³⁷ Sh.Mirziyoyev.“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent, 2021. “O‘zbekiston” NMIU. – B. 249.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021. – B. 249.
2. A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 112.
3. Xolikova M, Ishanxanova G., Po'latova Sh. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 11-13.
4. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – B. 278.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent: 2022-yil 28-yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish haqida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan.

* * *

**Azimova M.M., Kurbanova N.M.,
Azizova G.S., Xodjalimova M.Z.**
*ToshDTU, Issiqlik energetika fakulteti
dotsentlari va assistenti*

OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilaviy zo'ravonlik – o'z ko'lamiga ko'ra global muammo ekanligi, turmush darajasi va demokratizatsiya formatidan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatilishi, Davlatimiz rahbarining xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tashabbuslari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *global, depressiya, normativ, tazyiq, xarita, illat, protsessual.*

Аннотация. В данной статье насилие в семье описывается как глобальная проблема по своим масштабам, наблюдаемая во всех странах мира, независимо от уровня жизни и формата демократизации. В статье изложены инициативы главы нашего государства по защите прав и интересов женщин.

Ключевые слова: глобальный, депрессия, нормативный, притеснение, карта, порок, процессуальный.

Annotation. This article describes domestic violence-a global problem on its scale, observed in all countries of the world, regardless of the standard of living and the format of democratization. The article outlines the initiatives of the head of our state to protect the rights and interests of women.

Keywords: global, depression, normative, oppression, map, vice, procedural.

Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan so‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19- maydagi PQ-5116-sonli qarori bilan “Zo‘rluk hamda o‘z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish, ushbu harakatlardan jabrlanganlarni qo‘llab-quvvatlash” bo‘yicha qabul qilingan Yo‘l xaritasining 17-bandida 25-noyabr Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish Xalqaro kuni deb qabul qilingan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o‘rin va mavqega ega. Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini tashkil etadigan ayollar ijtimoiy-ma‘naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ma‘rifat, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarida samarali mehnat qilmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz xotin-qizlari orasida 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O‘zbekiston Qahramoni, 17 nafar senator, 15 nafar Qonunchilik palatasi deputati borligi, shuningdek, mahalliy Kengashlar deputatlarining 23 foizidan ziyodini hamda ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizini aynan ayollar tashkil etishini alohida ta‘kidlash lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmini yaratishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Oilaviy zo‘ravonlik – o‘z ko‘lamiga ko‘ra global muammo. U turmush darajasi va demokratizatsiya formatidan qat‘i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatiladi.

Ayollardan nafratlanuvchi erkaklarni faqat qashshoq yoki badavlat, oliy ma'lumotli yoki ma'lumoti yo'q, yevropalik yo osiyolik deb ajratib bo'lmaydi. Bundaylarning alohida bir millati bo'lmaydi. Afsuski, O'zbekiston ham bundan mustasno emas.

Bizning mamlakatimizda maishiy yoki uy zo'ravonligiga ko'pincha bir oila muammosi sifatida qaralgan. Odamlar bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo'ravonlik qurboni sharmandalik va turli gap-so'zlardan qo'rqib, jim yurishga majbur bo'ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo'ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo'rqsa, boshqalari farzandlari va o'z hayoti uchun xavfsiraydi. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Ayniqsa, hatto eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o'zini olib qochganda. Oxir-oqibat bu doimiy qo'rquv, depressiya, o'z joniga qasd qilish kabilar bilan tugaydi. Ammo bugungi kunda jamiyatimizda uchrab turayotgan bir noxush holat borki, uni bartaraf etishda barchamiz birlashishimiz lozim. Bu ham bo'lsa, xotin-qizlarning zo'ravonlik va tazyiqqa uchrashishining oldini olish, aytish lozim bo'lsa bunday holatlarga umuman yo'l qo'ymaslikdir.

Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor lavozimlarining joriy etilganligi esa ojiz jins vakillari – xotin-qizlarni zo'ravonlik va tazyiqdan himoya qilish maqsadida tashlangan eng dadil qadamlardan biridir.

Joriy yilning o'tgan davrida xodimalarimiz viloyatimizdagi notinch oilalardagi muammolarni o'rganish davomida 193 nafar ayolning turmush o'rtog'i, qaynonasi, qaynotasi va boshqalar tomonidan zo'ravonlik va tazyiqqa duchor bo'lganliklarini aniqlab, jabrlangan ayollarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish maqsadida "Himoya orderi"ni berishdi. Shulardan 106 nafari jismoniy, 3 nafari iqtisodiy, 43 nafari ruhiy zo'ravonlikka uchragan bo'lsa, yana 41 nafar opa-singillarimiz boshqa turdagi tazyiqlarga uchraganlar.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida "oilaviy-maishiy zo'ravonlik" atamasiga izoh berilmagan. Ammo xalqaro miqyosda bu termin keng qo'llaniladi. Oilaviy zo'ravonlik faqat bir mamlakat va millatga xos illat emas, u bilan butun dunyo kurashib keladi. Oilaviy-maishiy zo'ravonlik – oilaning bir a'zosiga nisbatan boshqa bir a'zosi yoki a'zolarining muntazam davom etib keluvchi, takrorlanib turuvchi zo'ravonligidir va u asosan oila ichida ro'y beradi. Jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo'ravonlik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Oilaviy zo'ravonlikni hech qanaqasiga oqlab bo'lmaydi, chunki u insonning asosiy huquqlariga (hayoti, sog'ligi, sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi) daxl qiladi. Zo'ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko'rinishlarida namoyon bo'lishi va oilaning har qanday a'zosiga nisbatan qo'llanishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo'rqlash, iqtisodiy cheklovlar qo'yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo'ravonlik sifatida baholanadi. Qonun fuqarolarni zo'ravonlikning har qanday turidan himoyalaydi.

Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish uchun davlat va fuqarolik jamiyati vakillari hamkorlikda ishlashi kerak. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan zarur choralarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, davlat bu masalada qonuniy bazani mustahkamlashi kerak. Buning uchun “Oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurash to‘g‘risida” alohida qonun qabul qilinishi kerak, deb hisoblaymiz. Qonunda oilada zo‘ravonlik tushunchasiga ta‘rif berilishi va bunday zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlarni himoya qilishning zarur huquqiy asoslari belgilanishi kerak. Jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish uyushmalari, yuridik sohadagi olimlar, professorlar va jamiyatshunoslik, ruhshunoslik sohasi olimlari, diniy idora xodimlari hamda oddiy fuqarolar hamkorlikda qonun loyihasini tayyorlab yoki qonun loyihasi tayyorlanishini so‘rab, o‘z hududlaridan saylangan deputatlar yoki senatorlar orqali qonun chiqaruvchi organga murojaat qilishlari lozim. Shu bilan birga, MJTK va Jinoyat kodekslariga yangi qonun asosida oiladagi zo‘ravonlikka oid tegishli yangi moddalar kiritilishi kerak.

Ikkinchidan, Jinoyat protsessual kodeksiga protsessual himoya tizimlari, ya‘ni zo‘ravonni ayoldan chetlashtiruvchi, uni himoya qiluvchi choralar kiritilishi kerak. Masalan, oilada zo‘ravonlik haqidagi shikoyatni ko‘rib chiqayotgan davlat organiga sud qarori chiqquniga qadar jabr yetkazganlikda gumon qilinuvchi kishini jabrlanuvchi bilan uchrashishini taqiqlash haqida qaror chiqarish vakolati berilishi kerak.

Uchinchidan, oilada zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar uchun maxsus vaqtinchalik boshpana maskanlari (jabrdiydalar va ularning bolalari sud qarori chiqqunga qadar yashab turishlari uchun) tashkil etilishi kerak. Masalan, 2008-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo‘yicha Respublika reabilitatsiya markazi tashkil etilgan edi. Shu kabi reabilitatsiya markazlari oilada zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan odamlar uchun ham bunyod etilishi lozim. Markazlar jabrdiydalarga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va yuridik yordam ko‘rsatishi kerak. Bunday markazlar nafaqat shaharlarda, balki viloyat va qishloq hududlarida ham ochilishi lozim. Ularni, iloji boricha, davlat tasarrufidan chiqarib, nodavlat tashkilotlari ixtiyoriga topshirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, oila zo‘ravonligi qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan maxsus ishonch telefonlari yoki bo‘limlari tashkil etilishi kerak. Ularga murojaat etgan shaxslar haqida ma‘lumotlarning sir saqlanishi kafolatlanishi lozim. Shuningdek, bunday markazlarda ishlovchi xodimlar uchun zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan jabrdiydalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazilishi kerak. Bunday mashg‘ulotlardan davomli ravishda huquq-tartibot organlari xodimlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idoralari vakillari va oilaviy tibbiyot xodimlari o‘tib turishi kerak.

Beshinchidan, jamoatchilik orasida keng tushuntirish ishlarini olib borib, oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha mavjud noto‘g‘ri tushunchalarni o‘zgartirish kerak. Bu ishga matbuot va nodavlat tashkilotlarini jalb qilish maqsadga muvofiq. Oiladagi zo‘ravonliklarda, asosan, ayollar jabr ko‘rayotgani va muammoning yechimi, odatda, erkaklar qo‘lida ekani uqtirilishi lozim. Bundan tashqari, zo‘ravonlikka uchragan ayollarga qanday qilib o‘zlarini himoya qilish yo‘llari, bunday holatlarda kimga va qachon murojaat qilish, qayerdan yordam olishi mumkinligi to‘g‘risida kerakli ma‘lumotlar berilishi kerak.

Shu bilan birga, mahalla raislari va boshqa mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlaridagi lavozimlarga oilaviy zo‘ravonlik haqida tushunchaga ega bo‘lgan kishilar tayinlanishi kerak. Oilalar bilan ishlovchi shaxslar uchun oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha

davomiy treninglar o'tkazilishi kerak. Shu o'rinda O'zbekistonda ayollar huquqlari va masalalari ustida ishlovchi mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlari juda kam ekanini alohida ta'kidlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Enikolopov S.N. Oilaviy zo'ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. – 2002. – № 5/6. – B. 7.
2. Perttu S. Zo'ravonlikka duch kelgan ayollar uchun qo'llanma /. – Jivaskila: Gummerus, 2010. – B. – 6-7.
3. Asanova M. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar. – N.K.: Vlados, 2007. – B. 218.
4. Zdravomyslova O. Oiladagi zo'ravonlik va an'anaviy tarbiya tushunchasining inqirozi // Ijtimoiy pedagogika. – 2005. – № 1. – B. 124.
5. Уктамова У. (2020). Агрессивное поведение на развитие взглядов девушек. Архив научных публикаций ЖСПИ.

* * *

Turayev Laziz Shokirovich,

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruv akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
lazizshokirovich@mail.ru*

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI RAHBAR KADRLARIDA ENG MUHIM KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Annotatsiya. Maqolada Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimidagi rahbar kadrlar faoliyatini amalga oshirish, ularda eng muhim kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Favquloda vaziyatlar vazirligi tizimidagi rahbar kadrlar o'zlashtirishi kerak bo'lgan eng muhim kompetensiyalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, kompetensiyalar, raqamli kompetensiyalar, bilim, malaka, ko'nikma, boshqaruv, rivojlantirish, xislat, favqulodda vaziyatlar.

Аннотация. В статье анализируются научно-практические аспекты создания руководящих кадров в системе МЧС, наблюдения за наиболее важными конкурентами в них. Разработаны предложения и рекомендации по важнейшим компетенциям, которыми должны овладеть руководители в системе МЧС.

Ключевые слова: лидер, компетенции, цифровые компетенции, знания, компетентность, навыки, управление, развитие, характер, чрезвычайные ситуации.

Annotation. The scientific and practical aspects of creating leadership personnel in the Ministry of Emergency Situations, monitoring the most important competitors in them are analyzed in the article. Proposals and recommendations have been developed on the most important competencies that emergency situation system managers should master.

Keywords: leader, competencies, digital competencies, knowledge, competence, skills, management, development, character, emergencies.

Favqulodda vaziyatlar sharoitida rahbar faoliyatini tizimli tashkil etish salohiyatini takomillashtirish bugungi globallashuv sharoitida dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni sotsiologiya usullar orqali o‘rganib, fundamental, amaliy, innovatsiyaon va startap loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda favqulodda vaziyat sharoitida davlat xizmatchilar faoliyatini tizimli tashkil etish, FVV tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ushbu yo‘nalishda soha mutaxassislari va yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb etish va ularning ishtirokini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining “Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi” kafedrasida “Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbar xodimlari kompetensiyalarini baholash va ularni rivojlantirish” mavzuda tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot doirasida favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan 204 nafar boshqaruv kadrlar o‘rtasida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga doir o‘tkazilgan so‘vromada 196 nafar erkak va 8 nafar ayol rahbar kadr ishtirok etdi. So‘vromada ishtirok etganlarning o‘rtacha yoshi 35 yoshni tashkil etadi.

“FVV rahbar xodimlari qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga respondentlarning 56 foizi rahbar “talabchan” bo‘lishi kerak, deya javob bergan bo‘lsa, ularning 19 foizi rahbar “demokrat” va qolgan 16 foiz respondent rahbar “jamoaviy boshqarish” qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak degan javobni bergan. So‘nggi yillarda Favqulodda vaziyatlarga doir qabul qilingan 40 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar kadrlardan talabchanlik, shaxsiy na‘muna ko‘rsatish, tanqidiy tahlil qila olish, jismoniya tayyorgarlik darajasini oshirishga doir talablar belgilangan. Ya‘ni FVV rahbar kadrlar uchun talabchanlik kompetensiyasini yuqori darajada shakllanganligi aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish funksiyalarini samarali bajarish imkoniyatini beradi. Bugungi globallashuv sharoitida mazkur tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar nafaqat talabchan balki o‘zi ham shaxsiy na‘muna ko‘rsata olishi kerak bo‘ladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yetakchilikning, o‘z ortidan ergashtirishning eng to‘g‘ri yo‘li shaxsiy o‘rnak va namuna bo‘lishdir”³⁸. Shunday ekan, FVV tizimidagi rahbar kadrlarda, shuningdek, zaxira kadrlarda talabchanlik va shaxsiy na‘muna ko‘rsatish kompetensiyalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratish lozim.

“Rahbar xodimdagi qaysi xislat (kompetensiya) eng muhim deb uylaysiz?” degan savolga respondentlarning 35%i “boshqaruv kompetensiyalari” deb javob bergan bo‘lsa, 20%i “Kasbiy kompetensiyalar” deb javob berishgan, 4% respondent esa “kommunikativlik kompetensiyasi” deb javob bergan, 35% respondent esa barcha kompetensiyalar kerak, degan xulosaga kelishgan. Umuman olganda, bugungi globallashuv sharoitida FVV tizimidagi rahbar kadrlar uchun mutloqa yangi kompetensiyalar: raqamli kompetensiyalar, omma oldiga chiqish qilish, murojaatlar bilan samarali ishlash, foresayt (foresight), tizimli fikrlash, sohalararo hamkorlik,

³⁸ Учинчи Ренессанс даврига замин. // <https://xabar.uz/post/uchinchi-renessans-davriga-zamin>

loyihalarni va jarayonlarni boshqarish, kichik guruhlar va jamoalar hamda aholi bilan ishlash, yangiliklarga ochiqlik, xushyorlik va boshqalar.

“FVV rahbar xodimlari qanday qadriyatlarni ko'proq ulug'lashi kerak?” degan savolga “Boshqalarga hurmat”, “Jamoahilligi haqida qayg'urish”, “Kasbiy mahoratini oshirish”, “Xalq manfaatiga yo'nalganlik”, “Adolatlilik”, “Xalqqa xizmat qilish” degan qadriyatlarni ustuvor qadriyatlar sifatida belgilashgan. Lekin bugungi kunda OAV va ijtimoiy tarmoqlarda FVV tizimidagi xodimlar faoliyati davomida “odamlarning is gazidan zaharlanishining oldini olish” bo'yicha yetarli targ'ibot-tashviqot olib bormayotganligi (2017–2022-yillarda mazkur holat bo'yicha interneta 92 ta xabar mavjudligi) ta'kidlanadi. Mazkur holatdan kelib chiqib, FVV tizimidagi barcha xodimlarda aholi bilan targ'ibot ishlarini olib borish grafigini tasdiqlash, har chorakda bir kun targ'ibot haftaligi sifatida aholi o'rtasida alohida tushuntirish ishlari olib borilishini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, FVV xodimlari uchun muhim bo'lgan bo'lgan qadriyatlar: inson qadrini ulug'lash, xodimlarni motivatsiyalash va ishontirish, tanlangan kasbiga sadoqat va tashkilot imijini saqlash³⁹, kasbiy faoliyatdan ma'naviy qoniqish⁴⁰, sog'lom karyeraga intilish kabilar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ma'lumki, favqulodda holatlarning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga FVV va uning hududiy boshqarma (bo'limlari), fuqaro muhofazasi uchun esa viloyat, tuman va shahar hokimlari javobgar hisoblanadi. Mazkur o'rinda FVV xodimlarining davlat organlari bilan hamkorlikda ishlash kompetensiyasini rivojlanganligi tashkilot va davlat nufuzini ko'tarishga xizmat qiladi. Hududiy favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining davlat organlari va idorlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ko'pgina videoselektor yig'ilishlarida qishga tayyorgarlikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hal etish, is gazi va chaqnashlar bilan bog'liq noxush holatlar haqida to'xtalib o'tdi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining Yong'inga qarshi kurashish boshqarmasi faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, tubdan isloh qilish, yong'inga qarshi profilaktika ishlarini kuchaytirish bo'yicha topshiriqlar belgilangan.

“FVV rahbar kadrlari va xodimlarida o'zini o'zi boshqarish kompetensiyasi (bilim, malaka, ko'nikma) yetarli shakllanganmi?” degan savolga respondentlarning 41% respondent “shakllangan” degan javobni bergan bo'lsa, 29% respondent “Yuqoridan buyruq kelishini kutib turadi” degan javobni berishgan, 11% respondent “shakllanmagan” deya javob berishgan bo'lsa, 10% respondent “Qotib qolgan” (o'z ustida ishlamaydi) degan javobni berishgan. Respondentlar javoblaridan shuni xulosa qilish mumkinki, FVV tizimidagi rahbar kadrlar uchun maxsus kompetensiyalar klasterini ishlab chiqish hamda mazkur kompetensiyalar klasterini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirib

³⁹ Минина Ирина Николаевна. Ценностно-мотивационные детерминанты профессиональной деятельности сотрудников ГПС МЧС России: автореферат дисс. ...канд. психол. наук: 05.26.02 / Минина Ирина Николаевна; [Место защиты: Всероссийский центр экстренной и радиационной медицины им. А.М.Никифорова МЧС России]. – Санкт-Петербург, 2013.

⁴⁰ Хасанова О.В. Сравнительный анализ жизненных ценностей сотрудников МЧС и государственных служащих // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 2 (февраль). – 0,4 п. л. – URL: <http://e-koncept.ru/2018/182002.htm>.

borish lozim (funksional kompetensiyalar, kognitiv kompetensiyalar, ijtimoiy kompetensiyalar). O‘zini o‘zi boshqarish kompetensiyasi bu o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. FVV rahbar kadrlari va xodimlari o‘zini o‘zi rivojlantrish uchun o‘zini fiziologik, psixologik va intellektual imkoniyatlarini tanqidiy baholashi hamda o‘zidagi kamchilik tomonlari ustida mustaqil ishlashi, hafta bir kunning o‘zini shaxsiy rivojlanish kuni sifatida belgilashi – qadriyat darajasiga chiqishi kerak.

“FVV rahbar kadrlari va xodimlariga qanday kompetensiyalar (bilim, malaka, ko‘nikma)ni birinchi navbatda rivojlantirish zarur?” degan savolga respondentlar asosan “boshqaruv mahorati, liderlik, tizimli fikrlash, normativ hujjatlar va huquqiy me‘yorlarni yaxshi bilish, o‘zgarishlarga moslanuvchanlik, stressga bardoshlilik, rahbar ma’suliyati, shaxsiy javobgarlik, aholi bilan muloqot qilish, tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni baholay olish” kabi kompetensiyalarni ko‘rsatib o‘tishgan. Bugungi kunda FVV tizimidagi malaka oshirish kurslari va o‘quv muassasalarida mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv soatlari yetarli emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “O‘zbekiston respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Farmonida “Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohalarida islohotlarning **aniq manzilliligini** ta’minlash, sohalarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning ustuvor yo‘nalishlari” belgilangan. Shuningdek, seysmik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat organlari rahbar kadrlari va xodimlarining **Aholining barcha qatlamlarini zilzilaga tayyorlashga mo‘ljallangan milliy elektron platforma** orqali malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari o‘tkazib borilishi belgilangan. Mazkur platformada FVV rahbar kadrlarini yuqorida ko‘rsatilgan kompetensiyalarini rivojlantirish uchun maxsus o‘quv kurslarini kiritish, istiqbolda mazkur sohani samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

“FVV rahbar kadrlari va xodimlari qanday shaxsiy sifatlariga ega bo‘lishi kerak?” degan savolga respondentlar “epchillik, tezkorlik, harakatchan, vijdonlili, vatanparvarlik, o‘z fikriga ega bo‘lish” kabi shaxsiy sifatlarini ko‘rsatib o‘tishgan. FVV rahbar kadrlari va xodimlariga mazkur sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun, ularni har yilli “Assessment markaz”larida kompleks baholab borish orqali ularda maxsus va umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga shaxsiy sifatlarini, shu jumladan samimiylik, muloqotda faollik, zamonaviylik, tashabbuskorlik kabi sifatlarini ham rivojlantirish lozim.

“FVV rahbar kadrlari va xodimlari qanday kasbiy malakaga ega bo‘lishi kerak?” degan savolga respondentlar: “boshqaruv professionalizmi, o‘zgaruvchan va qiyin sharoitlarga tez moslashish, optimal qarorlar qabul qilish, hushyorlik bilan holatni baholash kabi xislatlarni” kabi kasbiy malakalarni oshirish kerak degan javobni berish kerak. Mazkur jarayonda FVV tizimidagi rahbar kadrlar va xodimlar malakasini oshirish tizimida yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan kasbiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda rivojlangan mamlakatlarida FVV tizimidagi rahbar

kadrlar va xodimlar malakasini oshirish virtual laboratoriyalardan (<https://news.cnrs.fr/>, <https://www.labster.com/>, <https://www.mriglobal.org/>, <https://www.sfpe.org/>) samarali foydalanishadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqaro muhofazasi bo'yicha aholini o'qitishni tashkil etish uchun mahalliy davlat hokimiyati orgnalari va FVV o'zaro hamkorlikda maxsus "Yo'l xarita" ishlab chiqib, tizimli ravishda maxsus o'quvlar, videoroliklar bilan birga FVV tizimidagi rahbarlar faoliyatga aholi tomonidan berilayotgan baholarni ham hisobga olish muhim hisoblanadi. Shuningdek, FVV tizimida maxsus sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish orqali tizimdagi mavjud muammolarni o'rganish, bu borda fan-ta'lim-ishlab chiqarish vakillarini o'zaro hamkorligini ta'minlash lozim.

Kadrlarni tanlash, baholash, tayinlashda shaffoflik va jamoatchilik fikrini inobatga olish lozim.

Xorij Assesment baholash markazlarining tajribalari hamda amaliyotlariga tayanib maxsus baholash markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish, o'z-o'zini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, kunlik, haftalik, oylik, yillik faoliyat monitoringi va tahlilini maxsus dastur asosida nazorat qilib borish.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 92-maqsadida belgilanganidek, "favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish" bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borish, bu borda keng jamoatchilik fikri va mulohazalarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uchinchi renessans davriga zamin // <https://xabar.uz/post/uchinchi-renessans-davriga-zamin>
2. Минина Ирина Николаевна. Ценностно-мотивационные детерминанты профессиональной деятельности сотрудников ГПС МЧС России. Автореф. дис. психол. наук: 05.26.02 – Санкт-Петербург, 2013
3. Хасанова О.В. Сравнительный анализ жизненных ценностей сотрудников МЧС и государственных служащих // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 2 (февраль). – 0,4 – С. 1. – URL: <http://e-koncept.ru/2018/182002.htm>.

* * *

Yerejepova Shiyrin,

QDU Matematika fakulteti,
Xotin-qizlar kengashi yetakchisi

Jalgasova Zubayda,

QDU Matematika fakulteti,
3-kurs talabasi

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILADAGI ZO‘RAVONLIKKA QARSHI: HOLAT, MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda gender tenglik sohasini takomillashtirish jahon tajribasining chuqur tahlili asosida o‘rganilib, uni mahalliy sharoitlarimizga moslashtirgan holda samarali tatbiq etishning ahamiyati, shuningdek, amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Oila ijtimoiy institut sifatida. Insoniyat tarixida nikoh dasturlari. G‘arb oilalaridagi tadqiqotlarda gender uslubiyatining qo‘llanishi. Oila, qarindoshlik, nikoh va gender rollar tarixi.

Kalit so‘zlar: qonunlar, huquqlar kafolati, yordam tizimi. Oila, qarindoshchilik, nikoh, gender tenglik, psixologiya.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы улучшения гендерного равенства в Узбекистане на основе глубокого анализа мирового опыта, важность его эффективной реализации в соответствии с местными условиями, а также проделанных работ в данной сфере.

Семья как социальный институт. Брачные программы в истории человечества. Применение гендерной методологии в исследованиях в западных семьях. История семьи, родства, брака и гендерных ролей.

Ключевые слова: законы, гарантии прав, система содействия. Семья, родство, брак, гендерное равенство, психология.

Annotation. The article discusses the issues of improving gender equality in Uzbekistan on the basis of a deep analysis of world experience, the importance of its effective implementation in accordance with local conditions, as well as the works done in this area.

The family as a social institution. Marriage programs in human history. Application of gender methodology in research in Western families. History of family, kinship, marriage and gender roles.

Keywords: laws, guarantees of rights, assistance system. Family, kinship, marriage, gender equality, psychology.

Kirish. Qarindoshlik tashkiloti va unga xos bo‘lgan ekzogamiyaning paydo bo‘lishi bilan ibtidoiy tuzumda nikoh, ya‘ni jinslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi alohida muassasa vujudga keldi, **gender masalalari** ayni shu paytda yuzaga kela boshlagan. Ayni bir vaqtda, ba‘zi boshqa nuqtayi nazarlarga qaraganda, keyinroq er-xotin o‘rtasidagi, shuningdek ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi **gender tengligi** munosabatlarni tartibga solib turuvchi oila instituti barpo etildi. Etnografiya va

arxeologiya ma'lumotlari nikohning boshlang'ich shakllariga nisbatan ikki xil nuqtayi nazarni ajratishga imkon beradi. Birinchisi: dastlabki shakli guruhli nikoh bo'lgan, keyinchalik u yakka nikohning turli shakllari bilan o'rin almashgan.

Asosiy qism. Gender va oila mulk va davlatning kelib chiqishi nashrlarda qondosh oilani universal emas, deb faraz qilgan va punalua oilasining universalligiga qarshi keskin fikr bildirilgan. Tez orada ham qondosh, ham punalua oilasining mavjudligiga qarshi shubhasiz dalillar olindi. Xususiyl rekonstruksiyalar bir narsa, guruhli nikoh umumiy konsepsiyasi boshqa narsa. Olimlarning bir qismi, birinchidan, qarindoshlikning eng arxaik tizimlarini, ikkinchidan, saqlanib qolgan bir qator nikoh-oila tartiblarini tahlil qilish asosida ana shu konsepsiyaga amal qilib keladi. Guruhli nikohning birlamchiligini yoqlab chiqqan tadqiqotchilar u dislokal edi, ya'ni er-xotin bir joyda yashab qolmay vaqti-vaqti bilan biror joyda uchrashib o'z guruhlarida yashashni davom etgan, deb hisoblaydilar. Boshqa, juft nikohning birlamchi ekanligi tarafdori bo'lgan olimlar esa uni unilokal er-xotin birga yashashiga va oila hosil bo'lishiga olib keluvchi, deb qaraydilar. Tasvir etilayotgan davrda poliginiya, jumladan keyinchalik vafot etgan xotinning opasi-singlisi bilan yashashga o'tgan bir necha opa-singil bilan yashash sororat, keyinchalik aka yoki ukaning bevasiga uylanishga aylangan u(lar)ning xotini bilan yashash levirat shaklida amalga edi. Shu bilan bir qatorda yoki o'rniga poliandriya amalga bo'lar edi. Ko'p hollarda erkak kishi umri davomida bir necha xotinni, ayollar esa – bir necha erni almashtirardi.

Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tomonidan joriy yilning aprel oyida oilada zo'ravonlikning oldini olish va oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga amaliy ko'mak ko'rsatish yuzasidan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Raqamlarga e'tibor qaratsak, 2020-yilda 14 ming 774 nafar ayolga himoya orderi berilgan, 2021-yilning 39 ming 343 nafar ayolga bunday order berilgan bo'lsa, 2022-yilning 9 oyida esa 37 ming 959 nafar ayol himoya orderidan foydalandi va o'z huquqlarini himoya qildi. 2018-yildan boshlab bizning hayotimizga "shelter" tushunchasi kirib keldi. Bu atama avval boshida Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga nisbatan qo'llaniladi. Hozirda ular Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlari deb yuritilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori zo'ravonlikka uchragan ayollarga yordam tizimini yaratish, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish va uning mudhish oqibatlariga barham berishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Shu o'rinda statistikaga murojaat qilaylik. 2021-yilning 10 oyida "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaz"lariga 7226 nafar fuqaro murojaat qilgan. Murojaat etgan shaxslarning 6515 nafari ayollar, 272 nafari ularning farzandlaridir. Murojaatchilarning 2784 nafari markazlar tomonidan huquqiy, 3323 nafari psixologik, 75 nafari birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi, 165 nafari tibbiyot muassasalariga yuborildi, 861 nafari boshqa masalalarda ko'maklashildi va amaliy yordam ko'rsatildi, 172 nafari himoya orderini olib berishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Jamiyatning yaxlit iqtisodiy yacheykasi sifatidagi alohida oilaning birinchi shakli murakkab oila deb ataladigan katta **gender tengsizlik** hukm surgan oila bo'lgan. Uning

yana bir nomi patriarxal oila. Bunday oilada ikkita asosiy turni farqlashadi. Bu vertikal (yoki bir chiziqli) katta oila bo‘lib, odatda to‘g‘ri chiziqli bo‘yicha uylangan va uylanmagan qarindoshlarning uch-to‘rt avlodidan iborat, hamda gorizontal (yoki ko‘p chiziqli) katta oila, bu oila yon chiziqli uylangan va uylanmagan qarindoshlardan tashkil topadi. Katta oila monogamiyada ham, poligamiyada ham qurilgan; oilaning barcha a‘zolari birga yashashgan, yerga, chorvaga va ishlab chiqarishning boshqa vositalariga umumiy egalik qilishgan, birgalikda xo‘jalik yuritishgan va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni birgalikda iste‘mol qilishgan va kiyinishgan. Biroq katta oiladagi jamoachilik munosabatlari xususiy mulkchilik tamoyillari bilan buzila boshlagan. Oila boshlig‘i yagona tasarruf etuvchi bo‘lishga, amalda oilaviy mulkning egasi bo‘lishga, o‘z hukmronligini kuchaytirishga harakat qilgan. Bu esa katta oilaning alohida mustaqil oilada yashashga intilayotgan boshqa a‘zolarida qarshilikni keltirib chiqargan. Tez orada ajralish va bo‘linishlar yuz bergan, katta oilalar boshqa oilalarga bo‘linishgan, lekin hozircha o‘shanday katta, ammo oila a‘zolarining soni bo‘yicha kichikroq oilalarga bo‘linishgan. Biroq bunday oilalarda ham ichki ziddiyatlar avj olgan, va ular yana va yana bo‘linib ketgan.

Oilaviy turmushda erkaklar va ayollarning, kattalar va kichiklarning **gender tengsizligi** aks etgan patriarxal tartiblar o‘rnatildi. Qiz bola o‘zining katta yoshdagi qarindoshlariga so‘zsiz bo‘ysinishi kerak bo‘lgan. Erga tekkan ayol o‘zini sotib olgan oilaga: “kattasiga”, “eng kattasiga”, o‘z eriga so‘zsiz itoat etishi kerak bo‘lgan. Ajralish amalda erkaklarning bir tomonlama imtiyozi bo‘lgan, agar ayol o‘z ota-onasining uyiga qaytib ketishni istasa, uning qarindoshlari qalin pulini qaytarib berishlari kerak bo‘lgan; buning ustiga ayol kishiga boshqatdan erga tegishning hamma vaqt ham imkoni bo‘lmagan. Levirat odati shunday tartibni ta‘minlaganki, unga ko‘ra, erining vafotidan keyin ham beva ayol uning oilasiga tegishli bo‘lishni davom ettirgan.

Yevropalik psixolog Mertonning fikricha, oilalar jamiyatning biron-bir tarzda qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezmaydilar va ularni kelishuvchilik yo‘li bilan ish tutishga majbur qilishga qaratilgan salbiy jazo choralari ahamiyat ham bermaydilar. Deviatziyaning turlaridan birida “qarshilik ko‘rsatish” – ijtimoiy jihatdan ma‘qullanadigan maqsadlar ham, ularga erishish vositalari ham rad etiladi, bunday turdagi odamlar jamiyatga yangi maqsadlar va ularga erishish vositalarini olib kirishni va vujudga kelgan me‘yorlarni o‘zgartirishni istaydilar. Erkaklar ham, ayollar ham (masalan, 60-yillardagi “qarshimadaniyat” harakati tarafdorlari) moddiy qadriyatlarni rad etgan holda, ularni ma‘naviy va aqliy rivojlanish bilan almashtiradilar. Funksionalizmni, jumladan, T. Parsons va R. Beyls qarashlarini eng faol tanqid qilish Amerikada feminizmning ikkinchi to‘lqini vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. 1963-yilda B. Fridanning “Latofatlilik siri”, kitobi nashr etildi, muallif unda funksionalizmni ham, klassik psixotahlilni ham tanqid qiladi. Ommaviy jurnallarda, kinofilmlarda, teleeshittirishlarda ko‘rsatilgan “haqiqiy” ayol stereotipini 300 nafar ishlaydigan tipik ayollarni so‘rov qilish natijalari bilan solishtirar ekan, u baxtiyor uy bekasi obrazi – bu ayollarga tiqishtiriladigan uydirmadir, degan xulosaga keladi. Aslini olganda, deb isbotlaydi u, o‘rta sinf orasidagi ayollarning moddiy farovonligi, shuningdek ularning oliy ma‘lumotlilik ularga bekami-ko‘st emasliklarini, salohiyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganini, hayotdan

qoniqmayotganliklarini anglashning o'rnini to'ldira olmaydi. Shu sababli ular orasida ko'pincha ruhiy xastaliklar, alkogolizm, o'z joniga o'z qasd qilish, bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish hollari uchraydi. Xuddi shu davrda "asoschi otalar"ning ishlariga tanqidiy qaraydigan sotsiolog ayollarning akademik ishlari paydo bo'ldi. To'g'ri, oilaning har qanday klassik tadqiqotida ayollar hamisha obyekt sifatida tasvirlanganlar va buning ustiga "ayollar oilaga tenglashtirilgan va oila tomonidan konseptual belgilangan". Lekin ayollarning o'zlari tadqiqotchilar roliga chiqqanlarida, ular ilgari fanda ma'lum bo'lmagan ko'plab kashfiyotlarni qilishdi.

Xulosa o'rnida. Oila – bu bolalar ijtimoiylashadigan asosiy manba ekan, bu o'rinda, uning fikricha, birinchi marta o'g'il va qiz bolalar patriarxat hokimiyat va jinslar bo'yicha mehnat taqsimotiga o'rgatiladi. Keyin bu stereotiplar tengdoshlar o'rtasida, maktablarda, OAV orqali, kelgusi hayotda mustahkamlanib boradi. Ana shu yo'nalish vakillari liberal feminist ayollar singari uy ishlarini qoniqish keltirmaydigan va tanazzulga ko'maklashadigan mehnat deb hisoblashgan. Albatta, ichki oilaviy o'zaro munosabatlar ma'lumotlilik darajasiga, ijtimoiy kelib chiqishiga bog'liq. Ko'rsatib o'tilgan parametrlar qanchalik yuqori bo'lsa, ichki oilaviy munosabatlarni demokratlashtirish foydasiga jihatlar shunchalik ko'p bo'ladi.

Tarbiyaning **gender** tamoyillari oiladagi o'zaro munosabatlarning patriarxal tamoyillari avloddan avlodga o'tib doimiy ravishda yangilanib borishining muhim sababidir. Bola jinsiga qarab tarbiyalanib boradi. O'g'il va qiz bolalar tarbiyasi shunisi bilan farq qiladiki, bolalarga har xil rollar, qadriyatlar, axloqlar singdirilib boriladi. Qizlarni bo'lajak ona bo'lish, erini va uning oilasini hurmat qilish, bolalariga va oilasiga hayotini bag'ishlash rollariga tayyorlaydilar. Qizlarning xulqi o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq darajada cheklab qo'yiladi. Ayollarning xulq-atvori to'g'risidagi bilimlarni qizlar odatda onalaridan oladilar. Oilaning har qanday a'zosi mavjud qoidalarni o'zgartirishga harakat qilsa, bu narsa tushunmovchiliklarga va noxushliklarga, eng yomoni oilaning boshqa a'zolari tomonidan nizolarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni. 2-sentabr 2019-yil. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8-dekabr 1992-yil // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son Qonuni 2-sentabr 2019-yil // O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni. 2-sentabr 2019-yil // www.lex.uz.
4. Алексеев В.П., Першиц А.И. Указ.соч. 1990.
5. Лобачева. Сверстники и семья / К вопросу о древней полувозрастной градации общества и народов Средней Азии и Казахстана. – №5, 1989.

* * *

Jurayeva Shaxnoza Saadmuratovna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi*

OILADAGI ZO‘RAVONLIK – OILAVIY NIZOLARNING SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya. Oiladagi zo‘ravonlik, hatto u zo‘ravonlik obyekti bo‘lmasa ham, bolaga bir nechta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tajovuzkorning harakatlari faqat bir kishiga, odatda, ayolga (onaga) qarshi qaratilgan bo‘lishi mumkin. Ota-onalarning zo‘ravonligiga guvoh bo‘lgan bolalarda tashvish, ruhiy tushkunlik, yomon maktab o‘rni, o‘z-o‘zini hurmat qilish, qo‘rquv va dahshatli tushlar, ovqatlanish buzilishi kabi hissiy va xulq-atvor muammolarini rivojlanish xavfi yuqori. Maqolada oilaviy zo‘ravonlik qurboniga aylangan shaxslarning psixosotsial holatlari haqida so‘z boradi, shuningdek, zo‘ravonlikka uchragan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, uy zo‘ravonligining bosqichlari, zo‘ravonlik qurbonlari, zo‘ravonlikning sabablari, ruhiy holat, psixik jarohatlar, zo‘ravonlikka qarshi chora-tadbirlar.

Аннотация. Насилие в семье оказывает множественное негативное воздействие на ребенка, даже в том случае, когда он не является объектом насилия. Действия агрессора могут быть направлены только против одного человека, как правило женщины (матери). Дети, которые являются свидетелями насилия в родительских взаимоотношениях, подвержены высокому риску приобретения таких эмоциональных и поведенческих проблем как тревожность, депрессия, плохая успеваемость в школе, низкая самооценка, страхи и ночные кошмары, нарушения в пищевом поведении. В статье рассматривается психоэмоциональное состояние жертв семейного насилия, а также подчеркивается важность оказания психологической поддержки жертвам насилия.

Ключевые слова: домашнее насилие, фазы домашнего насилия, жертва насилия, причины насилия, психическое состояние, травма психики, меры против насилия.

Annotation. Domestic violence has a multiple negative impact on the child, even when he is not the object of violence. The actions of the aggressor can only be directed against one person, usually a woman (mother). Children who witness parental abuse are at high risk of acquiring emotional and behavioral problems such as anxiety, depression, poor school performance, low self-esteem, fears and nightmares, and eating disorders. The article discusses the psycho-emotional state of victims of domestic violence, and also emphasizes the importance of providing psychological support to victims of violence.

Key words: domestic violence, phases of domestic violence, victim of violence, causes of violence, mental state, mental trauma, measures against violence.

Zamonaviy oila ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning turli shakllariga kiritilgan va shuning uchun mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oilaviy munosabatlar holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ish qidirish, ishdagi ortiqcha yuklanmalar va ota-onalarning bo‘sh vaqtining qisqarishi ularning jismoniy va ruhiy

holatining yomonlashishiga, asabiylashish, charchoq va stressning kuchayishiga olib keladi. Bularning barchasi er va xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar muammolarini kuchaytiradi, nikoh va sevgi muammolarini keltirib chiqaradi.

Oiladagi zo'ravonlik jamiyatdagi eng keskin va keng tarqalgan ijtimoiy muammolardan biridir. Oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lgan shaxs o'zini past baholaydi va to'liq shaxsiy va ijtimoiy hayot kechira olmaydi. Amaliyot va ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda oiladagi zo'ravonlik qurboni ayollardir. Ma'yus va xo'rlangan ona jamiyatning kuchli, erkin va faol a'zolarini tarbiyalay olishi dargumon. Zo'ravonlik mavjud bo'lgan oilalarda ota-onadan bolalarning psixologiyasida zo'ravonlikni mustahkamlashga va uni keyingi avlodga yetkazishga yordam beradigan barqaror xulq-atvor namunalari o'tkaziladi. Shu tariqa, bu hodisa mamlakat kelajagiga eng xavfli ta'sirlardan birini yuzaga keltirgani bois, mazkur muammoni o'rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zo'ravonlik tabiatan qo'rquinchli va shuning uchun uydagi zo'ravonlik qurbonlari, hatto u to'xtaganidan keyin ham depressiya va qo'rquv hissiyotlarini boshdan kechirishlari ajablanarli emas. Zo'ravonlik harakat sifatida haqiqiy jismoniy xavf tug'diradi, inson hayoti uchun tabiiy qo'rquvni keltirib chiqaradi. N.Ajgixina oiladagi zo'ravonlikni o'z yaqinlariga nisbatan kuchayishi va ustidan nazoratni qo'lga kiritish maqsadida tez-tez takrorlanadigan jismoniy, jinsiy, og'zaki, hissiy va iqtisodiy zo'ravonlik sikli deb ta'riflagan. Oiladagi zo'ravonlik insonning jamiyatdagi mavqeyidan qat'i nazar, barcha ijtimoiy guruhlarda mavjud⁴¹.

BMT tizimi tashkilotlarining Gender mavzulari guruhi tashabbusi bilan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ayollarning 90,7 foizi oiladagi zo'ravonlik muammosini o'tkir muammo deb bilishi qayd etilgan⁴².

Oilaviy zo'ravonlik muammolarini E.G.Eydemiller, V.Yustikislarning ishlarida tadqiq etilgan bo'lib, ular ta'kidlashicha, munosabatlar buzilgan oilalar o'zlarining oilaviy hayotida yuzaga keladigan qarama-qarshilik va nizolarni mustaqil ravishda hal qila olmaydilar. Uzoq davom etgan nizolar natijasida oila a'zolarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi susayadi, birgalikda ishlash qobiliyati yo'qoladi. Oiladagi psixologik keskinlik darajasi ortib borishga intiladi, bu uning a'zolarining emotsional buzilishlariga, nevrotik reaksiyalariga, bolalarda doimiy tashvish hissi paydo bo'lishiga olib keladi⁴³. Oilaviy zo'ravonlik qurbonlari uyqusizlik, surunkali charchoq, zo'ravonlik epizodlarining to'satdan takrorlanishi, xotira va diqqatning buzilishi, tashvish, vahima hujumlari va maishiy fobiyalardan aziyat chekadi, hissiy zaiflik, ruhiy tushkunlik, uyat, qo'rquv va aybdorlik tuyg'ulariga moyilligi ortadi. Jabrlanuvchilarda kamsitish, tashvish, o'zini hurmat qilishni yo'qotish va umidsizlik hissi mavjudligi kuzatiladi.

Oilaviy zo'ravonlik qurboniga aylangan bolalar va onalar bilan suhbatlar natijalariga ko'ra, onasiga nisbatan zo'ravonlik guvohi bo'lgan bolalarda ruhiy jarohatlar ko'rinishlari

⁴¹ Ажгихина Н. Кто защищает женщин. – Москва, 1996.

⁴² Выживание (факторы и механизмы): Учеб. пособие / С.К. Бондырева, Д.В. Колесов. – Москва: Изд-во Московского психолого-социального института; – Воронеж: изд-во НПО «МОДЭК», 2005. – 368 с.

⁴³ Примирение с насилием. Неприятие мер по борьбе с семейным насилием и похищением невест. HUMAN RIGHTS WATCH, 2006.

kuzatilayotganini aytish mumkin. Ba’zi zo‘ravonlik qurbonlari (ayollar) bolalar bosh og‘rig‘i va uyqusizlikdan shikoyat qilishlarini, depressiya va xavotirdan aziyat chekishlarini ta’kidladilar. Ular onalari haqida qayg‘uradilar va otalaridan qo‘rqishadi. Ayrim ayollarning aytishicha, bolalari qichqiradi yoki zo‘ravonlikni to‘xtatishga harakat qiladi. Jiddiy sog‘liq muammolari oiladagi zo‘ravonlikdan kelib chiqadi. Aksariyat ayollarda miya chayqalishi natijasida yuzaga keladigan jarohatlar sezilarli daraja. Ba’zi hollarda zo‘ravonlik hatto o‘limga olib keladi.

Oilani saqlab qolish va ajralish o‘rtasidagi tanlovga kelsak, har bir holatda alohida yondashuv zarur. Ba’zida haqiqatan ham ular uchun, ayniqsa, bolalar uchun, bu zo‘ravonlik bilan ularni shikastlamalik uchun va o‘g‘illari keyin ham shunday qilmaslik uchun ajrashgan ma’quldek tuyuladi⁴⁴.

Oiladagi munosabatlarga ta’sir qiluvchi gender rollari muammosi ko‘plab olimlar tomonidan ko‘rib chiqildi. S.K.Bondiryova, D.V.Kolesovlarning ta’kidlashicha, erkak va ayol jinslari o‘rtasidagi psixologik farqlarni inkor etib bo‘lmaydi va ijtimoiy rivojlanish jarayonida faqat bu farqlarning namoyon bo‘lish darajasi va xarakteri o‘zgarishi mumkin. Shuningdek, ular har doim erkak va ayolning o‘zaro to‘ldirilishining asosi bo‘lganligi muhimdir.

Umuman olganda, turli tashkilot va tuzilmalarning sa’y-harakatlariga qaramay, oilaviy zo‘ravonlik hali ham rasmiy tuzilmalar vakillarining ko‘pchiligi va tinch aholi tomonidan shaxsiy muammo sifatida qaralmoqda; ko‘plab mamlakat aholisi oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha qonunchilik bazasi haqida juda kam ma’lumotga ega; oila institutining buzilishiga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va aholining ta’lim darajasi pastligining ta’siri yuqori. Shuning uchun oila qo‘llab-quvvatlash va himoyaga muhtoj.

Yuqorida fikrlardan biz oilaning hayoti ma’lum bir jamiyatning holatini aks ettirishi mumkin degan xulosaga keldik. Har bir oila jamiyatdan davlat darajasida yordamga ehtiyoj sezadi. Islohotlar natijasida oilaga, ayniqsa, zo‘ravonlikka uchragan ayollar va bolalarga maxsus tashkilot va markazlar tomonidan, konfidensiallik tamoyiliga amal qilingani holda muammolarini ochiq murojaat qilish imkoni yaratildi.

Oiladagi zo‘ravonlik shaxsning agressiv xatti-harakati orqali kimnidir ustidan hukmronlik qilish istagi, bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishi bilan tavsiflanadi.

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, zo‘ravonlik qurbonlari ko‘pincha ayollar va bolalar bo‘lib, u jismoniy, psixologik, jinsiy, iqtisodiy, psixologik ustunlik bilan bo‘lishi mumkin. Har qanday zo‘ravonlik ko‘rinishida zo‘ravonlik qurbonlari hali ham psixologik ta’sirga duchor bo‘ladilar, bu esa jamoatchilikdan yordam so‘rashga turtki bo‘ladi.

Oiladagi zo‘ravonlikning oqibatlari zo‘ravonlik qurbonlarida fiziologik va psixologik kasalliklar yuzaga kelganda ayanchli sharoitlarga olib kelishi mumkin. Yetkazilgan zarar natijasida oilalar buziladi, bolaning shaxsini shakllantirishda nomuvofiq sharoitlar yaratiladi.

Ushbu muammoni o‘rganish jarayonida biz oiladagi zo‘ravonlikning sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkinligini aniqladik: ayniqsa, turmush darajasining pasayishiga

⁴⁴ Эйдемиллер Е.Г., Юстицкий В. Психология и психотерапия семьи. – Санкт-Петербург: Изд-во «Питер», 1999. – 656 с.

olib keladigan ishsizlik; insonning individual xulq-atvoriga, ayrim etnik guruhlarining gender rollariga ta'sir qiluvchi past darajadagi ta'lim.

Jamiyat imkon qadar oiladagi zo'ravonlik muammosiga e'tibor qaratadi, tajovuzkor vaziyatlarda ishtirokchilarga yordam berish uchun turli xil choralarni qo'llaydi. Oiladagi zo'ravonlikka qarshi profilaktika va tuzatish ishlarida huquqshunos, shifokor, psixolog, o'qituvchi, ijtimoiy xizmatchi, sotsiolog, menejer va boshqalar kabi eng zarur kasb egalari ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ажгихина Н. Кто защищает женщин. – Москва, 1996.
2. Выживание (факторы и механизмы): Учеб. пособие / С.К.Бондырева, Д.В.Колесов. – Москва: Изд-во Московского психолого-социального института; – Воронеж: изд-во НПО «МОДЭК», 2005. – 368 с.
3. Примирение с насилием. Непринятие мер по борьбе с семейным насилием и похищением невест. HUMAN RIGHTS WATCH, 2006.
4. Эйдемиллер Е.Г., Юстискис В. Психология и психотерапия семьи. – Санкт-Петербург: Изд-во «Питер», 1999. – 656 с.

* * *

Raxmanov Rasul Narzullayevich,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Jazoni ijro etish faoliyati

kafedrası o'qituvchisi, podpolkovnik

NOTINCH OILA TUSHUNCHASI VA UNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila tushunchasi va uning ijtimoiy xavfi, oilada nosog'lom muhitni keltirib chiqaruvchi omillar, ularning sabab va sharoitlari hamda oila turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila, g'ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbuzar, jabrlanuvchi shaxs, kriminogen vaziyat.

Аннотация. В статье даны понятия семьи, находящийся в социально опасном положении и её социальная опасность, предложения и рекомендации по предупреждению правонарушений, совершаемых в семейно-бытовой сфере, а также их причины и условия, факторы, порождающие нездоровый климат в семье.

Ключевые слова: семья, находящийся в социально опасном положение, антисоциальное поведение, правонарушитель, потерпевший, криминогенная ситуация.

Annotation. The article gives the concept of family in a socially dangerous position and its social danger, offers and recommendations for the prevention of offenses committed in the

family and domestic sphere as well as their causes and conditions, factors causing an unhealthy family climate.

Keywords: *family in a socially dangerous situation, antisocial behavior, offender, victim, crime situation.*

Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, xususan shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni va qadr-qimmatini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida ahamiyat berilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “insoniyat oilasining hamma a‘zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi”⁴⁵ e‘tirof etiladi. Ko‘pgina davlatlarda so‘nggi yillarda oila-turmush munosabatlari doirasida ayollar, bolalar va keksalarga nisbatan jabr-zulm va zo‘ravonlik qilish hollari ko‘plab uchramoqda. Xususan, har yili ayollarning 38 foizi, 1,5 milliardgacha bolalar oilada turli ko‘rinishdagi zo‘ravonlik va shafqatsiz muomalaga, Yevropada esa har besh nafar boladan biri jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi⁴⁶. Hozirgi kunda jahonda oila- turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning ta‘sirchan tizimini yaratish, undan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy, huquqiy jihatdan yordam ko‘rsatish hamda bu borada samarali viktimologik ahamiyatga ega bo‘lgan profilaktika ishlarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, xususan aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonining **69-maqsadida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:**

- jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;
- gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;
- xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish;
- hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;
- turarjoyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

⁴⁵ Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь) / Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси // <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.

⁴⁶ <http://www.maailmakool.ee/wp-content/uploads>.

– og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash;

– “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Tabiiyki, shaxsning shakllanishida oiladagi ijtimoiy muhitning ta'siri katta bo'lib, uning huquqbuzar sifatida shakllanishi yoki komil inson bo'lib kamolga yetishishida oilaning o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, “...hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin”⁴⁷.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, uni turli tahdid va tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, xususan, oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida respublika “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha milliy markazi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ular huzuridagi “yarashtirish komissiyasi”, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi kabi maxsus institutlarning faoliyati yo'lga qo'yildi. Biroq, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, qasddan odam o'ldirishning 29,6 foizi, qasddan badanga turli darajada shikast yetkazishning 23,5 foizi, haqorat qilishning 15,0 foizi, bezorilikning 6,1 foizi aynan oila turmush munosabatlari doirasida sodir etilmoqda⁴⁸.

Mazkur jinoyatlarning sabablari va sodir etilishga imkon bergan shart-sharoitlar o'rganilganida, oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit turli nizo va janjallarning kelib chiqishiga hamda buning oqibatida shaxsning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelgan⁴⁹. Zo'ravonlik shaxsning ruhiyatiga turli usullar bilan ta'sir ko'rsatish, ruhiy zo'riqlashni keltirib chiqarib shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va erkinligini cheklashga qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etishdir⁵⁰.

Ta'kidlash kerakki, oila turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, ushbu turdagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish hamda tahlil qilish kelgusida ularning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik borasida tizimli kompleks profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Zero, “jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish borasida amalga

⁴⁷ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т. 4. –Тошкент, 1996. – Б. 147.

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси ИИВ ЖХД Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизматининг 2021 йил якунларига оид маълумотномаси.

⁴⁹ Муродов А.Ш. Ички ишлар органларининг оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш // Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 38.

⁵⁰ Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: автореф. ...дисс. кан. юрид. наук. – Москва, 2004. – С. 8.

oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi”⁵¹.

Notinch oila – kundalik hayot (turmush)da oila a‘zolari (er bilan xotini, qaynona (qaynopa, qaynsingil) va kelin, aka-ukalar, opa-singillar) o‘rtasida fikrlari bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi, kelishmovchiligi va urishi oqibatida vujudga keladigan nizoli vaziyat tushuniladi.

Oilaning shaxs ma‘naviy shakllanishidagi ahamiyati yuqori bo‘lib, inson shaxsining poydevori oilada quriladi. U o‘zini o‘rab olgan dunyo haqidagi dastlabki bilim va tasavvurni, axloq normalarini, tarbiyaviy saboqni aynan oilada oladi. Oilada ma‘naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri oiladagi tarbiya hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”⁵².

Shuni unutmaslik kerakki, har bir oilaning boshqa oilalardan farqi bo‘lib, uning o‘z tarbiya muhiti bo‘ladi⁵³. Oiladagi tarbiyada, eng avvalo, ota-ona tarbiyasi, so‘ngra bolalar tarbiyasi muhim o‘rin tutadi⁵⁴. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oilada tarbiya masalasida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar tuzatib bo‘lmas oqibatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Oiladagi nosog‘lom ijtimoiy muhit nafaqat oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning, balki barcha oila a‘zolarining axloqqa zid xatti-harakatlar sodir etishiga va ular o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, oilada turli nizolar hamda kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida tahlil qilingan sabab va sharoitlarning asosiy qismini oiladagi salbiy munosabatlar va nosog‘lom ijtimoiy muhit tashkil etadi. Zero, oiladagi salbiy munosabatlarni kriminologik nuqtayi nazardan tuzatish profilaktik choralar tizimidan iborat bo‘lib, ular oilaga ta‘sir ko‘rsatish yo‘li bilan nafaqat oiladagi jinoyatlarning, balki boshqa barcha jinoiy qilmishlarning ham oldini olishga qaratiladi⁵⁵.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oila-turmush doirasida sodir etilayotgan nizolarning kelib chiqishiga milliy urf-odat va qadriyatlarining e‘tirof etilmasligi, oiladagi nosog‘lom muhit, ichkilikbozlik, oila a‘zolarining salbiy xulq-atvori kabi salbiy omillar o‘zining

⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5005-сонли Фармони.

⁵² Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, 1992. – Б. 14.

⁵³ Икматуллаев Ғ.З. Оила – ватанпарварликни шакллантиришда асосий педагогик субъект сифатида // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ҳарбий-техник институти ахборотномаси. – Тошкент, 2018. №1. – Б. 78.

⁵⁴ Эсанова З. Оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари: Ўзбекистонда оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг концептуал масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДЮУ, 2016. –Б. 8.

⁵⁵ Лутфуллаев Ш. Оиладаги жиноятлар ва вояга етмаганлар жиноятчилигини олдини олиш ва профилактика қилиш асаслари // Ўзбекистонда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимидаги ислохотлар: натижа ва истиқболлар:Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2015. – Б. 98.

ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun, eng avvalo, oilada sog'lom muhit yaratish lozim⁵⁶.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: ota-ona, jamiyat e'tiboridan chetdan qolgan bola oilaga quvonch va foyda o'rniga faqat tashvish keltiradi. Shu bois, bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo'lib qolishi shart"⁵⁷. Buning uchun, eng avvalo, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlarni milliy urf-odat va an'analarimiz ruhida tarbiyalash, bu borada otalarning mas'uliyatini oshirish, oila muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish lozim. Chunki, oiladagi nosog'lom vaziyat, urush-janjal, oila a'zolari o'rtasidagi g'ayriijtimoiy munosabatlar shaxs ma'naviyati salbiy shakllanishining asosiy manbai hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, oila turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish borasida quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, ma'muriy hududlarda yashovchi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab, ularga ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatish, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega ishlarni tashkil etish;

ikkinchidan, oila-turmush doirasida zo'ravonlikka duchor bo'layotgan shaxslar o'rtasida maqsadi yashiringan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda ushbu qilmishlarning latentligini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

uchinchidan, oiladagi nizolar tufayli zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyatini samarali tashkil etish;

to'rtinchidan, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar sabab va sharoitlari, ijtimoiy xavfi, salbiy oqibatlari, oilalarning ajralishiga olib kelayotgan omillar hamda ularning barvaqt profilaktikasiga oid videorolik, videofilm, reklama va boshqa badiiy asarlar tayyorlash hamda ularni OAVda muntazam namoyish qilish amaliyotini joriy etish;

beshinchidan, oilada milliy qadriyat va urf-odatlarga zid, axloq-odob doirasidagi nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli tarbiyaviy ta'sir choralari ko'rish maqsadida boy hayotiy tajribaga ega shaxslarni jalb qilish;

oltinchidan, oiladagi zo'rlikdan jabrlanganlarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyatini samarali tashkil etish ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oila turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab

⁵⁶ Ахмедханова С.Т. Криминологическая характеристика преступлений, совершаемых женщинами в семье, и проблемы их профилактики (региональное исследование). Автореф. дисс. кан. юрид. наук. – Москва, 2013. – С. 14.

⁵⁷ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент, 2017. – Б. 135.

chiqish va amalga oshirish, eng avvalo, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish, tahlil qilish, uning salbiy oqibatlaridan shaxslarni himoya qilish hamda oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь) / Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси // <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
2. <http://www.maailmakool.ee/wp-content/uploads>.
3. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т. 4. –Тошкент, 1996. –Б. 147.
4. Ўзбекистон Республикаси ИИВ ЖХД Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизматининг 2021 йил якунларига оид маълумотномаси.
5. Муродов А.Ш. Ички ишлар органларининг оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш // Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 38.
6. Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: **афтореф.** ...дисс. кан. юрид. наук. – Москва, 2004. – С. 8.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5005-сонли **Фармони**.
8. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, 1992. –Б. 14.
9. Икматуллаев Ғ.З. Оила – ватанпарварликни шакллантиришда асосий педагогик субъект сифатида // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ҳарбий-техник институти ахборотномаси. –Тошкент, 2018. №1. –Б. 78.
10. Эсанова З. Оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари: Ўзбекистонда оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг концептуал масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДЮУ, 2016. –Б. 8.
11. Лутфуллаев Ш. Оиладаги жиноятлар ва вояга етмаганлар жиноятчилигини олдини олиш ва профилактика қилиш асалалари // Ўзбекистонда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимидаги ислохотлар: натижа ва истиқболлар:Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 98.
12. Ахмедханова С.Т. Криминологическая характеристика преступлений, совершаемых женщинами в семье, и проблемы их профилактики (региональное исследование). Автореф. дисс. кан. юрид. наук. – Москва, 2013. – С. 14.
13. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент, 2017. – Б. 135.

* * *

Eshqobilova Sevara Yusupovna,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*

**SHAMOL SINDIRGAN GULLAR...
YANGI O'ZBEKISTON OILADAGI ZO'RAVONLIKKA QARSHI:
MUAMMO, SABAB, TAHLIL VA YECHIMLAR!**

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali mamlakatimizdagi xotin-qizlarning tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan vazifalar, qolaversa, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar xususida muhim ma'lumotlar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: oila, ayollar, gender tenglik, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, qonun, qaror, farmon, mo'jaz maskan.

Аннотация. Посредством данной статьи поставлены задачи, направленные на обеспечение реализации правовых и нормативных документов, принятых в целях защиты женщин от домогательств и насилия в нашей стране и их всяческой поддержки, а кроме того, предусмотрена важная информация о проводимой работе в нашей стране в связи с этим.

Ключевые слова: семья, женщины, гендерное равенство, Новый Узбекистан, Третий Ренессанс, закон, решение, указ, чудотворное место.

Annotation. Through this article, the tasks aimed at ensuring the implementation of the legal and normative documents adopted in order to protect women from harassment and violence in our country and to support them in every way, and in addition, important information about the work being carried out in our country in this regard is provided.

Key words: family, women, gender equality, New Uzbekistan, Third Renaissance, law, decision, decree, miraculous place.

Mamlakatimizda azaldan oilaga jamiyatimizning ajralmas bir bo'g'ini sifatida qaralgan. Uning mustahkamligi, oila a'zolari huquqlarining ta'minlanishi borasida barcha birdek jon kuydirgan. So'zimiz isboti o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlagan ushbu jumalarni keltirsak o'rinli bo'ladi. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"⁵⁸.

Darvoqe, shu o'rinda, Fitratning "Oila" asaridagi "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq

⁵⁸ Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.



va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”⁵⁹, – degan fikrlarni qayd etish lozimdir. Oila ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lsa, uning farovonligi, tinchligi, xotirjamligi ham mustahkam bo‘ladi.

Afsuski, bugun hayotimizda “oilaviy zo‘ravonlik” kabi yoqimsiz holatlar ham uchrab turibdi.

Oilaviy zo‘ravonlik – o‘z ko‘lamiga ko‘ra global muammo. U turmush darajasi va demokratizatsiya formatidan qat’i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatiladi. Ayollardan nafratlanuvchi

erkaklarni nafaqat qashshoq yoki badavlat, oliy ma’lumotli yoki ma’lumoti yo‘q, yevropalik yo osiyolik deb ajratib bo‘lmaydi. Bundaylarning alohida bir millati yo e’tiqodi bo‘lmaydi.

O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Bizning mamlakatimizda maishiy yoki “uy zo‘ravonligi”ga ko‘pincha bir oila muammosi sifatida qaralgan. Odamlar bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo‘ravonlik qurboni sharmandlik va turli gap-so‘zlardan qo‘rqib, (mahalla-ko‘y nima deydi qabilida) jim yurishga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo‘ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo‘rqsa, boshqalari farzandlari va o‘z hayoti uchun xavfsiraydi. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Ayniqsa, hatto eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o‘zini olib qochganda. Oxir-oqibat bu doimiy qo‘rquv, depressiya, o‘z joniga qasd qilish kabilar bilan tugaydi.

Oila ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lsa, uning farovonligi, tinchligi, xotirjamligi ham mustahkam bo‘ladi.

Demak, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi oilalarning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog‘liq jarayonligi namoyon bo‘lmoqda. Oilaviy munosabatning qonuniy himoyalaniishi mamlakatimiz Konstitutsiyasida, Oila kodeksida ham o‘z ifodasini topgan. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan farovon oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan, ruhan sog‘lom bo‘lgan farzandlarning dunyoga kelishiga qulay shart-sharoitlarni yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan davrda oila institutini mustahkamlash, uning tinchligini, xotirjamligini hamda gender tenglikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan izchil va samarali ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbarining “Ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish islohotlar samaradorligi hamda iqtisodiy o‘rishini ta’minlashi – amaliyotda o‘z isbotini topgan haqiqat. Jinslar tengligiga erishish mohiyatan insonga shaxs sifatida namoyon bo‘lishga halal beruvchi barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va bartaraf etishdan iborat”⁶⁰, – degan so‘zlari ham tizimli

⁵⁹ A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 112.

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 278.

vazifalarni yanada takomillashtirgan holda o'z vaqtida bajarish zarur ekanligidan dalolat beradi. Vaholanki, ushbu sohada hamda yo'nalishda, shu vaqtga qadar, juda katta hamda olamshumul ishlar amalga oshirilganini ham e'tirof etish lozimdir.

Xususan, Prezidentimizning "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni⁶¹ hamda "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarorida⁶² ham Yangi O'zbekistonda oila institutini rivojlanishida qadriyatlardan foydalanishga alohida e'tibor berilgan. Mamlakatimiz miqyosida bo'lib o'tayotgan **"Zo'ravonlikka qarshi birgalikda kurashamiz!"** shiori ostidagi **"Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar"** kampaniyasi ham aynan mana shu yo'nalishdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

ZO'RAVONLIKNING RIVOJLANISHIGA SABAB BO'LGAN SABABLAR VA OMILLAR

Bugungi kunda zo'ravonlik harakatlari uchun hech qanday asosiy shartlar mavjud emas, biroq insonga ta'sir qiluvchi va unga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muayyan psixologik va ijtimoiy omillar mavjud.

Bunga quyidagilar kiradi:

- ta'limning o'ziga xos xususiyatlari (agar ota-onalar sadist bo'lsa, u holda bolaning tajovuzkor xatti-harakatlari ko'payishi mumkin);
- insonning muhiti (aloqa doirasi shaxsiyatning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi);
- alkogolizm va giyohvandlik;
- ruhiy kasalliklarga bo'lgan genetik nosozlik.
- yetakchilik mavqeyini egallashga tug'ma, tug'ma istak, noto'g'ri, yetakchilik tushunchasini buzish.

Biz bu borada "Oiladagi zo'ravonlikka kim aybdor?" nomi ostida ijtimoiy tarmoqda so'rovnoma o'tkazdik va quyidagicha fikrlar oldik. "Barchasi tarbiyaga bog'liq, eng boshidan tarbiyani go'zal qilish kerak", "Ayollarni o'zlari ham aybdor bo'lishadi sababi ular bunga chora ko'rmay indamay ko'nib ketaverishadi", "Muhtarama ayollar xo'rlanishingizga yo'l qo'ymang, qadringizni biling" kabi ko'plab fikrlar kelib tushdi.

Darhaqiqat, bugungi kunda jamiyatimizda duch kelinayotgan xotin-qizlarning zo'ravonlik va tazyiqqa uchrashishining oldini olish va bunday holatlarni bartaraf etish, qolaversa, umuman, yo'l qo'yilmasligiga erishish uchun barcha inson bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozim. Chunki xotin-qizlarga qaratilgan zo'ravonlikning har qanday shakli, turi jamiyatimizning ravnaqiga katta zarar ko'rsatadi. Ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo'ravonlik tufayli ular erkaklarga qat'iy bo'ysunuvchi shaxsga aylanishga majbur bo'lishadi. Buning oqibatida erkin fuqaroning asosiy huquqlariga daxl qilinadi. Ba'zi erkaklar tomonidan oilaga



⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 7-mart.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori. –Toshkent, 2022-yil, 1-mart.

tushgan kelin barcha masalada eriga va uning oila a‘zolariga bo‘ysunish kerakligi aytiladi. Shu bois, ko‘pgina erkaklar zo‘ravonlik o‘tkazadi, ular zo‘ravonlikning ayrim ko‘rinishlari odatiy holdek tuyuladi. Xonadondagi zo‘ravonlik, shunchaki, uydagi janjal oilaning ichki ishlari sifatida qabul qilinadi. Oilaviy zo‘ravonlikni hech qanday sharoitda oqlab bo‘lmaydi.

Bilamizki, oilada qiz bolalar itoatli, so‘zsiz bo‘ysunuvchi, kattalarga hurmat ko‘rsatish ruhida kamolga yetishadi. O‘g‘il bolalar esa ancha erkin o‘sadi. Natijada, ular zaif jins vakillariga nisbatan ustunliklarini his qilib turishadi. Shuning uchun uydagi zo‘ravonliklarning oldini olishning huquqiy mexanizmi to‘g‘risida ayollar o‘z huquqlarini mukammal darajada bilishi darkor. Axir, qonun har bir fuqaroni zo‘ravonlikning har qanday turidan himoya qiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, qaysi jamiyatda ayol qadrlanar ekan, oilalar farovon, farzandlar tarbiyasi to‘la-to‘kis bo‘ladi. Bu esa kelajakka tomon yorqin yo‘ldir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, gender tengligini ta‘minlash, jamiyatda “Feminizm”ni to‘g‘ri talqin etish hamda ayollar qadr-qiyamatini huquqiy demokratik himoya qilish haqiqiy qadriyatlarning ajralmas qismi sifatida eng ustuvor maqsadlarimiz qatoriga qo‘yilgan. Ayollar jamiyatimizda gulga qiyoslangan va bu gullarni sindirishga uringan barcha tashqi ta’sirlarni bartaraf etish qonun himoyasida. Zero, ayol – jamiyatning eng muhim bo‘lagidir. Yuqorida keltirib o‘tgan chora tadbirlar tegishli yo‘nalishda qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning ustida ishlashda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. – B. 249.
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 112.
3. Xolikova M, Ishanxanova G., Po‘latova Sh. Gender tengligi: g‘oyadan qonunga qadar: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 11-13.
4. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 278.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish haqida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma‘qullangan.

IKKINCHI SHO'BA:

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MASALALARI

Nishonova Nodiraxon Rayimjonovna,
Toshkent davlat texnika universiteti
professori, falsafa fanlari doktori,
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrası mudiri

ZO‘RAVONLIK: XOTIN-QIZLARNING OILADAGI ZO‘RAVONLIK MUAMMOSI

Annotatsiya. Ma’lumki, jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlik muammolari to‘g‘risidagi mulohazalardagi yanglish fikrlardan biri zo‘ravonlikdan aziyat chekkanlarni bunday zo‘ravonlikni keltirib chiqarishda ayblashlar va gender tenglikni ta’minlash sohasida bir qator muamolar mavjud bo‘lib, jumladan: ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti hali yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan, xotin-qizlar o‘rtasida bandlikka ko‘maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha faoliyat sust olib borilmoqda, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularga sifatli yuridik maslahatlar berish mexanizmi bugungi kun talablariga javob bermaydi. Maqolada mazkur muamolarga qaratilgan bir qator yechimlar va natijalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, xotin-qizlar, bandlik, ish o‘rinlari, tadbirkorlik, jabrlanuvch, huquq-tartibot.

Аннотация. Известно, что одно из ошибочных мнений о проблемах насилия в отношении женщин в обществе является обвинения в причинении такого насилия тех, кто страдает от насилия и существует ряд проблем в области гендерного равенства, в частности: практика индивидуальной работы с безработными и социально неактивными женщинами еще недостаточно налажена, деятельность по содействию занятости и развитию предпринимательства среди женщин осуществляется медленно, механизм повышения правовой культуры женщин, предоставления им качественных юридических консультаций не отвечает требованиям сегодняшнего дня. В статье будет рассказано о ряде решений и результатов, направленных на решение этих проблем.

Ключевые слова: насилие, женщины, занятость, рабочие места, предпринимательство, жертва, правоохранительные органы.

Annotation. It is known that one of the erroneous opinions about the problems of violence against women in society is, accusations of causing such violence to those who suffer from violence and there are a number of problems in the field of gender equality, in particular: the practice of individual work with unemployed and socially inactive women is still insufficiently established, activities to promote employment and entrepreneurship development among women are carried out slowly, the mechanism for improving the legal culture of women, providing them with high-quality legal advice does not meet the requirements of today. The article will describe a number of solutions and results aimed at solving these problems.

Key words: violence, women, employment, jobs, entrepreneurship, victim, law enforcement agencies.

“Mavzuni o‘rganishdan oldin zo‘ravonlik degani nima?” savoliga javob berish bilan fikrimizni aniqlashtiramiz. Bu turlicha izohlanishi mumkin bo‘lgan keng sig‘imli

tushuncha. Asosiy so'zlarga ahamiyat beraylik. "Zo'ravonlik" atamasi odamlarning bir-biriga nisbatan cheksiz ta'sirlari, xususan, jismoniy ta'sirdan (tarsaki urishdan to qotillikkacha) ruhiy ta'sirga (buyruqdan to gipnozgacha) nisbatan qo'llaniladi. Zo'ravonlik va shafqatsizlik to'g'risidagi tasavvur tarixiy nuqtayi nazardan ham nihoyatda o'zgaruvchandir. Hozirgi kunda bu atamaning ma'no ko'lamini kengroq. Jismoniy zo'ravonlik inson organizmiga nisbatan bevosita ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi: kaltaklash, tan jarohatlarini yetkazish, turli vositalar bilan azoblash (shu jumladan, biron-bir turdagi predmetlar va moddalar vositasida) va hokazo. Jismoniy ta'sir natijasida jabrlanuvchiga azob yetkazilishi, sog'lig'iga ziyon yetkazilishi mumkin. Ruhiy ta'sir deganda, inson ruhiyatiga qo'rqitish, shantaj, tahdid qilish orqali ta'sir o'tkazish (xususan, jismoniy zo'ravonlik bilan qo'rqitish) bu orqali jabrlanuvchining qarshilik qilishga, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan irodasini sindirish tushuniladi. Zo'ravonlik javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat bo'lishi mumkin (jinoyat sodir etilganda alohida shafqatsizlik yoki jabrlanuvchini tahqirlash yo'li bilan), jinoyatni amalga oshirish vositasi (masalan, qotillik, havo kemasini olib qochish) yoki jinoyat tarkibining konstitutiv (toifalovchi) belgisi (masalan, nomusga tegish paytida) bo'lishi mumkin. "Zo'ravonlik" atamasining o'zidayoq salbiy ma'no borligini anglaymiz.

Uydagi zo'ravonlik muammolari to'g'risidagi mulohazalardagi yanglish fikrlardan biri zo'ravonlikdan aziyat chekkanlarni bunday zo'ravonlikni keltirib chiqarishda ayblashdan iboratdir. Afsuski, jabrlanganlarga nisbatan bunday munosabat tez-tez uchrab turadi. Turmushdagi zo'ravonlik qurbonlarini ortiq darajada jabrdiida qilib ko'rsatish barchaning ongidagi uydirmalar va stereotiplarning butun bir tizimi doirasida aylanadi, bularning ko'pi g'oyat barqaror bo'lib, aksariyat hollarda odamlarga bolaligidan singdiriladi, lekin ular hech qanday oqilona fikrga asoslanmagan. Stereotiplashtirilgan afsonalar zo'ravonlikning ko'p hollari ayollarga nisbatan amalga oshirilishi faktini aks ettiradi. Biroq bunday uydirmalarning bo'lishi xotin-qizlar hamma vaqt ham zo'ravonlikning so'zsiz qurbonlari roliga bo'lishlarining isboti emas. Oiladagi zo'ravonlik muammosi to'g'risidagi mavjud stereotiplar va uydirmalar zo'ravonlikka duch keladigan ayollar yelkasiga qo'shimcha yuk bo'lib tushadi. Bularning hammasi – ana shu xotin-qizlarning normal hayot kechirishlari yo'liga qo'yilgan to'siqlardir. *Bu to'siqlarning omillari quyidagicha:*

– oilada zo'ravonlikka uchraydigan ayollar – mazoxistlardir. Asosan, shunday deb hisoblanadiki, "kaltaklanishni istaydigan va shunga munosib bo'lgan" ayollar kaltaklanadi, shu sababli ular oiladan ketmasdan shunday munosabatlarga chidab keladi. Bu uydirmaga ko'ra, ayol o'zi yaxshi ko'radigan erkak tomonidan kaltaklanganidan jinsiy lazzat oladi;

– ayrim ayollar zo'ravonlikka o'zlari sabab bo'ladi va shunga munosibdirlar. Bunday keng tarqalgan qarash xotin-qizlarni kaltaklash ijtimoiy muammo ekanidan darak beradi: u odamlarga bolaligidan singdirilgan gender stereotiplarga borib taqaladi. Hech bir inson kaltaklanishga munosib emas, biroq amalda, jabrlanuvchi o'zini qanday tutmasin, aybdor o'z harakatlarini oqlashga hamma vaqt imkon topadi;

– oila a'zolari yoki juftlariga nisbatan zo'ravonlik qiladigan erkaklar ruhan nosog'lomdir. Bunday erkaklar tajovuzkor harakati avjini nazorat qila olmasa-da,

ko‘pincha “normal” hayot kechiradilar. Ularning ijtimoiy maqomi yuqori bo‘lishi mumkin, ular rahbarlik lavozimlarini egallab, faol ijtimoiy hayot kechirishi, biznesda muvaffaqiyatga erishishi mumkin;

- zo‘ravonlik qiladigan erkaklar o‘z xotinlari yoki juftlarini sevmaydilar. Ular ayolni zo‘ravonlik munosabatlari doirasida ushlab turish uchun sevgidan foydalanadilar. Bu hol zo‘ravonlik turkumi mavjudligi bilan ham isbotlanadiki, bu haqda keyinroq gap boradi;

- zo‘ravonlik qiladigan erkaklar boshqa insonlar bilan ham o‘zlarini tajovuzkorona tutadi. Ularning ko‘pchiligi o‘z harakatini nazorat qila oladi hamda qayerda va kimga nisbatan zo‘ravonlik qilish mumkinligini yaxshi biladi;

- zo‘ravonlik qiladigan erkaklar omadsiz odamlar bo‘lib, stresslar va hayotdagi muammolarini hal eta olmaydilar. Stress holatini deyarli barcha odamlar o‘z boshidan kechiradi, biroq, hamma ham alamini boshqalardan olmaydi;

- zo‘ravonlikning sababi alkogolizmdir. Spirtli ichimliklar ichish o‘z harakatini nazorat qilish qobiliyatini pasaytiradi, biroq, zo‘ravonlar orasida tamaki yoki alkogoldan foydalanmaydigan erkaklar ham ko‘p. Ayrim odamlar alkogolizmdan davolangan bo‘lsa-da, yaqinlariga nisbatan tajovuzkor va shafqatsiz bo‘lib qolavergan. Ichkilikbozlik yoki spirtli ichimliklarni ichish zo‘ravonliklarni oqlash uchun sabab bo‘la olmaydi;

- er bilan xotin o‘rtasidagi janjallar har doim mavjud bo‘lgan, bu tabiiydir va u jiddiy oqibatlariga olib kelmaydi. “Er-xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi”. Urush va janjallar haqiqatdan ham ko‘pgina munosabatlarda uchrab turishi mumkin. Zo‘ravonlikning o‘ziga xos xususiyati uning jiddiyligi, davriyligi va sodir bo‘layotgan hodisalarning intensiv sur‘ati va oqibatlari bilan belgilanadi;

- tarsaki hech qachon jiddiy zarar yetkazmaydi. Zo‘ravonlik davriy tusga ega va asta-sekin kuchayib boradi. U shunchaki tanqiddan boshlanib, kamsitish, yakkalab qo‘yish, keyinchalik tarsaki tushirish, urish, doimiy ravishda kaltaklash, ba‘zan esa o‘lingacha olib kelishi mumkin;

- bir marta zo‘ravonlikka uchragan ayol – doimo zo‘ravonlikka uchrayveradi. Zo‘ravonlik davriyligi buzilib, ayol zo‘ravonlik va xavf tug‘diruvchi vaziyatda bo‘lmasa, mutaxassislar maslahatini olgach, ayol odatdagi hayotga qaytishi mumkin;

- zo‘ravonlikka uchragan ayol xohlagan paytida uyidan ketishi mumkin. Ayol kishiga madaniy nuqtayi nazardan oila va muhabbat uning haqiqiy va yagona jabhasi ekanligi singdirilgan bo‘lsa, ko‘pincha, zo‘ravonlik jiddiylashgach, u uyidan ketish huquqi va erkinlikka egadir, deb hisoblanadi. Aslida esa bu borada ayol kishining oldida nihoyatda ko‘plab to‘siqlar bo‘ladi;

- “Turmush qurganimizdan so‘ng” erkak zo‘ravonlik qilmay qo‘yadi. Ayollar o‘ylaydiki, bunday erkaklar turmush qurishgach, zo‘ravonlik qilmay qo‘yadi. Ularning fikricha, erkak o‘z maqsadiga yetgach, tinchiydi hamda ayolning muhabbatiga ishonadi, chunki nikoh muhabbatning eng oliy dalilidir. Biroq muammo shundaki, hukmronlik chegara bilmaydi va zo‘ravonlik davriyligi davom etadi;

- zo‘ravon bo‘lsa ham, bolalarga ota kerak yoki “men faqat bolalarim uchun u bilan yashayman”. Shubhasiz, bolalarga otasi ham, onasi ham kerak. Biroq oiladagi zo‘ravonlik

muhitida yashaydigan bolalar zo'ravonlikdan qutulish uchun onasidan oiladan ketishni iltimos qilishi mumkin;

– uydagi janjallar, kaltaklashlar va mushtlashishlar bilimsiz va kambag'al odamlarga xos. Daromadi va ma'lumoti yuqori bo'lgan oilalarda bunday hollar kam uchraydi. Oiladagi zo'ravonlik aholining muayyan qatlamlari va guruhlariga chegaralanmaydi. Bunday hollar bilim darajasi va daromadidan qat'iy nazar barcha ijtimoiy guruhlarda sodir bo'lishi mumkin. Vaholanki, turli ma'lumot guruhlariga mansub odamlar zo'ravonlik qiladilar, yoki zo'ravonlik qurbonlari bo'ladilar, deb tan olishga tayyorlik darajasini baholash anchagina qiyin masala;

– hozirgi kunda uydagi zo'ravonlik – kam uchraydigan hodisa. U o'tmishda qarashlar shafqatsiz bo'lgan va ayollar erlarining mulki hisoblangan davrda qolib ketgan. Oiladagi zo'ravonlik, bugungi kunda ham keng tarqalgan holat. Ko'pgina mamlakatlardagi xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan huquqshunoslar va advokatlarning fikricha, uydagi zo'ravonlik ular haqidagi ma'lumotlar kamdan-kam hollarda huquq-tartibot organlariga yetib boradigan jinoyatlar orasida birinchi o'rinlardan birini egallaydi.

Zo'ravonlikka uchraydigan xotin-qizlar odatda quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

- ✓ o'ziga past baho beradi;
- ✓ oila, ayolning oiladagi va jamiyatdagi roli haqidagi juda an'anaviy qarashlarga, "ayol taqdiriga" qattiq ishonadi;
- ✓ zo'ravonning xatti-harakati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi;
- ✓ zo'ravonlik to'g'risidagi barcha uydirmalarga ishonadi;
- ✓ stresslarni og'ir boshidan kechiradi va psixofiziologik shikoyatlari bor;
- ✓ aybdorlik tuyg'usidan azob chekadi va zo'ravonga nisbatan bo'lgan g'azab tuyg'usini inkor etadi;
- ✓ jinsiy munosabatlar umumiy munosabatlarni tartibga solishi mumkinligiga ishonadi;
- ✓ biror kishi ularga oiladagi zo'ravonlik muammosini hal etishda yordam berishiga ishonmaydi.

Xotin-qizlarga zo'ravonlikning oldini olish uchun yechimlar:

- agar kimdir xavf ostida bo'lsa, 102 raqami IIVga qo'ng'iroq qiling;
- agar siz zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalardan xavotirda bo'lsangiz, ularning maktabiga murojaat qiling;
- agar tanishingizdan xavotirda bo'lsangiz, u bilan nima bo'layotgani haqida gapirishga harakat qiling. Agar ular sizga ochiq bo'lishsa, ularni yordam so'rashga undash va qayerda yordam borligini bildiring;
- ammo "Ayollar yordami" tashkiloti ularning nomidan huquqbuzarlik haqida rasmiylarga xabar bermaslikni maslahat beradi. Bu juda kuchsiz bo'lishi bilan bir qatorda, bu juda xavfli bo'lishi mumkin va jabrlanuvchi uchun siz oldindan ko'ra olmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa o'rnida quyidagi natijalarga asoslanamiz: "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash" komissiyalariga ichki ishlar organlari tomonidan oilaviy nizolar, qo'ni-

qo‘shnilar o‘rtasidagi janjallar, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanmayotgan ota-onalar va boshqa masalalar bo‘yicha 9 mingdan ortiq hujjatlar yuborilib, muhokamasi ta‘minlandi. Natijada 7 mingdan ortiq oiladagi notinchliklarga barham berildi, 2 mingga yaqin yosh oilalar ajralib ketishdan saqlab qolindi. 2022-yilning 3 oyi maboynida zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan 13 849 nafar xotin-qizga “Himoya orderi” berildi va himoya orderi berilgan oilalarda olib borilgan profilaktik ishlar natijasida 6 638 ta oila yarashtirildi, 5 818 ta oilalarda nizolari bartaraf etildi. Ularning 18 ta jinsiy, 118 ta iqtisodiy, 7106 ta ruhiy, 3712 ta jismoniy zo‘ravonlik hamda 3052 ta tazyiq holat haqida xabar berilgan. Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktika xizmatida oila-turmush munosabatlari doirasidagi sodir etilgan zo‘ravonliklar bo‘yicha murojaatlarni qabul qilish va hal etish samaradorligini yanada oshirish maqsadida uzluksiz ishlovchi “Ishonch markazi” (“1259” qisqa raqami) hamda “Telegram bot” kanalining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunga qadar 506 nafar tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 206¹-modda bilan ma‘muriy javobgarlikka tortildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Nodiraxon. Ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2010. – № 1. – B. 106-108.
2. Nishonova Nodiraxon. Amir Temur davlati siyosatida Saroy mulkxonimning o‘rni // Jamiyat va boshqaruv. Toshkent, 2010. – № 2. – B. 117-119.
3. Nishonova Nodiraxon. Xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishda qonunlarning o‘rni // Falsafa va huquq. – Toshkent, 2010. – № 2. – B. 80-82.
4. Nishonova Nodiraxon. Xotin-qizlarning boshqaruv qobiliyati: mulohaza va takliflar // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2011. – № 4. – B. 231-235.
5. Nishonova Nodiraxon. Ommaviy axborot vositalari va so‘rovnomalarda ayollar masalasi // Falsafa va huquq. – Toshkent, 2011. – № 4. – B. 60-63.
6. Nishonova Nodiraxon. Ayol nufuzi // Tafakkur. – Toshkent, 2012. – № 2. – B. 87-89.
7. Nishonova Nodiraxon. Xotin-qizlarning sog‘ligi – millat kelajagining ildizi // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2012. – № 1. – B. 100-104.
8. Nishonova Nodiraxon. Ayollar – mustahkam oila omili // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2012. – № 1-2. – B. 87-90.
9. Nishonova Nodiraxon. Ayollarning akmeologik faolligi – mustahkam oila poydevor // Ta‘lim muamolari. – Toshkent, 2012. – № 1. – B. 17-19.
10. Nishonova Nodiraxon. Boshqaruvda muloqotning o‘rni // Ta‘lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Toshkent, 2012. – № 2. – B. 123-126.
11. Nishonova Nodiraxon. Davlat boshqaruv tizimi va xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi. // O‘zMU xabarlar. 2012. – № 4/1. – B. 152-158.
12. Нишонов Нодирахон. Возможности женщин в сфере образования Узбекистана // Теоретический журнал. ISSN 1993-8071. – Санкт-Петербург, 2012. – №1 (69). – С. 157-160.
13. Nishonova Nodiraxon. Mahalliy davlat boshqaruvida xotin-qizlar faoliyatining xususiyatlari // Ta‘lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Toshkent, 2012. – №4. – B. 91-96.

14. Nishonova Nodiraxon. Bugungi ijtimoiy-siyosiy faol ayolning portreti // Ta'lim muamolari. – Toshkent, 2013. – №3. – B. 5-10.
15. Nishonova Nodiraxon. Feminizm va gender tenglik muammolari // O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2013. – № 4. – B. 217-220.
16. Nishonova Nodiraxon. Professional training of women in Uzbekistan // International Scientific Journal "Theoretical & Applied Science", registered in France? Impact Factor: SOI: 1./TAS.ISSN 2380-4944 (print) // DOI: 10.15863/TAS. ISSN 2409-0085 (online). USA, 2016. – № 11 (43). pp.127-130.
17. Nishonova Nodiraxon. Tarixiy jarayon va milliy istiqlol mafkurasining shakllanish bosqichlari // Tarix, mustaqillik, milliy g'oya. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: DJQI, 2001. – B. 44-48.

* * *

Amridinova Dilrabo Tursunovna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Tarix" kafedrası,

Fasafa fanlari doktori, professor

email: dilrabo@1971mail.ru

TURKISTON JADIDLARINING MA'NAVIY MEROSIDA OILA VA XOTIN-QIZLAR MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila, xotin-qizlar muammolari Turkiston jadidlarining asarlari asosida tahlil qilingan. A.Fitrat, Hoji Muin ma'naviy merosida xotin-qizlarimizning yangi usuldagi maktablarda ilm olishi, farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining mazmuni, mohiyati va konseptual ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston jadidlari, A.Fitrat, Hoji Muin, ta'lim-tarbiya, yoshlar, ilm-fan, yangi usuldagi maktablar.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы семьи, женщины на основе произведений туркестанских джадидов. По-новому освещены духовное наследие Фитрата, Хаджи Муина, содержание, сущность и концептуальное значение наших женских взглядов на воспитание детей, духовно-воспитательные идеи в школах.

Ключевые слова: Туркестанские джадиды, А.Фитрат, Хаджи Муин, Образование, Молодежь, Наука, Школы по-новому.

Annotation. This article analyzes the problems of family, women on the basis of the works of Turkestan jadids. The spiritual heritage of Fitrat, Haji Muin, the content, essence and conceptual significance of our women's views on the education of children, spiritual and educational ideas in schools in a new way are highlighted.

Keywords: Turkestan jadids, A.Fitrat, Haji Muin, Education, Youth, Science, Schools in a new way.

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, mutafakkirlar qatorida, shunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila, olima va oqila ayollar

ham ko‘p bo‘lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, jamiyatimizning turli sohalarida, mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqdalar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi⁶³.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.

Bu o‘z navbatida, “Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmi, ma‘rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi⁶⁴.

Jumladan, taraqqiyparvar va ma‘rifatparvar jadid Abdurauf Fitrat xotin-qizlarimizning o‘qimishli bo‘lishi kelajak avlodlarimizning nodon va johil, tarbiyasiz bo‘lmasliklari hamda bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari uchun zarurdir deb ta‘kidlaydi. Shuningdek, Avloniy tarbiyani “oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘nggi er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir”⁶⁵, – deb e‘tirof etadi.

Abdurauf Fitrat yosh avlod tarbiyasini millat tarbiyasiga tenglashtirib, “tarbiya millat onasi” degan g‘oyani ilgari suradi. Yosh avlod tarbiyasida onaning asosiy o‘rni to‘g‘risida quyidagicha ta‘rif bergan: “Tarbiya axloqiyalari maktabdan ko‘ra ko‘proq muhtarama onalar quchog‘ida axtarilmog‘i kerakdur. Bolalarimizni matlub darajada adablik va tarbiyatlik qilmoq xoxishida onalarimizni “ilmi tarbiya al-atfol”dan bahrador etmog‘imiz darkor. Bolalarimiz inson bolalari kabi bo‘lsinlar desak, eng avval boshlab, onalarimizni tarbiya va ta‘lim eta oling. Yo‘qsa bolalardan, maktablardan momil bo‘lgan foyda husula kelmas”⁶⁶. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlar oilada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ayollar ham o‘qib, bilim olishlari kerakligini uqtiradilar.

Farzandlar tarbiyasida ayollarning aql-zakovoti, tarbiyasi haqida fikr yurita turib A.Fitrat “xotunlarni o‘qitmoq va alarning aqillarini jilo bermak va erlari birla yaxshi muomilalar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoq, albatta ,zarurdir...”⁶⁷ deb fikr-mulohaza bildirib o‘tadi.

Fikrga qo‘shimcha qilib aytishimiz joizki, har bir farzand ertangi kunimizning davomchilari. Ularning kelajagi esa biz, kattalarga bog‘liq. Shunday ekan, ularga Mustaqil O‘zbekiston tanlagan eng to‘g‘ri va eng adolatli yo‘ldan adashmaslikni qancha erta o‘rgatsak, shuncha yaxshi natijaga erishamiz. Chunki oilada shakllangan ma‘naviy muhit bir umr insonning yashash tarziga ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababdan Fitrat “Oila” asarini yaratishni maqsad qiladi. Asar mazmun va mohiyatiga ko‘ra to‘la axloqiy-ma‘naviy g‘oyalarga asoslangan bo‘lib, agar yosh avlodni ushbu asar ta‘sirida tarbiya qilsak, hech qachon ma‘naviy tahdidlarga bo‘yin egmasligiga asarni o‘qish davomida amin bo‘lamiz. Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” asarida oilani

⁶³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet.

⁶⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet.

⁶⁵ Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent.: Ma‘naviyat, 2000. – B.5.

⁶⁶ Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent.: Ma‘naviyat, 2000. – B.5.

⁶⁷ Fitrat A. Oila. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 1998.

boshqarish tartiblari, ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi va shu kabi⁶⁸ jamiyat hayotida muhim bo'lgan masalalar xususida to'xtaladi.

Shu o'rinda yosh-avlodni tarbiyalashda oilaning vazifalari xususida fikr yuritish o'rinli bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- oilada sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish – ota-ona va farzand o'rtasida birlariga mehribon, g'amxo'r bo'lishini ta'minlaydi;
- oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish – oila a'zolari o'rtasida o'z huquq va burchlarini anglash va ularga rioya qilishni ta'minlaydi;
- oilada farzandlarda chuqur dunyoviy bilimni shakllantirish – ularni ma'rifatli, ma'naviyatli bo'lib kamol topishini ta'minlaydi;
- oilada erkinlik muhitini shakllantirish – farzandlarni mustaqil fikrlashni yuzaga keltiradi, natijada har qanday ijtimoiy muammoga yechim topa oladigan shaxsni kamol topdiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, jismonan va ruhan sog'lom, ma'nan barkamol avlodni voyaga yetkazishda oila institutining, undagi tarbiyaning o'rni beqiyos. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"⁶⁹, – deya ta'kidlagan edi.

Shuni alohida tilga olish lozimki, oila institutining mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini to'g'ri anglab, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi va rahnamoligida "Oila" konsepsiyasining yaratilishi, "Ona va bola" Davlat dasturi qabul qilinishi, shuningdek, 1998-yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi, oilaviy munosabatlarni tartibga solish maqsadida Oila kodeksining qabul qilinishi, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish, muammolarni aniqlash va vaqtida bartaraf qilish maqsadida ilk bor "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi – oilani muqaddas qadriyat sifatida e'zozlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilaning mustahkamligi va barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish masalalarida davlatimiz tomonidan alohida ahamiyat va g'amxo'rlik qilinayotganligining namunasidir.

Mustaqil O'zbekistonda jamiyatni tubdan yangi asosda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma'naviyati jamiyatda oila va xotin-qizlar masalalari bilan ham bevosita bog'liqdir. Agar biz masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, oila va xotin-qizlar masalalari Turkiston jadidlarining ijodida yaqqol o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

⁶⁸ Fitrat A. Oila. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1998.

⁶⁹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" mavzusidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2016-yil 8- dekabr.

Jadidlar oila va xotin-qizlarimizni ma‘rifatli, ya‘ni jamiyatda ta‘lim-tarbiyali va savodxon bo‘lish orqali ularning ma‘naviy yuksalishiga erishishi mumkinligi g‘oyasini ilgari surdilar.

Bundan ko‘rinib turibdiki, “Ular ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e‘tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma‘rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar”⁷⁰.

Shuningdek, Hoji Muin asarlarida ham ayollarning oiladagi mavqeyi masalalari ko‘tarilgan. Chunonchi, 1916-yilda yozilgan “Mazluma xotun” dramasida nikoh, oila, er va xotin, ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi hayotiy munosabatlar o‘z ifodasini topgan. Bu asarda, ayniqsa, o‘sha davrda eng og‘ir, ayanchli illatlardan biri bo‘lgan ko‘pxotinlilik (qo‘shxotinlilik) tasvirlangan bo‘lib, uning oiladagi muhitga va tarbiyaga, umuman olganda, jamiyatga salbiy ta‘siri ochib berilgan.

Shuni ta‘kidlash lozimki, Hoji Muin xotin-qizlarning haq-huquqlari masalalarini jamiyatning boshqa hodisalaridan ajratib tahlil qilishni maqsad qilib qo‘ymagan. O‘zbek xotin-qizlarining erkaklar bilan teng huquqliligi masalasini ilm-ma‘rifat, madaniyat masalalari bilan uyg‘unlikda yoritishga harakat qilgan Hoji Muin, hatto o‘zbek ayollari ham yangicha maktablarni tushunib yetayotganliklari, bu maktablar bilim va odob o‘rganishning eng qulay o‘chog‘i ekanligini ona obrazi – Tansiqoy tilidan quyidagicha izohlaydi: “Bahoviddinul necha yillardan beri eski maktablarda o‘qub hech nima bo‘lmadi... Endi Xudoga shukr bu yangi maktabga borgandan beri... o‘qish, yozishni ham o‘rganyapdur, mana hiyla odoblik ham bo‘lubdur”⁷¹.

Jadid maktabida o‘g‘lining savodi chiqayotganligi, maktabdagi tartib-intizom, bolaning ijobiy tomonga o‘zgarishi onada katta taassurot qoldiradi. Aynan, Hoji Muin yangi usuldagi maktablar to‘g‘risida onalarning fikrini ijobiy tomonga o‘zgartirish orqali, yoshlarni yangi maktablarga jalb qilish katta ahamiyat kasb etishini qayd qiladi va shu bilan birga oilada ona mavqeining o‘sib borayotganligini e‘tirof etadi.

Zero, XXI asr insoniyat tarixida yangi bir davrni – sivilizatsiyamiz oldida turgan barcha muammolarni va ziddiyatlarni yuksak ma‘naviyat, teran aql – idrok, bilim va tafakkur kuchi, o‘zaro hurmat va kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi ustuvor bo‘lgan davrni boshlab berdi. Bir so‘z bilan aytganda, yangi asr bizning oldimizda turgan barcha muammolarni oqilona hal etishning o‘ziga xos yo‘lini ko‘rsatib turibdi.

Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi, – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev [2].

Shu bois, bugungi kunda erkin fuqarolik jamiyatimizda xotin-qizlarimizning oilada tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalanihiga qaratilgan chora –tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas‘uliyatini oshirish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan.

⁷⁰ Fitrat A. Yana to‘y masalasi. // Sadoi Farg‘ona, 1914-yil 8- iyun.

⁷¹ Hoji Muin. Mazluma xotun. // Samarqand, 1916. –B.4.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 464 bet
2. Mirziyoyev Sh.M. Xotin-qizlar uchun ulkan imkoniyatlar belgilandi // Xalq so'zi, 01.03.2022 // <https://xs.uz/uzkr/>
3. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2016-yil 8-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Ma'rifat gazetasi, 2020- yil, 30-sentabr soni.
5. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B.5.
6. Fitrat A. “Oila”. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 1998.
7. Fitrat A. Yana to'y masalasi. // Sadoi Farg'ona, 1914-yil 8-iyun.
8. Fitrat A. Bir musulmon. Xotunlar erlar bilan barobar emas // Turkiston viloyati gazetasi, 1912- yil 20-sentabr soni.
9. Hoji Muin. Mazluma xotun. // Samarqand, 1916. –B.4.

* * *

Niyozova Salomat Saparovna,

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasida
professori, yuridik fanlar doktori,
salomat.niyozova@mail.ru*

ZO'RAVONLIK VA TAZYIQQA UCHRAGAN AYOLLAR VIKTIMLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining oldini olish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollarning viktimligining umumiy, maxsus hamda yakka tartibdagi oldini olish choralari ham tahlil etilib, mazkur masala yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, tazyiq, ayollar, viktimlik, oldini olish profilaktika, jabrlanuvchi, jinoyat, jazo, viktim xulq.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы профилактики потерпевших от насилия и домогательств. Также в статье анализируются общие, специальные и индивидуальные меры по предотвращению виктимизации женщин, ставших жертвами насилия и угнетения, а также предложения и рекомендации по данному вопросу.

Ключевые слова: насилие, домогательство, женщины, виктимизация, профилактика, потерпевший, преступление, наказание, виктимное поведение.

Annotation. *This article describes the issues of prevention of victims of violence and harassment of women. The article also analyzes the general, special and individual measures to prevent the victimization of women who are victims of violence and oppression, and offers and recommendations on this issue.*

Keywords: *violence, harassment, women, victimization, prevention, victim, crime, punishment, victim behavior.*

Dunyoda globallashuvning jadallashuvi, zo‘ravonlikning ortayotgani, 35 foiz ayollarning zo‘ravonlikdan jabrlangani, 2017-yilda 87 000 nafar voyaga yetmagan va ayollarning 50,58% tanishlari yoki oila a‘zolari tomonidan o‘ldirilgani[1] bois shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimologik profilaktikasining metodologik asoslarini takomillashtirish, mazkur tizimni rivojlantirish, shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurashish, zo‘rlik fenomenining vujudga kelishi, zo‘ravon shaxsining xususiyatlari, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, mazkur jinoyatlarning kriminologik, viktimologik tavsifi, aholi viktimligi darajasini aniqlash, shaxsni zo‘ravonlikdan himoya qilishning samarali choralarini ishlab chiqish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunlarga implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqib, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining oldini olish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayollarning jamiyatda tutgan o‘rnini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar tizimida oiladagi zo‘ravonlik holatlariga qarshi kurash bo‘yicha olib borilayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan masalalar ancha ekanligini e‘tirof etish zarur. Ma’lumki, bu masala inson huquqlari bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning ham diqqat markazidagi masalalaridan.

Darhaqiqat, yurtboshimiz tomonidan 2018-yil 2-fevralda imzolangan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014) hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi (2019) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 2-iyuldagi “Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3827-son qarorlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlari ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olishga qaratilgandir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kriminologiyada viktimologiya yo‘nalishi hali ancha yosh va batafsil o‘rganiladigan soha hisoblanadi. Bu yo‘nalishda jiddiy muammolar ancha ko‘p.

Birinchidan, jabrlanuvchining holatiga haddan tashqari ortiqcha huquqiy baho berish, ularning holatini ortiqcha faollashtirish, jamiyatda jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan munosabatning o'zgarishi va ularni axloqan tuzatish choralari ishlab chiqishga ta'sir qilishi mumkin.

Ikkinchidan esa, jabrlanuvchilarning viktim xulqiga ahamiyat bermaslik aybdorga adolatli jazo tayinlashga ta'sir qilishi mumkin.

Demak, viktim xulq-atvorning oldini olish qaysidir ma'noda muayyan jinoyatlarning va ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo'ravonlik va tazyiqning ham oldini olish va unga qarshi kurashish hamdir. Jinoyatchilikka qarshi viktimologik kurash esa, – bu jinoyatchilik bilan kurashishning alohida mustaqil shakli bo'lib, jinoyatlarni viktimologik profilaktikasi doirasida jinoyatchilik ustidan nazorat o'rnatish siyosatiga asoslangan fuqarolar, jamiyat va davlatning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofazasini ta'minlashga qaratilgan davlat va ijtimoiy choralari majmuidan iboratdir [2; – B. 51-57.].

Bizga ma'lumki, shaxsning jinoiy xulq-atvorini chuqur tahlil qilish va jinoyat sodir etishda asosiy sababchi bo'lgan jabrlanuvchi shaxslarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Insonning ongida, xuddi jabrlanuvchining ongida bo'lgani singari o'zining ijtimoiy mavqeyini jabrlanuvchining xulq-atvoriga o'xshash jarayoni ro'y beradi. Biz ushbu ijtimoiy jarayonida takroriy viktimizatsiyaning ham asoslari mavjud deb hisoblaymiz.

Aholining jinoyatchilikdan qo'rqish omilini hisobga olish viktimologik tadqiqotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu ma'noda ayollarda bunday sezgi, ayniqsa, kuchlidir. Mazkur sohada o'tkazilgan shunday tadqiqotlarning natijalari bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, Germaniyada ayollarning 66,7%i tunda o'zini xotirjam va dadil his qiladi, hech qanday jinoiy tajovuzlardan qo'rqmaydi.

Bunda yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, har qanday tarixiy davrda va barcha davlatlarda ijtimoiy va yosh guruhlari ichida boshqa shaxslarga nisbatan ayollarga zo'ravonlikning eng tipik jabrlanuvchilari deb qaralgan.

Jinsiy jinoyatlardan jabr ko'rgan ayol jabrlanuvchilarning o'ziga xos tipi hisoblanadi. Ularning aniq soni statistik ko'rsatkichlardan ancha ko'pdir. Bunda ayollar mutlaq ko'pchilikni tashkil etadi. Afsuski, bugungi kunda kriminologiya fanida alohida ijtimoiy tabaqalarning viktimligini aniqlash usulining ishlab chiqilganligiga (mazkur muammo favqulodda dolzarb ahamiyatga ega ekanligiga) qaramay, jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslarning salmog'i haqida to'g'ri va to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz [3; – B. 97.].

Buning asosiy sababi jinoyatlar tufayli jabr ko'rganlarni statistik hisobga olish va to'la tavsiflash uchun bazaning mavjud emasligidadir. Shunga qaramay O'zbekistondagi shaxslarning viktimlik darajasi (koeffitsienti)ni rasmiy statistika ma'lumotlari asosida aniqlash lozim. Masalan, jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilgan jinoyatning turiga va alohida mintaqalarga tatbiq etish natijasida aniqlashtirish mumkin.

Ko'p hollarda zo'rlikdan jabr ko'rgan ayol jabrlanuvchilarning viktim xulqi jinoyat sodir etishga asos qilib olingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, jabrlanuvchi ayollarning 42,5%i jinoyatchi bilan birgalikda spirtli ichimlik iste'mol qilib, buning natijasida qarshilik ko'rsata olmaganliklarini, qarshilik qilish imkoniyati bo'la turib, faqat 57,5 %i qarshilik ko'rsatganligi aniqlangan.

Biz sud tergov amaliyotini o‘rganar ekanmiz, 19–25 yoshdagi jabrlanuvchilarning 85%i qarshilik ko‘rsatganliklarini, 18 yoshdan kichik 50 yoshdan katta bo‘lgan jabrlanuvchilar orasida juda kam shaxs qarshilik ko‘rsatganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning tajribasizligi, qariyalarning qarshilik ko‘rsatishga kuchi yetmasligidir.

Bu esa, jinsiy jinoyat sodir etiladigan joydagi vaziyatning o‘zi jinoyatchi tomonidan jabrlanuvchining potensial xulq-atvorini (masalan, jismoniy qarshilik ko‘rsatishini) hisobga olishini nazarda tutadi va faollik darajasi past bo‘lgan jabrlanuvchilarning tanlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, jabrlanuvchilarning viktim xulq-atvori sababli nomusga tajovuz qilganlarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Jumladan: 1) jinoyat jabrlanuvchilarining mast holda bo‘lganligi; 2) pala-partish tanishuvi, yengiltak, ba‘zan erkak bilan muloqotda chechan bo‘lgan ayollar kiradi. Bunday ayollar, o‘zlarining xatti-harakatlari bilan o‘z nomusiga tajovuz qilinishiga moyillik bildirishadi; 3) noto‘g‘ri jinsiy tarbiya olganlar kiradi. Ular shahvoniy shilqimlik qilinganda o‘zini qanday tutishini bilishadi, ammo nomusiga tajovuz qilayotgan shaxsdan o‘zini himoya qila olmaydilar; 4) erkaklarning e‘tiborini noto‘g‘ri tushunadigan, shahvoniy xatti-harakatli, jinoyat yuz berishi mumkinligini o‘ylamaganligi sababli jabrlangan ayollar kiradi[4; – B. 65.].

Bunday guruhlariga bo‘lib o‘rganishdan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, jabrlanuvchilarning viktim xulq-atvori jinoyat sodir etishda asosiy rol o‘ynar ekan.

Masalan, jabrlanuvchining jinoyatga ko‘maklashmaydigan xulq-atvori obyektiv ravishda kriminogen – viktimogen xususiyatga ega emas. Bu esa jinoiy xatti-harakatlarga turtki bo‘lmaydi va jinoyatning sodir etilishiga ko‘maklashadigan shart-sharoitlarni vujudga keltirmaydi. Ular betaraf xususiyatga ega bo‘ladi yoki jinoiy tajovuzga aks ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni bunda jabrlanuvchining xulq-atvori jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lmay, balki shart-sharoit yaratib beradi. O‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etishda 53,9% sharoit yaratib bergan, badanga tan jarohat yetkazishda 24,1% aybdorga ko‘maklashgan, nomusga tegishda 22% da sharoit yaratgan. Boshqa zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda aybdorning jinoiy qilmishiga ko‘maklashmaganligi ma‘lum bo‘ldi.

Jabrlanuvchilarning 62 foizi zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat sodir etilishiga u yoki bu tarzda ko‘maklashganlar, 38 foizida buning aksi bo‘lgan. Ya‘ni ularning harakatlarida aybdorda nojo‘ya xulqning vujudga kelishiga ta‘sir ko‘rsatgan qandaydir omillar mavjud bo‘lgan. Jabrlanuvchilarning xulq-atvoridagi viktimlikning ko‘rinishi turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning jinoyat sodir etilishiga ta‘siri bevosita jinoyatdan avval yuzaga kelgan vaziyat yoki jinoyatchining shaxsi orqali agar ular o‘tmishida unga shakllantirishga ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, namoyon bo‘lishi mumkin. Kriminogen sabablar sifatida bajaradigan vazifasiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish lozim: 1) jinoyat sodir etilishi uchun kriminogen vaziyatni vujudga keltiruvchi xulqning ko‘rinishlari; 2) jinoyatchi shaxsida g‘ayriaxloqiy xulq-atvorni shakllantiruvchi kriminogen ijtimoiy-ruhiy xulqning shakllari.

Amaliyot materiallarining tahlili jabrlanuvchilarning bemalol foydalanishi mumkin bo‘lgan qarshilik ko‘rsatish usullaridan ham foydalanmaganliklaridan dalolat beradi.

Ulardan 57,7 foiziga nisbatan oxirgi jinoiy tajovuzga qadar aybdor shaxs tomonidan jismoniy zo'rlik ishlatilgan. Jabrlangan shaxslarning 22,1 foizi o'ldirish, sog'lig'iga og'ir shikast yetkazish bilan qo'rqitilgan. Biroq jinoyat ishlarining tahlili jabr ko'rganlarning atigi 15,4 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam so'rab murojaat etganligini ko'rsatadi.

Bunday tahlildan shu narsa ko'rinib turibdiki, jabrlanuvchining faol emasligi jinoyatchida g'ayriqonuniy xulq jazolanmaydi, hamma narsani qilish mumkin degan fikrni shakllantiradi. Natijada aybdor zo'ravonlik harakatlarining tobora xavfliroq ko'rinishlariga osonroq o'tadi va avvalgisiga o'xshash janjalli vaziyatda bo'la turib, jamiyat manfaatlariga zid harakatni sodir etadi.

Turmushda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning asosiy qismi nomusga tegish jinoyatlari bo'lib, ularni vujudga keltiruvchi asosiy omil alkogolizm hisoblanadi. Bunday vaziyatda dastlabki vazifa alkogolizm va giyohvandlikdan davolanishni tashkil qilish va psixiatr hamda psixolog mutaxassislariga murojaat etish hisoblanadi. Hayot bu choralarning maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Xususan, psixolog va kriminalistlarning fikricha ayollar nomusga tegish jinoyatidan jabrlanishning oldini olishi uchun quyidagi qoidalarga rioya etishlari zarur: tungi vaqtda kimsasiz joylarda bir o'zi yurmasligi; notanish kimsalar bilan ovloq joylarga bormaslik; yashash joyiga notanish shaxslarni olib kelmaslik; spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan notanish guruhlariga qo'shilmaslik; notanish erkaklar bilan o'zini sipo tutishi va spirtli ichimliklar ichib o'zini ojiz ahvolga solib qo'ymasligi va hokazolar. Agar notanish kimsa tajovuz qilsa, avvalo, unga ruhiy ta'sir o'tkazish kerak. Masalan, OIV/OITS yoki boshqa ruhiy kasalliklarga chalinganligini aytish mumkin.

Zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimlikning yakka tartibdagi profilaktikasiga doir choralari ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari orqali berilgan axborotni idrok etish va o'zlashtirish osonroq va qulayroq ekanligini hisobga olib, bunday yo'sindagi tavsiyalarni osongina eslab qolish imkonini beradigan tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda odamning hayot tarziga xos bo'lgan turli vaziyatlar va sharoitlarda unga hujum qilinishining ehtimol tutilgan variantlarini tahlil qilish uchun samarali va maqbul bo'lgan himoya usullarini ishlab chiqish taklif etiladi.

Ayniqsa, viktimogen vaziyatlarda harakat qilish tajribasiga ega bo'lgan kishilarning maslahatlari, foydali va ishonchga sazovor bo'lishi lozim.

Davlat zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimologik profilaktikasida jamoatchilik ishtirokining mazkur shakllaridan manfaatdor va shu bois bunday tashabbuslarni fuqarolarga zarur axborot berish, maxsus dasturlarni moliyalashtirish, ijobiy tajribani ommaviy axborot vositalari orqali keng yoyish va hokazo yo'llar bilan har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

Shuni qayd etish lozimki, jinoyatchilikning rasmiy statistikasidan tashqari, aholi o'rtasida anonim tarzida o'tkaziladigan so'rovlar jinoyatchilikning miqyosi, taqsimlanishi va rivojlanishini aniqlash imkonini beradi; turli jinoyatlar bo'yicha viktimlashuv darajasini namoyish etadi; jinoyatchi bilan jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni

va ularning ijtimoiy-demografik belgilarini ko‘rsatadi; viktimlashuv amalda yetkazgan ziyonga baho berish; uning xavflilik darajasini aniqlash; ayrim jabrlanuvchilar o‘zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga arz qilishdan bosh tortganining sabablarini tushuntirish; jinoiy adliya organlarining ishiga baho berishga ko‘maklashadi. Albatta, bunday sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish muayyan kuch-g‘ayrat sarflashni talab qiladi.

Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligini profilaktika qilishda bir-birini qo‘llab-quvvatlash shaxslarning birlashuvidan tashqari, amaliy viktimologiyadan ta‘lim kurslarini tashkil qilishida o‘z samarasini berishi mumkin. Chet el tajribasida bu mavzudagi ma‘ruzalar bugungi kunda deyarli barcha o‘quv yurtlarida o‘qitilishidan dalolat beradi. Hatto, maktabgacha tarbiya muassasalarida ham bolalar sodda, o‘zlari tushunishga qodir bo‘lgan darajada turli-tuman xavf-xatarlardan qutulib qolish haqida foydali axborotlar oladilar.

Nazariy kursdan tashqari, maktab o‘quvchilari va talabalarda maxsus treninglar o‘tkazish: o‘zini o‘zi himoya qilish usullarini o‘zlashtirish, turli himoya vositalarini qo‘llash usulini maromiga yetkazish imkoniyati mavjud. Jinoyatlar viktimligining maxsus profilaktikasida jamoatchilik ishtirokining zarurligini taqozo etadi.

Ko‘pgina mamlakatlar tajribasidan ko‘rish mumkinki, hamma uchun muhim bo‘lgan umumiy maqsadlar va vazifalarni aniq belgilash va hatto, turli rag‘batlantirish choralaridan foydalanish bunday jamoatchilik harakatiga butunlay o‘zgacha tus beradi.

Masalan, AQShda huquqiy tartibotni qo‘riqlash va jinoyatlar viktimligining profilaktikasi borasidagi faoliyatda aholi ishtirokini rag‘batlantirish uchun turli-tuman usullar qo‘llaniladi: chiroyli bichimli yoki nufuzli andozadagi uniforma tekinga beriladi; mukofot tariqasida yodgorlik nishonlari topshiriladi; bepul ovqatlanish, xayriya kechalari tashkil etiladi; ommaviy axborot vositalarida davlatning oliy mansabdor shaxslari bunday tashkilotlarning a‘zolariga nomma-nom minnatdorchilik e‘lon qiladi. Bularning barcha ko‘rsatilgan faoliyat ishtirokchilariga o‘zining muhimligini his qilish va o‘z faoliyatining zarurligini tushunish imkonini beradi[5; – B. 97.].

Shuni tan olish kerakki, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining maxsus profilaktikasida o‘rganilganda viktimologik profilaktikaning axborot bazasini yaratish lozimligi muhimdir.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 16-moddasida “tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek zo‘ravonlik sodir etgan yoki zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlar vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yagona elektron ma‘lumotlar bazasiga kiritilishi” [6] belgilangan.

Shuningdek, viktimologik profilaktikaning axborot bazasini yaratish ham eng muhim vazifalardan biri hisoblanib, bunda so‘z, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlardan jabrlanganlar hisobini to‘liq va yagona yuritish tizimini yaratish haqida boradi. Xususan, ichki ishlar organlarining hisobotlarida statistik hisob yuritishning ayrim shakllariga aniqlik kiritish, ulardan jabrlanuvchilar haqida yanada keng va differensiatsiyalashgan ma‘lumotlar olishiga erishish zarur.

Bugungi kunda qo'llaniladigan statistik hisobotlar shakli jabrlanuvchilar haqida yetarli ma'lumotlarni aks ettirmaydi. U har xil xususiyatga ega bo'lgan, kriminologik tahlil jarayonida o'zaro bog'lanmaydigan ikki ko'rsatkichni birlashtiradi.

Jabrlanuvchilarning toifalarini farqlaydigan tasniflash mezonini bu yerda (kriminologik ma'noda) deyarli mavjud emas, ularni motivatsion belgilarga ko'ra taqsimlash esa informativ ahamiyat va profilaktik ahamiyat kasb etmaydi.

Zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar statistikasining to'liq emasligi sabablari ham har xil bo'lib, ular obyektiv va subyektiv omillarni o'zida birlashtiradi. Umuman olganda, ular jumlasiga jinoyatlarni ro'yxatga olish siyosati va amaliyotini, jinoyat ishlarini qo'zg'atishni rad etish amaliyotini va bundan kelib chiqadigan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar latentlik darajasi o'sishini kiritish odat tusini olgan.

Omillarning bu to'liq bo'lmagan ro'yxati pirovard natijada fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga olib keladi, natijada ularning ko'pchiligi o'zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar haqida arz qilishdan voz kechadilar.

Shunday qilib, zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar statistikasining to'liq bo'lmay, bu jinoyatlardan jabrlanganlar haqida axborotning yo'qligi, bunday jinoyatlarning oldini olish vazifalarini, mazkur faoliyatning yo'nalishlari va shakllarini belgilashni qiyinlashtiradi. Bunday vaziyatda statistik hisobotni takomillashtirish bilan bir qatorda, jabrlanuvchilarning shaxsi, xulq-atvori, huquqbuzarlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ularning o'zaro munosabatlari xususiyati, zararli oqibatlar ko'lamini va hokazolarga doir yanada mufassal va maqsadli viktimologik tadqiqotlar o'tkazish zarurati yanada kuchayadi.

Zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollarning viktimologik profilaktikaning maxsus oldini olishning yana bir vazifasi viktimologik profilaktikaga doir keng ko'lamli maqsadli dasturlarni ishlab chiqish bo'lib, bu dasturlar jinoiy tajovuzlarning aniq va ehtimoli bo'lgan jabrlanuvchilarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturining, jinoyatchilikka qarshi kurash dasturi bilan uzviy bog'langanligidir.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar aksariyati dam olish va maishiy joylarda shaxslar o'rtasidagi ziddiyatlar (shu jumladan oiladagi ziddiyatlar) negizida sodir etilishi aniqlangan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi kunda, birinchi navbatda, oila va maishiy hayotni sog'lomlashtirish va ixtisoslashtirilgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish ahamiyat kasb etadi. Ichkilikbozlik va alkogolizmning oldini olish va mazkur ijtimoiy illatlarga qarshi kurashish bunday dasturlarning muhim qismiga aylanishi lozim.

Darhaqiqat, alkogolizm va giyohvandlik kasallik ekanligi bugungi kunda hech kimda shak-shubha uyg'otmaydi va ularni u yoki bu tarzda davolashga harakat qilish masalalari dasturlarda o'z ifodasini topgan[7; – B. 95.].

Ayni vaqtda, yoshlar va o'smirlarning kriminogen holatini tiyish, talabalar va o'quvchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ular o'z muammolarini g'ayriqonuniy yo'llar bilan hal etmasliklariga erishish, ularning maishiy hayoti va bo'sh vaqtini o'tkazish usullarini sog'lomlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi[8; – B. 39–40, 51–52.].

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish, huquqiy targ‘ibot shakllari va usullarini takomillashtirish ham zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimligining maxsus profilaktikasida muhim rol o‘ynaydi. Bu aniq va ehtimoli bo‘lgan jabrlanuvchilarni himoya qilishda tarbiyaviy va profilaktik tadbir sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ayollarga nisbatan zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan umumiy chora-tadbirlar muhim sanaladi. Ular qatoriga:

- iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish va modernizasiyalash, jamiyatdagi ma‘naviy muhitni yaxshilash;

- fuqarolarning moddiy turmushini oshirish;

- muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy nazorat sohasini takomillashtirish;

- sifatli tibbiy xizmatlar olishga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash *kabi chora-tadbirlarni kiritish mumkin.*

Viktimologik profilaktika jamiyatdagi zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabatni, xulq-atvorni o‘zgartirishga qaratilishi lozim. Ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlikka qarshi olib boriladigan viktimologik profilaktika choralari asosida quyidagilar bo‘lishi zarur:

- erkaklar va ayollar zo‘ravonlik borasida turli “tajribaga” egalari;

- profilaktik choralari ayollarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishining sabab va sharoitlarini hamda uni sodir etadigan subyektlarni aniqlash bilan boshlanadi;

- profilaktik choralarning samarasi nafaqat ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik jinoyatlari haqida aholini xabardor qilib borish va tarbiyali ishlari bilan bog‘liq, balki jamiyatdagi ushbu muammoga bo‘lgan qarashlarni, munosabatlarni, xulq-atvorni va ijtimoiy normalarni yakka tartibda, mahalliy va yaxlit jamiyat miqyosida o‘zgartirishga ham bog‘liqdir.

Qonunda [9] ayollarga nisbatan amalga oshiriladigan zo‘ravonlikning viktimologik profilaktikasiga aloqador organ va mansabdor shaxslarning doirasi hamda ularning vakolatlari tartibga solingan. Unga muvofiq, zo‘ravonlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etadigan subyektlarning vakolatlari doirasida xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga yo‘naltirilgan profilaktika, shuningdek viktimologik profilaktika choralari ko‘radilar. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish va ushbu holatlarning oldini olishga mas‘ul subyektlarning hamkorlikda amalga oshiradigan chora-tadbirlari ham muhim hisoblanadi.

Qonunning 14-moddasi hamkorlikning asos va uning muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan. Unga binoan yuqorida qayd etilgan vakolatli organlar va tashkilotlar xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi sohalarida hamkorlik qiladilar:

- aniqlangan tazyiq va zo‘ravonlik faktlari to‘g‘risida o‘zaro bir-birini xabardor qilish;

- tazyiq va zo‘ravonlik holatlariga munosabat bildirish choralari kelishish hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga amaliy yordam ko‘rsatish;

tazyiq va zo'ravonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish va tajriba almashish sohasidagi chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish sohasidagi tadbirlarni amalga oshiradigan mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, qonun hujjatlarini v a ularning qo'llanilish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari ham o'ziga xos jihatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida [11] xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari belgilangan, ular quyidagi yo'nalishlardan iborat:

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash;

aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;

fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

tazyiq va zo'ravonlik sodir etish xavfi bo'lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralarini amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;

aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.

Zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining oldini olish borasida ham bir qancha choralar ko'rish va uning oldini olish muhimdir. Bu choralar o'z navbatida ayollarning o'zini o'zi himoya qilish choralarini ko'rishga doir tavsiyalar olishi va uni amalda qo'llashlari lozimdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ayollarga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etilayotgan jinoyatlardan jabrlanishning oldini olish (ayniqsa, ayollar va bolalarga nisbatan zo'rlik ishlatilganda) uchun huquqni muhofaza qiluvchi organ va sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmat xodimlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga quyish, lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.unwomen.org/en/what-we-do/ending-violence-against-women/facts-and-figures>.
2. Майоров А.В. О Концепции виктимологического противодействия преступности // Юридическая наука и правоохранительная практика. – №4, 2015. – С. 51-57.
3. Котова Н.К. Виктимологические проблемы криминальной агрессии, – Астана, 2001. – С. 97.
4. Криминология. Словарь. – Санкт-Петербург: ЛАН, 1999. – С. 166. // Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari. Monografiya. – Toshkent: TDYuI, 2005. – B. 65.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/561/3680-son).
6. Курпнов И. О феномене преступности. // Уголовное право, 2001. – №4. – С. 95.
7. Криминологическая характеристика убийств. – Москва, 1997. – С. 39–40, 51–52.
8. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (www.lex.uz).
9. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (www.lex.uz).

* * *

**Zakirova Adina Gulyamovna,
Abdurasulova Qumrinisa Raimkulovna,
IIV Akademiyasi yu.f.d., professorlari**

XOTIN-QIZLARNING ZO‘RAVONLIKDAN JABRLANISHINING SABABLARI VA UNING OLDINI OLISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishining sabablari va uning oldini olishga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishining oldini olishga doir chora-tadbirlar yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlari: xotin-qizlar, zo‘ravonlik, jabrlanish, sabablar, omillar, zo‘ravonlikning oldini olish, gender tenglik, viktimlashuv, viktimologik hisob, statistika

Аннотация. В данной статье описаны причины, по которым женщины страдают от насилия, и вопросы, связанные с его профилактикой. Также в статье представлены предложения и рекомендации по защите женщин от насилия.

Ключевые слова: женщины, насилие, причины, факторы, профилактика насилия, гендерное равенство, виктимизация, виктимологический учет, статистика.

Annotation. This article describes the reasons why women suffer from violence and issues related to its prevention. The article also presents proposals and recommendations on measures to prevent women from violence.

Keywords: women, violence, victimization, causes, factors, prevention, gender equality, victimization, victimological account, statistics.

Ayollarga nisbatan zo'rlik ishlatish yo'li bilan sodir etiladigan jinoyatlarning asosida turli sabablar yotadi. Ayollarning hayoti va sog'lig'iga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va ularni tartibga soladigan normalar, gender notenglik xamda boshqa ijtimoiy, iqtisodiy va ruhiy omillar asosida shakllanadi. Xorijiy davlatlar mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish asosida ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklarni to'rt guruhga ajratish mumkin:

- iqtisodiy omillar;
- atrofdagilar bilan munosabat omillari;
- umumiy ijtimoiy munosabat omillari;
- shaxsiy omillar.

Masalan, iqtisodiy omillar ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklarga munosabatni aks ettiruvchi hukumatning iqtisodiy va huquqiy siyosatini, jamiyatda shakllangan madaniyat, ijtimoiy normalar va o'zaro munosabatlar amaliyotini o'z ichiga oladi.

Xomashyoga bo'lgan imkoniyat, ijtimoiy nazorat tizimi va aholining turmush tarzi ba'zi xududlarda maishiy zo'ravonlikning mavjud bo'lishi va muntazam sodir etilishi uchun asosiy omillar hisoblanadi.

Ijtimoiy ehtiyojlarning qoniqtirilmasligi, yashashdan zerikish, umidsizlikka berilish, ziddiyatlar, ruhiy zo'riqish yoki o'ziga ishonchsizlik kabi shaxsiy suiste'molliklarni oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayollar turmush kechiradigan yopiq ijtimoiy muhit zo'ravonlikni o'sishiga olib keluvchi yana bir omillardan hisoblanadi.

Biz tomondan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra zo'ravonlikka uchragan o'ttiz yoshgacha bo'lgan ayollarning 45 foizini aynan o'qimaydigan yoki ishlamaydigan va uyda o'tiradigan ayollar tashkil qiladi. Qat'iy ijtimoiy va do'stona aloqalarga ega ayollar esa maishiy zo'ravonlikka kamroq duchor bo'ladilar.

Ayolni o'rab turgan yaqinlarining zo'ravonlikka bo'lgan munosabatlari ham ayollarning zo'ravonlik qurboni bo'lishga turtki beruvchi omil sanaladi. Zo'ravonlikka ota-onaning, turmush o'rtog'ining, yaqin qarindoshlarning, jamoa vakillarining, ish bo'yicha hamkasblarning befarq munosabatlari oiladagi zo'ravonlikni kuchayishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda erkak tomonidan oilada ayolga nisbatan zo'ravonlikning sodir etilishiga olib keladi.

Yaqin kishilarning, dugonalarining o'z oilalarida tez-tez zo'ravonlikka duchor bulishlari zo'ravonlikning "legallashtirishiga" turtki beradi va bu oiladagi normal turmush tarzi sifatida qabul qilinishiga olib keladi. Erkaklarning oiladagi zo'ravonliklari umumiy tarzda kambag'allik va ishsizlik darajasi bilan bog'liq bo'lib, yon-atrofdagilarning shunday oilalarga ko'mak berish istaklarining mavjud yoki mavjud emasligiga ham bog'liqdir.

Atrofdagilar bilan munosabat omillari o'zining tushunchasiga ko'ra bir yoki bir nechta yon atrofdagilar bilan ijtimoiy aloqaga egalik yoki ega emaslik xolatini namoyon etadi. Munosabatlardagi har qanday buzilishlar, masalan: turli jinsga, ma'lumotga egalik, manfaatlarning ayriligi, hayotdagi qadriyatlarni turlicha talqin etish, xulq-atvordagi ziddiyatlar, ishonch darajasining va obro'-e'tiborning pastligi ayollarga nisbatan

zo‘ravonlik sodir etilishiga turtki berishi mumkin. Umuman olganda shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarning 90% erkaklar tomonidan sodir etiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlari sodir etilishining asosiy sabablaridan biri – jamiytdagi ayollarning o‘rnini, holatini belgilovchi gender tengsizlik ekanligi haqidagi fikrlari asosida haqiqat mavjud. Shu bois, ayol va erkak o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning taqsimlanishidagi va ularga egalik qilish imkoniyatlaridagi tengsizlik, erkaklarning jamiytdagi ustuvor mavqeda ekanligi haqidagi tasavvurlarning kuchayishiga olib keladi.

Gender tengsizlik sohasiga ayollardagi ma‘lumot darajasining pastligi, daromad olishdagi va oila xo‘jaligida qarorlar qabul qilishdagi tengsizlik, oilalarda o‘g‘il bolalarning tug‘ilishiga munosabatning yuqoriligi kabi holatlar taalluqlidir.

Ayollarning an‘anaviy gender roli ko‘plab jamiyatlarda ularga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonliklar tufayli ham yuqoridir. Gender tenglikni e‘tirof etgan mamlakatlarda ayollarga nisbatan zo‘rlik ishlatib sodir etilayotgan jinoyatlar soni ham keskin kamayib bormoqda. Jumladan, O‘zbekistonda so‘nggi vaqtlarda ayollarning ijtimoiy tengligini ta‘minlash borasida olib borilayotgan siyosat, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-mart kuni “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-sonli qarori [1], 2021-yil 5-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin- qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-sonli qarori [2], shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi “Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2-sonli qarori [3] va ko‘plab normativ hujjatlarda ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralar, ularni ijtimoiy faolligini oshirish, ayollarga moliyaviy ko‘mak berish hamda imtiyozli bank kreditlarini ajratish, yolg‘iz onalarni uy-joy bilan ta‘minlash kabi tadbirlar ayollar o‘rtasidagi jinoyatchilikni, shuningdek, ularning jinoyat qurboniga aylanish moyilligini pasaytirishga asos berdi.

Yuqoridagi tadqiqot tahlillaridan ikki xil xulosaga kelish mumkin:

1) *ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonliklarning asosida ayollarning viktim xulq-atvorlari (qonunga zid yoki axloqsiz) ham yotibdi. Ayrim ayollarning viktimligining o‘lishiga ularning shaxsiy-ruhiy holati ham sabab bo‘lmoqda.*

2) *ayollarning zo‘ravonliklardan viktimlashuv holati ularning yoshi, oilaviy holati, ma‘lumoti, ayol va aybdorlar o‘rtasidagi munosabatga bog‘liqdir [4].*

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida spirtli ichimlik ichish ayollarning o‘z turmush o‘rtoqlari (yoki birgalikda turmush kechiruvchi shaxs) tomonidan zo‘ravonlikka uchrashiga sabab bo‘luvchi salbiy illat sanaladi. Negaki surunkali ichkilik ichuvchi shaxslar muayyan ruhiy va boshqa ruhiy-emotsional muammolarga ega shaxslar hisoblanadi. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, ijtimoiy so‘rovga jalb qilingan 19% muntazam turmush o‘rtog‘larining zo‘ravonligiga uchragan ayollar turmush o‘rtog‘larining surunkali spirtli ichimlik iste‘mol qilishini, 13% zo‘ravonlikka uchragan

ayollarning turmush o'rtog'lari bir haftada bir-ikki marotaba spirtli ichimlik iste'mol qilishlari haqida aytganlar.

Zo'ravonlikka asoslangan yana bir viktimlashuv holatini yoshlikda zo'ravonlikka uchrashlik oqibatida ayolda shakllangan vaziyat bilan bog'liq; hayotiy tajriba egallaydi. Chunonchi yoshligida oilada zo'ravonlikning muntazam guvohi bo'lgan ayollar o'z erlari tomonidan uch marta ko'p zo'ravonlikka duchor bo'lar ekanlar. Shunday holatni so'rovga tortilgan ayollarning 45% e'tirof etgan.

Ayollarning zo'ravonliklardan viktimlashuvi haqidagi ishonchli ma'lumotlarning manbasini viktimologik hisob va statistik ma'lumotlarni yuritish tashkil qiladi. Ayollarga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar yuqori darajadagi latentlikka ega jinoyatlar hisoblanadi. Ko'pincha jabrlanuvchi ayollar sodir bo'lgan hodisa haqida huquqni muhofaza etuvchi idoralarga hamda sog'liqni saqlash muassasalariga xabar bermaydilar.

Viktimologik xususiyatga ega ma'lumotlarning yetarli emasligi ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik va tazyiqlarga samarali to'siq qo'yishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida ilmiy tadqiqotlarning aksar yo'nalishlari faqat ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklarning tushunchasi, ularning sabab va sharoitlarini o'rganishga qaratiladi, xolos.

O'zbekistonda zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning holatidan kelib chiqib aytish lozimki, ayollarga nisbatan zo'ravonlik bir necha yil davomida barqaror holda qolishi mumkin. Zero jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka, o'sishga erishish uchun yana bir necha yillar sarf qilinishi mumkin. Global pandemiya tufayli ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan barcha mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham aholining turmushidagi pasayishlar ishsizlikning muayyan darajada o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Bunday sharoitlarda zo'rlik va g'arazli maqsadlarda sodir etiladigan jinoyatlar ham o'sishi tabiiydir. Buning natijasida ayollarga nisbatan oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan zo'ravonliklar ham yuqorilanishi mumkin. Bunday sharoitda davlatning asosiy vazifasi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan, xususan ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik jinoyatlarining oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish bilan bog'lik.

Ayollarga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan umumiy chora-tadbirlar muhim sanaladi. Ular qatoriga:

1) iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va modernizatsiyalash, jamiyatdagi ma'naviy muhitni yaxshilash;

2) fuqarolarning moddiy turmushini oshirish;

3) muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ijtimoiy nazorat sohasini takomillashtirish;

4) sifatli tibbiy xizmatlar olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash kabi chora-tadbirlarni kiritish mumkin.

Viktimologik profilaktika jamiyatdagi zo'ravonlikka bo'lgan munosabatni, xulq-atvorni o'zgartirishga qaratilishi lozim. Ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlikka

qarshi olib boriladigan viktimologik profilaktika choralari asosida quyidagilar bo‘lishi zarur:

- *erkaklar va ayollar zo‘ravonlik borasida turli “tajribaga” egalar;*
- *profilaktik choralari ayollarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishining sabab va sharoitlarini hamda uni sodir etadigan subyektlarni aniqlash bilan boshlanadi;*
- *profilaktik choralarning samarasi nafaqat ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik jinoyatlari haqida aholini xabardor qilib borish va tarbiyali ishlari bilan bog‘liq, balki jamiyatlardagi ushbu muammoga bo‘lgan qarashlarni, munosabatlarni, xulq-atvorni va ijtimoiy normalarni yakka tartibda, mahalliy va yaxlit jamiyat miqyosida o‘zgartirishga ham bog‘liqdir.*

Qonunda [5] ayollarga nisbatan amalga oshiriladigan zo‘ravonlikning viktimologik profilaktikasiga aloqador organ va mansabdor shaxslarning doirasi hamda ularning vakolatlari tartibga solingan. Unga muvofiq zo‘ravonlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etadigan subyektlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- Ichki ishlar organlari;
- mehnat organlari;
- Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari hamda ta’lim muassasalari;
- Davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari hamda sog‘liqni saqlash muassasalari;
- O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi;
- Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari hisoblanadi.

Mazkur subyektlarning har biri Qonunda belgilangan vakolatlari doirasida xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga yo‘naltirilgan profilaktika, shuningdek viktimologik profilaktika choralari ko‘radilar. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish va ushbu holatlarning oldini olishga mas’ul subyektlarning hamkorlikda amalga oshiradigan chora-tadbirlari ham muhim hisoblanadi. Qonunning 14-moddasi [6] hamkorlikning asos va uning muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan. Unga binoan yuqorida qayd etilgan vakolatli organlar va tashkilotlar xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi sohalarida hamkorlik qiladilar:

- *aniqlangan tazyiq va zo‘ravonlik faktlari to‘g‘risida o‘zaro bir-birini xabardor qilish;*
- *tazyiq va zo‘ravonlik holatlariga munosabat bildirish choralari kelishish hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga amaliy yordam ko‘rsatish;*
- *tazyiq va zo‘ravonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish va tajriba almashish sohasidagi chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish;*
- *tazyiq va zo‘ravonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish sohasidagi tadbirlarni amalga oshiradigan mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish;*

- *xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'grisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, qonun hujjatlarini va ularning qo'llanilish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.*

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari ham o'ziga xos jihatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida [7] xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari belgilangan, ular quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;*

- *tazyiq va zo'ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash;*

- *aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish;*

- *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;*

- *fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;*

- *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;*

- *tazyiq va zo'ravonlik sodir etish xavfi bo'lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralari amalga oshirish;*

- *tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;*

- *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llash;*

- *aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.*

Shu bilan birga xotin-qizlarga nisbatan amalga oshiriladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish faoliyatida ichki ishlar organlarining o'rni muhim sanaladi. Zero, aynan ichki ishlar organlari mazkur huquqbuzarliklarga qarshi kurashni bevosita amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatni muvofiqlashtiruvchi mavqega egadir. Ichki ishlar organlari quyidagi vakolatlarga ega:

- *xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;*

- *tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rish, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam asosda profilaktika ishlarini olib borish;*

- *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilganligi yoki sodir etilishi tahdidi mavjudligi to'grisidagi murojaatlarni ko'rib chiqish;*

- *tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga rasmiy ogohlantirish berish;*
- *himoya orderini berish;*
- *zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rish;*
- *xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.*

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiqlar o‘tkazishni profilaktika qilishda xorij mamlakatlarining tajribasini ham o‘rganish foydadan xoli emas. Zero, rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohadagi muammolarni yechishga strategik yondoshuvlar shakllanganligini, ular asosida milliy harakatlar rejalari tuzilganligini qayd etish zarur. Ular ancha samarali natijalar berayotganligini ham ta’kidlash joyizdir” [8].

Jumladan Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) o‘tkazgan tadqiqotlar natijasiga tayanib, ushbu sohaga taalluqli viktimologik profilaktikaning eng yaxshi strategik ishlanmalarini e’tirof etgan. JSST xulosalarida amalga oshirilgan profilaktik choralar o‘z samarasini berganligi ham ta’kidlangan. Bular quyidagilardir:

- 1) *farzandlar va ota-onalar o‘rtasidagi xavfsiz va barqaror munosabatlarni shakllantirish (tarbiyalovchilar ishtirokida);*
- 2) *bolalar va o‘smirlar o‘rtasida ayollarni hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;*
- 3) *spirtli mahsulotlar sotuvini chegaralari va uni iste’molini kamaytirish;*
- 4) *sovuq va jangovor qurollar sotuvini tartibga solish;*
- 5) *erkak va ayolning gender tengligini ta’minlash ishlarini qo‘llab- quvvatlash;*
- 6) *ayol va erkak o‘rtasidagi ijtimoiy va oilaviy rollarni taqsimlash hamda erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan zo‘ravonlik qilish mumkinligi haqidagi jamiyatda shakllangan madaniy va ijtimoiy normalarni, ijtimoiy ong va dunyoqarashni o‘zgartirish;*
- 7) *barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi ayol va erkak o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish;*
- 8) *zo‘ravonlik qurbonlarini aniqlash, rehabilitatsiya qilish va qo‘llab-quvvatlash;*
- 9) *sudda ko‘riladigan ishlarda jabrlanuvchiga jamoatchilik vakilligi ishtirokini va davlat budjetidan yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqini ta’minlash.*

Bundan tashqari ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiq o‘tkazishga qarshi kurashda maxsus viktimologik profilaktika choralari ham o‘z o‘rniga ega. Jumladan, ayollarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik va tazyiqlarning oldini olish choralari sifatida qonunda choralar belgilangan. Uning eng muhimi – zo‘ravonlik yoki tazyiqqa uchragan xotin-qizlarga himoya orderini berishdir. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunda [9] himoya orderini berish va uning muddatini uzaytirish qoidalari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, himoya orderi tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga beriladi. Tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi.

Himoya orderini bergan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsni himoya orderining shartlari hamda uni bajarmaslik oqibatlarini va zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturlaridan o‘tish zarurligi to‘g‘risida xabardor qiladi.

Shaxs himoya orderini olish to'g'risidagi tegishli hujjatni imzolashni| rad etgan taqdirda, himoya orderini topshirayotgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan xolislar ishtirokida dalolatnoma tuziladi.

Tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq va zo'ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderini o'ttiz kun muddatgacha beradi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Agar xavf hali bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra uzg'i bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin.

Himoya orderini berish, uzaytirish yoki himoya orderini berishni yoxud uzaytirishni rad etish ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazorat uni bergan ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi.

Himoya orderida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- *rasmiylashtirilgan sana va joy;*
- *uni rasmiylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar;*
- *tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi va joyi, kasbi hamda yashash joyi;*
- *shaxsga nisbatan qo'llanilayotgan cheklovlarining ro'yxati.*

Shuningdek, himoya orderida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining sudga murojaat qilish huquqi to'g'risidagi, tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarligi haqidagi ma'lumot ko'rsatiladi.

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

- *tazyiq o'tkazishni va zo'ravonlik sodir etishni taqiqlash;*
- *tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo'l qo'yiladi);*
- *tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo'lishini taqiqlash;*
- *tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash, shuningdek ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklatish;*
- *tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki*

unda ko‘rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Agar himoya orderini berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilari aniqlansa, himoya orderini berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallari jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuboriladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan viktimologik profilaktikaning muhim usulini yakka tartibdagi chora-tadbirlar tashkil qiladi. Jumladan, quyidagi holatlar xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi:

- *tazyiq va zo‘ravonlik qurbonining murojaati;*
- *jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari;*
- *tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish faktlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;*
- *davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan materiallar;*
- *himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlar tazyiq va zo‘ravonlik faktlari aniqlangan taqdirda bu haqda tegishli ichki ishlar organlariga darhol xabar qilishlari lozim.*

Ichki ishlar organlari tazyiq va zo‘ravonlik to‘g‘risida og‘zaki yoki yozma xabar olganda bunday harakatlarga chek qo‘yish va ularning oldini olish yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan yakka tartibdagi chora-tadbirlar ko‘rishi lozim (“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunning 20-moddasi).

Ta‘kidlangan qonun xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari jumlasiga quyidagilarni kiritadi:

- profilaktika suhbatini o‘tkazish;*
- himoya orderini berish;*
- tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazlarga joylashtirish;*
- zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturlaridan o‘tish.*

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga nisbatan amalga oshiriladigan viktimologik profilaktikaning muhim chora-tadbirlari jabrlanuvchilarni maxsus markazlarga joylashtirish choralari nazarda tutadi. Jabrlanganlarni maxsus markazlarga joylashtirish uchun tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining yoki uning qonuniy vakilining boshpana berish to‘g‘risidagi arizasi asos bo‘ladi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganni maxsus markazga joylashtirish uning xohishiga ko‘ra o‘ttiz kungacha bo‘lgan muddatga amalga oshiriladi.

Zarurat bo‘lgan taqdirda bu muddat maxsus markazning ustavida belgilangan tartibda uzaytiriladi. Maxsus markazga joylashtirish muddati tugagach, agar tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga nisbatan xavf mavjud bo‘lsa, maxsus markaz ma‘muriyati bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi shart.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi maxsus markazga joylashtirilgan taqdirda, uning ish joyi saqlab qolinadi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining maxsus markazda bo'lish vaqti uni ta'lim muassasasidan mashg'ulotlarni o'tkazib yuborganligi munosabati bilan chiqarish uchun asos bo'lmaydi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar tazyiq o'tkazganlikda va zo'ravonlik sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsdan undiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son (www.lex.uz).
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2021 y., 07/21/5020/0191-son (www.lex.uz).
3. Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2021 y., 09/21/5020/0003-son (www.lex.uz).
4. Mouzos, Makkai, www
5. Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (www.lex.uz).
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (www.lex.uz).
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (www.lex.uz).
8. Yellsegg, Agango, Morton, Gennari, Kiplesund, Sotreras, Watts, 2015
9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (www.lex.uz).

* * *

Dilorom Qosimova,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Biznes boshqaruvi va logistika kafedrası professori,
iqtisod fanlari doktori,*

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar, gender tenglik strategiyasining asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, gender, gender tenglik, gender tafovutlar, imkoniyatlar.

Аннотация. В статья освещаются направления равноправия женщин и мужчин, основы Стратегии гендерного равенства.

Ключевые слова: стратегия, гендер, гендерное равенство, гендерная дифференциация, возможность.

Annotation. *The article highlights the directions of equality of women and men, the foundations of the Gender Equality Strategy.*

Keywords: *strategy, gender, gender equality, gender differentiation, opportunity.*

Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekiston islohotlari inson manfaatlari ustunligini ta‘minlash barobarida jamiyatda xotin-qizlar mavqeyini oshirish, ularning huquq hamda imkoniyatlarini ustuvor qadriyatlardan biri sifatida himoya qilishga qaratilgan. Bunda, ayniqsa, ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ro‘yobga chiqarilmoqda.

Ma‘lumki, gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi.

Xususan, so‘nggi uch yilda gender tenglikni ta‘minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo‘lida muhim choralar ko‘rildi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasiga qaratilgan qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident Farmoni, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Qonun hujjatlari xotin-qizlarning mehnat va tadbirkorlik huquqlariga oid standartlarga mosligi nuqtayi nazaridan inventarizatsiya qilindi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar ta‘minlash jamiyatimizda tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni saqlashning asosiy omillaridan biridir. Shuni hisobga olgan holda “2020–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” loyihasi tayyorlanib, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan kelishilmoqda. Shunisi e‘tiborliki, mazkur strategiyadagi barcha yo‘nalishlar BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining 2019-yil 10-iyundagi qo‘shma qarori bilan “Ayollar mehnati to‘liq yoki qisman qo‘llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo‘lgan ishlar” ro‘yxati bekor qilindi.

Erkak va ayolning teng huquqliligi xalq farovonligida, jamiyat tinchligi hamda iqtisodiy barqarorlikda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan ayollarning bandligini ta‘minlash, ularning o‘z intilish va qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqara olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida. Jumladan, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo‘yicha tizimli o‘quvlar tashkil etilmoqda.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish yo‘nalishida ham muhim qadamlar qo‘yildi. Bu boradagi tegishli qonunga muvofiq “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta‘minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlandi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi.

Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, Qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir.

Ana shunday salbiy holatlarga qarshi mazkur qonunning 2-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir."⁷²

Shuningdek, qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir.

2019-yilning 2-sentabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda "gender" tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.

Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya

⁷² [tps://nrm.uz/contentf?doc=598778_o%E2%80%9898zbekiston_respublikasining_02_09_2019_y_o%E2%80%9898rq-562-son_hotin-qizlar_va_erkaklar_uchun_teng_huquq_hamda_imkoniyatlar_kafo](https://nrm.uz/contentf?doc=598778_o%E2%80%9898zbekiston_respublikasining_02_09_2019_y_o%E2%80%9898rq-562-son_hotin-qizlar_va_erkaklar_uchun_teng_huquq_hamda_imkoniyatlar_kafo)

tashkil etildi. Komissiyaning asosiy vazifalari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, ushbu sohada qilingan ishlar bo‘yicha har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash va bu borada xalqaro standartlarga rioya etish sohasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat. Qonuniy huquq va erkinliklardan foydalanishda jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik ayrim ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

Hayot shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanib, “yo oila, yo ish”, – degan fikrlar gender tengligiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘rib turibmizki, rivojlanishning eng o‘tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og‘ir masalalardan biridir. Ming afsuski, xotin-qizlar ko‘pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar va hatto yo‘qotishlar (Bunda ko‘pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Mazkur holatning oldini olishda Qonunning 25-moddasida Uy mehnati jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas, u ayollar va erkaklar tomonidan teng darajada amalga oshiriladi”-deb belgilangan. Aynan 21-modda esa, mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini belgilagan. Bugun xotin-qizlar bandligini ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan. Xotin-qizlar qo‘mitalari tashabbusi bilan bo‘sh binolarni qayta ta‘mirlash va ishga tushirish hisobiga 2 700 tadan ortiq kichik sexlar tashkil etilib, 18 ming nafarga yaqin xotin-qizlarning bandligi ta‘minlandi. Xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratish oxirgi yillarda sezilarli oshdi.

Biz esa, qonunlarni qabul qilamizu, amalga oshirish uchun aholining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati yuksak bo‘lishini ta‘minlamasak, yana sun‘iy to‘siqlarga duch kelaveramiz.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi, ularga Xalq banki biriktirildi, 14 ta hududda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tashkil etildi. Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qarorlar qabul qilish va ijro etishning barcha sohalarida hamda darajalarida xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida tenglik tamoyilini tatbiq etishga keng qamrovli yondashuvni nazarda tutadi. Shuningdek, Strategiya erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish hamda insonning

fundamental huquqlariga rioya qilish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda gender tenglik targ'ib qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.⁷³

Gender tenglik strategiyasining asosiy yo'nalishlari:

1. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish.
2. Rahbarlik lavozimlariga ayollarni tayyorlab, tavsiya etib borish.
3. Ayollar bandligini ta'minlash, ular uchun munosib ish o'rinlari yaratish ishlarini davom ettirish.
4. Ayollar tadbirkorligini rivojlantiramiz, ularning moliyaviy resurslarga egalik qilish huquqlarini qat'iy talab qilish.
5. Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan bo'layotgan ayrim zo'ravonlik holatlarini to'liq bartaraf etish.
6. Imkoniyati cheklangan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash.
7. Ushbu strategiyaning yana bir muhim jihati – bundan buyon bu ishlar bilan nafaqat xotin-qizlar qo'mitalari, balkim barcha vazirliklar, hokimliklar ham shug'ullanadi.

Strategiyada barcha uchun teng huquqli va sifatli ta'limli ta'minlash, qishloq joylarida qizlarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, xotin-qizlar gender tengligiga erishish, zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik, odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan.

Senat vakilining so'zlariga ko'ra, strategiyadagi yo'nalishlar BMTning 2030- yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Darvoqe, qonuniy huquq va erkinliklardan foydalanishda jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik ayrim ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilmaydi. Chunonchi, bola tug'ish va ona suti bilan oziqlantirish, muddatli harbiy xizmatga chaqirish, gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar, xotin-qizlar va erkaklarning mehnatini muhofaza qilishda reproduktiv salomatlikni saqlash xususiyatlari, kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish, qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlari hamda huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari tartibga solishda farqlarni belgilash jins bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi ilg'or qadamlaridan biri sanaladi. Yangi qonun buning yaqqol dalili bo'lib, kelgusida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga hissa qo'shadigan tarixiy hujjat bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://sputniknews-uz.com/20201021/Oiladagi-zravonlik-allar-uui-gender-tenglik-Gulnora-Marufova-bilan-makhsus-intervyu-15229594.html>
2. <https://sputniknews-uz.com/20210615/ozbekistonda-gender-tenglik---2030-strategiyasi-qabul-qilindi---tanzila-narbaeva->

⁷³ <https://sputniknews-uz.com/20210615/ozbekistonda-gender-tenglik---2030-strategiyasi-qabul-qilindi---tanzila-narbaeva->

3. https://nrm.uz/contentf?doc=598778_o%E2%80%98zbekiston_respublikasining_02_09_2019_y_o%E2%80%98rq-562-son_hotinqizlar_va_erkaklar_uchun_teng_huquq_hamda_imkoniyatlar_kafo
4. <https://daryo.uz/k/category/mahalliy-c/>
5. Махатова, Н. И. Бошқарув услубларида гендер тафовутлар / Н. И. Махатова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 33 (375). – С. 165-167. – URL: <https://moluch.ru/archive/375/83582/> (дата обращения: 28.12.2022).
6. Берн Ш. Гендерная психология / Ш. Берн. – Санкт-Петербург: Прайм –ЕВРОЗНАК, 2011. – 320 с.

* * *

Н.Р.Нишанова,

заведующая кафедрой «Философия и
национальная идея» ТашГТУ им. И.А. Каримова,
д.ф.н., профессор,

Ф.Г.Кулуева,

кафедра «Философия и национальная идея»
ТашГТУ им. И.А. Каримова,
к.ф.н., доцент кафедры

РАСШИРЕНИЕ ПРАВ И ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ ЖЕНЩИН

Аннотация. Проблемой исследования является защита прав, свобод и законных интересов женщин. В рамках реализации Стратегий действий в Узбекистане разработано девять задач, указы и постановления Президента, постановления правительства, направленных на обеспечение гендерного равенства и расширения прав и возможностей всех женщин и девочек. И к 2030 году необходимо будет ликвидировать все формы дискриминации в отношении их. Для этого под руководством Председателя Сената Олий Мажлиса Комиссии, Парламентская комиссия, Республиканский совет женщин, Федерацией профсоюзов Узбекистана и Министерством по поддержке махали и семьи создана Республиканская рабочая группа.

Ключевые слова: гендерное равенство, обеспечение прав, свобод, законы, указы, постановления, цели, задачи, женщины, девочки, Узбекистан.

Annotatsiya. Tadqiqot muammosi – ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. O‘zbekistonda Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida gender tengligini ta’minlash, barcha xotin-qizlar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan to‘qqizta vazifa, Prezidentimizning farmon va qarorlari, hukumat qarorlari ishlab chiqildi. 2030-yilga borib esa ularga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish kerak. Shu maqsadda Oliy Majlis Senati Raisi rahbarligida Komissiya, Parlament komissiyasi, Respublika Xotin-qizlar kengashi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan Respublika ishchi guruhi tashkil etildi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, huquqlar, yerkinliklarni ta’minlash, qonunlar, farmonlar, qarorlar, maqsad, vazifalar, ayollar, qizlar, O‘zbekiston.

Annotation. *The research problem is the protection of the rights, freedoms and legitimate interests of women. As part of the implementation of the Action Strategies in Uzbekistan, nine tasks, decrees and resolutions of the President, and government decrees have been developed aimed at ensuring gender equality and empowering all women and girls. And by 2030, all forms of discrimination against them will be eliminated. To this end, under the leadership of the Chairman of the Senate of the Oliy Majlis, the Commission, the Parliamentary Commission, the Republican Council of Women, the Federation of Trade Unions of Uzbekistan and the Ministry for Support of the Mahalla and Family have established a Republican Working Group.*

Key words: *gender equality, ensuring rights, freedoms, laws, decrees, resolutions, goals, tasks, women, girls, Uzbekistan.*

В рамках реализации Стратегии действий, а также в целях организации последовательной работы по реализации и достижений Целей устойчивого развития ООН на период до 2030 года Узбекистан разработал девять задач, направленных на обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин и девочек. В соответствии с задачами к 2030 году необходимо повсеместно ликвидировать все формы дискриминации в отношении женщин и девочек, обеспечить гендерное равенство, всестороннее и эффективное участие женщин и равные для них возможности для лидерства на всех уровнях.

Следует отметить, что Узбекистан присоединился ко всем основным международным договорам, предусматривающим правовую, социальную и экономическую защиту женщин от любых форм дискриминации и притеснений. Приняты гендерно ориентированные законы «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин»[1], «О защите женщин от притеснения и насилия»[2], «Об охране репродуктивного здоровья граждан»[3], «О внесении изменений и дополнений в статью 15 Семейного кодекса», «О внесении изменений в Трудовой кодекс Республики Узбекистан» – о снятии ограничений, связанных с выбором женщинами ранее запрещенных форм трудовой деятельности и других гендерно ассиметричных положений трудового законодательства. В их разработке участвовали эксперты таких агентств ООН, как Программа развития ООН, Фонд народонаселения, Детский фонд, Управление Верховного комиссара по правам человека, Управление по наркотикам и преступности, Международная организация по миграции и Международная организация труда.

Принято также свыше 20 указов и постановлений Президента, постановлений правительства. Внесен ряд изменений и дополнений, предусматривающих усиление работы по предотвращению насилия в отношении женщин и домашнего насилия, борьбе с устаревшими обычаями. Введена обязательная гендерно-правовая экспертиза законодательных актов, направленная на устранение несоответствия положений нормативно-правовых актов принципам гендерного равенства, выявление возможных рисков дискриминационного характера в процессе их применения.

Разрабатывается Стратегия достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года, направленная на обеспечение равных прав и возможностей

для женщин и мужчин во всех сферах, в общественной жизни в процессе осуществляемых в стране социально-экономических реформ.

Итак, в Узбекистане реализуются последовательные меры, направленные на повышение роли парламента в совершенствовании законодательства и правоприменительной практики в этой области: под руководством Председателя Сената Олий Мажлиса создана Комиссия по вопросам обеспечения гендерного равенства. В верхней палате парламента образован Комитет по вопросам женщин и гендерного равенства, основной задачей которого является разработка предложений по реализации государственной политики, направленной на обеспечение гендерного равенства, совершенствование законодательства и осуществление парламентского контроля в данной сфере. Комитет ведет мониторинг за исполнением законодательства в этой области. Осуществляется действенный парламентский контроль за повышением роли женщин в обществе, обеспечением гендерного равенства, прав, свобод и законных интересов женщин, решением их проблем, подготовкой девушек ко взрослой жизни, поддержкой женщин, оказавшихся в тяжелом социальном положении, а также содействием их занятости, развитием сферы культуры и искусства. В практику вошло регулярное заслушивание отчетов руководителей ответственных ведомств по данным вопросам. Организована системная работа Парламентской комиссии по контролю за реализацией Национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года, где пятая цель посвящена задачам достижения гендерного равенства. В число ее основных задач входят осуществление мониторинга за исполнением законодательства, проведение критического анализа развития тех сфер, которые включены в Национальные цели устойчивого развития. Создан Республиканский общественный совет женщин во главе с Председателем Сената Олий Мажлиса, одной из основных задач которого наряду со всесторонней поддержкой женщин и девушек является координация вопросов по выполнению положений Конвенции ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин и реализации Пекинской платформы действий и Национального плана действий; созданы Министерство по поддержке махалли и семьи, одним из приоритетных направлений которого является всесторонняя поддержка женщин, а также Фонд по поддержке женщин и семьи, призванный оказывать всестороннюю поддержку женщинам, содействовать их участию в организации семейного и частного предпринимательства, ремесленничества, получению ими знаний и навыков по востребованным на рынке труда профессиям; Федерацией профсоюзов Узбекистана и Министерством по поддержке махалли и семьи создана специальная Республиканская рабочая группа, которая изучает и выявляет во всех регионах жизненные проблемы женщин, организует работу по сокращению бедности и повышению благосостояния населения.

Таким образом, «принятие Национальной программы по обеспечению занятости женщин, дальнейшему повышению их роли и статуса в государственном и общественном управлении, расширению условий для реализации их потенциала, доведению на новый уровень работы в сфере гендерного равенства, охране

семьи, материнства и детства» [4] является очень актуальной проблемой для нынешнего положения дел в области гендерного равенства.

В связи с этим необходимо постоянно проводить мониторинг критериев, определяющих равноправие женщин и мужчин во всех сферах. Исходя из показателей, характеризующих равноправие полов необходимо выявлять проблемы, над которыми надо работать. Однозначно невозможно разом решать все проблемы, необходим существенный вклад и материальных и человеческих ресурсов, изменение мышления не только мужчин, но и самих женщин. Это комплексная и системная работа, требующая участия абсолютна всех действующих структур.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» от 2.09.2019 // <https://lex.uz/docs/4494873>.
2. Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» от 2.09.2019 // <https://www.lex.uz/docs/4494712>.
3. Закон Республики Узбекистан «Об охране репродуктивного здоровья граждан» от 11.03.2019 // <https://lex.uz/ru/docs/4233888>.
4. Указ Президента Республики Узбекистана «Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг.» от 28.01.2022 г. // <https://lex.uz/ru/docs/5841077>.

* * *

Xalikova Raxbar Ergashevna,
Toshkent davlat texnika universiteti
Tarix fanlari doktori, professor
@tdtu.uz rahbarkholikova@mail.ru

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILINISHIDA ISLOHOTLARNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada ayollarning baxt-saodati muammosi bu butun jamiyatning muammosi bo'lib kelgani, mustaqillik yillarida, ayniqsa bu holat dolzarb ahamiyat kasb etgani, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish borasida qator ishlar olib borilayotgani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: oila, davlat, jamiyat, xotin-qizlar, Islom dini, oilada zo'ravonlik, qonun, qaror, islohot, himoya, gender tenglik, tajriba.

Аннотация. В статье говорится, что проблема женского счастья стала проблемой всего общества, особенно в годы независимости это положение приобрело актуальное значение, обеспечение прав и интересов женщин, гендерное равенство, защита семьи, материнства и детства, предупреждение домогательств и насилия в отношении женщин.

Ключевые слова: семья, государство, общество, женщины, Ислам, домашнее насилие, закон, решение, реформа, защита, гендерное равенство, опыт.

Annotation. *The problem of women's happiness has become a problem for the whole society, especially during the years of independence, this provision has become relevant, ensuring the rights and interests of women, gender equality, protecting the family, motherhood and childhood, prevention of harassment and violence against women.*

Key words: *family, state, society, women, Islam, domestic violence, law, solution, reform, protection, gender equality, experience.*

Oila har bir jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam tinch halol va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta mustahkam farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shu boisdan eng mukammal din bo‘lmish Islom oilaning pokligi, kamoloti, osoyishtaligiga hamisha katta e‘tibor bilan qarab keladi [1].

XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida ushbu masalaga alohida to‘xtalib shunday deb yozadi: “Hozir vijdon va axloq haqidagi fikrlar batamom esimizdan chiqib ketgan, mazlumlikning eng past jariga tushib, zolimlikning eng oliy darajasiga chiqqanmiz. Kim bizdan zaifroq bo‘lsa, unga o‘ylamasdan ozor beramiz. Bizdan kuchli bo‘lgan kishining esa, otning tuyog‘i naqshiga sajda qilamiz. Shak-shubhasiz, bular shunday onalar tarbiyalarining natijasidir.

Eng avvalo, isloh va adolat bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan qoida bu er-xotinning muomalalari sanaladi. Bu munosabatlarni qanday isloh qilsa bo‘ladi? Bunda Qur‘on hukmlari asosida er-xotin munosabati bir asosiy qoida sifatida bayon qilinadi. “Erning xotiniga nisbatan qanday huquqi bo‘lsa, xotinning ham eriga nisbatan shunday haqqi bor”, – deyilgan Baqara surasida. Shu oyati karimadan ma‘lum bo‘ladiki, xudovandi karim, ayollarni erlariga qul qilmay, balki erkaklarga qancha huquq bergan bo‘lsa, shuni ayollarga ham ato qilgan” [2].

Albatta, muallif oilaning totuvligi, tinchligi er-xotin munosabatlariga bog‘liqligi va bu munosabatlarda ikkala tomon bir-birini hurmat qilishi, haq-huquqlarini poymol qilmaslik, o‘zidan ojiz xilqat bo‘lgan ayollarga tazyiq o‘tkazmaslik haqida to‘xtalib o‘tadi. Olim “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, deya yozadi u [3].

Xalqimizda bir kun janjal bo‘lgan uydan qirq kun baraka ko‘tariladi, degan gaplar bejiz aytilmagan. Ahil-inoq oilalarda o‘sgan farzandlar ertaga jamiyatda ham o‘zlari ko‘rgan tarbiyani farzandlariga va ahli ayoliga qo‘llaydilar. Oilada, ayniqsa, qizlar tarbiyasiga alohida e‘tibor berilgani to‘g‘risida islom manbalarida ko‘plab ma‘lumotlar keltiriladi.

Qizlarning tarbiyasi, ta'limi va madaniyati hamda yashab, o'sishi uchun zarur bo'lgan har bir narsa otaning zimmasidagi farzdir. Ota bu farzdan faqat qiz turmushga chiqqanidan keyingina ozod bo'ladi, chunki endi bu farz urning zimmasiga o'tgan bo'ladi. Otasi yoki eri yo'q ayolning nafaqasi akasi yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarga vojib bo'ladi. Umuman, Islomda ayol kishi nafaqasiz qolishi mumkin emas. Qizning nafaqasi otaga, xotinniki erga, singilniki aka-ukaga, onaniki o'g'ilga vojib bo'ladi.

Islom ayol kishiga ta'lim olish va madaniy saviyasini oshirish haqqini berdi va erkaklarni bu ishga mas'ul qildi. Ilm talabi erkak va ayolga barobar farzligini, qizlariga va singillariga ta'lim-tarbiya bergan kishi jannatga haqli bo'lishini yaxshi bilamiz [4].

Ayollarning baxt-saodati muammosi bu butun jamiyatning muammosidir, chunki ijtimoiy taraqqiyotni xotin-qizlarning erkisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Azaldan ma'lumki, ayollari baxtsiz, huquqlari va erkinliklari kamsitilgan jamiyat taraqqiy etmagan jamiyat sanaladi.

Yangi jamiyatning barpo etilishini xotin-qizlarga shaxs sifatida hurmat, e'tibor bilan munosabatda bo'lmaslikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Xotin-qizlar ham shaxs sifatida erkaklar bilan teng haq-huquqlarga ega, ular ham o'zlarining hayot yo'lini o'zlari tanlashga haqlidirlar.

Faqat chinakamiga erkin, mustaqil va to'la huquqli ayol barcha darajalarda qarorlarni qabul qilishda faol qatnashishi, bilimli, ziyoli o'z Vataniga sodiq avlodni tarbiyalab, kamolga yetkazishi mumkin [5].

Jamiyatimizda ayollarga e'tibor, ularni e'zozlash, ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma'noda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilayotgani chuqur hayotiy asosga ega. Jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti jihatdan ayollarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan belgilanishi bejiz emas [6].

Bugungi kunda davlat rahbarligida O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan inson qadri ustuvor bo'lgan Yangi O'zbekistonda ayol qadri ham alohida o'ringa ega. Shu sababli Respublikamizda ayollarga nisbatan barcha zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan turli huquqiy, siyosiy, ma'muriy va madaniy dasturlarni yanada takomillashtirish hamda bu hodisani bartaraf etuvchi maxsus qonun va qarorlar qabul qilindi. Ana shunday qonuniy hujjatlardan biri 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror va 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonundir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o'z umr yo'ldoshi tomonidan jismoniy tazyiq o'tkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'ravonlik holatlariga duch kelganlari haqida ma'lum qiladi. Ayollar o'limining 38 foizi ularning turmush o'rtog'i tomonidan

amalg oshiriladi va zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so‘zlaydi. Zo‘ravonlik bu bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan qasddan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazishidir. Oilaviy zo‘ravonlik esa oila a’zolarining boshqa a’zolariga (xotin, ota-ona, bolalar va boshqalar) ustidan hukmronlik va nazorat qilish maqsadida, odatda aynan bir shaxsga nisbatan jismoniy va ruhiy zo‘rlilik qilishdir. Umuman olganda butun dunyoda statistik ma’lumotlarga ko‘ra, aksariyat hollarda oilaviy zo‘ravonlikdan xotin-qizlar va bolalar jabr ko‘radi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar qilinayotgan bir vaqtda, mazkur sohadagi ishlar tahlili oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda qator kamchilik va to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlik muammosi o‘tkirlikicha qolmoqda. Oiladagi zo‘ravonlik bugungi kun muammosi bo‘lsa-da, bugunning yangiligi emas. Bu illat qadim zamonlardan beri turli millat fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy maqomidan va dinga bo‘lgan e’tiqodidan qat’i nazar, ma’lum bo‘lgan va keng tarqalgan. Oiladagi zo‘ravonliklarni bartaraf etmasdan turib, jamiyatda gender tengligiga erishib bo‘lmastligini barcha birday tushunadi [7].

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xotin-qizlar masalasi, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, maishiy hayotdagi muammolarini hal qilish, iqtidori va imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz rivojida, jamiyat hayotida, oilalar mustahkamligida xotin-qizlarning o‘rni va ahamiyati katta. Yurtimiz aholisining 50 foizini tashkil etadigan xotin-qizlar jamiyatning barcha sohalarida samarali faoliyat yuritmoqda. Gender tenglikni joriy qilish nuqtayi nazaridan barcha sohalar qatorida ta’limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta’kidlash kerak, Ya’ni 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o‘quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati qayta tiklandi. Ta’limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma’lumot olish imkoniyatini beradi. O‘tkazilgan tadbir jamiyatimizda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishda, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqi hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashda, ularning yechimlarini ilmiy va amaliy yo‘nalishlarda ochib ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, Qonunning qabul qilinishi davlat boshqaruvida ayollarning erkaklar bilan teng sharoitda ishtirok etishini, ayniqsa, rahbarlik lavozimlarida ham ishlashi mumkinligini kafolatlaydi. Shuningdek, qonunda hokimiyat vakillik organlariga saylovlarda ham siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi ta’minlanishi belgilab qo‘yildi [8].

Bu oilada tarbiyaning zaifligi, ota-onalarning o‘z muammolari sababli kelisholmay, oilada nosog‘lom muhit yaratgani va farzand tarbiyasiga mas’uliyatsizlik bilan qarayotganidan dalolat beradi, – deydi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori Alisher Murodov. Farovon oilani bunyod etishda Kanada tajribasi keng e’tirof etilgan. Nima uchun? Chunki, Kanada davlatida oiladagi huquqiy profilaktika bo‘yicha bir yilda

ellikdan ortiq hujjatli film, video roliklar olinadi. Agar bizning yurtimizda ham maishiy turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid videofilm, reklama va boshqa materiallar tayyorlanib, OAVda muntazam ravishda namoyish etilsa, bu oilalarda sog'lom ma'naviy muhit qaror topishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi [9].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, hali amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p, ayollarimizni asrab avaylab har qanday tazyiqning oldini olish uchun kurashmog'imiz birgalikda harakat qilmog'imiz zarur!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oila baxt qo'rg'oni. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyotining tayanchi. Respublika ilmiy-nazariy, uslubiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2012-yil 18-19 may, – 106 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila. –Toshkent, Ma'naviyat, 1998. – 34 b.
3. O'sha manba. – 4 b.
4. <https://islom.uz/view/islomda-ayollar-huquqi>.
5. Ayol huquq va erkinliklari. – Toshkent: Adolat, 2002. – 110 b.
6. Tolipov F., Atamuratov M. O'zbek oilasi: tarixi va turmush tarzi. – Toshkent: Nurfayz, 2020. – 252 b.
7. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 2022-yil 4- mart, – B. 71.
8. <https://adolat.uz/articles/hotin-qizlarni-tazjiqlar-va-zoravonlikdan-himoya-qilish-muhim-masala>.
9. <https://hidoyat.uz/24642>.

* * *

Abbasova Muhayo Sadilloeyvna,

*“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti,
Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi
e-mail: m.abbasova@univ-silkroad.uz*

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY VA IQTISODIIY MUHITDAGI GENDER TENGLIGI

Annotatsiya. Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy muhitdagi Gender tengligi, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularga bo'lgan e'tibor, ularning ijtimoiy-siyosiy islohotlardagi ishtiroki, jamiyatning ijtimoiy yacheykasi hisoblanmish oilalarning mustahkamligida ayollarning o'rni beqiyosdir. Zero, ayollar oilada farzand tarbiyasi hamda er uchun eng yaqin do'st va maslakdosh shaxs hisoblanadi. Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi gender tengligi masalasi tahlil qilingan. Ayollarga nisbatan qilingan zo'ravonliklar imkon qadar yoritilgan. Shuningdek, respublikamizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va mavqeyini mustahkamlashga, ularning imkoniyatlarini kengaytirishga keng yo'l berilayotgani, gender tengligi, reproduktiv salomatlikka oid loyihalar, istiqbolli dasturlarga ko'ra amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ehtirom, e'zoz, ayol, tarbiya, oila, yacheyka, zo'ravonlik, gender tenglik, reproduktiv.

Аннотация. В сегодняшнем обновляемом Узбекистане роль женщины в социально-экономической среде, роль в обществе, внимание к ним, их участие в общественно-политических реформах, в создании крепкой семьи, являющейся социальной ячейкой общества несравнима. Ведь женщина – самый близкий друг и профессионал по воспитанию детей в семье и для мужа. В данной статье анализируется вопрос гендерного равенства женщин в обществе. Насилие в отношении женщин освещается в максимально возможной степени. Также было отмечено, что в нашей республике широко допускается укрепление роли и положения женщин в управлении государством и обществом, расширение их возможностей, реализация мер по проектам и перспективным программам, связанным с гендерным равенством, также были затронуты вопросы репродуктивного здоровья.

Ключевые слова: уважение, достоинство, женщина, воспитание, семья, ячейка, насилие, гендерное равенство, репродуктивность.

Annotation. In today's renewed Uzbekistan, the role of women is incomparable in the social and economic environment, the role in society, attention to them, their participation in socio-political reforms, in creating a strong family, which is a social unit of society. After all, a woman is the closest friend and professional in raising children in the family and for her husband. This article analyzes the issue of gender equality of women in society. Violence against women is covered to the maximum extent possible. It was also noted that in our republic it is widely accepted to strengthen the role and position of women in government and society, expand their opportunities, implement measures on projects and promising programs related to gender equality, and issues of reproductive health were raised.

Key words: respect, dignity, woman, upbringing, family, cell, violence, gender equality, reproduction.

Jamiyat taraqqiyotida oila asosiy poydevor bo'lsa, ayol ushbu poydevorning mustahkamligi, tinchligi, farovonligini ta'minlovchi muhim ustuni hisoblanadi. Shuning uchun insoniyat taraqqiyoti takomilida ayollarning o'рни beqiyos bo'lgan. Ayollarsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlari, mohir va uddaburon murabbiylari, mehribon va oqila tarbiyachilari.

Darhaqiqat, ayol sevimli ona, sadoqatli rafiq, orasta beka, oila va jamiyat ko'rki sifatida ulug'lanadi. Ayolga “buyuk zot”, “buyuklarni dunyoga keltirgan buyuklarning buyugi”, “bir qo'li bilan beshikni, bir qo'li bilan esa dunyoni tebratadi” deb ta'rif beriladi. Bunday e'tirof millatimiz, mamlakatimiz ayollariga, onalariga aytilgan bo'lsa ajab emas.

Jumladan, momolarimiz To'maris, Bibixonim, Gavharshodbegim, Zebinisobegim, Uvaysiy, Anbar otin, Nodirabegim kabi ko'plab vatanparvar, ma'rifatli ayollar hayoti qadimdan avlodlardan avlodlarga namuna maktabi bo'lib kelmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Biz doimo ayol – bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug'laymiz. Bu to'g'ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart” [1] deb bejizga ta'kidlamaganlar. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi [2]. Quvonarli tomoni shundaki, ushbu

qonun ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgandir. Jumladan, qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

To'g'ri, yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan sodir etilmoqda, ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari, shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. Shuningdek, mazkur qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unda genderlikning — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi teng munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyilida bugungi kunda jamiyatimizda uchrab turadigan zo'ravonlik kabi noxush holatlar, uni bartaraf etishda barcha birdek birlashishi, xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish, imkon qadar bunday holatlarga yo'l quymaslik zarurligiga urg'u beriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahala va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF - 81- sonli Farmon, 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 87- sonli Farmonlar va boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlarni ham bu boradagi islohotlarning asosi sifatida sanab o'tish mumkin [4].

Jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik qo'mitasi hamda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorligida O'zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ochiq muhokamasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish belgilangan.

So'nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Barchaga ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shunidek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun

tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadini amalga oshirish ishlari doirasida “Gender tenglikni ta‘minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Unga ko‘ra, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsion asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qullash amaliyotida ularga rioya etilishini ta‘minlash uchun mas‘ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me‘yorlar asosida o‘qitish.

O‘zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan. Qabul qilingan chora-tadbirlar mamlakatning barcha hududlari va xotin-qizlarning barcha toifalarini qamrab olishi kerak. Xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan BMTning Global kun tartibidagi tamoyillarga, ayniqsa, “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyilini hisobga olgan holda, har xil kamsitish shakllariga moyil bo‘lgan xotin-qizlar holatiga alohida e‘tibor qaratish dolzarb masaladir. Bu yerda asosiy e‘tibor mamlakatning chekka hududlaridagi qishloqlardagi xotin-qizlarga qaratilishi lozim.

Ma‘lumki, o‘tmishdan qaysi jamiyatda ayol zoti tahqirlangan va xo‘rlangan bo‘lsa, u jamiyat ma‘naviy qoloqlikka va tubanlikka yuz tutgan. Zero, ayol jamiyatda kelajak avlodni dunyoga keltiradigan hamda millat naslini davom etiradigan zotdir. Ayol qancha baxtli va mamnun bo‘lsa, oilasiga va farzandlariga shuncha mehr va muhabbat qo‘yadi. Jamiyatimizda tinch-totuv, ma‘nan yetuk baxtli oilalar qancha ko‘p bo‘lsa, yurtimiz shuncha taraqqiy etadi. Shuningdek, dinimiz Islomda ham ayol zotiga e‘tibor qilingan, e‘tirof qilingan hamda e‘zozlangan. Uning jamiyatdagi, xususan, oiladagi o‘rni hamda vazifasi, er-xotin munosabatlarida har ikki jins vakillarining burch va vazifalari hamda ularning bir-biriga bo‘lgan haq-huquqlari muqaddas kitobimiz Qur‘onu Karimning Baqara (228), Rum (21), Niso (128) oyatlarida ko‘rsatilgan [5]. Zero, Islom dini jamiyatda ayollarning o‘rni, haq-huquqlari, burch va vazifalarini aniq va ravshan qilib ko‘rsatgan din hisoblanadi.

Afsuski, bugungi kunda ba'zi oilalar borki, unda ayol haq-huquqlari toptalgan, xo'rlangan hamda tahqirlangan vaziyatlarning guvohi bo'lmoqdamiz. So'nggi kunlarda ommaviy axborot vositalari orqali, ayniqsa, internet tarmoqlarida yosh ayollarimiz hayotida ana shunday holatlarni ko'rib turar ekanmiz, bir savol tug'iladi. Zaifa ayollarni xo'rlagan, tahqirlagan, ma'naviy ongi past kishilar qanday oilada tarbiya topgan? Ular o'sib ulg'aygan oilada ona, ayol mavqeyi qanday bo'lgan? Bu kabi savollar yuzlab tug'ilishi mumkin. Ayollarning oiladagi haq-huquqlarining paymol qilinishi, eng avvalo, oilada qizlarimizga yetarli darajada hayotiy hamda milliy tarbiya maktabining oqsayotganidir. Bundan tashqari, ularda huquqiy madaniyatning sayozligi, bundan tashqari qizlarning to'la shaxs sifatida shakllanmay turib, erta turmushga berish ana shunday gender tenglikning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda ba'zi oilalarda ayollar huquqining buzilishi, eng avvalo, ularning huquqiy savodxonlik darajasining pastligi bilan izohlanadi. Ularga qilingan zo'ravonlikning kelib chiqish omillari ba'zida iqtisodiy tanglik va nochorlik bo'lsa, ba'zida to'qlik, manmanlik va ruhiy nosog'lomlik bilan xarakterlanadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan asrda qizlarimizga milliy mentalitetimiz asosida zamonaviy ta'lim berish maqsadga muvofiqdir. Xususan, umumta'lim maktablarining yuqori sinflariga hamda oliy ta'lim muassasalarida qizlar bilan hayotiy mavzularga oid debatlar uyushtirish, o'tmishda va bugungi kunda siyosat, sport, ilm-fan, san'at va madaniyat sohasida muvaffaqiyat qozongan ayollar haqida davra suhbatlari o'tkazish orqali samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, bunday tadbirlarda nosog'lom oilada tarbiyalanayotgan qizlarni kengroq jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 1- martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. www.strategy.uz.
4. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmon.
5. Qur'oni karim (Ma'nolar tarjimai). – Toshkent: Sharq, 2009.
6. Musurmonova O. "Ayollari ardoqlangan yurt". – Toshkent: "Zarvaraq" nashriyoti, 2021.

* * *

Qurbonova Zulayho Tashboboyevna,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, direktor maslahatchisi

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta‘minlash va sog‘ligi mustahkamlash bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan chora-tadbirlar xorijiy ommaviy axborot vositalarida ham keng yoritilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida Britaniyada nashr qilinadigan “Pulse UK” gazetasi o‘z sahifasida ushbu mavzuga bag‘ishlangan maqola chop etilgani va unda O‘zbekistonda ayollarga eng faxrli o‘rin berilganini keltirish mumkin. Shuningdek, nashr 2014-yilda respublikaning barcha hududlarida ayollar uchun 468 ming 175 ta yangi ish o‘rin yaratilganini e‘tirof etdi.

Kalit so‘zlar: tazyiq, ommaviy axborot vositalari, siyosiy faollik, axloqiy muammolar

Аннотация. Осуществляемые в Республике Узбекистан меры по всесторонней поддержке женщин, обеспечению их занятости и укреплению их здоровья широко освещаются в зарубежных средствах массовой информации. Например, газета «Pulse UK», издаваемая в Великобритании, опубликовала на своей странице статью на эту тему, в которой женщинам Узбекистана отведено самое почетное место. Издание констатировало, что в 2014 году во всех регионах республики для женщин было создано 468 175 новых рабочих мест.

Ключевые слова: репрессии, СМИ, политическая активность, нравственные проблемы.

Annotation. The measures implemented in the Republic of Uzbekistan to support women in every way, ensure their employment and strengthen their health are also widely covered in foreign media. As an example, “Pulse UK” newspaper, published in Britain, published an article on this topic on its page, in which women in Uzbekistan were given the proudest place. The publication acknowledged that 468,175 new workplaces were created for women in all regions of the republic in 2014.

Key words: repression, mass media, political activism, moral problems

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlaridan bilishimiz mumkin – “Barchamiz uchun aziz va mo‘tabar bo‘lgan ayol zoti haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor, bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta‘zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so‘zga eng munosib zot – bu avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug‘lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi”⁷⁴

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017).

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Vaholanki, ayollarning huquqlari buzilganda, inson huquqlari buzildi, deb ko'rib chiqilmagan taqdirda, Ayollarning inson zotiga mansubligi inkor qilingan bo'lar edi. Umuman olganda, ayollar huquqlari degan tushuncha ayollarga nisbatan zo'ravonlik, ayollarning aynan ayol bo'lganligi bois ham ba'zi hududlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquqlari sifatida shakllanishiga olib keldi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 1995-yil qo'shilgan "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasining 3-moddasiga ko'ra, ishtirokchi davlatlar erkaklar bilan tenglik asosida xotin-qizlarning inson huquqlari hamda asosiy erkinliklarini ro'yobga chiqarishi va ulardan foydalanishlarini kafolatlash maqsadida xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishini va taraqqiyotini ta'minlash uchun barcha, xususan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamma tegishli choralarni, shu jumladan, qonunchilik choralari ko'rishlari belgilangan va bugungi kunda qonunchiligimizga implementatsiya qilingan.

Milliy qonunchiligimizda avvalambor, Konstitutsiyamiz, shuningdek xalqaro standartlarga mos xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlovchi maxsus qonunlar, shuningdek bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari belgilangan⁷⁵.

Qolaversa, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda ham xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bilan bog'liq normalar o'z aksini topgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-yanvar kuni 3-son Qarori bilan "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizom bilan tazyiq va (yoki) zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berilishi va tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga bir qator cheklovlar yoki taqiqlari o'rnatilishi, kelgusida tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosati quyidagilardan iborat⁷⁶:

⁷⁵ Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. – Toshkent, 2010. – B.61.

⁷⁶ S.Kalanova. Ayollar va bolalar ijtimoiy himoyasi – Toshkent, 2017. –B. 55.

- gender siyosati, ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasida davlat dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- jamiyatda ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsiz muhitni hosil qilish;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, qonuniylilikni mustahkamlash;
- ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikdan ogohlantirish, ularni aniqlash va oldini olish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish;
- ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha choralarni amalga oshirish.

Tazyiq va zo‘ravonlik qurbonlariga himoya orderi beriladi, zarurat tug‘ilgan taqdirda u maxsus markazga joylashtirilishi mumkin. 18 yoshga to‘lmagan qurbonlar nomidan order uchun ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organlari tomonidan murojaat qilinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ayollar huquqlarini ta‘minlash tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni va ularni amaliyotda amalga oshirish tartibotlarini yanada kuchaytirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi sa‘y-harakatlarini birlashtirish, ayollar huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirishga bog‘liq. O‘zbekiston Konvensiya doirasida o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarini izchil bajarishda davom etadi va kelajakda ham BMTning ayollar manfaatlariga oid barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi va davlatimiz tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iste‘dod va intilishlarini yuzaga chiqarish uchun barcha sharoit yaratish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari) to‘plami. – Toshkent, 2017.
2. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. – Toshkent, 2010. – B. 61.
3. Kalanova S. Ayollar va bolalar ijtimoiy himoyasi. – Toshkent, 2017. – B. 55.

* * *

Umarova Navbahor Shokirovna,

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti kafedra mudiri, PhD, dotsent*

G'aniyeva Gulshoda Yahyo qizi,

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti talabasi*

JAMIYATDA SHAXS IQTISODIY IJTIMOYLASHUVINING GENDER TENGLIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu tezisda ayollar ijtimoiylashuvining jamiyat hayotida tutgan o'rni va davlat siyosatida ko'rilishi masalasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ayollar, gender, siyosat, faoliyat, kasb.

Аннотация. В этом тезисе анализируется роль женщин в социализации в жизнь общества и рассматривается на уровне государственной политики.

Ключевые слова: общество, женщины, гендер, политика, деятельность, профессия.

Annotation. This thesis analyzes the role of women in socialization in the life of society and considered at the level of state policy.

Key words: society, women, gender, politics, activity, profession.

Mamlakatimizda bugungi kunda xotin-qizlarga bo'lgan katta e'tibor samarasi o'laroq ularning huquqlarini kengaytirish borasidagi ko'plab huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilinishi va eng muhimi izchil ish olib borishda, aniq amalga oshirilayotganligi muammoga to'g'ri yondashilayotganligidan darak beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda doimiy aholi 35 271,3 ming kishini tashkil qilsa, shundan 17 527,1 mingini ayollar tashkil qilar ekan. Shundan OTM ta'limni bitiruvchilar 103 898 nafar talaba bitiruvchi kurs bo'lsa, undan 48558 tasi xotin-qizlar ekanligi quvonarli holdir⁷⁷

Bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi so'nggi 2017–2022-yillarda yuqori darajaga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday yuksalish tendensiyasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan mamlakatimizni ozod, erkin, obod va farovon qilish borasidagi keng ko'lamli demokratik islohotlarning amaldagi natijasidir. Darhaqiqat, keyingi yillarda ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining keskin oshishi, bugungi kunda davlatimizdagi har to'rt rahbarlik lavozimidagilardan bittasi ayol ekanligi, ularning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, boshqaruvda, turmush tarzida va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida gender tenglikni ta'minlash borasida fidokorona faoliyat olib borayotganliklari, mamlakatimizni rivojlangan, demokratik davlatlar qatoriga olib chiqish bo'yicha o'zlarining munosib hissalarini qo'shayotganliklari quvonarli holdir.

⁷⁷ [O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi](#) (мурожаат санаси 01.12.2022)

Xotin-qizlarning ulushi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat sohalarida 82 foizni, ilm-fan, ta‘lim, madaniyat va san‘at sohalarida 72 foizni tashkil etib, yetakchi mavqega ega bo‘ldilar. Ayollarimizning tadbirkorlik, industriya, axborot texnologiyalari, turizm va boshqa sohalaridagi o‘rinlari ham tobora mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, milliy parlamentimizda ayol deputatlar ulushi BMT tomonidan belgilab berilgan me‘yor talablarga to‘laqonli mos kelishiga erishilganligi Yangi O‘zbekistonimizni xarakterlovchi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, ushbu erishilgan yutuqlar shak-shubhasiz mamlakat rahbarining aholini gender tenglikka erishtirish borasidagi metin irodasi, qat‘iyati va dono siyosatining natijasidir.

Ma‘lumki, gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Ammo shunday bo‘lsada hali hanuz, ayrim imkoniyat bo‘lsada oilalarda qizlarga universitetga kirib o‘qishga ruxsat berilmaydi, balki uning o‘rniga tezroq oila qurishga undashadi.

Statistik ma‘lumotlar va (yoki) indekslarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi gender tenglik ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan buyon qatnashib kelmoqda. Shu yildan, ya‘ni 2019-yili 2-sentyabrdan mamlakatimizda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun ham kuchga kirgan bo‘lib, ekspertlar tomonidan ushbu Qonun yurtimizdagi gender siyosatning amalga oshishida huquqiy tamal toshidan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunga kelib, S.Maxmudovanning fikricha, “gender tenglik tamoyili dunyodagi qator mamlakatlarning konstitutsiyalari mazmunidan o‘rin olmoqda. Bu borada olib borilgan o‘rganishlar konstitutsiyalarning 98 foizi tenglik va kamsitilmaslik, 94 foizi zo‘ravonlikdan himoya qilish, 86 foizi xotin-qizlarning ta‘lim olishi, 85 foizi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish kafolati, 44 foizi diskriminatsiyaga qarshi choralar va 12 foizi xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha alohida qoidalarni o‘z ichiga olganini ko‘rsatmoqda”.

Yuritilayotgan gender tenglik siyosatiga muvofiq, har bir ayolning ortida uning oilasi, farzandlari turar ekan, bizning yurtimizda ularning hayotdan rozi bo‘lib baxtli yashashi davlatimiz e‘tiborida turgan eng muhim masalalardan biri sifatida jamoatchilik nazdida gavdalanib ulgurdi.

Bugungi kun “o‘zbek ayoli” nafaqat oilada uy bekasi, tarbiyachi vazifasini bajarmoqda, balki u jamiyatdagi barcha sohalarida ijtimoiy faol inson sifatida ham tashabbus va g‘ayrat bilan ishtirok etmoqda. Shu jihatdan ham “o‘zbek ayoli” o‘zining ma‘naviy qiyofasi, ichki dunyosi, muomala madaniyati, o‘z kasbining fidoiysi, ezgu fazilatlar egasi bo‘lishi bilan nafaqat farzandlari ibrat bo‘la oladi, balki ularni muvaffaqiyatli II jarayonida ham jonbozlik ko‘rsatadi. O‘zbekiston ayoli oiladagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni o‘zining ijobiy fazilatlarini bilan asrashga intiladi, jamiyat va oilaning har bir a‘zosiga odobi, ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini bilan shaxsan namuna bo‘ladi. Shuningdek, oila a‘zolari o‘rtasidagi ham o‘zaro, ham xo‘jalik munosabatlarini o‘ziga xos ayollik mahorati bitan tartibga soladi. “O‘zbek ayoli” doim atrofida qilarga ijobiy kayfiyat baxsh etuvchi mehribonlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi va o‘zining keng dunyoqarashi, bilimi, tadbirkorligi,

tashabbuskorligi va rejaliligi bilan vorisiylik tamoyilga ko'ra farzandlar II da jamiyat hayotida o'zining munosib o'rniga ega. Bu voqeliklarning barchasi O'zbekistonda xotin-qizlar gender tengligini ta'minlash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida erkaklar bilan xotin-qizlar o'rtasidagi to'liq va haqiqiy tenglik qonun ustuvorligiga asoslangan adolatli va demokratik jamiyatning g'oyat muhim elementi hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligining oshirilishi mamlakatimizda erkaklar bilan xotin-qizlarning to'liq va teng ishtirok etishi uchun baravar imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Chunki yurtimizda xotin-qizlar soni xalqimizning 17 milliondan ortig'ini tashkil etadi. Shuning uchun ham ularning intellektual-ma'naviy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligi nafaqat mamlakatimiz rivoji uchun, balki oilalarimiz iqtisodiy mavqeyi mustahkamligi uchun ham o'ta muhimdir. Bu esa aholi iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ko'rsatadigan mezon omillar ta'siri nafaqat hududiy, balki gender xususiyatlar bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Новый Узбекистан, где почитают своих женщин [Текст]: Монография / О. Салимова и др. – Ташкент: «Тасвир», – 220 с. (Norboyeva T.K. Gender tenglikni ta'minlash – xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhim omili. – Toshkent: TASVIR, 2021. – B. 8-19.)
2. Mahmudova S. Ayol davlat ishini ham uddalaydi: buning uchun gender tenglik ta'minlanishi yetarli. Yangi O'zbekiston gazetasi. 2022-yil 12-noyabrdagi 232-soni, 5-bet.
3. Xalimova, M.V. Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarga oid mas'uliyatni oshirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari: Psixol. fan. dok-ri ... dis-ya avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 74 b.

* * *

Usmonova Shaxnoza Anvarovna,
TTESI, texnika fanlari nomzodi

Elmuratova Umida Farxadovna,
TTESI, tarix fanlari bo‘yicha PhD

JAMIYATDA TA'LIM IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA MUHIM OMIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlashda ta'lim imkoniyatlarini oshirish va qamrovni kengaytirish muhim ta'sirga egaligi yoritilgan. Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarni har tomonlama himoya qilishda ta'lim imkoniyatlaridan erkin foydalanish islohotlari ustuvorligini ta'minlashdagi davlat siyosati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: gender, himoya, Milliy dastur, ta'lim imkoniyatlari, tenglik, imtiyoz, urf-odat, islohot, kambag'allikni kamaytirish, Uchinchi Renessans, yuksalish.

Аннотация. В данной статье раскрывается важность расширения образовательных возможностей и расширения охвата для достижения гендерного равенства. Обоснована государственная политика обеспечения приоритета реформ свободного доступа к образовательным возможностям при всемерной защите женщин в обновляющемся Узбекистане.

Ключевые слова: гендер, защита, Национальная программа, образовательные возможности, равенство, привилегия, традиция, реформа, сокращение бедности, Третье Возрождение, подъем.

Annotation. This article reveals the importance of expanding educational opportunities and expanding coverage to achieve gender equality. The state policy is substantiated of ensuring the priority of reforms of free access to educational opportunities with the full protection of women in the renewing Uzbekistan.

Key words: gender, protection, National Program, educational opportunities, equality, privilege, tradition, reform, poverty reduction, Third Renaissance, rise.

“Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

Millatimiz tarixidan ma'lumki, adolatli jamiyatni tashkil qilish va uni yuksaltirishda ayollarning qadr-qimmati va huquqlari masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, Zardushtiytlarning muqaddas kitobi "Avesto"da, Islom dinining muqaddas manbasi "Qur'on" va "Hadis" ilmidagi hamda buyuk ajdodimiz Amir Temur qo'llagan tartibotlar fikrimizni isbotlaydi.

Bugungi globalashuv sharoitida esa erkaklar va ayollar teng huquqliligini ta'minlash yanada dolzarblik kasb etayotgan bo'lib, bu demokratik tartibotlarning o'ziga xos parametrlaridan biri sifatida aks etadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlar huquq-manfaatlarini himoya qilish masalalari yildan yilga dolzarblik kasb etib borayotganligini qayd etish lozim. Jumladan, amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi doirasida har yili qabul qilingan Davlat dasturlaridan boshlab ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda aholining gender tenglik to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlarga e'tibor kuchaytirildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni va uning asosidagi "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur"ning amaliyotga tatbiq qilinganligi muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta'limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta'kidlash kerak. Ya'ni 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyati tiklandi. Ta'limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

O'z navbatida qayd etish lozimki, respublikamizda oliy ta'lim muassalarida xotin-qizlar qamrovini oshirishga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, bir qator faktor unga to'sqinlik qilayotganligini ham qayd etish lozim. Xususan, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, urf-odatlar, belgilar, stereotiplar haqiqatdan ham tenglikka erishishda jiddiy qarshilik va to'siqlar bo'lib qolmoqda. Jamiyat tomonidan belgilangan xulq-atvor modellari o'zlarining ehtiyojlari, istaklari va xohishlariga emas, balki belgilangan me'yorlarga amal qilishni talab qiladi. Shunday qilib, qizlar uchun kasb va kasbni tanlash ayolning "parvarishlash iqtisodiyotida"⁷⁸ xizmat vazifasini bajarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasini tanlash bo'yicha an'anaviy g'oyalari bilan bog'liq. Rivojlangan davlatlar bilan analitik tahlil keltiradigan bo'lsak, "AQShda tabiiy fanlar, texnologiyalar, texnik ijod va matematikada iqtisodiy faol aholining 24 foizini ayollar tashkil etadi"[4]. O'zbekistonda esa ayollarning ilmiy va texnik faoliyat bilan shug'ullanuvchi ko'rsatkichi 5% ni ham tashkil qilmaydi.

Bugungi kunda yosh avlodning kasb-hunar egallashi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ilm-fan, innovatsiyalarga qiziqtirish maqsadida oliy ta'lim tizimiga yanada ko'proq jalb etish uchun shart-sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq oliy ta'lim bilan xotin-qizlarimizni qamrab olishni kengashtirishning ahamiyati bo'lakchadir. Chunki oliy ta'lim yosh xotin-qizlarimizning kelajagiga muhim poydevor, ularning kelgusida barcha sohalarda malakali kadrlar sifatida faoliyat yuritishlarida

⁷⁸ Парвариш иқтисодиёти – бу одамларга ғамхўрлик қилиш энг юқори қийматга эга бўлган иқтисодий тизим.

ushbu ta’lim bosqichining ahamiyati beqiyos. Bulardan tashqari, o‘tgan yili davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o‘quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilindi.

Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutar ekan, shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim, hunarlarni puxta egallagan, shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanishimiz ayni haqiqat.

Rivojlanishning asosini ilm-fan tashkil etishini kundalik hayotimiz ko‘rsatib turibdi. Bugungi raqamlashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirish sharoitida ta’lim masalalariga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Sababi shundaki, “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish, kambag‘allikni kamaytirishda, jamiyatimiz rivoji, O‘zbekistonning xalqaro imidji va jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini oshirishda ta’limning, ayniqsa, oliy ta’lim bilan yoshlarni, xususan, xotin-qizlarimizni qamrab olishni yanada oshirish alohida e’tiborga molik.

Murojaatnomada oliy ta’lim muassasalari, xususan, xorijiy va xususiy oliy ta’lim muassasalarining soni salmoqli ravishda oshganligi, oliy ta’limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o‘sganligi, yoshlarimizni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetganligi, ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o‘quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilinganligi qayd etildi.

Shuningdek, “Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingga yetkazamiz. A’lo baholarga o‘qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi [2], – deb ta’kidladi Prezidentimiz.

E’tiborli jihatlardan yana biri shundaki, kelgusida ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 4,5 mingga yetkazilib, budjetdan qo‘shimcha 240 milliard so‘m ajratilishi ta’kidlandi. Bu, albatta, ilmiy izlanishlar olib borayotgan yoshlarimiz uchun katta imkoniyat eshigini ochadi. Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlikni yanada kengaytirish ilmiy faoliyatning nufuzini oshirishi bilan birga, uning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivoji uchun naqadar ahamiyatli ekanligini ham amaliy tasdiqlaydi.

Qayd qilish kerakki, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan kam haq to‘lanadigan kasb va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritadi. Ularning moddiy va ma’naviy qaramligi, daromaddagi tengsizlik tegishli ravishda kam ta’minlanganlik bilan bog‘liq muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Xotin-qizlar tomonidan tanlangan kasblarni barcha o‘rinlarda ham ixtiyoriy deb bo‘lmaydi.

Oliy ta’limda xotin-qizlar ulushining oshgani kuzatilsa-da, mehnat bozorida hozirgi kungacha saqlanib qolayotgan “ayollarga xos” va “erkaklarga xos” kasb mutaxassisliklarida aniq gender asimmetriyasi saqlanib qolmoqda, ya’ni ayollarning ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, san’at va madaniyatda, erkaklarning esa

qurilish, moliya, transport, aloqa, huquqshunoslik, sanoatda baland haq to'lanadigan sektorlarda ko'pchilikni tashkil etayotganligini kuzatamiz.

Nazarimizda, qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirishni aynan ushbu yo'nalishlardagi OTMda, ya'ni baland haq to'lanadigan sektorlarda xotin-qizlar ulushini oshirish; sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim olishga keng yo'l ochish; nogiron, ijtimoiy ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oila qizlariga aholida turdagi qo'shimcha kvota ajratish; xotin-qizlar kam ta'lim olayotgan OMTga jalb etishda OAVdan foydalanib targ'ibot ishlarini amalga oshirish; iste'dodli qizlarni davlat granti asosida o'qitish ishlarini amalga oshirishda qo'shimcha kvotalar ajratishni tashkillashtirish; o'qishni imtiyozli tamomlagan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashni OTM tomonidan ta'minlash; o'rta-maxsus, kasb-hunar hamda yangi kasb va mutaxassislikni egallashda, hunar o'rgatishda davlat granti ulushini ko'paytirish, xususiy sektorda tekin yoki arzon hamda sifatli (haq evaziga kasbga o'rgatish hozirgi kunda asosan MChJlar hissasiga to'g'ri kelmoqda) kasb egallashga ko'maklashish; nogiron, ijtimoiy ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oilalarga alohida kvota ajratish; ushbu amaliyotni qo'llagan MChJga soliqni kamaytirish yoki boshqa turdagi imtiyozlarni taqdim etish; imkoniyatlarini hisobga olib, masofaviy, ta'limdan yoki asosiy ishdan ajralmagan holda mehnat qilish bilan bir qatorda kasb o'rganish, yangi sohalarni o'zlashtirishga imkoniyat yaratish lozim.

Darhaqiqat, oliy ta'lim bilan qamrab olish ayollarning erkaklar bilan mehnat bozorida raqobatga kirisha olishiga imkon beradi, oila budjeti daromadi ko'payishiga, jamiyat rivoji, turmush farovonligi oshishiga, pirovardida aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish hamda qashshoqlikni yo'qotishga xizmat qiladi.

Dunyodagi har bir xalq o'z tarixiy an'anasi, urf-odati, ma'naviy qadriyatiga suyanib yashaydi. Bunday tushunchalar turmush kechirish jarayonida hisobga olinadi, albatta. Zero, jamiyatning hayot kechirishi, taraqqiyotga intilishi, yuksalishi shundan kuch oladi. Har tomonlama farovon hayotga erishishni maqsad qilgan jamiyat o'z a'zolarining irqi, jinsi, tili va diniy mansubligiga qaramay, huquqiy tengligini ham to'la-to'kis ta'minlashi o'ta muhim masala ekanini unutmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/5899498>
4. Из исследования компании SIAR // <http://siar-consult.com/news/bole-poloviny-naseleniya-schitayut-chto-vkyrgyzskoj-respublike-net-uslovij-dlya-razvitiya-zhenskogo-predprinimatelstva/>

* * *

Usmanov Jahongir Bazarovich,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangiyer filiali katta o‘qituvchisi

ISLOM DINIDA VA ARUZIYNING ASARIDA AL-IFFA KATEGORIYASI

Annotatsiya. Har bir inson, ayniqsa musulmon kishi o‘zida uni gunohlardan saqlovchi ezgu fazilatlarni tarbiyalamog‘i lozim. Har bir o‘g‘il va qiz bolaligidan sabr, o‘zini tuta bilish, uyatchanlik, kamtarlik va iffatlilik ruhida tarbiyalanmog‘i kerak. Axloqiy fazilat sifatida al-iffa kategoriyasi Qur‘onda, Hadislarda, sharqning buyuk mutafakkirlari asarlarida keltiriladi. Bu fazilat haqida Aruziy ham yozgan.

Kalit so‘zlar: *iffat, nikoh, ayollarga munosabat, nikohsiz munosabatlar, islomdagi axloqiy fazilatlar.*

Аннотация. Каждый человек, особенно мусульманин, должен воспитать в себе благородное качество как воздержанность от грехов. Такие качества как терпение, сдержанность, стыдливость, скромность и аль-иффа должны прививаться девочкам и мальчикам с детства. Категория аль-иффа, как нравственное качество, приводится в Коране, в Хадисах, в произведениях великих мыслителей Востока. Об этом качестве пишет и Арузи.

Ключевые слова: *аль-иффа, брак, отношение к женщине, внебрачные отношения, нравственные качества в исламе.*

Annotation. Every person, and especially a Muslim, should cultivate noble quality in himself that keep him from sin. Qualities such as patience, restraint, modesty, bashfulness and al-iffa should be instilled in girls and boys from childhood. The category of al-iffa as a moral quality is given in the Quran, in Hadith, in the works of great thinkers of the East. Aruzi also writes about this quality.

Keywords: *al-iffa, marriage, attitude to a woman, extramarital relations, moral qualities in Islam.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”, – deb ta’kidlagan edilar [1].

Darhaqiqat, ulug‘ ajdodlarimizning asarlarida deyarli har sohaga oid ibratli so‘zlar topiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan qarasak, falsafa, odob-axloq, nafosat, ma’naviyat va boshqa yo‘nalishlar mutafakkirlarimizni doimo qiziqtirib kelgan. Hattoki, inson huquqlari, adolat ham dolzarb muammolar sifatida ularni o‘ylantirgan va asarlarida o‘z aksini topgan.

Arastu va Mashshoiyyunlarning axloqiy ta’limoti, muammo, tushuncha, kategoriyalari orasida inson, shaxsning diniy, ilmiy, ma’naviy va axloqiy mohiyatini tashkil etuvchi “Al-Iffa” kategoriyasiga Nizomiy Aruziy Samarqandiy ham katta ahamiyat, e’tibor bergan,

bir necha nodir hikoyatlari Iffatning inson ijtimoiy-ma'naviy sha'ni-shavkatining shakllanishiga ham, hatto tabibning davolash muolajasida ham favqulodda davolash usuli sifatida qo'llash mumkinligini yorqin misollarda ko'rsatib, isbotlab bergan. Bunga Aruziy kitobining I-maqola 6-hikoyasida Ma'mun bilan Vazir Hasan ibn Sahlning ukasi Fazlning qiziga uylanishi asnosidagi fahm-farosat, topqirlik va iffatning oliy namunasi sifatida ko'rsatgan edi. Ma'mun kelin oldiga kirganda, kelinning haddan tashqari yuksak va oliyjanob madaniyati, nafis, nozik didi va iffati oldida lol qolib, nima qilishni bilmay, uning oyoqlari ostiga, gilamga 18 ta nodir marvaridni otib yuborganda ham, qiz qiyo boqmay, boshini ko'tarmay, ko'zlarini gilamga tikkanicha, Ma'mun xizmatiga shay bo'lib turgan onda, Ma'munning taajjubi yana ham oshdi. U qizni bag'riga olish uchun shodlik quchog'ini ochib, qo'llarini cho'zdi-yu, ammo o'zini to'xtatdi. Negaki, u nozanin shunday o'zgargan ediki, ayollarga xos bo'lgan uyat va (iffat) xijolatlik ta'siri uning chehrasida jilovlangan edi. Ma'mun qo'llarini tortdi..." [2, – B. 23-24]. Bu yerda Iffat, bir tomondan, tabiiy iffat sifatida, ya'ni halol, pok qizning o'zini halol, pok va qonuniy eriga topshirayotgandagi butun iffati (hijolati, qizarib, kuchli hayajonda bo'lishi), boshqa tomondan esa, kuchli ma'naviy-axloqiy Iffati alohida, yorqin ta'kidlangan va bu quyidagi so'zlarida o'zining mislsiz, betakror ifodasini topgan: "Ey, Amir-al-mo'miniyn! Olloh buyurgani keldi, Uni (Ollohni) shoshirib bo'lmaydi-ku!?" [3, – B. 49].

Ayni paytda bu yorqin misol, ibrat namunasi hozirda juda jo'n tushuniladigan qizlar iffatinigina emas, balki erkaklarda ham asl iffat o'zini yaqqol namoyon etmagan misolni – nodir hikoyatni Aruziy keltirib o'tgan. Tarix, tazkiralarda Sulton Mahmud G'aznaviyning o'z shaxsiy g'ulomi (tan qo'riqchisi), so'ngra harbiy qo'mondon, davlat a'yoni bo'lgan A'yoza bo'lgan do'stlik va muhabbat (erkakning erkakka muhabbati) tuyg'usi ma'lum. Aruziy Sultonning A'yoza bo'lgan do'stlik va muhabbat tuyg'usini ta'riflar ekan, bu muhabbat o'z zamonasi mo'jizalaridan biri edi, deb yozadi. "Sulton Mahmud xudojo'y va taqvodor kishi bo'lib, o'zining A'yoza bo'lgan ehtirosli ishq bilan uzoq kurashdi, xudo qonuni yo'lidan og'ishga, fozillik pog'onalaridan toyib ketmaslikka intilardi" [3, – B. 65]. Oqshomda o'tadigan bazm-jamshidlarning birida sharobdan sarxush bo'lgan Sulton ehtirosiga kelib, A'yoza oshiqlarday quchoqladi. Shunda muhtasib: "Hoy, Mahmud! Muhabbatni buzuvchilik bilan, haqiqatni – yolg'on bilan qorishtirma! Zero, shu gunoh uchun (asl) mahobatning (butun) mamlakati senga qarshi bosh ko'taradi. Xuddi ajdoding (ya'ni Odam Ato) singari (haqiqiy) muhabbat bog'i (jannat)dan quvilasan va zalolat, mashaqqat dunyosi azob-uqubatlariga mahkum bo'lasan!" [3, – B. 65], – dedi va natijada bu mojaro Sulton Mahmudning Iffati saqlanib qolishi bilan tugadi.

Aruziy axloq ilmining boshqa ko'plab muammo, kategoriyalari – do'stlik, xiyonat, vatanparvarlik, millatparvarlik, odamiylik, halol mehnat, haromdan qochishga oid ibratli nodir hikoya, masal-matallarni tazkira imkoniyatlari doirasida tilga olib o'tgan, o'z xulosa, kuzatish va o'gitlarini ifodalagan.

"Iffat" so'zi lug'atda "qabih narsadan tiyilish" ma'nosini anglatadi Ibn Manzur: "Iffat aslida qoldiqning o'rniga o'tadigan narsani tanovul qilish ila kifoyalanishdir. Iffat halol va go'zal bo'lmagan narsadan o'zini tiyishdir. Iffat o'ta poklikdir", degan. Ulamolar iffat haqida bir-birini to'ldiruvchi bir necha ta'riflarni aytishgan. Rog'ib aytadi:

“Iffat nafsni hayvoniy lazzatlardan tiyib turishdir. U haddan oshgan nafsni buzqlik bilan nuqson hisoblangan shahvatsizlik orasidagi o‘rtacha holatdir”, degan. Imom Movardiy iffat va uning turlari haqida jumladan, quyidagilarni yozadi: “Iffat, poklik va saqlanish muruvvatning shartlaridandir. Iffat ikki turli bo‘ladi. Birinchisi – o‘zini harom narsalardan iffatda tutish. Ikkinchisi – gunohlardan iffatda bo‘lish... Kim nafsiga qahr ko‘rsatib uni kuchli qaytaruvchi ila jilovlamasa va shiddatla zajr qilmasa, uning uyatiga qoladi va zararlariga uchraydi. Gunohlardan iffatda bo‘lish ham ikkiga taqsimlanadi: Birinchisi – oshkora zulm qilishdan o‘zini asrash. Ikkinchisi – nafsni maxfiy xiyonat qilishdan qaytarish... Maxfiy xiyonat pastkashlikdan boshqa narsa emas. Chunki uni qilgan odam xiyonati ila xor bo‘ladi. Odamlar unga ishonmay qo‘yadi. Kim xiyonat qilsa, xor bo‘ladi, deyilgan gap bor” (Adabud-dunyo vad-din 384-bet) [4].

Fyodor Grigorevich Uglov (1904–2008 – necha yil umr ko‘rganiga e‘tibor bering) atoqli jarroh, Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining haqiqiy a‘zosi, Rossiya yozuvchilar uyushmasining a‘zosi, sog‘lom hayot tarzining faol targ‘ibotchisi bo‘lgan. Uning “Iffat nima?” nomli maqolasi [5] “Islom.uz” saytida joylashtirilgan. Unda F.Uglov Iffat haqida o‘zining quyidagi fikrlarini bildirgan:

Organizm yetuklik sari qadam qo‘yar ekan, yigit va qizlar fitriy (instinktiv) ravishda o‘ziga juft qidirishga, o‘z hissiyotlari uchun obyekt topishga intiladilar. Biroq, ko‘pincha jismoniy mayl ruhiy mayldan ustunlik qiladi va yigit yoki qiz o‘zlari tanlagan insonning o‘z hissiyotlariga qanchalik munosibli haqida o‘ylab ko‘rishmaydi... Yigit yoki qizning insoniy g‘ururi, hamiyati, nomusi, vijdoni yetarlicha shakllanmagan bo‘lsa, u o‘ziga hech qanday majburiyat yoki mas‘uliyat yuklamaydigan munosabatlar o‘rnatishga intilaveradi. Bunday yoshlar o‘zidagi shahvoniy g‘ayratni birorta aqliy yoki jismoniy mehnatga yo‘naltirish o‘rniga nikohsiz sevgiga erishishga harakat qiladi. Bunday yigitning ma‘naviy ustunlari qanchalik past bo‘lsa, u o‘zi topgan qizni yomon yo‘lga boshlayveradi. Ko‘pincha bunda aldovni yoki sevgi va vafo haqdagi yolg‘on qasamlarni ishga soladi.

To‘g‘ri, ba‘zan qizga sevgi izhor qilayotgan yigitcha ayyorlik qilmayotgan ham bo‘ladi. Lekin oradan biroz vaqt o‘tgach, bunday yigitchalar qizdan sovib qolishi ham mumkin. Qizni tashlab ketar ekan, yigitlar taxminan shunday fikr yuritadi: u men bilan shu qadar osonlik bilan qovushdimi, demak, boshqalar bilan ham shunday yaqin bo‘lib, menga xiyonat qiladi. Qizlarda esa ilk sevgi juda chuqur iz qoldiradi, ular yigitlardagi sovuqlikni fojia deb qabul qiladilar.

Xalqimizning an‘analari yigit va qizdan nikohgacha iffatni saqlashni, nikohni esa kelin va kuyov bir-birini uzoq vaqt davomida, yaxshiroq bilib olgandan keyingina o‘qishni talab qiladi. Bizda asrlar davomida to‘ygacha salkam bir yil davom etadigan unashtirish udumi amal qilib kelgan edi. Shu bir yillik muddat davomida yoshlar kelin-kuyov deb hisoblanar va bir-birlarini sinashib, yaqindan tanishib yurishar edi. Nikohsiz ishqiy munosabatlar esa har doim qoralab kelingan.

Yoshlarimiz nikoh va oila masalalariga mas‘uliyatsiz qarash ma‘naviy ustunlarni yemirishdan tashqari bir qator shaxsiy fojialarga ham olib kelishini bilishlari kerak. Bunday fojia nafaqat yigit va qizning, balki o‘sha nikohsiz aloqa tufayli tug‘ilishi mumkin bo‘lgan bolaning ham qalbini darz ketkazadi...

Qizlarimizda nozik hissiyotlar esa faqat ikki tomonlama haqiqiy sevgidagina, o'zaro hurmat, do'stlik va mutlaqo poklik, to'g'rilikkagina asoslangan sof muhabbatdagina bo'lishini bilishi kerak. Bir kishi bilan taqdiringni bog'lashdan avval uning fe'l-atvorini, xarakterini, dunyoqarashini, qiziqishlarini va ayniqsa aql-zakovati, fahm-farosatini o'rganish kerak.

Baxtsiz oilalarning aksariyatida erkakning jismoniy mayli yuksak tuyg'ular va ichki nazorat, vijdon, oriyat tushunchalaridan ustun kelgan bo'ladi. Ayolning iffati va oriyati nozik bo'lsa, erkak zo'ravonlikni ishlatishi, oila darz ketishi mumkin,

Ayollarning ruhiy-emotsional tuyg'ulari erkaklarnikidan ko'ra ancha kuchli rivojlangan bo'ladi, shuning uchun erkak kishining pastkashlik qilishi, nomardlik qilishi ayolni g'oyatda qattiq tahqirlab, uning qalbini og'ir yaralaydi. Erkaklarning qabihlik qilishi bilan bog'liq turli janjallar ayolning ruhiyatida og'ir asorat qoldirib, hatto uning salomatligiga, ayniqsa asab tizimiga putur yetkazadi.

Erkak kishi sevgan ayoli bilan turmush qurmoqchi bo'lsayu, biroq uni qandaydir sabab tufayli hozircha rasmiylashtirishga imkoni bo'lmasa, bunday hollarda undan muloyimlik, odob va hatto nazokat talab qilinadi. Erkak kishi shuni unutmasinki, bunday hollarda ayollar erkaklarga qaraganda og'irroq va haqsizroq holatga tushib qoladilar. Bunday sevgining oqibati ayol uchun og'ir yuk bo'ladi. Bundan tashqari, bunday vaziyatlarda jamoatchilik insonlarning fe'l-atvoriga juda yuqori talablar qo'yishini va erkakdan ko'ra ayolni qattiqroq qoralashini ham unutmaslik kerak.

...Agar oila bir tomonning ishonchi va sevgisi, biroq ikkinchi tomonning yolg'oni va hayvoniy shahvati asosiga qurilsa, buni insofli, vijdonli kishilarning insoniy munosabatlari deb atash mumkin bo'lmay qoladi. Yolg'on har qanday holatda ham pastkashlik va razolat alomatidir.

O'g'il bola va qizlarda iffat, poklik, johillikdan o'zini tortish va nafsi buzuvchilikdan uzoqda bo'lish kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning ma'nosini yoshiga qarab tushuntirish kerak. Inson toki qo'li, tili, qulog'i va ko'zi iffatli bo'lmagunicha o'zi iffatli bo'la olmaydi. Tilning iffatsizligi masxara, ayblash, g'iybat, chaqimchilik, laqab qo'yish kabilar bilan bo'ladi. Ko'zning iffatsizligi harom narsalarga hamda yomon shahvatlarni qo'zituvchi hayoti dunyo ziynatlariga tikilish bilan bo'ladi. Quloqning iffatsizligi gunoh va yomon narsalarni tinglash bilan bo'ladi...

Alloh taolo "Nur" surasida: "Nikoh(imkon)ni topa olmaganlar, to Alloh ular-ni O'z fazlidan boy qilgunicha iffatlarini saqlasinlar», degan (33-oyat). Ushbu oyatda urinish va harakatlar bilan ham nikohli bo'lish imkonini topa olmaganlar nima qilishlari lozimligi bayon etilmoqda. Nikohga imkon topa olmayapman, deb harom yo'lga yurib ketmasinlar. Iffatlarini saqlasinlar"[6].

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

"Ota-onalaringizga yaxshilik qiling, bolalaringiz sizga yaxshilik qiladi. O'zingiz iffatli bo'ling, ayollaringiz iffatli bo'ladi", dedilar. Xullas, iffatning foydalari quyidagilardir: 1) iffat iymon mevasidir ; 2) iffat bu dunyoda obro'ni muhofaza qiladi; 3) iffat jamiyatni fisqu fasod va gunohdan tozalaydi va b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan tarixiy intervyusi (to‘liq) // Manba: <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-Mirziyoyevning-yangi-uzbekiston-gazetasiga-bergan-tarixiy-intervyusi-tuliq>
2. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. Toshkent, 1985. – 228 b.
3. Болдырев А.Н. Предисловие... / Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. Перевод с персидского С.И. Баевского и З.Н.Ворожейкиной под ред. А.Н.Болдырева. – Москва: ИВЛ, 1963. – 174 с.
4. <https://ok.ru/imomalbukh/topic/62054423363698>
5. Iffat nima? // <https://islom.uz/maqola/2118>
6. Iffat // <https://islom.uz/maqola/1214>

* * *

Qulmatov Norqobil Eshmamatovich,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali katta o‘qituvchisi, Yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari
91-166-22-35.norqobil.65@mail.ru*

ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY HADISLARIDA KELTIRILGAN XOTIN-QIZLARGA BO‘LGAN MUNOSABATNING BUGUNGI O‘ZBEK OILALARIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolaning mazmunida ulug‘ muhaddis olim Abu Iso Muhammad at-Termiziy ilmiy merosi, uning ijodi namunalari bo‘lgan hadislarida xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat, va shu bilan birga musulmon axloqiy madaniyatining bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Islom dini. Qur‘oni Karim, hadis sharif, sahih hadis, muhaddis, payg‘ambar, sahobalar, tobeinlar, rostgo‘ylik, odob-axloq, ta‘lim, tarbiya, madaniyat. ma‘naviyat.

Аннотация. В содержании данной статьи описывается научное наследие великого мухаддисоведа Абу Иса Мухаммада ат-Тирмизи, отношение к женщине в его хадисах, являющихся примерами его творчества, и в то же время воспитательное значение мусульманской нравственной культуры в наши дни.

Ключевые слова: религия Ислам. Священный Коран, хадисы, достоверные хадисы, мухаддисы, пророк, сподвижники, последователи, правдивость, нравы, образование, воспитание, культура. духовность.

Annotation. The content of this article describes the scientific heritage of the great Muhaddith scholar Abu Isa Muhammad at-Tirmizi, the attitude towards women in his hadiths, which are examples of his work, and at the same time the educational value of Muslim moral culture today.

Keywords: religion Islam. Holy Quran, hadiths, authentic hadiths, muhaddiths, prophet, companions, followers, truthfulness, morals, education, upbringing, culture. spirituality.

Kirish. O'tmishda yashab o'tgan ota-bobolarimizning hayot tarzlariga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbek milliy davlatchilik tariximizning IX-X asrlarda hozirgi biz yashab turgan mustaqil O'zbekistonimiz hududida ilm-fan, madaniyat-ma'naviyat shu darajada gullab-yashnaganki, biz bu davrni hech ikkilanmasdan O'rta Osiyo xalqlarining ilk uyg'onish davri(Renessansi) deb ayta olamiz. Agar o'zbek milliy davlatchilik tariximizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston jahon madaniyatiga Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi butun dunyo tan olgan qomusiy olimlar bilan bir qatorda Imom G'azzoliy, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Az-Zamaxshariy, Rudakiy, Firdavsiy kabi o'nlab shoir va olimlarni berdi. Shunday olimlardan biri, islom olamida Qur'oni Karimdan keyin turadigan, odob-axloq va urf-odatlar majmuasi bo'lmish hadislar bilimdoni Abu Iso Muhammad at-Termiziydir. Yurtimizda mustaqillik shamollari esmaguncha biz bobomiz imom at-Termiziy haqida bir ozgina bo'lsa ham ma'lumotga ega emas edik.Chunki bunga sobiq Sovet mafkurasi yo'l bermas edi. **Muammoni hal qilish yo'llari:** Faqatgina mamlakatimizga erkin fikrlash huquqini olib kelgan mustaqillik sharofati tufayligina xalqimizning milliy davlatchilik tarixini, o'tmish ajdodlarimiz sanalgan ota-bobolarimiz tarixini, ular yaratgan nodir san'at, madaniyat asarlarini chuqur o'rganish imkoniyati tug'ildi. Bobomiz imom at-Termiziy haqida birinchi marta O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining nashri 1990-yilda "Sovet Sharqi musulmonlari" majallasida Abdulhamid Muhammad Tursunning [1], shayx Zohidjon Abdulqodirning [2], hamda Abdullo Juldosning [3] maqolalarini bosib chiqardi. Ulug' muhaddis hadischi olim imom at-Termiziy bobomizning 1990-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan 1200 yillik yubileyi munosabati bilan gazeta va jurnallarda ko'plab maqolalar yozildi. Axloq odobga oid hadislar to'plami chop etildi [4]. Hadis ilmining yirik namoyondalari, aksariyati yurtdoshlarimiz ekanligi qalbimizni quvonchu-faxrga to'ldiradi. Bular Abu Abdullo Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad Dorimiy as- Samarqandiy va boshqalardir. O'z davrining yetuk muhaddis olimi bo'lib tanilgan Imom at-Termiziyning shogirdlari ham bisyordir. Masalan "Maqqul ibn Fadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Al-Haysam ibn Qulayb ash-Shoshiy, Abu ibn Muhammad an-Nasafyun, Ahmad ibn Yusuf an-Nasaviylar imom at-Termiziyning eng sodiq, eng istedadli shogirdlari sifatida nomlari milliy va ma'naviy qadriyatlarning yuksalishida tilga olib kelinadi. Bobomiz At-Termiziy o'z hayoti va ijodi davomida juda boy ma'naviy meros qoldirgan. Jumladan, u kishining bizgacha yetib kelgan asarlaridan "Kitob al Jome' al-Sahih", "Kitob ilol", "Kitob at-Tarix". "Kitob ash Shamoili an-Nabaviya", "Kitob az-zuhd", "Kitob al-Asmo va kunya", "Jomius Sahih", "Shamoili Muhammadiya", "Al Jomi al-Kabir", kabi kitoblari islom olamida mashhur bo'lib ketgan, at-Termiziy bobomizning mashhur asarlaridan biri "Ash shamoyilu an Nabaviyadir. Bu asar payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning, shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga jamlagan qimmatli manba hisoblanadi. At-Termiziyning yana bir kitobi "Kitob al-Jome' as-Sahih" asari bo'lib, bu kitobdagi hadislar uch guruhga bo'linadi. Sahih, Hasan, va Zaif, hamda takror hadislar uchramasligi bilan bu kitob juda qadrlanadi.

Islom dunyosi madaniyati tarixida eng qimmatli deb tan olingan “Kutubi Sitta”, ya’ni “Olti kitob” mualliflari orasida imom at-Termiziy ham faxrli o‘rinni egallaydi. Imom Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad al-Ansoriy imom at-Termiziyning bu kitobini imom al-Buxoriy va Muslim an-Nishopuriylarning kitoblaridan ustun qo‘yadi. Zero, uning aytishicha, imom Buxoriy va Muslim an-Nishopuriyning kitoblaridan faqat olimlarga foydalanadilar, imom at-Termiziyning kitobi esa har bir oddiy inson uchun tushunarli va foydalidir. Abu Iso Muhammad at-Termiziy bobomizning yana bir kitoblari “Shamoili Muhammadiya” Muhammad alayhissalomning shamoillari, ya’ni xislatlari, xulq-odoblari va sifatlari haqida ma’lumot beruvchi asardir. Bu bebaho, qimmatli asar bugungi kunda ham yurtimizda ta’lim-tarbiya sohasida odob-axloq va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan nodir asar hisoblanadi. **Taklif va tavsiyalar:** Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek “Har bir mamlakatning kuchi undagi ta’lim – tarbiyaga bog‘liq”. Haqiqatan ham ta’lim-tarbiya bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonimizning buyuk kelajagi uchun ustuvor hisoblanadi. Hadislar haqida so‘z yuritganimizda avvalo, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor berishimiz kerak bo‘ladi. Hadis-bildirish, xabar berish, so‘zlash, naql etish kabi ma’nolarni anglatadi. Bobomiz Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy o‘zi yozgan hadislarida ko‘proq odob axloq qoidalari haqida, salom berish va uning odoblari, qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlar va shu bilan birga xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat to‘g‘risidagi hadislariga ko‘proq e’tibor qaratgan. Islom dini yurtimizda qaror topguniga qadar, ya’ni islomdan oldin xotin – qizlarga judayam shafqatsiz munosabatda bo‘lishgan. **Kutilayotgan ijtimoiy samara(natija):** Islom dini qaror topgandan keyin Muhammad mustafo sallollohu alayhi va sallam xotin-qizlarni xo‘rlab, qiynaganlarga qarata bir so‘z aytadi. Ya’ni hadis aytadi: “Alloh taolo xotin-qizlar toifasiga xayru ehson, ham yumshoqlik bilan muomila qilishingizni buyurur. Chunki ular onalaringiz, qizlaringiz, xolalaringizdir”. Bobomiz imom at-Termiziy talqin etgan hadislarida ham xotin-qizlarga nisbatan chin insoniy munosabatda bo‘lishlik, ayollarni hurmat qilishlik kabi fikrlar ilgari suriladi. Jumladan, 1. “Onani rozi qilish haqida”. Musoviya ibn Haytda aytdilarki, Rasulullohdan “Ey Rasululloh men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?” deya so‘radim. – “Onangga”, dedilar, Men shu savolimni uch martaba qaytarsam ham, Rasululloh: – “Onangga”, deyaverdilar. To‘rtinchi marta so‘raganimda “Otangga” va yaqin bo‘lgan qarindoshlaringga”, dedilar. Mana shu hadisdan ko‘rinib turibdiki onalarimizning naqadar ulug‘ bir inson ekanliklari va ularga qanchalik yaxshilik muruvvat ko‘rsatsak ham kamligidan dalolat beradi. 2. “Ahli ayollariga rahmdil bo‘lish” haqida. Anas ibn Molikdan rivoyat qilindi, u kishi: “Rasululloh ahli ayollariga juda rahmdil kishi edilar. Rasulullohning Ibrohim degan o‘g‘illari Madinaning bir chekkasiga sut emish uchun yuborilgan edi. Bolaga sut emizadigan xotinning eri izxir yoqib tirikchilik qilardi. Biz Rasululloh bilan unikiga borganimizda, uyning ichi tutun bilan to‘lganiga qaramay Rasululloh bolani o‘par va bo‘yini iskar edilar”,- dedilar. 3. “Ikkita yoki bitta qizni tarbiya qilgan kishi” haqida. Abdulloh ibn Abbos Rasulullohdan rivoyat qiladilar. Rasululloh: “Har bir musulmon kishining ikkita qizi bo‘lib, ularni yaxshi axloq, yaxshi muomila bilan tarbiyat qilsa, qizlari albatta, uning jannatga kirishiga sababchi bo‘ladi”, dedilar.

Darhaqiqat, nima eksang shuni o'rsan deganlaridek ota-ona bolaga qanchalik to'g'ri tarbiya bergan bo'lsalar oqibatda bu qilingan to'g'ri tarbiyaning natijalari o'z samarasini bera boshlaydi. 4. "Ota-onasiga qaytib kelgan qizni tarbiyat qilgan kishining fazilati" haqida. Rasullulloh Saroqa ibn Molik Ibn Ja'shamdan: "Senga sadaqa ehsonlarning eng kattasini aytib beraymi?" - deb so'radilar. Saroqa ibn Molik: "Yo Rasullulloh, aytib bering!" - dedilar. Rasullulloh "Eridan chiqib senikiga qaytib kelgan va sendan bo'lak qarovchisi bo'lmagan qizingga qiladigan xayri-ehsoning ehsonlarning eng kattasidir", dedilar. 5. "Beva xotinlarga yordam beruvchi kishi" haqida. Beva xotinlarga va miskin bechoralarga yordam qiluvchi kishi go'yo Tangri yo'lida jihod qiluvchi yoki kechalari ibodat qiluvchi, kunduzlari ro'za tutuvchilar bilan barobardirlar. 6. "Ayollarga erkaklar o'z tug'ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo'lish" haqida. Har bir erkak kishining oilasida, uning onasi, xotini, qizlari va singillari bor. Shuning uchun har bir erkak kishi boshqa begona ayollarga qanchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, o'z oilasidagi ayollar ham boshqa erkaklardan shunday yaxshi muomila kutishi mumkin. Islom axloqiy madaniyatida o'zining hadislarini bilan mag'ribdan-mashriqqacha shuhrat qozongan bobomiz - yurtdoshimiz Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy ijodini o'rganish mustaqilligimiz sharofati bilan bugungi kunda keng yo'lga qo'yildi. Abu Iso Muhammad at-Termiziy ijodini, uning hadislarini o'rganishimiz hozirgi davrimiz uchun nihoyatda zarur va ahamiyatga egadir. Chunki bugungi globallashgan zamonda, ya'ni odamlar o'rtasida mehr-shafqatning yo'qolib borayotganiday bir paytda Qur'oni Karimni va odob-axloq haqidagi hadislarini shariflarni o'qib o'rganish va ularga amal qilib yashash judayam muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi ayrim o'zbek oilalaridagi xotin-qizlarga nisbatan qilinayotgan zo'ravonliklarga qarshi bobomiz Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy hadislaridagi odob-axloq namunalari, hadislarida keltirilgan xotin-qizlarga bo'lgan ijobiy munosabatlar o'zining hayotiyliigi bilan hamma zamonlarda ham, jumladan bugungi Yangi O'zbekiston oilalarida ham o'zining o'ta muhimligi va kerakligi bilan ajralib turadi. Uchunchi Renessans boshlanishi arafasida turgan yangilanayotgan O'zbekistonimizning erkak fuqarolari mana shunday mazmundagi hadislarini har doim o'qib o'rgansalar va ularga amal qilsalar, jamiyatda jinoyatchilik, o'g'irlik, giyohvandlik, ajralib ketishlar, qarovsiz qolib ketadigan bolalar, fohishabozlik va boshqa noqonuniy illatlar keskin kamayib jamiyatimiz uchun o'zida vatanparvarlik fazilatlarini mujassamlashtirgan yetuk va komil insonlar ko'plab yetishib chiqqan bo'lardi. Abu Iso Muhammad at-Termiziy o'z ijodiy faoliyati davomida axloq-odobga doir hadislarini bilan musulmon axloqiy madaniyatida o'chmas va chuqur iz qoldirdi. Hadislar barcha davrlarda ham musulmon olamining axloq-odob namunalari, qonunlari bo'lib kelgan va bugungi yangilanayotgan O'zbekiston jamiyatimiz taraqqiyotida ham suv bilan havodek zarur bo'lib qoladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2012, II-bob, 14-modda

2. Mirziyoyev Sh M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – B.146.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. – Toshkent, 2020-yil 29-yanvar.
4. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1990-yil 5. Ziyaev T. Yuz bir hadis. – Toshkent: “Mehnat” nashriyoti, 1991-yil.
5. Imom Ismoil Buxoriy. “Adab durdonalari”. – Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 1990. Hakim at-Termiziy. “Shamoili Muhammadiya”. – Toshkent: “Mehnat”, 1991.
6. Hadis. Qomuslar bosh tahririyati. – Toshkent, 1991-yil.
7. Abdulhamid Muhammad Tursun. “Sovet sharqi musulmonlari” 2-son, 1990. 10. Abdullo Juldos. “Sovet sharqi musulmonlari” 4-son, 1990-yil.
8. At-Termiziy. “Sharq Yulduzi” jurnali. 1990-yil 9-son.

* * *

Komilova Xurshida Toxirovna,

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti*

XOTIN-QIZLARNING ILMIY FAOLIYATI RIVOJLANISHI GENDER ASSIMETRIYA VA GENDER STEREOTIPLARI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning ilm-fan rivojlanishidagi ishtiroki, sohadagi muammolar tahlili keltirilgan. Xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirishning o‘ziga xosligi yoritilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirishning jinsga oid (gender yondashuv) o‘ziga xosligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ilm, fan, gender, sohalar, tahlil, ayol, faoliyat, olima, tahlil, ilmiy faoliyat, ilmiy salohiyat, sohalar.

Аннотация. В статье представлено участие женщин в развитии науки, социологическая оценка проблем в этой области. Подчеркивается специфика ориентации женщин на научную деятельность. Также выявлена гендерно-специфическая (гендерный подход) специфика ориентации женщин в научной деятельности.

Ключевые слова: наука, гендер, поля, анализ, женщина, деятельность, ученый, анализ, научная деятельность, научный потенциал, поля.

Annotation. Annotation. The article presents the participation of women in the development of Science, the sociological assessment of problems in the field. The specificity of the orientation of women to scientific activity is highlighted. It is also revealed the gender-specific (gender approach) specificity of the orientation of women in scientific activity.

Keywords: science, science, gender, fields, analysis, woman, activity, scientist, analysis, scientific activity, scientific potential, fields.

Gender yondashuv ilmiy sohada qobiliyat, bilim va ko‘nikmalarni amalga oshirishda turli xil ijtimoiy-demografik jamoalar vakillari sifatida erkaklar va ayollar uchun

imkoniyatlar tengsizligining sabablarini aniqlashga imkon berdi. Gender assimetriya esa erkaklar va ayollarning xulq-atvoridagi farqlarning ijtimoiy va madaniy shartliligi belgilarining o'zgarishi, gender assimetriyada "tengsizlik" yoki "kamsitish" tushuniladi.

Rahbar ayollarni tayyorlash, ilm-fan sohasida mavjud bo'lgan gender assimetriasini bartaraf etish uchun ayol olimlar uchun maqsadli o'qitish va malaka oshirish zarur. Ayollar va erkaklar boshqaruv sohalarida salohiyati va imkoniyatlar ayollarni erkaklarga qaraganda boshqaruv sohalarida yetakchi sifatida o'zini ko'rsatish ehtimoli kamroq. Xotin-qizlarda tortinchoqlik, qaramlik va ayollarni faqat shaxsiy sohalarda o'zini namoyon etishi mumkin, deb ishoniladi; Jamiyatda xulq-atvor stereotiplari ayollarning hissiyotini, uning sadoqatini va eng muhimi, individual mustaqillikka asoslangan yuqori darajadagi rahbar imidjiga ega bo'lishiga imkon bermaydi. Universitetlarda rahbarlik qilayogan ayollar ulushi dekanlar va rektorlar kamligi lekin, "Parlamentda ayollar soni keskin oshganligi, olti nafar xotin-qizlarning esa shahar va tuman hokimi vazifasiga tayinlanganligi mamlakatimizda gender tenglik ta'minlanishi sohasida muhim ahamiyatga ega".

Gender atamasi bizning tadqiqotimizda erkaklar va ayollar xulq-atvoridagi farqlarning ijtimoiy-madaniy sharliligi, gender tengligini tan olish, ayollarning erkak bilan teng qobiliyatga ega ekanligi, xotin-qizlarning jamiyada ijtimoiy rollarini o'zgarib borishi kabi jihatlarni o'rganadi. **Jins** (lot. "genus") – erkaklik va ayollik bilan bog'liq xususiyatlar spektri. Kontekstga qarab, bunday xususiyatlar ijtimoiy tuzilmalarni (xususan, gender va boshqa ijtimoiy rollarni) yoki gender identifikatsiyasini anglatishi mumkin.

Shuning uchun ilm-fan sohasidagi gender assimetriyasi omillarini aniqlash va o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar juda dolzarbdir. Gender assimetriyasi gender tengligi buzilishi, "tengsizlik" tushunchalari bilan tushiniladi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, xotin-qizlarning ilm-fan sohalaridagi faoliyatlariga gender stereotiplari ta'sir qiladi.

Ayni vaqtda xotin-qizlarning ilm-fanga yo'naltirishning jinsga oid o'ziga xosligini ochib beruvchi, jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda an'anaviy gender stereotiplarni yengib o'tishga intilishni ifodalovchi nazariy-tahliliy ishlar ham, amaliy ishlanmalarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni yetarli, deb bo'lmaydi. Mazkur holat ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning mamlakatimiz ilm-fani va ijtimoiy hayoti uchun yangiligi va dolzarbligini belgilab beradi.

O'quv adabiyotlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktablar uchun mo'ljallangan darsliklarda ham gender stereotiplari qayta ko'rib chiqilishi lozim. Xotin-qizlarning ilm-fan va kasbiy sohadagi faol ishtiroki haqida deyarli hech narsa aytilmaydi va bu stereotip deyarli barcha darsliklarda uchraydi. Xuddi shu narsa an'anaviy tarzda – stereotipik bo'lib, erkaklar uchun mo'ljallangan faoliyat sohasi sifatida qaraladi va bu davlat organlaridagi faoliyatda ham o'z aksini topadi. Shuningdek, maktab davridan boshlab kasbiy sohadagi gender iyerarxiya haqidagi g'oyalarini shakllantirib kelmoqda. Aniq va tabiiy fanlar bo'yicha darsliklarda ayol obrazlari erkaklar bilan teng ravishda qo'llanilishi kerak. Shu munosabat bilan, boshlang'ich sinflar uchun darsliklarning

gender mazmuniga alohida e‘tibor qaratish lozim. Birinchidan, bu davrda gender madaniyatining asoslari yaratilganligi uchun. Ikkinchidan, maktab darsliklarida eng ko‘p eslatib o‘tilgan so‘zlar bola (erkak), qiz (ayol) bo‘lgani uchun. Shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilar tomonidan ushbu fanlarning g‘oyalari, nazariyalari va qonuniyatlarini o‘rganish matematika, kimyo, fizika sohalaridagi olimlarning hayoti, ilmiy faoliyati va ilmiy kashfiyotlari tarixiga oid darsliklar bilan tanishish orqali birga olib boriladi, ammo bu faqat erkak olimlarga taaluqli. Shu sababli, ushbu gender stereotipini bartaraf etishning zaruriy sharti sifatida maktab o‘quvchilarini ayol olimalarning tarjimai holi bilan tanishtirish hamdir.

Xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini rivojlanishini belgilovchi omillar: ilmiy sohaning jamiyatda mavqeyini pasayishi; gender stereotiplari; ikki tomonlama bandlik. Xotin-qizlarning ilmiy jamoachilik ishlariga, ilmiy loyihalarga va ilm-fanni boshqa sohalarida faoliyat yuritishlarini tashkil etish lozim. “Xotin-qizlarga ta’lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022–2026- yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi”. Ayollarning o‘zini o‘zi anglash va ijodkorlik imkoniyatlarini cheklaydigan to‘siqlardan xoli bo‘lgan jamoat joylarida xotin-qizlar uchun maxsus kurslar tashkil etish, rahbar ayollarni tayyorlash, ayol olimalar uchun maqsadli o‘qitish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-87-son Farmoni.
2. Narbayeva T.K O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli. Sots.fanlari doktori. diss.avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 72.
3. Eng so‘nggi falsafiy lug‘at: 3-nashr, tuzatilgan (Ensiklopediyalar dunyosi). – Minsk: Kitob uyi, 2003. – 800 b.

* * *

Д.М.Алимжанова,
начальник международного отдела НИИ «Оила ва хотин-кизлар» при
Государственном комитете семьи и женщин Республики Узбекистан

Ш.А.Пулатова,
адвокат Адвокатской фирмы "Merritz Law"

ЗНАЧЕНИЕ СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ ГЕНДЕРНОЙ ДИСКРИМИНАЦИИ

Аннотация. В статье кратко освещены основные моменты роли судей в справедливом разрешении дел, связанных с гендерной дискриминацией и обеспечение женщинам доступа к правосудию.

Ключевые слова: дискриминация, доступ к правосудию, стереотипы, интерпретация законов, международные договоры.

Annotatsiya. Maqolada gender kamsitish bilan bog'liq ishlarni adolatli hal etish va ayollarning odil sudlovga erishishini ta'minlashda sudyalarning roli haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: diskriminatsiya, odil sudlov, stereotiplar, qonunlarni talqin qilish, xalqaro shartnomalar.

Annotation. The article briefly highlights key points about the role of judges in the fair resolution of cases involving gender discrimination and ensuring women's access to justice.

Keywords: discrimination, access to justice, stereotypes, interpretation of laws, international treaties.

В 2022 году, в условиях многоуровневого кризиса, включая растущую стоимость жизни, продолжающуюся пандемию, крупномасштабные конфликты и миграцию, на мировом уровне отмечено ослабление прогресса в направлении достижения гендерного паритета. Вместе с тем, ускорение процесса достижения гендерного равенства должно стать основной частью государственной политики.

Как отметил Президент Республики Узбекистан выступая на 46-й сессии Совета по правам человека Организации Объединенных Наций, в вопросах гендерной политики Узбекистан намерен кардинально повысить роль женщин в общественной, политической и деловой жизни страны.

Вопросы гендерного равенства подняты на уровень государственной политики, частности в «Стратегии достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года», определено повышение до 2030 года доли женщин-судей до 30 процентов.

Правительство Узбекистана в 2018 году утвердило 16 Национальных целей в области устойчивого развития и 127 связанных с ними задач на период до 2030 года. Был разработан и утвержден национальный набор показателей для контроля прогресса реализации ЦУР. Из 206 показателей — 32 являются гендерными.

Государства обязаны обеспечить женщинам защиту от дискриминации и предоставить средства правовой защиты в случае нарушения их прав человека.

В законе «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» впервые закреплены определения понятий «прямая дискриминация по признаку пола» и «косвенная дискриминация по признаку пола». Запрет дискриминации по признаку пола и иным основаниям закреплен практически во всех законах, принятых в последние годы.

С учетом положений закона «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» в стране уделяется большое внимание проведению широкой разъяснительной и пропагандистской деятельности по вопросам разъяснения гендерной политики государства.

Как нам известно, 7 февраля 2019 г. вступил в силу закон «О международных договорах», статья 3 которого определяет, что международные договоры Узбекистана наряду с общепризнанными принципами и нормами международного права являются составной частью правовой системы Узбекистана.

Данный закон имеет крайне важное значение, ведь международное право и стандарты гендерного равенства и прав человека практически не применяются в судебной практике. В то же время в обществе женщины подвергаются различным формам дискриминации и насилия, что подтверждается последними Заключительными замечаниями Комитета ООН CEDAW.

В разные годы, различные комитеты ООН, среди прочих замечаний, отмечали по поводу «отсутствия какого-либо упоминания Конвенций в решениях судов», редкое «непосредственное применение национальными судами» положений Конвенций и указывали на необходимость в принятии мер по применению национальными судами положений Конвенций в судебных актах. Обоснованием данной рекомендации является то, что соблюдение положений Конвенций ООН по правам человека включает в себя и понятие судебной защиты данных прав.

15-16 февраля текущего года рассматривался Шестой периодический доклад Республики Узбекистан о выполнении Международной Конвенции о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин в формате онлайн.

В частности, в 10-пункте (с) Заключительных замечаний по Шестому периодическому докладу Узбекистана Комитет по ликвидации дискриминации в отношении женщин рекомендует государству-участнику: повышать квалификацию сотрудников судебных органов и специалистов в области права в отношении прямого применения и использования Конвенции в судебных разбирательствах и толкования национального законодательства в свете Конвенции.

Обязательства, установленные на международном и региональном уровнях по борьбе со стереотипизацией, распространяются на все ветви власти, включая судебную. Четкие обязательства в отношении стереотипов установлены двумя международными договорами в области прав человека: Конвенцией о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин и Конвенцией о правах инвалидов.

Данные в разбивке по полу, касающиеся числа заявлений, поданных в Европейский суд по правам человека, показывают, что большинство заявителей – мужчины, и лишь небольшой процент заявлений было подано женщинами. При этом ничто не свидетельствует о том, что права женщин нарушаются реже, чем права мужчин. Более того, одним из условий приема жалобы в международные суды и Комитеты ООН является требование к заявителю исчерпать все национальные средства правовой защиты, а значит, это еще и тревожный сигнал, указывающий на то, что национальные системы юстиции ставят перед женщинами куда более серьезные препятствия, чем перед мужчинами.

Такими факторами могут являться:

- отсутствие информации о своих правах и способах получения правовой помощи, в особенности маргинализированных групп населения;
- отсутствие финансовых ресурсов (это оплата гонорара адвоката, государственных пошлин, транспортных расходов);
- отсутствие судов в районах проживания женщины.

Одним из главных препятствий для доступа женщин к правосудию является **интерпретация законов, которая носит дискриминационный характер или осуществляется без учета гендерной проблематики**. К примеру, требование о непревышении предела необходимой самообороны и наличии непосредственной угрозы насилия в ходе рассмотрения дел об убийстве партнеров, совершавших насильственные действия, без учета специфики поведения виновного, который является жертвой домашнего насилия.

Ярким примером как стереотипы влияют на беспристрастность судей является дело⁷⁹ гражданки Х. против государства Тимора-Лешти, рассмотренное в Комитете CEDAW. Она была приговорена к 15 годам лишения свободы за убийство при отягчающих обстоятельствах за смертельное ножевое ранение своего партнера, с которым у нее был ребенок. В течение многих лет он физически издевался над Х., и в день убийства оборонялась от его побоев.

Комитет CEDAW отметил, что судейский корпус не должен применять жесткие стандарты, основанные на **предвзятых** представлениях о том, какие действия подпадают под определение семейного насилия.

Автор была освобождена из тюрьмы условно-досрочно в 2015 году после частичного помилования президентом государства.

Многим известно решение Европейского суда по правам человека по делу Оруз против Турции, в котором Нахиде долгие годы подвергалась насилию со стороны своего мужа. И несмотря на убийство своей тещи, муж Нахиде был освобожден из тюрьмы и продолжил насилие. Решение Европейского суда способствовало принятию Конвенции Совета Европы о предотвращении и борьбе с насилием в отношении женщин и домашним насилием (Стамбульская конвенция), которая начала действовать в мае 2011 года.

⁷⁹ Х. против Тимор-Лешти (сообщение № 88/2015) // URL:<https://undocs.org/Home/Mobile?FinalSymbol=CEDAW%2FC%2F69%2FD%2F88%2F2015&Language=E&DeviceType=Mobile&LangRequested=False>

В некоторых случаях, необходимость действовать исходя из наилучших интересов ребенка при рассмотрении дел об опеке зачастую понимается как необходимость предоставить родителю и ребенку возможность поддерживать связь, даже если имело место домашнее насилие в отношении партнера, косвенно затрагивающее ребенка.

В качестве примера, мы можем привести сообщение⁸⁰ Исату Джаллоу против Болгарии (сообщение № 32/2011).

Гражданка Гамбии Исату Джаллоу вышла замуж за гражданина Болгарии А.П. и переехала в его страну. А.П. был жесток к автору сообщения и подвергал ее нескольким видам насилия. Женщина подала на развод сразу же после получения вида на жительство, но муж хотел сохранить опеку над их ребенком. Тогда муж подал заявление о выдаче охранного приказа, утверждая, что угрожала ему ножом. Суд удовлетворил этот охранный приказ, потребовав переселить ребенка к А.П. В течение нескольких месяцев органы защиты детей не информировали Исату о благополучии ее ребенка.

Комитет CEDAW постановил выплатить автору компенсацию и рекомендовал болгарским властям при рассмотрении дел об опеке и правах на посещение детей, учитывать случаи насилия и выявлять не ставились под угрозу права и безопасность детей.

Комитет ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин предупреждает: «Стереотипы и гендерные предрассудки в системе правосудия имеют далеко идущие последствия для полного осуществления женщинами своих прав человека. Они препятствуют доступу женщин к правосудию во всех областях права...»⁸¹.

Еще одним серьезным препятствием к получению женщинами доступа к правосудию являются **не учитывающие гендерные аспекты процессуальные нормы**. Прежде всего, вызывает вопросы то, в какой степени система юстиции позволяет учитывать проблемы женщин, в частности жертв/пострадавших от гендерного насилия. Участие в уголовном судопроизводстве часто является поводом для повторной виктимизации. Затягивание судебного разбирательства может быть связано с финансовыми расходами и отрицательно влиять на выполнение женщиной ее обязанностей по уходу за детьми.

В судах устанавливается положительная практика, согласно которой, при рассмотрении семейно-бытовых либо трудовых споров, в случае наблюдения риска допущения насилия в отношении женщин в семье либо на рабочем месте, судом заявляется об этом в надлежащие правоохранительные органы для проведения профилактических работ.

⁸⁰ Исату Джаллоу против Болгарии (сообщение № 32/2011) // URL: <https://undocs.org/Home/Mobile?FinalSymbol=CEDAW%2FC%2F52%2FD%2F32%2F2011&Language=E&DeviceType=Mobile&LangRequested=False>

⁸¹ Общая рекомендация № 33 Комитета ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин, касающаяся доступа женщин к правосудию, пункт 26.

Положения, содержащиеся в международных договорах и национальном законодательстве, требуют сформировать в обществе “нулевую терпимость” по отношению к гендерному насилию. Государства обязаны обеспечить женщинам защиту от дискриминации и предоставить средства правовой защиты в случае нарушения их прав человека. Демократическое общество основывается на верховенстве права, которое представляет собой систему беспристрастных законов, и независимо реализуемых судебными органами.

Ссылки на источники по вопросам гендерного равенства:

1. Заключительные замечания по шестому периодическому докладу Узбекистана/
<https://digitallibrary.un.org/record/3966403>.
2. Комитет по ликвидации дискриминации в отношении женщин. Общие рекомендации.
3. <http://www.ohchr.org/EN/HRBodies/CEDAW/Pages/Recommendations.aspx>
4. Общая рекомендация № 35 касательно гендерного насилия в отношении женщин (2017).
5. <http://www.ohchr.org/EN/HRBodies/CEDAW/Pages/Recommendations.aspx>
6. Руководство по Стамбульской конвенции, Совет Европы <http://www.coe.int/en/web/istanbul-convention/publications>.
7. Материалы о гендерных стереотипах/формировании стереотипов (УВКПЧ):
<http://www.ohchr.org/EN/Issues/Women/WRGS/Pages/GenderStereotypes.aspx>.
8. Гендер в системе правосудия (Европейский институт гендерного равенства, 2017 г.) // <http://eige.europa.eu/rdc/eige-publications/gender-justice>.
9. Публикации о гендерном равенстве: <http://www.coe.int/en/web/genderequality/publications>.
10. Публикации о предоставлении женщинам равного доступа к правосудию // <http://www.coe.int/en/web/genderequality/equal-access-of-women-to-justice>.
11. Всемирный экономический форум. Доклад о глобальном гендерном разрыве, 2022 г. <https://www.weforum.org/reports/global-gender-gap-report-2022/>.
12. База данных по юриспруденции ООН (сообщения в соответствии с Факультативным протоколом к КЛДОЖ) // <http://juris.ohchr.org/search/Documents>.

* * *

Рашидова Дилбар Султановна,
главный научный сотрудник Отдела образования
и просвещения в области прав
человека Национального центра Республики
Узбекистан по правам человека

25 НОЯБРЯ – МЕЖДУНАРОДНЫЙ ДЕНЬ БОРЬБЫ ЗА ЛИКВИДАЦИЮ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

«Насилие в отношении женщин и девочек остается самой распространенной актуальной проблемой в области прав человека в современном мире. Это насилие представляет собой отвратительное преступление и приводит к возникновению чрезвычайной ситуации в области общественного здравоохранения, имеющей далеко идущие последствия для миллионов женщин и девочек во всех уголках земного шара».

Антонио Гутерреш, Генеральный секретарь ООН

25 ноября – Международный день борьбы за ликвидацию насилия в отношении женщин, как и в предыдущие годы начинается с 16 дней активных действий, которые завершатся 10 декабря 2022 года – в Международный день прав человека.

17 декабря 1999 года Генеральная Ассамблея Организации Объединенных Наций приняла резолюцию (A/RES/54/134), провозглашающую **25 ноября Международным днем борьбы за ликвидацию насилия в отношении женщин** и предложила правительствам, международным и неправительственным организациям провести в этот день мероприятия, направленные на привлечение внимания к этой проблеме.

В 1979 году принята Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин, которую Узбекистан ратифицировал 1995 году.

20 декабря 1993 года Генеральная Ассамблея Организации Объединенных Наций приняла резолюцию, содержащую [Декларацию об искоренении насилия в отношении женщин](#).

Организация Объединенных Наций определяет насилие в отношении женщин как «любой акт насилия, совершенный на основании полового признака, который причиняет или может причинить физический, половой или психологический ущерб или страдания женщинам, включая угрозы совершения таких актов, принуждение или произвольное лишение свободы, будь то в общественной или в личной жизни».

Насилие в отношении женщин и девочек является одним из наиболее широко распространенных, трудноискоренимых и ведущих к катастрофическим последствиям нарушений прав человека в современном мире.

Оно проявляется в физической, сексуальной и психологической формах, включая:

- насилие со стороны партнера (избиение, психологическое насилие, изнасилование в браке, убийство);
- сексуальное насилие и домогательства (изнасилования, насильственные половые акты, нежелательные сексуальные авансы, сексуальное насилие над детьми, принудительные браки, уличные домогательства, преследование, киберпреследование);
- торговлю людьми (рабство, сексуальная эксплуатация);
- детские браки.

Сегодня в Узбекистане уделяется большое внимание борьбе с насилием в отношении женщин и детей.

В соответствии со Стратегией развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека, принят ряд законодательных актов и проводится системная работа в области защиты женщин, нетерпимости к притеснению и насилию в отношении женщин в обществе, обеспечение их прав и законных интересов.

В Стратегии достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года также определены мероприятия по борьбе за ликвидацию насилия в отношении женщин.

Принят Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснений и насилия» от 2 сентября 2019 года.

Данным законом определены уполномоченные органы по реализации мероприятий в области защиты женщин от притеснения и насилия, а именно Кабинет Министров Республики Узбекистан, органы государственной власти на местах, органы внутренних дел, органы по труду, органы государственного управления образования и образовательные учреждения, органы управления государственной системы здравоохранения и учреждения здравоохранения, органы самоуправления граждан, негосударственные некоммерческие организации и другие институты гражданского общества.

Введено понятие «охранный ордер» – документ, предоставляющий государственную защиту жертве притеснения и насилия, влекущий применение определенных настоящим Законом мер воздействия к лицу или группе лиц, притесняющих женщин или совершивших в отношении них насилие.

Охранный ордер выдается жертве притеснения и насилия. Лицу, совершившему притеснение и (или) насилие либо склонному к их совершению, выдается экземпляр охрannого ордера. В законе определено, что, по заявлению жертвы притеснения и насилия, если угроза еще не была устранена, срок действия охрannого ордера продлевается не более чем на тридцать дней.

Вместе с тем, Указом Президента Республики от 7 марта 2022 года УП-87 поручено усиление защиты женщин от насилия и других видов посягательств. В частности, Министерству юстиции, Генеральной прокуратуре и МВД дано

поручение подготовить и внести в Кабинет Министров проект закона, который предусматривает:

- определение порядка выдачи судом ордера, предоставляющего государственную защиту пострадавшему от притеснений и насилия, на срок до одного года;

- усиление ответственности за понуждение женщины к совершению аборта;

- усиление ответственности за умышленное причинение телесного повреждения женщине, являющейся близким родственником;

- введение уголовной ответственности за разглашение информации об интимной жизни человека, унижающей честь и достоинство личности и т.д.

В целях предотвращения домогательств и насилия в отношении женщин и защиты их прав, в 2020 году в Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности введена статья 206¹ предусматривающая ответственность за невыполнение требований охрannого ордера лицом, совершившим притеснение и (или) насилие либо склонным к их совершению.

Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан в 2019 году в системе Службы профилактики правонарушений Министерства внутренних дел Республики Узбекистан создано новое подразделение – Управление по вопросам женщин, основной задачей которого является защита законных прав и интересов женщин, особенно тех, кто оказался в трудной жизненной ситуации, выявление женщин, пострадавших от насилия, и оказание им помощи. На сегодняшний день в этой системе профилактики правонарушений работают 349 женщин-инспекторов.

На основании постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по реабилитации женщин, пострадавших от насилия» от 19 мая 2021 года при Государственном комитете семьи и женщин организован Республиканский Центр реабилитации и адаптации женщин и 28 региональных и районных Центров. Одной из основных задач Центров является оказание экстренной медицинской, психологической, социальной, педагогической, правовой и иной помощи в анонимной форме женщинам, пострадавшим от притеснения и насилия, а также покушавшимся на свою жизнь или склонным к совершению суицида.

Несмотря на эти усилия, насилие в отношении женщин остается серьезной проблемой по сей день, как во всем мире, так и в Узбекистане.

Как показывает статистика, за 9 месяцев 2022 года выдано **38 881** охранных ордеров, по сравнению с текущим периодом 2021 года данный показатель повысился на **8 982 (23%)**.

В рамках статьи 206¹ Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности за 9 месяцев 2022 года привлечены к ответственности **1624** лиц, за невыполнение требований охрannого ордера.

Хотелось бы отметить, что одним из механизмов мониторинга реализации взятых на себя обязательств по исполнению положений Конвенций ООН,

является предоставление государством-участницей периодических отчетов о мерах (законодательных, судебных, административных или других) принятых для введения в действие и имплементации положений Конвенций.

По итогам рассмотрения периодических отчетов государств-участниц, Комитеты ООН составляют заключительные замечания и рекомендации, в которых отмечают основные предметы особой озабоченности комитетов ООН и соответствующие предложения или рекомендации.

В этом году 15-16 февраля рассматривался Шестой периодический доклад Республики Узбекистан о выполнении Международной Конвенции о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин. По итогам Комитет по ликвидации дискриминации в отношении женщин предоставил Заключительные замечания по шестому периодическому докладу Узбекистана.

В заключительных замечаниях Комитет ООН, среди прочих замечаний, отметил «озабоченность», «обеспокоенность» по поводу того, что в государстве-участнике наблюдается высокий уровень гендерного насилия в отношении женщин, включая резкое увеличение числа случаев домашнего насилия во время режима изоляции, введенного в связи с COVID-19. Также Комитет отметил:

а) отсутствие в Законе о защите женщин от притеснения и насилия юридического определения и положения о том, что за домашнее насилие предусматривается конкретная уголовная ответственность, а также слабый уровень правоприменения и контроля за исполнением законодательства;

б) отсутствие в уголовном законодательстве положений, в которых предусматривается конкретная уголовная ответственность за различные формы гендерного насилия помимо сексуального насилия и изнасилования, и недостаточная защита от гендерного насилия женщин и девочек, сталкивающихся с перекрестными формами дискриминации, включая женщин и девочек, принадлежащих к религиозным и этническим меньшинствам, женщин и девочек с ограниченными возможностями и женщин, живущих с ВИЧ/СПИДом;

с) тот факт, что определение изнасилования основано на применении или угрозе насилия, а не на отсутствии согласия;

д) ограничение срока действия защитных предписаний 30 днями с возможностью продления на один месяц, их ограниченное исполнение, отсутствие постановлений о высылке, отсутствие служб для поддержки жертв, препятствия для доступа женщин и девочек к правосудию в случаях гендерного насилия, включая ревиктимизацию в ходе уголовного процесса, а также широкое использование процедур примирения и посредничества в махаллях.

Национальным центром Республики Узбекистан по правам человека в целях реализации рекомендаций Комитета ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин при участии более 40 соответствующих министерств и ведомств разработан проект Национального плана действий по выполнению рекомендаций Комитета ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин по итогам рассмотрения Шестого периодического доклада Республики

Узбекистан по выполнению положений Конвенции ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (на 2022–2025 годы). В данном документе отдельное направление посвящается реализации рекомендации Комитета по предотвращению гендерного насилия в отношении женщин.

Проект Национального плана действий 10 октября т.г. рассмотрен на заседании Парламентской комиссии по соблюдению международных обязательств Республики Узбекистан в области прав человека и готовится к утверждению.

В Узбекистане с 25 ноября по 10 декабря широко отмечается Международный день борьбы за ликвидацию насилия в отношении женщин. В рамках «16 дней активных действий» государственными органами совместно с институтами гражданского общества и международными организациями проводятся ряд мероприятий, направленные на призыв к действиям по уменьшению и предотвращению насилия в отношении женщин и девочек, защиту прав и интересов, расширение возможностей жертв.

Вместе с тем, необходимо активизировать совместную деятельность государственных органов и институтов гражданского общества, принять конкретные меры по ликвидации насилия в отношении женщин, в частности:

- в республике и в каждой области (районе, городе) создать межведомственные органы, комиссии, состоящие из представителей государственных органов – органов внутренних дел, прокуратуры, здравоохранения, образования, центров социальной помощи, а также представителей негосударственных некоммерческих организаций и внедрить систему статистического учета случаев насилия и притеснений в отношении женщин, что позволит упорядочить действия, направленные на помощь жертвам насилия;

- провести Парламентский контроль за исполнением Закона Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия», итоги рассмотреть на заседании Комитета по вопросам женщин и гендерного равенства;

- пересмотреть подходы к работе по борьбе с насилием в семье, и внедрить механизм, включающий работу не только с жертвой насилия, но также работу с лицом, совершающим насилие и внедрить в этих целях специальные коррекционные программы;

- больше внимания уделять информационно-просветительской деятельности и созданию социальных роликов, баннеров привлекающих внимание к самой проблеме, а также разъясняющих механизм защиты жертв насилия;

- включить в систему обучения всех государственных органов учебных курсов по домашнему насилию;

- повысить осведомленность широкой общественности, в том числе, сотрудников органов самоуправления, религиозных лидеров о криминальном характере всех форм гендерного насилия, включая домашнее и сексуальное насилие, и о необходимости того, чтобы женщины могли сообщать о таких случаях в правоохранительные органы, не опасаясь мести, стигматизации или ревиктимизации, путем проведения встреч, «круглых столов».

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснений и насилия» от 2 сентября 2019 года.
2. Основные сведения: Ликвидация насилия в отношении женщин // <https://www.un.org/ru/observances/ending-violence-against-women-day/background>.
3. Резолюцию A/RES/54/134 Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций, 17 декабря 1999 года // <https://www.un.org/ru/ga/54/docs/54res2.shtml>.
4. Декларация об искоренении насилия в отношении женщин, Принята резолюцией 48/104 Генеральной Ассамблеи от 20 декабря 1993 года // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/violence.shtml.
5. Заключительные замечания по шестому периодическому докладу Узбекистана Комитета по ликвидации дискриминации в отношении женщин, 1 марта 2022 года.

* * *

Toshpulatov Akrom Ikromovich,

*Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi
akramtoshpulatov4@gmail.com*

FUQAROLARNING QONUN OLDIDA TENGLIGI PRINSIPI ERKAKLAR VA AYOLLARNING JINOYAT SODIR QILGANLIGI UCHUN TENG JAVOBGARLIKNI NAZARDA TUTADIMI?

Annotatsiya. Maqolada jinoyat qonunida fuqarolarning tengligi prinsipi mazmuni ochib berilgan, ayollarga nisbatan jinoyat qonunida berilgan imtiyozlar, afzalliklarning tengli prinsipiga zid emasligi asoslangan.

Kalit so'zlar: tenglik prinsipi, jinoyat, jinoiy javobgarlik, ozodlikdan mahrum qilish, jazo.

Аннотация. В статье раскрывается содержание принципа равенства граждан в уголовном праве, основанного на том факте, что льготы, предоставляемые в уголовном праве в отношении женщин, не противоречат принципу равенства преимуществ.

Ключевые слова: принцип равенства, преступление, уголовная ответственность, лишение свободы, наказание.

Annotation. The article reveals the content of the principle of equality of citizens in criminal law, based on the fact that the benefits granted in criminal law in relation to women do not contradict the principle of equality of advantages.

Keywords: principle of equality, crime, criminal liability, imprisonment, punishment.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilangan.

Jinoyat kodeksining 5-moddasida fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi “jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar” degan tahrirda bayon etilgan.

Konstitutsiyada barcha fuqarolar tengligi haqida so‘z yuritilgan bo‘lsa, JK 5-moddasida jinoyat sodir qilgan shaxslarning tengligi nazarda tutilgan.

Huquqshunos olimlar tomonidan ushbu prinsipni jinoyat qonuniga kiritish shartmi, bu prinsip Konstitutsiyada aks ettirilgan va u qonunda ko‘rsatilishi yoki ko‘rsatilmashligidan qat’iy nazar barcha huquq sohalari uchun majburiy bo‘ladi, degan qarashlar mavjud. Shuningdek, Jinoyat kodeksida belgilangan tenglik prinsipi faqat jinoyat sodir qilgan shaxslarning tengligini kafolatlab, boshqa shaxslar ushbu prinsip doirasidan chetga chiqib qolganligi ta’kidlanib, ushbu prinsipni Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlash takliflarini bildirishgan [1; – B. 20].

N.F.Kuznesova esa fuqarolarning teng huquqligi prinsipi masalasini tahlil qilar ekan, moddaning nomida barcha fuqarolarning tengligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, modda matnida faqat jinoyat sodir qilgan shaxslar haqida so‘z yuritilganligini bildiradi. Aslida tenglik jinoyat-huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari, ya’ni jinoyat sodir qilgan shaxslar, jabrlanuvchilar, qonunni qo‘llovchi shaxslar uchun ham qo‘llanilishi kerak [2; – B. 70-71].

Albatta, ushbu prinsip mazmuniga ko‘ra faqat jinoyat sodir qilgan shaxslar tengligi haqida so‘z yuritilar ekan, prinsip nomidagi barcha fuqarolarning tengligi qanday ta’minlanadi, degan savol ochiq qoladi.

Shu bilan birgalikda tenglik prinsipini mutlaq o‘zgarmas prinsip sifatida ham qarash kerak emas. Jumladan, jazo tayinlashda voyaga yetmaganlar, ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan o‘ziga xos yengilliklarni ham ushbu prinsip mazmuniga zid holat sifatida baholamaslik kerak. T.R.Sabitov ushbu masalaga e’tibor qaratib, Rossiya Jinoyat kodeksida o‘lim jazosi ayollarga nisbatan qo‘llanilmasligi hamda sud tomonidan jarima jazosini qo‘llashda nafaqat qilmishning ijtimoiy xavfliligi, balki sudlanayotgan shaxsning va uni oilasining moddiy ahvoli, sudlangan shaxsning oylik maoshi yoki boshqa daromad olish imkoniga qarab tayinlanishini ham tenglik prinsipiga to‘g‘ri kelmaydi, deb hisoblagan [3; – B. 249].

1999-yildagi Rossiya jinoyat huquqi darsligi mualliflari, tenglik prinsipi jinoyat sodir qilgan shaxslarning har qanday o‘ziga xos xususiyatlarini yo‘qqa chiqarib ularni tenglashtirib qo‘yadi, deb hisoblashadi. O‘z fikrlarining isboti sifatida Jinoyat kodeksi Maxsus qismida mansabdor shaxslarning qilmishni kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida ko‘rsatilishi, Rossiya Jinoyat kodeksining 11-moddasida belgilangan diplomatik va boshqa immunitetga ega shaxslar javobgarligiga oid qoidalarni keltirishgan [4; – B. 48].

N.G.Ivanov esa, tenglik prinsipi jinoyat qonuni doirasida nafaqat deklarativ xususiyatga ega bo‘lib, balki ortiqcha ham hisoblanadi, chunki u qonuniylik va ayb prinsiplarini takrorlab, barchaning Jinoyat kodeksi oldida tengligi haqida illyuziyani vujudga keltiradi, deb ta’kidlagan [5; – B. 20].

T.R.Sabitov va V.V.Malsevlar, Jinoyat kodeksida fuqarolarning qonun oldida teng huquqliligi prinsipini belgilash shart emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ushbu

prinsip jinoyat-huquqiy xususiyatga ega emas, u mohiyatan konstitutsiyaviy normani takrorlaydi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar bo'yicha e'tirozlarimizni quyidagicha asoslashga harakat qilamiz:

birinchidan, fuqarolarning qonun oldida tengligi konstitutsiyaviy prinsipni takrorlaganligi uchun uni Jinoyat kodeksida belgilash kerak emas deb hisoblaydigan bo'lsak, qolgan konstitutsiyaviy prinsiplarni ham (masalan, qonuniylik, demokratizm) Jinoyat kodeksiga kiritish zarurati bo'lmasdi;

ikkinchidan, jinoiy jazo tayinlashda ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan berilgan o'ziga xos yengilliklarni (masalan ayollarga nisbatan jazo tayinlashdagi) tenglik prinsipini buzilishi sifatida baholash mumkin emas, chunki qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplariga muvofiq har bir shaxsning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari jazo tayinlashda hisobga olinishini kafolatlaydi;

uchinchidan, tenglik prinsipi jinoyat qonunchiligida faqat bir jihatda, ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxslarning bir xilda jinoiy javobgarlikka tortilishi zarurligida namoyon bo'ladi. Shu sababdan ham bu prinsip, barchaning bir xil javobgar bo'lishi va jazolanishini anglatmaydi;

to'rtinchidan, voyaga yetmagan shaxslar o'z yoshiga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda katta yoshdagi jinoyat sodir qilgan shaxslar bilan bir xilda javobgar bo'lishlari mumkin emas, shuning uchun Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar javobgarligi xususiyatlari ajratilib berilgan;

beshinchidan, tenglikni mutlaq prinsip sifatida tushunish subyektlarni yoshi doirasiga qarab bir necha turlarga bo'linishini ham mantiqsiz qilib qo'yishiga olib kelgan bo'lar edi;

ayrim turdagi mansabdor shaxslarga oid javobgarlikning o'ziga xosliklari ham tenglik prinsipi mazmuniga zid kelmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jinoyat qonunida tenglik faqat jinoyat sodir qilgan barcha shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishida tenglikni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qancha moddalarida ayollarning jinoiy javobgarligi masalasida erkaklarga nisbatan bir qancha yengilroq yondashuv borligini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, Jinoyat kodeksi 50-moddasining to'rtinchi qismida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga nisbatan qo'llanilmasligi, oltinchi qismida ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilayotgan ayollarga tayinlanadigan jazo muddati ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.

Jinoyat kodeksining 51-moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga nisbatan tayinlanishi mumkin emasligi nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 72-moddasining yettinchi qismiga muvofiq, o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilingan, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan erkaklarga nisbatan shartli hukm qo'llanilmasligi belgilangan bo'lsa, bunday taqiq ayollarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksida homilador ayolning jinoyat sodir qilishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi va aksincha homilador ayolga nisbatan jinoyat sodir qilinishi jazoni og‘irlashtiruvchi holat hisoblanishi ham belgilab qo‘yilgan.

Xo‘sh, bu normalar gender tenglik masalalari bo‘yicha qanday tahlil qilinishi kerak, tenglik ikkala jins vakillari uchun ham teng javobgarlikni nazarada tutmaydimi? degan savollar kelib chiqaradi.

Avvalo, ayollarning jinoyatga qo‘l urishlari sabablarini tahlil qilish kerak. Mamlakatimiz olimlari Q.R.Abdurasulova, Z.S.Zaripov, I.Ismoilov, M.Usmonaliev, S.Niyozovalar ayollar nima uchun jinoyat sodir qilishadi, uning sabablari nimada va oldini olish uchun qanday choralar ko‘rilishi kerakligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

S.Niyozova ayollar jinoyatchiligi sabablari sifatida jamiytdagi qiyinchiliklar, ertangi kunga ishonchsizlik, ayolning oilada yagona boquvchi bo‘lib qolishi, oiladagi qadriyatlarning o‘zgarishi, ijtimoiy huquqsizlikni ko‘rsatgan [6].

Shu bilan birgalikda, ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan son jihatidan ham, sodir qilingan jinoyatlar turlari jihatidan ham farq qilinishini ta’kidlash joiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining statistik ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yilning 9 oyi davomida sudlangan erkaklar 37 924 nafarni, ayollar esa 4802 nafarni tashkil qilgan (umumiy sudlanganlarning deyarli 13%), ya’ni sudlangan erkaklar soni sudlangan ayollar soniga nisbatan 8 baravar ko‘proqni tashkil qiladi [7].

Ko‘rinib turibdiki, birinchidan, ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan bir necha barobar kam, ikkinchidan, ayollarning jinoyat sodir etishi motivlari erkaklarning jinoyat sodir etish motivlaridan farq qiladi, uchinchidan, ayollarning jamiyatda, oilada tutgan o‘rni ularning ko‘proq jabrlanuvchi bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi va shu sababdan ularni jinoyatlardan himoya qilishga oid qoidalarining jinoyat qonunchiligida bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Jinoyat kodeksida belgilangan fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi barchaning teng javobgarligini va teng jazo choralarini qo‘llashni emas, balki jinoyat sodir qilgan barcha shaxslarning kimligidan qat’iy nazar bir xilda javobgar bo‘lishini nazarda tutadi.

Jazo tayinlashda ayollarning, voyaga yetmagan shaxslarning, qariyalarning jinsga oid, yosh va jismoniy xususiyatlarini hisobga olinishi tenglik prinsipini buzish emas, aksincha ma’lum bir ma’noda teng imkoniyatga ega bo‘lmagan shaxslarni kuchliroq muhofaza qilishni nazarda tutadi.

Shu sababdan ham, ayollarning jinoiy javobgarligi bo‘yicha jinoyat qonunida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar gender tenglik tamoyillariga zid emas, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мальцев В.В. Принципы уголовного права. – Волгоград, 2001. – С. 141-142; Иванов Н.Г. Модельный уголовный кодекс. Общая часть. ОПУС № 1. – Москва, 2003. – С. 20
2. Курс уголовного права. Общая часть. Т. 1. Учение о преступлении: Учебн. / пол ред. Н.Ф. Кузнецовой, И.М. Тяжковой. – Москва, 1999. – С. 70-71

3. Сабитов Т.Р. Уголовно-правовые принципы: понятие, системы и виды. Дис. ...докт. юрид. наук. – Екатеринбург, 2019. – С. 249,
4. Уголовное право. Общая часть: учеб. / под ред. В.Н. Патрашева. – Москва, 1999. – С. 48.
5. Иванов Н.Г. Модельный уголовный кодекс. Общая часть. ОПУС № 1. – Москва, 2003. – С. 20
6. Niyozova S. Ayollar nega jinoyatga qo'l uradilar? // <http://hudud24.uz/ayollar-nega-jinoyatga-%D2%9B%D1%9E-uradilar/>
7. <https://stat.sud.uz/file/2022//18-10/%D1%81%D0%B0%D0%B9....pdf>

* * *

Annayeva Nazokat Rajapbayevna,
UrDU tadqiqotchisi

TA'LIM TIZIMIDAGI ASOSIY GENDER YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy ta'lim tizimidagi gender assimetriyasi, o'rta maktablarda jinsiy tarbiyaning yagona va aniq konsepsiyasi, o'qituvchilar va boshqa katta yoshdagilarning gender ta'limi, gender pedagogikasining yagona konsepsiyasini ishlab chiqish hamda gender assimetriyasida umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishi kabi masalalar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: insonning zamonaviy jamiyatda moslashuvi, insonning individual fazilatlar va iste'dodi, stereotiplar, sun'iy munosabatlarni yuklamaslik, kuchlilik, mustaqillik, faollik, tajovuzkorlik, ratsionallik, shaxsiy muvaffaqiyatga intilish, ayollarda zaiflik, tobelik, sustkashlik, muloyimlik, hissiyotga moyillik, boshqalar yordamiga muhtojlik.

Аннотация. В данной статье анализируются такие вопросы, как гендерная асимметрия в системе общего образования, единая и четкая концепция полового воспитания в общеобразовательных школах, гендерное воспитание учителей и других взрослых, разработка единой концепции гендерной педагогики и формирование общечеловеческих ценностей в гендерной асимметрии.

Ключевые слова: адаптация человека в современном обществе, индивидуальные качества и таланты человека, стереотипы, отсутствие искусственных отношений, сила, самостоятельность, активность, агрессивность, рациональность, стремление к личному успеху, ранимость у женщин, зависимость, прокрастинация, мягкость, эмоциональная склонность, потребность за помощью от других.

Annotation. This article analyzes issues such as gender asymmetry in the general education system, a single and clear concept of sex education in secondary schools, gender education of teachers and other adults, the development of a single concept of gender pedagogy and the development of universal values in gender asymmetry.

Keywords: human adaptation in modern society, human individual qualities and talents, stereotypes, lack of artificial relationships, strength, independence, activism, aggression, rationality, striving for personal success, vulnerability in women, dependence, procrastination, gentleness, emotional propensity, need for help from others.

Pedagogikada gender yondashuvi paydo bo‘lishining asosiy shartlari quyidagilardan iborat: gender tabaqalanishining an’anaviy tizimini buzish, ayol va erkak ijtimoiy rollarining qutblanishini zaiflashtirish; erkaklik va ayollikning madaniy stereotiplarini o‘zgartirish; nikoh va oilaviy munosabatlarning gender xususiyatlarining obyektiv o‘zgarishi va boshqalar. Biz pedagogikada gender yondashuvini joriy etishni zamonaviy ta’lim va tarbiyaning eng muhim tamoyili deb bilamiz; jinsidan qat’i nazar, shaxs uchun teng huquq va imkoniyatlar prinsipi sifatida egalitarizm asosida gender o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogikadagi gender yondashuvi pedagogik faoliyatda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, g‘oyalar va usullar tizimiga tayanishga imkon beradigan uslubiy yo‘nalishdir. Gender o‘zini o‘zi bilish bolaning shaxsini o‘z-o‘zini qurish va o‘zini o‘zi anglash, uning o‘ziga xos individualligini rivojlantirish jarayonlarini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha harakatlardan iboratdir.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, genderning ijtimoiy qurilishi nazariyasi biologik jins va jinsni belgilashning ijtimoiy jarayoni o‘rtasidagi analitik farqga asoslanadi (gender jinsni belgilashda jamiyatning ishi deb hisoblanadi va gender munosabatlari ijtimoiy tengsizlik munosabatlari sifatida qurilgan) va genderning ijtimoiy qurilishi metodologiyasi kontekstida gender masalalarini o‘rganish uchun yuqori samarali yondashuvga asoslanish lozim. O‘z-o‘zini anglashning muhim jihati sifatida qaraladigan, shaxsning ma’lum bir jins vakili sifatidagi tajribasini tavsiflovchi gender identifikatori shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, erkak yoki ayol xususiyatlarini “men” va boshqalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida, ijtimoiylashuv jarayonini o‘rganuvchi psixologik yonadashuv natijasida shakllanadi.

Gender ijtimoiylashuvining maishiy muammolarini tarixshunoslik tahlili asosida shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va fandagi gender assimetriyasi turli sohalarda mutaxassislarni tayyorlashda erkaklar va ayollar nisbatidagi haqiqiy nomutanosiblikni aks ettiradi va bu sohada aniq yoki yashirin tengsizlikni aks ettiradi. Gender assimetriyasi tasodifiy hodisa emas, balki doimiy omil; obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra shakllanadigan jarayondir. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, sanoati rivojlangan mamlakatlarda erkaklar o‘zlarining umumiy ish vaqtining 70 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa uning to‘rt dan uch qismidan ko‘prog‘ini haq to‘lanadigan mehnat faoliyatiga sarflaydilar. Ayollar esa erkaklardan farqli o‘laroq, o‘z vaqtining to‘rt dan uch qismini haq to‘lanmaydigan va faqat to‘rt dan bir qismini haq to‘lanadigan mehnat faoliyatiga sarf qiladilar [1].

Umumiy ta’lim tizimidagi gender assimetriyasi quyidagi muammolar sabab paydo bo‘ladi: o‘rta maktablarda jinsiy tarbiyaning yagona va aniq konsepsiyasining yo‘qligi; erkaklarni umuman ta’lim sohasidan “chetlashish” tendensiyasi; o‘qituvchilar va boshqa katta yoshdagilarning gender ta’limining yetarli darajada emasligi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tishda gender mezoni mehnat dunyosida, ayniqsa, xususiy mulkchilik shaklidagi korxona va firmalarda ijtimoiy kamsitishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanganligini isbotlaydi. O‘z navbatida mehnat bozori va bandlikdagi tarkibiy o‘zgarishlar xotin-qizlar salmog‘i yildan-yilga ortib borayotgani, ularning raqobatbardoshligi, ijtimoiy va kasbiy harakatchanligi ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Hozirgi davrga kelib falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik qarashlarda erkak va ayollar o‘rtasidagi

munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashish paydo bo'ldi. Jumladan, jinslarning ijtimoiylashuvi jarayoni hokimiyat, zo'ravonlik, shaxsning o'zini o'zi anglashi, erkinligi va boshqa sohalarida individning ijtimoiy rollari muammolari sifatida oydinlashtirilgan [2].

O'zbekiston ta'limi va fanini rivojlantirishning hozirgi bosqichida gender pedagogikasining yagona konsepsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib, ikki jinsning yanada konstruktiv o'zaro ta'siriga yordam beradigan ijobiy chora-tadbirlar zarur, degan xulosaga olib keladi. Shuningdek, gender assimetriyasida umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishi, insonning zamonaviy jamiyatda moslashuvi va uning rivojlanishi, insonning individual fazilatlar va iste'dodi, unga mavjud ijtimoiy rollar, stereotiplar va sun'iy munosabatlarni yuklamalik orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, jinsiy tavofutlarning ham o'ziga xos, umumiy sababiy bog'lanishlari (determinantlari) mavjud bo'lib, bular ta'sirida erkaklarga xos bo'lgan kuchlilik, mustaqillik, faollik, tajovuzkorlik, ratsionallik, shaxsiy muvaffaqiyatga intilish kabi, ayollarda esa zaiflik, tobelik, sustkashlik, muloyimlik, hissiyotga moyillik, boshqalar yordamiga muhtojlik, ta'sirchanlik va hokoza xarakter xususiyatlari tarkib topadi [3].

Zamonaviy jamiyatda qat'iy gender tabaqalanishiga mos kelmasligi isbotlangan: mavjud ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimini o'zgartirmasdan turib, ta'lim mazmunini jinsga ko'ra farqlash mumkin emas va o'qitish usullari uning mazmuni bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun birgalikda va teng hisoblanadi. Gender ta'limi alohida ta'limdan ko'ra ijtimoiy jihatdan ko'proq funksional asosga ega ko'rinadi aslida esa gender pedagogikasi an'anaviy standartlarni abadiylashtirish va qayta tiklashga emas, balki ularni o'zgartirishga qaratiladi. Alohida yoki qo'shma ta'lim muammosi emas, balki gender ta'limi muammosi muhim ahamiyatga ega, buning doirasida birinchi navbatda stereotiplarning mohiyatini tushuntirish, ularning tarixiy o'zgaruvchanligini aniqlash kerak degan xulosaga olib keladi. Bu esa ijtimoiy shart-sharoitni shakllantirish va shu asosda gender yondashuvini samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ta'limni insonparvarlashtirishning zamonaviy paradigmasi asosida genderning o'zini o'zi bilishiga, o'zini o'zi qurishiga va o'zini o'zi qurishiga hissa qo'shadigan izchil ta'lim konsepsiyasini yaratishga sabab bo'ladi. Ayni shu ma'noda, shaxsni ro'yobga chiqarish, uning o'ziga xos individualligini rivojlantirish uchun bu muammoni hal etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ta'kidlanishicha, qo'shma va alohida ta'lim muammosini ko'pincha aqliy jarayonlar va aqliy qobiliyatlardagi tug'ma jinsiy farqlar bilan yopishga harakat qilinadi, ammo bu boradagi ilmiy ma'lumotlar noaniq: gender farqlari – bu tuzatish qiyin bo'lgan farqlar, obyektiv ravishda va shaxslar o'rtasidagi farq har doim jinslarga qaraganda kattaroqdir, bundan tashqari, ular, boshqa kognitiv qobiliyatlar kabi, ko'p jihatdan o'quv jarayonining natijasi bo'lib, faoliyat tabiati, ularning namoyon bo'lish hajmi va shakllari bilan bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Adabiyotlarni tahlil qilish gender ta'limining uchta modelini ajratib ko'rsatishga imkon beradi: repressiv, liberal va demokratik: repressiv model erkak va ayol jinslarining xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning minimal miqdoriga qaratilgan, stereotiplarning shakllanishiga yordam beradi. Va qarama-qarshi jinsni idrok etishdagi liberal model bolalarni har qanday mavjud ma'lumotlar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi, garchi u shaxsning axloqiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demokratik modeli talabalarni ijobiy tanlovga undaydigan, to‘g‘ri gender identifikatsiyasini shakllantirishga, gender munosabatlari sohasida axloqiy madaniyatni egallashga yordam beradigan zarur ma’lumotlarga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, kvotalar turli davlatlarda turli sabablarga ko‘ra joriy etilgan. Masalan, Indoneziyada xotin-qizlar tashkilotlarining aktiv faoliyati va jamiyatni demokratiyalashtirish jarayoni boshlanganligi, Janubiy Afrikada milliy harakat yuksalganligi, aparteid siyosati tanazzulga uchraganligi va Afrika Milliy Kongressi hokimiyat tepasiga kelganligi kvotalarning qabul qilinishiga omil bo‘ldi. An’anaviy jamiyatlarda, masalan Indoneziya va Koreyada gender tenglik yuqoridan davlat darajasiga chiqariladi, lekin davlat xotin-qizlarga nisbatan paternalistik pozitsiyani saqlab turadi. Biroq, Koreyada, ehtimol, shu tufayli kvotalar to‘g‘risidagi qoidalar qabul qilinganidan keyinoq darhol xotin-qizlarning vakilligini oshirish bo‘yicha ajoyib natijalarga: 5,9 % dan 13% gacha erishishga muvaffaq bo‘ldi [4].

Zamonaviy pedagogik ta’limning gender komponentini shakllantirish amaliyotini tahlil qilish bugungi kunda uning mazmunini shakllantirishning ikkita asosiy yondashuvini aniqlashga imkon berdi: ko‘p tarmoqli va fanlararo: ko‘p tarmoqli yondashuv bilan, ma’lum gender jihatlarini hamda shaxsni rivojlantirish har qanday aniq fanlar doirasida o‘rganish mavzusiga aylanadi. Fanlararo yondashuvni amalga oshirishda an’anaviy o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuniga maxsus kurslar kiritiladi, ular yaxlit xususiyatga ega bo‘lib, genderga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning butun arsenalidan foydalangan holda o‘qituvchining gender kompetensiyasini maqsadli ravishda shakllantirishga imkon beradi.

Zamonaviy gender tadqiqotlarining ilmiy yo‘nalishlari shakllanishi va rivojlanishining to‘rt bosqichi: tashkiliy va tarbiyaviy bosqich, milliy gendershunolikni institutsionalizatsiya qilish bosqichi; olimlar va amaliyotchilarni birlashtirish bosqichi; milliy ta’limda gender ta’limini qonuniylashtirish va kengroq targ‘ib qilishga qaratilgan ishlarni faollashtirish bosqichidan iborat.

Ta’lim muassasalarida gender kompetensiyasini samarali shakllantirish shartlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish jami ravishda gender ta’limining samarali modellarini amalga oshirishni va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida gender munosabatlarini rivojlantirishni pedagogik boshqarishni ta’minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Революция в интересах равенства мужчин и женщин. Доклад о развитии человека за 1995 год. – Нью-Йорк: Oxford University Press. 1995. – С. 6.
2. Muraveva N. O‘zbekiston xotin-qizlari ijtimoiy maqomini yuksaltirish. –Toshkent, 2004. – 18 b.
3. Алешина Е.Е., Волович А.С. Проблема освоение ролей мужчины и женщины // Вопросы психологии, 1991. № 4. – С. 74.
4. Ma’lumotlar «Women in National Parliaments» (Ayollar milliy parlamentlarda): www.ipu.org/wmn-e/world.htm saytdan olindi.

* * *

Dilmurod Matrasulov,

Mehnat bozori tadqiqotlari instituti loyiha rahbari,

Zebo Nurmonova,

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

MIGRATSIYA – IJTIMOY FENOMEN: MIGRANT XOTIN-QIZLARNING TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK QURBONIGA AYLANISHINING SABAB VA OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik hisoblangan zo'ravonlik haqida so'z boradi. Shuningdek, ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilinayotgan migratsiya jarayonlarida xotin-qizlarning ishtiroki, xususan, migrant xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrash holatlari, sabab va omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jismoniy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, tazyiq, migratsiya, majburiy mehnat, odam savdosi.

Аннотация. В статье под физическим, психическим, сексуальным или экономическим воздействием на женщин либо путем угрозы применения мер такого воздействия на их жизнь, здоровье, половую неприкосновенность, честь понимается насилие, представляющее собой противоправное действие или бездействие, унижающее достоинство и другие права и свободы, охраняемые законом. Также участие женщин в миграционных процессах, которое трактуется как социальное явление, в частности анализируются ситуации, причины и факторы домогательств и насилия женщин-мигрантов.

Ключевые слова: физическое насилие, психологическое насилие, сексуальное насилие, экономическое насилие, угнетение, миграция, принудительный труд, торговля людьми.

Annotation. In the article, the physical, mental, sexual or economic impact on women or through the threat of measures of such impact on their life, health, sexual inviolability, honour is understood as violence that constitutes a wrongful act or omission that degrades dignity and other rights and freedoms protected by law. Also the participation of women in migration processes, which is treated as a social phenomenon, is analysed in particular, the situations, causes and factors of harassment and violence of migrant women.

Keywords: physical violence, mental violence, sexual violence, economic violence, oppression, migration, forced labor, human trafficking.

Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1-modda.

Dunyoda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, shaxs huquq va manfaatlarini himoya qilish bugungi kunda barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat

kasb etadigan vazifalardan hisoblanadi. Darhaqiqat, hozirgi davrda jahon miqyosida ayollarga nisbatan ishlatiladigan jismoniy zo‘ravonliklarning **35 foizi jinsiy sheriklari tomonidan** sodir etilgan. Bu o‘z navbatida, nozik jins vakillarini maishiy zo‘ravonlik jinoyatlardan himoya qilish davr talabi ekanini ko‘rsatib turibdi.

Umuman olganda, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va zulm jamiyatimiz uchun eng og‘riqli mavzudir. Sharqona mentalitetimiz va uydagi janjalni tashqariga olib chiqmaslik tamoyili tufayli, aslida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ancha ko‘p bo‘lishi mumkin. JSSTning rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, **15 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan ayollarning 25 foizdan ortig‘i** hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi. Ushbu vahshiyliklarning **33 foizi Janubi-sharqiy Osiyo** mintaqasiga to‘g‘ri keladi.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: nega ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni yo‘q qilish kerak?

Ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik bugungi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan, hal qilinmaydigan va halokatli inson huquqlari buzilishlaridan biridir. Bu jismoniy, jinsiy va psixologik shakllarda namoyon bo‘ladi, shu jumladan:

erkaklarning zo‘ravonligi (*kaltaklash, psixologik zo‘ravonlik, oilaviy zo‘rlash, qotillik*);

jinsiy tajovuz va ta‘qiblar (*zo‘rlash, zo‘ravonlik bilan jinsiy aloqada bo‘lish, istalmagan jinsiy oqibatlar, bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik, majburiy nikoh, ko‘cha bezoriligi, ta‘qib qilish, kiberhujum*);

odam savdosi (*qullik, jinsiy ekspluatatsiya*);

ayollarning jinsiy a‘zolarini nogironlik darajasiga keltirish;

bolalar nikohlari.

Xalqaro manbalarda **“ayollarga nisbatan zo‘ravonlik”** atamasi quyidagicha ta‘riflanadi: **“Ayollarga jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yetkazadigan va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradigan yoki bunga olib kelishi mumkin bo‘lgan jinsi asosida qilingan har qanday zo‘ravonlik harakati, shuningdek jamoatchilik qarshisida yoki shaxsiy hayotda bo‘lsin, bunday qilmish bilan tahdid qilish, majburlash yoki o‘zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum qilish”⁸².**

Zo‘ravonlikning salbiy psixologik, jinsiy va reproduktiv oqibatlari ayollarga hayotining barcha bosqichlarida ta‘sir qiladi. Masalan, qizlar uchun erta ta‘limni cheklash nafaqat umumiy ta‘lim va qizlarning ta‘lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish uchun katta to‘siq, balki kelajakda oliy ma‘lumot olish va mehnat bozoriga kirishlarini cheklashdir. Jinsga asoslangan zo‘ravonlik chegarasi bo‘lmasa-da, ba‘zi ayollar va qizlar zaifdirlar. Masalan, yosh qizlar va keksa ayollar, migrantlar va qochqinlar, mahalliy va etnik ozchilik ayollar, OIV bilan kasallangan yoki nogironligi bo‘lgan insonlar va gumanitar inqirozga uchragan odamlar.

Darhaqiqat, bugungi kunda **ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilinayotgan migratsiya jarayonlari** xotin-qizlarni ham chetlab o‘tmayapti. Bu borada migrant xotin-qizlarning turli tazyiq va zo‘ravonliklarga duch kelishlariga oid masalalar davrning dolzarb muammolari qatoriga kiradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

⁸² Аёлларга нисбатан зўравонликка қарши курашиш тўғрисидаги декларация. 1993 йил.

Xalqaro statistik manbalarga ko'ra, **2020-yilda 281 million** nafarga yaqin kishi xalqaro migrant deb e'tirof etildi. Bu ko'rsatkich dunyo aholisining **3,6 foizini** tashkil qiladi. Bundan **20 yil oldin, ya'ni 2000 yilda** esa dunyo bo'ylab muhojirlar soni **173 millionga yaqin** edi. **Ayollar migrantlar umumiy sonining 48 foizini** tashkil etmoqda. Migrantlarning **38 millionga** yaqini bolalar, **4,4 million** nafari xalqaro talabalar va **164 million** nafari mehnat muhojirlaridir.

Shuningdek, BMTning **Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish bo'yicha Qo'mitasining umumiy tavsiyalari** tahliliga ko'ra, so'nggi tavsiyalarning, ayniqsa, 2008-yildagi **26-sonli Umumiy tavsiyalar Ayol mehnat muhojirlariga** bag'ishlangan. Ushbu tavsiyalar Ayollarga qarshi barcha shakllardagi kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq ayollar, ularning inson huquqlari buzilishi va buning oqibatida yuzaga keladigan ularning o'ziga xos zaifligi hamda ayollarning jinsiga asoslangan diskriminatsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqqan⁸³. Sababi ular bir necha asoslar bo'yicha kamsitilishi (ko'p marta kamsitish) mumkin bo'lgan xotin-qizlar toifalari hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda asosan xotin-qizlar migratsiya jarayonining bosh ishtirokchisi sifatida emas, balki migrant turmush o'rtog'i bilan birga ko'chgani kuzatiladi. Lekin so'nggi o'ttiz yil davomida xalqaro migratsiya bo'yicha tadqiqotlar migratsiyaning gender xususiyati borasida muhim ma'lumotlar beradi. Xususan, **migratsiyaning feminizatsiyalashuvi** masalasi tobora keng muhokama qilinmoqda. Bu tushunchaning paydo bo'lishiga bir necha sabablar ta'sir ko'rsatgan. G'arbda xotin-qizlarning ish bilan bandlik sur'atlarining oshishi natijasida jamiyatdagi xotin-qizlarning roli ham o'zgardi. Xotin-qizlarning iqtisodiy roli o'zgarishi va migratsiyaning yangi iqtisodiy nazariyalari iqtisodiy dualizm paydo bo'lganini ilgari suradi.

Sir emaski, yuqori daromadli mamlakatlarda **demografik tendensiyalar**, xususan, **sanoatning rivojlanishi** bilan birga **xotin-qizlarning bandlik sur'atlari ortishi** natijasida tug'ilishning pasayishi, qariyalar sonining ko'payishi **"an'anaviy ayol"** vazifalarida ba'zi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar natijasida **farzand va qariyalarni parvarish qilish, tozalik va uy ishlarini bajaruvchilarga bo'lgan talab** vujudga keldi. Bu talab kam daromadli mamlakatlardagi arzon ishchi kuchi oqimiga ta'sir qilib, xalqaro migratsiyaning asosiy omiliga aylandi.

Migratsiya trendlari tahlil qilinsa, migrantlar orasida **xotin-qizlar sonining ortishi**, migrant qabul qiluvchi **mamlakatlarda xotin-qizlar uchun mo'ljallangan ish joylariga bo'lgan talabning oshishi hamda xotin-qizlarning individual migratsiyasini** ko'rish mumkin. Xalqaro tashkilotlarning migrant xotin-qizlar bilan bog'liq ma'lumotlariga tayanilsa, ular migrant qabul qiluvchi mamlakatlarda, asosan, **uy xizmatlari, bola va qariyalar parvarishi sohasida** band bo'lganlarning asosiy ulushini tashkil etadi.

Shu o'rinda, **majburiy mehnat** masalalariga e'tibor qaratish foydadan holi bo'lmaydi, nazarimizda. Sababi, bunday shakldagi mehnat sharoitida shaxsning tazyiq va zo'ravonlikka uchrash hollari ko'proq kuzatiladi, xususan, ayollar va bolalar.

⁸³ Чарлз Аутеман, Беруний Алимов, Джейн Коломбини, Лео Сиббел, Хамидулла Хамдамов. Мажбурий меҳнат ва кадрларни адолатли танлаш мавзусида материал тайёрлаш: ХМТнинг Ўзбекистондаги журналистлар учун йўриқномаси. – Москва: Халқаро Меҳнат Ташкилоти, 2021.

“Majburiy mehnat” tushunchasi odamlarni mehnatga majburlashning keng miqyosdagi amaliyotini qamrab oladi. Majburiy mehnatga jalb qilingan odamlar ishni boshlashga o‘zlarining erkin va ongli ravishda roziliklarini bermaganlar va yoki ular ishlarini qoldirib ketishda erkin emaslar⁸⁴. Odam savdosi, qarzдорlik qulligi, bir joyga bog‘lab qo‘yilgan mehnat, qul mehnati va zamonaviy qullik yangiliklar va ommaviy axborot vositalarida mehnatni ekspluatatsiya qilishni ifodalaydigan terminlardir.

Shuningdek, XMTning 1930-yildagi **“Zo‘rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to‘g‘risida”**gi 29-sonli Konvensiyasida **zo‘raki yoki majburiy mehnat** atamasi **“o‘z xizmatlarini ixtiyoriy ravishda taklif etmagan har qanday shaxsdan jazo qo‘llash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmat”** sifatida ta‘riflangan⁸⁵.

Kuzatuvlarga ko‘ra, **majburiy mehnat sharoitida** ishlayotgan ishchilar, ularning oila a‘zolari va yaqin sheriklari haqiqatan ham **jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka** duchor bo‘lishlari mumkin. Zo‘ravonlik ishchilar ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida **giyohvand moddalar** yoki **spirtli ichimliklarni iste‘mol qilishga majburlashni** o‘z ichiga olishi mumkin. Zo‘ravonlik, shuningdek, ishchini dastlabki kelishuvda nazarda tutilmagan ishlarni bajarishga majburlash uchun ham qo‘llanilishi mumkin, masalan, ish beruvchi yoki oila a‘zosi bilan jinsiy aloqada bo‘lish yoki “odatiy” vazifalariga qo‘shimcha ravishda majburiy uy ishlarini bajarish. **Odam o‘g‘irlash zo‘ravonlikning ekstremal shakli** bo‘lib, u odamni asirga olish va keyin uni ishlashga majburlash uchun ishlatilishi mumkin. Zo‘ravonlik hech qanday holatda intizomiy jazo chorasi sifatida qabul qilinishi mumkin emasligi sababli, bu **majburiy mehnatning** ko‘zga yaqqol ko‘rinadigan **indikator** hisoblanadi⁸⁶. Darhaqiqat, **o‘zbek ayollari o‘rtasida mehnat migratsiyasi** – xalqimiz uchun mutlaqo begona holat bo‘lib, oldinlari kuzatilmay, ayol hatto begona ko‘zlardan saqlanar edi.

Tashqi migratsiya agentligi taqdim etgan ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonga qaytgan mehnat migrantlari soni **2020-yilda 508 688 nafarni** tashkil etgan bo‘lsa, shundan **126 422 nafarini ayollar, 2021-yil birinchi choragida** ushbu ko‘rsatkich **32 888 nafarni**, shundan **9 279 nafarini ayollarni** tashkil etgan. Shuningdek, **2022-yil 1-oktabr holatiga** xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirgan mehnat migrantlari soni o‘rtacha **2,0 mln kishini** ularning **428 ming nafari** yoki **21,5 foizi xotin-qizlarni** tashkil etadi.

Ma‘lumki, 2018-yilda O‘zbekiston **Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilotning** to‘laqonli a‘zosiga aylandi va MXT Konstitutsiyasini ratifikatsiya qildi. Hozirgi vaqtda davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish doirasida O‘zbekistonda migratsiya masalalariga munosabat tubdan o‘zgardi. Yurtimizda migrantlar huquqini himoya qilish yo‘nalishida xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, milliy qonunchilik va mexanizmlarni takomillashtirish borasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

⁸⁴ XMTning majburiy mehnat kўrsatkichlari. Ingliz tiliida // https://www.ilo.org/global/topics/forced-labour/publications/WCMS_203832/lang--en/index.htm.

⁸⁵ XMTning “Зўрлаб ишлатиш ёки мажбурий меҳнат тўғрисида”ги Конвенцияси, 1930 йил (№ 29).

⁸⁶ Чарлз Аутеман, Улуғбек Абдурахманов ва Ҳамидулла Ҳамдамов. Миграция бўйича ОАВ учун глоссарий: ходимларни адолатли ёллаш ва мажбурий меҳнат. Ўзбекистон нашри. – Москва: Халқаро Меҳнат Ташкилоти, 2022 йил.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida BMT shafeligida Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeksni** ishlab chiqish bo'yicha taklifida COVID-19 pandemiyasi sharoitida aholi bandligini ta'minlash, mehnat migrantlari manfaatlarini himoya qilish, qashshoqlikni yumshatish masalalarida davlatlarning hamkorligi va majburiyatlari masalasi o'z ifodasini topgan. Bu tashabbus ijobati migrantlar huquqini himoya qilish yo'nalishidagi ishlar samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarida **migrantlar huquqini himoya qilish** bo'yicha belgilangan vazifalar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, **yurtimizda odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va bartaraf etish hamda ular uchun jazolash to'g'risidagi Palermo protokoli** qabul qilinganining 20 yilligi keng nishonlandi.

Mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha qonunchilik ham takomillashtirilmoqda. Bu o'rinda Prezidentimizning **2019-yil 20-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"**gi Farmoni, **2020-yil 14-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi qarori, Vazirlar Mahkamasining **2019-yil 23-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni alohida ta'kidlash lozim.

Xususan, davlatimiz rahbarining **2019-yil 20-avgustda qabul qilingan "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"**gi Farmoni bilan mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularning turmush sharoitlari yaxshilash, ularga moliyaviy yordam berish, tibbiy xizmat ko'rsatishning ishonchli mexanizmlari yaratildi.

Prezidentimizning **2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi qarori bilan O'zbekistonda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi joriy qilindi. Mazkur qaror asosida mehnat qilishga xorijga ketmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun yangi mexanizm yaratildi. U quyidagi uch asosiy bosqichni o'z ichiga olgan:

Birinchi bosqich: xorijga ishlashga bormoqchi bo'lgan fuqarolarni tayyorlash ishlari tashkil qilinmoqda. Xorijga ishlashga bormoqchi bo'lgan fuqarolarni kasbiy va til bo'yicha tayyorlash ishlari mamlakatdagi **14 ta "Ishga marhamat"** ish bilan band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatish monomarkazida, **30 ta kasbiy tayyorgarlik markazida, 136 ta mahallada, 24 ta kollej va 13 ta texnikumda** amalga oshirilayotir.

Ikkinchi bosqich: mehnat migrantlariga xorijda huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda. Mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi tashkil qilindi. Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga xizmat ko‘rsatish maqsadida **Rossiyaning Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Novosibirsk, Samara va Ufa hamda Janubiy Koreyaning Kvandju** shaharlarida **Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha agentliklar** tashkil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh konsulliklari huzurida **Mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha lavozim** joriy etildi.

Uchinchi bosqich: O‘zbekistonga qaytgan mehnat migrantlarining qayta moslashuviga yordam ko‘rsatilmoqda. Bandlikni qo‘llab-quvvatlash markazlarida mamlakatga qaytgan mehnat **migrantlarining qayta moslashuvi bilan shug‘ullanadigan inspektorlar** faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mamlakatga qaytib kelgan va ijtimoiy nochor bo‘lgan mehnat migrantlariga kvotalangan ish o‘rinlari nazarda tutilgan. Qaytib kelgan mehnat migrantlarining bandligiga ko‘maklashish uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi vositalari hisobidan **subsidiya va grantlar shaklida moliyaviy yordam berish xizmati** joriy etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 22-iyundagi Farmoni bilan tasdiqlangan **Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi** va uning **“Yo‘l xaritasi”** ijrosi doirasida migrantlar huquqlarini himoya qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Hozirgi vaqtda **“Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi** qonunni ishlab chiqish va Mehnat kodeksining yangi tahririni qabul qilishga tayyorgarlik ishlari qizg‘in bormoqda. Shuningdek, **Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnatkash-migrantlar to‘g‘risidagi 97-sonli konvensiyasini** O‘zbekistonda ratifikatsiya qilish bo‘yicha ishlar, qolaversa, 2021-yil 15-iyunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan **“O‘zbekiston Respublikasi bilan Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi”** izchil amalga oshirilmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan **xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish** bilan bog‘liq chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishiga qaramasdan, mehnat muhojirlarining, xususan, xotin-qizlarning turli tazyiq va zo‘ravonliklarga duch kelayotgan, haq-huquqlari poymol bo‘layotgan holatlar ham mavjud, afsuski.

Sababi, ba‘zi hollarda ishchilar ular ma‘lum bir etnik guruh yoki kastaga mansubligi, hattoki ayrim shakldagi siyosiy qarashlarga ega bo‘lganligi sababli majburiy mehnatga jalb qilinishi mumkin. Boshqa hollarda, ayol mehnat muhojirlari o‘z vatanida yoki boshqa davlatlarda ishda kamsitishlarga duch kelishlari mumkin. Bunday voqealar ko‘proq internet nashrlari yoki ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez ko‘zga tashlanadi.

Xususan, 2021-yilda Rossiyada bir guruh o‘zbek ayollarini, ularga ish topib berishni aytib, aldov yo‘li bilan Chechenistonga olib o‘tishadi. Ayollarning so‘zlariga qaraganda, ular issiqxonalarda kun bo‘yi, 18-20 soatlab ishlashga majbur bo‘lganlar. Bu haqdagi videomurojaat Checheniston rahbari Qodirovga yuborilgan. Moskvadagi huquqni himoya qiluvchi faollar ushbu Chechenistonda qullikka tushib qolgan o‘zbekistonliklarning

11 kishidan iborat birinchi guruhini vatanga yuborishda ko'maklashdi. Ularga O'zbekistonning Rossiyadagi konsulliklari yordam berishganini bildirishdi.

Shuningdek, jizzaxlik mehnat muhojiri Nodira Qodirova 2019-yilning sentabrida, 23 yoshida Turkiya parlamenti deputatining uyidagi hodisa oqibatida vafot etgani to'g'risida ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar tarqaldi. Nodira oxirgi bir yil davomida Turkiya parlamenti deputati, iste'fodagi general Shirin Unalning uyida uning 20 yildan buyon xasta ayoliga qarab kelayotgandi. "Singlimning o'z joniga qasd qilishiga hech qanaqa sabab yo'q edi. Psixologik yo moddiy muammolari yo'q edi. Hammasi joyida edi, umidlari ko'p edi. "Aka, o'qiyman, oliygohlarga kiraman", degan maqsadlari bor edi", – dedi marhumaning akasi Muhammadali Qarshiboyev. Qolaversa, Qodirovaning yaqin dugonasi Laylo Niyozovanning marhuma bilan so'nggi suhbatida marhumaning voqeadan bir kun avval deputat Unalning jinsiy tazyiqiga uchragani bilan bog'liq ayblovlarni o'rtaga chiqardi. Xullas, o'zbekistonlik Nodira Qodirova sirli ravishda o'lim topganiga 3 yil bo'ldi. O'tgan vaqt davomida bu ish butunlay "tinchib" ketmadi, aksincha, u yoki bu sabab bilan muhokama mavzusiga aylanishda davom etdi va hali-hamon ba'zi savollar ochiqlicha qolmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bu kabi migrant xotin-qizlarning turli tazyiq va zo'ravonliklarga uchrashi borasidagi voqealar bevosita inson haq-huqularini poymol qilish, kamsitish va tahqirlashga sabab bo'lishi bilan har qanday jamiyatni o'ylantiradi. Shu bois, dunyoning barcha mintaqalarida va respublikamizda ham jinoyatchilikka qarshi kurash, zo'rlik fenomeni vujudga kelishi, zo'ravonlik va tazyiq ishlatuvchining shaxsi tushunchasi, zo'ravonlik va tazyiq ishlatish orqali sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, bunday holatlardan himoyalaniş usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarning turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan himoyalaniş darajasi ortib bormoqda.

BMTning Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish bo'yicha qo'mitasi xotin-qizlar huquqlarining buzilishiga asosiy sabab va omillar sifatida ko'p hollarda quyidagilarni ta'kidlaydi:

erkak va ayollarning jamiyatdagi rolga nisbatan an'anaviy stereotiplarning mavjudligi;

xotin-qizlar huquqlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligi; qonunchilikda bo'shliqlarning mavjudligi;

dasturlar va darsliklarni, ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan kampaniyalarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha chora-tadbirlarning yo'qligi;

xotin-qizlar holatini yaxshilashni ta'minlash bo'yicha mavjud milliy mexanizmning imkoniyatlari va ahamiyatining yetarli emasligi.

Ma'lumki, O'zbekistonda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar hozircha mavjud emas. Biroq, O'zbekiston IIV ma'lumotlariga ko'ra, **2020-yilning yanvar-oktabr** oylari davomida ichki ishlar organlari tomonidan gender zo'ravonligi qurbonlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida **8430 dan ortiq**

himoya orderi berilgan. Ulardan **4330 nafari jismoniy, 3200 nafarga yaqini esa ruhiy** zo‘ravonlikka uchragan. Shuningdek, 2021-yil davomida ichki ishlar organlariga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlar yuzasidan **39 343 ta murojaatlar** kelib tushgan. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida, **39 343 nafar xotin-qizlarga himoya orderlari** rasmiylashtirib berilgan. Mazkur himoya orderlarining **378 tasi voyaga yetmagan, 9 861 tasi yoshlar (18-30 yosh), 29 104 tasi 30 yoshdan katta** xotin-qizlarga berilgan. Murojaatlarni o‘rganishda **106 ta jinsiy, 234 ta iqtisodiy, 18 777 ta ruhiy, 13 658 ta jismoniy zo‘ravonlik** hamda **7 174 ta tazyiq** holatlar aniqlangan. Qolaversa, xotin-qizlarga nisbatan qayd etilgan zo‘ravonlik holatlarining **34 330 tasi** yoki **87 foizi** oilada sodir etilgan⁸⁷.

Hozirgi davrda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda. Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohalaridagi samarali mehnati, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasining 46-moddasida** xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlab qo‘yilgan, davlatimiz **Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi, Bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi** konvensiyalarga qo‘shilgan.

O‘tgan besh yilda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir **15 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjat** qabul qilingan va ijroga qaratilgan. Xususan, o‘tgan yili ikkita muhim hujjat – **“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”**gi hamda **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”**gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari ham ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga alohida urg‘u berib, bugungi kunda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoyaga olish tizimini takomillashtirish zarurati bor ekanligini takror-takror ta’kidlamoqda. Haqiqatdan ham, tazyiqqa uchragan ayollar **30 kun muddatga alohida himoyaga olinadi**, undan keyingi jarayonlarning borishi bo‘yicha tizimda bo‘shliqlar mavjud.

Kelgusida ayollarning tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyasi sud tomonidan ta’minlanishi, **alohida himoyaga olish muddatining bir yilgacha belgilanishi** esa ularga yetarli darajada psixologik, ijtimoiy, huquqiy yordam berilishi va ish bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi **“Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5116** sonli qarori bilan respublikamiz hududlarida tazyiq va zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollar uchun **29 ta “Tazyiq va zo‘ravonlikdan**

⁸⁷ АОКАда ИИБ, Бош прокуратура, Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси мутасаддилари иштирокидаги (<https://www.facebook.com/aoka.uz/videos/729166528113609/>) матбуот анжумани.

jabrlangan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish” markazlari tashkil etildi. Taziyq va zo’ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga **“Ijtimoiy shartnoma”** va **“Himoya orderi”** berish, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og’ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo’lmagan xotin-qizlarni har tomonlama ijtimoiy qo’llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli yordam berish bo’yicha **“Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Mehr daftari”** kabi yangi tizimlar joriy etildi.

Yuqoridagi ma’lumot va tahlillardan kelib chiqib, migrant xotin-qizlar masalalari, xususan, taziyq va zo’ravonlik, turli kamsitilishlar va haq-huquqlarning poymol qilinishi bilan bog’liq mummmolar va ularning yechimlari bo’yicha **quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:**

1. Mehnat migrantlari orasidagi xotin-qizlarning ishtiroki bo’yicha yetarlicha xorijiy adabiyot mavjud bo’lishiga qaramay, O’zbekiston misolida ilmiy tadqiqotlar soni nisbatan past ekani kuzatiladi. Masalan, Turkiya, Rossiya mehnat bozori segmentatsiyasi tahlil qilinganda, xotin-qizlar mehnatiga mo’ljallangan talabning yuqoriligi kuzatiladi. Adabiyotlarda aynan o’zbekistonlik migrantlarni qamrab olgan tadqiqotlar kam ekani, ko’proq MDH mamlakatlaridan kelgan migrant xotin-qizlarning umumiy masalasi yoritilgani kuzatiladi. O’rganilgan adabiyotlar bu masalada dala tadqiqotlari olib borish, O’zbekistondan migratsiyaning feminizatsiyalashuvining ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini o’rganish va tahlil qilish kerakligini ko’rsatadi.

2. Migratsiya jarayonini to’g’ri tashkil etish va boshqarish, xususan, migrant qabul qiluvchi mamlakatlardagi migrant xotin-qizlar duch kelayotgan muammolarini tizimli o’rganishni puxta yo’lga qo’yish zarur. Muammoga duch kelgan xotin-qizlarga psixologik, moddiy va ma’naviy yordam berishni yo’lga qo’yish va shu maqsadda konsultatsiya markazlari tashkil etish lozim.

3. Migrant qabul qiluvchi mamlakatlarda xotin-qizlarni xavfsiz va manzilli ish bilan ta’minlash bo’yicha choralarni ko’rish zarur. Aholini chet el mehnat qonunchiligi bilan tanishtirishning sodda va ommabop dasturi ishlab chiqilishi lozim. Mehnat migratsiyasi bilan bog’liq qarorlarning samaradorligini oshirish maqsadida migrant qabul qiluvchi mamlakatlarda o’zbekistonlik mehnat migrantlari bo’yicha ma’lumotlar yig’ish va ularni tahlil qilish tizimini yo’lga qo’yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://www.lex.uz>
2. O’zbekiston Respublikasining Oila kodeksi // <http://www.lex.uz>
3. O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // <http://www.lex.uz>
4. O’zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to’g’risida”gi Qonuni // <http://www.lex.uz>
5. O’zbekiston Respublikasining “Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019, 03/19/562/3681-son.
6. O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni taziyq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019, 03/19/561/3680-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4829-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.09.2020, 07/20/4829/1281-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №349-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018, 09/18/349/1205-son.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12- sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №725-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2018, 09/18/725/1874-son.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-martdagi “O‘zbekiston Respublikasiga xorijdan ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №244-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.03.2019, 09/19/244/2819-son.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-yil.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-yil.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2020-yil 23-sentabrdagi 75-sessiyasigi nutqi.
14. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlarning mehnat muhojirlari va ular oila a‘zolarining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi konvensiya (2008).
15. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar o‘rtasida tuzilgan Mehnat migratsiyasi va mehnat muhojirlarini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim (1994).
16. Charlz Auteman, Beruniy Alimov, Djeyn Kolombini, Leo Sibbel, Hamidulla Hamdamov. Majburiy mehnat va kadrlarni adolatli tanlash mavzusida material tayyorlash: XMTning O‘zbekistondagi jurnalistlar uchun yo‘riqnomasi. – Moskva: Xalqaro Mehnat Tashkiloti, 2021.
17. Charlz Auteman, Ulug‘bek Abduraxmanov va Hamidulla Hamdamov. Migratsiya bo‘yicha OAV uchun glossariy: xodimlarni adolatli yollash va majburiy mehnat. O‘zbekiston nashri. – Moskva: Xalqaro Mehnat Tashkiloti, 2022.
18. XMTning majburiy mehnat ko‘rsatkichlari. Ingliz tilida (https://www.ilo.org/global/topics/forced-labour/publications/WCMS_203832/lang--en/index.htm).
19. XMTning “Zo‘rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, 1930-yil (№ 29).

* * *

Гулнора Амановна Ишанханова
Самостоятельный соискатель ТГЮУ,
ННО «Центр научных, социальных и
гуманитарных инициатив «Оила»

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПО ПРОТИВОДЕЙСТВИЮ НАСИЛИЮ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

Аннотация. В своей статье автор обращает внимание на необходимость выполнения Республикой Узбекистан международных обязательств, вытекающих из договоров, которые стали частью национального законодательства в соответствии с Законом «О международных договорах Республики Узбекистан»⁸⁸, а также рекомендаций конвенционных органов, представляемых комитетами ООН, призванных осуществлять мониторинг за их соблюдением государствами-участниками. Акцент сделан на выполнение государством своих обязательств по предотвращению гендерного насилия в отношении женщин. Автором предлагаются конкретные предложения в национальное законодательство, которые призваны выполнить указанные обязательства.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерное насилие, насилие в семье, сексуальное насилие, сексуальные домогательства, дискриминация по признаку пола, права женщин и девочек.

Annotatsiya. Muallifo'z maqolasida "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq milliy qonunchilimizning bir qismiga aylangan shartnomalardan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarni bajarishi zarurligiga e'tibor qaratadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qo'mitalari tomonidan taqdim etilgan konvensiya organlarining ishtirokchi davlatlar tomonidan ularning bajarilishini nazorat qilishga mo'ljallangan tavsiyalari berilgan. Davlat tomonidan ayollarga nisbatan gender asosidagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muallif milliy qonunchilikka ushbu majburiyatlarni bajarishga qaratilgan aniq takliflarini beradi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, gender zo'ravonligi, oiladagi zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, gender kamsitish, ayollar va qizlar huquqlari.

⁸⁸ Закон Республики Узбекистан «О международных договорах Республики Узбекистан».

Статья 2. Законодательство о международных договорах Республики Узбекистан.

Законодательство о международных договорах Республики Узбекистан состоит из настоящего Закона и иных актов законодательства.

Международные договоры Республики Узбекистан заключаются, исполняются, прекращаются и их действие приостанавливается в соответствии с общепризнанными принципами и нормами международного права, Конституцией Республики Узбекистан, а также настоящим Законом и положениями самих международных договоров.

Если международным договором Республики Узбекистан установлены иные правила, чем те, которые предусмотрены законодательством Республики Узбекистан, то применяются правила международного договора Республики Узбекистан.

Статья 3. Международные договоры Республики Узбекистан в правовой системе Республики Узбекистан
Международные договоры Республики Узбекистан наряду с общепризнанными принципами и нормами международного права являются составной частью правовой системы Республики Узбекистан //

<https://lex.uz/docs/4193763>

Annotation. *In his article, the author draws attention to the need for the Republic of Uzbekistan to fulfill international obligations arising from treaties that have become part of the national legislation in accordance with the Law “On International Treaties of the Republic of Uzbekistan”, as well as the recommendations of the convention bodies represented by the UN committees, designed to monitor their compliance by participating States. Emphasis is placed on the fulfillment by the state of its obligations to prevent gender-based violence against women. The author proposes specific proposals for national legislation, which are designed to fulfill these obligations.*

Keywords: *gender equality, gender violence, domestic violence, sexual violence, sexual harassment, gender discrimination, women’s and girls’ rights.*

В своей Общей рекомендации № 35 о гендерном насилии в отношении женщин, предназначенной для обновления Общей рекомендации № 19, Комитет ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин (далее КЛДЖ) 26 июля 2017 года указал⁸⁹:

*«2. На протяжении более 25 лет практика государств-участников свидетельствует о том, что они одобряют данное Комитетом толкование. Практика государств и *opinio juris* дают основания полагать, что концепция недопустимости гендерного насилия в отношении женщин постепенно приобретает статус одного из принципов международного обычного права. Общая рекомендация № 19 послужила одним из ключевых катализаторов этого процесса⁹⁰.*

⁸⁹ Общая рекомендация № 35 о гендерном насилии в отношении женщин, предназначенная для обновления общей рекомендации № 19 // <http://docstore.ohchr.org/SelfServices/FilesHandler.ashx?enc=6QkG1d%2FPPRiCAqhKb7yhsldCrOIUTvLRFDjh6%2Fx1pWAeqJn4T68N1uqnZjLbtFuavNk4TIH7S3xdU4S7zlngqIbpD0ats8RlrdBnaBJI3TWoqC9ZC0U1GVw3B2Tc7W3b>

⁹⁰ Практика государств в области борьбы с гендерным насилием в отношении женщин находит свое отражение и в принятых в рамках многосторонних форумов эпохальных политических документах и региональных договорах, таких, как Венская декларация и Программа действий (1993 год); Декларация об искоренении насилия в отношении женщин (1993 год); а также Пекинская декларация и Платформа действий (1995 год) и пятилетние обзоры хода ее осуществления; и такие региональные конвенции и планы действий, как Межамериканская конвенция о предупреждении, наказании и искоренении насилия в отношении женщин (1994 год); Протокол к Африканской хартии прав человека и народов, касающийся прав женщин в Африке (2003 год); и Конвенция Совета Европы о предотвращении и борьбе с насилием в отношении женщин и домашним насилием (2011 год). В число других аналогичных международных документов входят Декларация Ассоциации государств Юго-Восточной Азии о ликвидации насилия в отношении женщин и детей; Стратегия арабских государств по борьбе с насилием в отношении женщин на период 2011 – 2030 годов; и согласованные выводы, сделанные по итогам 57-й сессии Комиссии по положению женщин, посвященной вопросу об искоренении и предупреждении всех форм насилия в отношении женщин и девочек (E/2013/27, глава I, раздел A). Римский статут Международного уголовного суда, резолюция Совета Безопасности 1325 (2000), последующие резолюции по вопросам женщин, мира и безопасности, а также многочисленные резолюции Совета по правам человека, включая резолюцию 32/19 от 1 июля 2016 года, содержат конкретные положения, касающиеся борьбы с гендерным насилием в отношении женщин. Решения международных судов, которые играют роль вспомогательного средства для определения норм международного обычного права, также свидетельствуют о таком развитии концепции недопустимости гендерного насилия в отношении женщин (см. A/71/10, глава V, раздел C, вывод 13). В качестве примеров можно привести решение Европейского суда по правам человека по делу *Opuz v. Turkey* (application No 33401/02) от 9 июня 2009 года, при вынесении которого Суд руководствовался соображениями о том, что он называет

Далее КЛДЖ продолжает:

«5. В своих заключительных замечаниях по периодическим докладам, представляемым государствами-участниками в соответствии с Конвенцией⁹¹, и в контексте соответствующих последующих процедур, общих рекомендаций, заявлений, а также мнений и рекомендаций в ответ на сообщения⁹² и запросы⁹³, поступающие в соответствии с Факультативным протоколом к Конвенции, Комитет неизменно осуждает гендерное насилие в отношении женщин во всех его формах, где бы оно ни имело место. Пользуясь перечисленными механизмами, Комитет также поясняет стандарты, относящиеся к деятельности по искоренению такого насилия, и связанные с этим обязательства государств-участников».

С момента вступления Закона Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» 2 сентября 2019 года прошло время, когда, исходя из практики его исполнения, рекомендаций конвенционных органов, изучения позитивного опыта зарубежных стран, можно продолжить работу по его совершенствованию, а также по внесению дополнений и изменений в иные законодательные акты.

Так, в рамках системной поддержки семьи и женщин по инициативе Президента Указом от 7 марта 2022 года Министерству юстиции, Генеральной прокуратуре, Верховному суду, МВД, Государственному комитету семьи и женщин⁹⁴ поручено в срок до 1 июня 2022 года внести в Кабинет Министров проект закона, предусматривающий определение порядка выдачи судом ордера, предоставляющего государственную защиту жертве притеснения и насилия,

«эволюцией норм и принципов международного права» (пункт 164) на основе ряда международных и сопоставимых материалов по вопросам насилия в отношении женщин; и решение Межамериканского суда по правам человека по делу González et al. ("Cotton Field") v. Mexico от 16 ноября 2009 года. См. там же

⁹¹ Со времени принятия Общей рекомендации № 19 Комитет подготовил почти 600 Заключительных замечаний, большинство из которых непосредственно затрагивают вопросы гендерного насилия в отношении женщин. См. там же

⁹² В том числе следующие сообщения: № 2/2003, A.T. v. Hungary, мнения приняты 26 января 2005 года; № 4/2004, A.S. v. Hungary, мнения приняты 14 августа 2006 года; № 6/2005, Yildirim (deceased) v. Austria, мнения приняты 6 августа 2007 года; № 5/2005, Goekce (deceased) v. Austria, мнения приняты 6 августа 2007 года; № 18/2008, Vertido v. Philippines, мнения приняты 16 июля 2010 года; № 20/2008, V.K. v. Bulgaria, мнения приняты 25 июля 2011 года; № 23/2009, Abramova v. Belarus, мнения приняты 25 июля 2011 года; № 19/2008, Kell v. Canada, мнения приняты 28 февраля 2012 года; № 32/2011, Jallow v. Bulgaria, мнения приняты 23 июля 2012 года; № 31/2011, S.V.P. v. Bulgaria, мнения приняты 12 октября 2012 года; № 34/2011, R.P.B. v. Philippines, мнения приняты 21 февраля 2014 года; № 47/2012, González Carreño v. Spain, мнения приняты 16 июля 2014 года. № 24/2009, X. and Y. v. Georgia, мнения приняты 13 июля 2015 года; № 45/2012, Belousova v. Kazakhstan, мнения приняты 13 июля 2015 года; № 46/2012, M.W. v. Denmark, мнения приняты 22 февраля 2016 года; и № 58/2013, L.R. v. Republic of Moldova, мнения приняты 28 февраля 2017 года. См. там же

⁹³ См. доклад о Мексике, подготовленный Комитетом в соответствии со статьей 8 Факультативного протокола к Конвенции, и ответ правительства Мексики // http://tbinternet.ohchr.org/_layouts/treatybodyexternal/Download.aspx?symbolno=CEDAW%2fC%2f2005%2fOP.8%2fMEXICO&Lang=en; доклад о расследовании в отношении Канады (CEDAW/C/OP.8/CAN/1); и краткий отчет по итогам расследования в отношении Филиппин (CEDAW/C/OP.8/PHL/1).

⁹⁴ ГК создан Указом Президента РУз от 1 марта 2022 г. № УП-81 // <https://lex.uz/uz/docs/5884176>.

на срок до одного года; усиление ответственности за понуждение женщины к совершению аборта; усиление ответственности за умышленное причинение телесного повреждения женщине, являющейся близким родственником; введение уголовной ответственности за разглашение информации об интимной жизни человека, унижающей честь и достоинство личности; и др.

Следует заметить, что действующая редакция Закона «О защите женщин от притеснения и насилия» не предусматривала нормы о роли суда в защите женщин от притеснения и насилия, и его активное участие будет способствовать эффективному предотвращению домашнего насилия.

Опыт ряда стран может быть применен при совершенствовании системы защиты жертв насилия с повышением роли суда.

К примеру:

Предусмотреть в Законе «О защите женщин от притеснения и насилия», что лицо, ставшее жертвой домашнего насилия, вправе бесплатно обратиться в суд с жалобой на нарушение прав и о применении гражданских средств защиты, т. е. об издании запретительных приказов –приказа о запрете притеснения, приказа о правилах проживания, как это предусмотрено в законодательстве Великобритании, которое рассматривается судом в течение 48 часов и передаётся на исполнение органам внутренних дел и органам самоуправления граждан по месту жительства жертвы насилия.

Закон «О защите от насилия», принятый в Австрии в 1997 г., включает несколько новаторских положений, в которых приоритетное внимание уделяется оказанию поддержки жертвам (например, вынесение срочных защитных предписаний, обучение сотрудников правоохранительных органов в области борьбы с домашним насилием с акцентом на гендерный характер данного явления и поддержка центров защиты от насилия, которые координируют работу полиции и социальных служб).

Закон предусмотрел три основные защитные меры:

- (i) срочное защитное предписание, выносимое полицией;
- (ii) центры помощи для оказания поддержки всем жертвам домашнего насилия/лицам, пережившим домашнее насилие;
- (iii) регулируемое гражданским правом судебное защитное предписание, за вынесением которого может обратиться жертва (либо отдельно, либо по истечении срока действия срочного защитного предписания, вынесенного полицией).

С 1997 г. правила вынесения срочных защитных предписаний были изменены с учетом накопленного опыта. С процессуальной точки зрения, в случае неминуемой опасности полиция может вынести срочное защитное предписание, после чего на его проверку в судебном порядке отводится 48 часов (по ее результатам предписание может быть отменено). Срок действия срочного защитного предписания, вынесенного полицией, составляет две недели, но

может быть продлен до 12 месяцев, если жертва обращается за вынесением защитного предписания в семейный суд⁹⁵.

Срочное защитное предписание запрещает правонарушителю приближаться к дому жертвы, его ближайшим окрестностям, школе детей (если они находятся в опасности) и даже к приюту для женщин в случаях преследования.

В соответствии с законом полиция обязана следить за соблюдением срочного защитного предписания. При нарушении правонарушителем предписания за каждый случай такого нарушения налагается административный штраф, а при повторных нарушениях правонарушитель может быть арестован.

Правонарушителям также предоставляется информация об имеющихся у них правах (в том числе о праве на получение временного жилища и другой помощи), и они также имеют право обжаловать решение полиции о вынесении предписания.

Один из наиболее важных аспектов австрийской модели защиты заключается в том, что процедура выдачи срочных защитных предписаний является частью системы межведомственных и координируемых мер реагирования. Полиция обязана направлять информацию о таких предписаниях в центры помощи жертвам домашнего насилия в течение 24 часов после вынесения предписания; информация должна направляться также в соответствующий суд по семейным делам⁹⁶.

- Если жертва обратится в суд с ходатайством о вынесении судебного защитного предписания, суд должен проинформировать об этом полицию, поскольку полиция несет ответственность за обеспечение выполнения таких предписаний.

По опыту США дополнить права жертв насилия в Законе «О защите женщин от притеснения и насилия» положениями о том, что они имеют право:

- на справедливое обращение и уважение чести и достоинства, а также неприкосновенность частной жизни;
- быть в достаточной степени защищенными от обвиняемого;
- быть осведомленными о ходе разбирательства;
- присутствовать и активно участвовать на предварительном следствии и в суде;
- на бесплатную правовую помощь за счет государства;
- на получение информации о приговоре, сроке лишения свободы;
- на предоставление денежной компенсации за счет средств специального Фонда на переезд и смену места жительства, приобретение нового жилья, аренду жилья или оплату имеющегося жилья.

Органический закон Испании № 1/2004 «О комплексных мерах защиты от насилия по гендерному признаку» является примером всеобъемлющего закона,

⁹⁵ Источник: GREVIO (2017), Baseline Evaluation Report Austria, Council of Europe, p.46, <https://rm.coe.int/grevio-report-austria-1st-evaluation/1680759619>

⁹⁶ См. там же

устанавливающего правовые нормы, которые охватывают меры, направленные на предотвращение всех форм домашнего насилия или насилия со стороны интимного партнера, совершаемого мужчинами в отношении женщин, защиту от такого насилия и уголовное преследование нарушителей.

Важным результатом принятия этого Закона стало то, что он инициировал далеко идущую реформу испанской судебной системы, включая внесение поправок в другие законы, такие как Уголовный кодекс, Уголовно-процессуальный кодекс, Органический закон «О судебной системе» (которым был введен институт судов по делам о насилии в отношении женщин и судей по делам о насилии в отношении женщин).

Важно, что законом учреждаются специализированные суды по делам о гендерном насилии совместной юрисдикции (гражданский и уголовный).

В этих судах один и тот же судья рассматривает уголовные дела, касающиеся насилия в отношении женщин, а также любые связанные с ними гражданские дела, включая дела по семейному праву. Специализированные прокуроры по делам о насилии по гендерному признаку передают дела в суды по делам такого рода, а также могут вмешиваться в гражданский процесс по делам о «признании брака недействительным, раздельном проживании и разводе или об установлении опеки и попечительства над несовершеннолетними в случаях предполагаемого жестокого обращения с женой или детьми».

Преимущество этой системы заключается в том, что она обеспечивает координацию, не допуская возможности принятия различными судьями противоречащих друг другу решений. Благодаря тому, что судья, рассматривающий как уголовное, так и гражданское дело, учитывает всю историю насилия, повышается эффективность правосудия и обеспечивается справедливость. Кроме того, с жертвы снимается бремя, связанное с посещением нескольких заседаний в разных судах⁹⁷.

По опыту США можно дополнить полномочия органов по труду в Законе РУз «О защите женщин от притеснения и насилия» их обязанностью устанавливать запрет на дискриминацию жертв насилия работодателем, независимо от форм собственности предприятия, учреждения, организации, когда жертве требуется отпуск для поправки здоровья, для обеспечения безопасности и благополучия работницы или её ребёнка.

Дополнить полномочия органов государственной власти на местах в Законе РУз «О защите женщин от притеснения и насилия» обязанностью проведения учебных программ и превентивных мер, обучения специалистов на местах и предоставлению технической и финансовой помощи для реализации программ, разработанных для оказания помощи жертвам домашнего насилия.

Используя опыт Польши и Словении ввести обязанность органов здравоохранения, дошкольных и образовательных учреждений незамедлительно

⁹⁷ Органический закон № 1/2004 от 28 декабря 2004 г. «О комплексных мерах защиты от насилия по гендерному признаку» // <https://violenciagenero.igualdad.gob.es/informacionUtil/derechos/docs/Ruso.pdf>

информировать правоохранительные органы или прокуратуру о подозреваемом насилии в отношении женщин и детей.

По опыту Канады внедрить концепцию судов по исправлению лиц, обвиняемых в преступлениях, связанных с насилием, участниками которых и программы исправления виновных являются: судья, прокурор, адвокат, прошедшие специальную подготовку; представители службы защиты лиц, подвергшихся домашнему насилию; представители отделения предотвращения случаев семейного насилия; представители службы по вопросам семьи и детей; представители службы пробации; психологи; представители органов внутренних дел; социальные работники.

В Литве домашнее насилие до недавнего времени попадало под категорию частно-публичного обвинения. После постановления ЕСПЧ *Valiulienė v. Lithuania* (№33234/07, 26 марта 2013 года) были внесены поправки в УК и УПК Литвы, чтобы согласовать их с Законом против домашнего насилия, принятым в 2011 году. Поправки касались введения правил об обязательном возбуждении предварительного расследования во всех случаях, где обнаружены признаки домашнего насилия, даже при отсутствии жалобы от лица пострадавших или заявления от лица их представителя⁹⁸.

Перевод домашнего насилия из категории дел частного и частно-публичного обвинения в категорию дел публичного обвинения в уголовном законодательстве является эффективной мерой правовой защиты для пострадавших. Хотя одни только уголовные санкции не способны изменить сложный комплекс моделей поведения, которые составляют домашнее насилие⁹⁹, уголовное преследование имеет выраженный сдерживающий эффект в плане роста рецидивизма и применения насилия в будущем.

Как мера защиты криминализация, во-первых, гарантирует обязательство государства расследовать преступления, совершенные в семейной сфере, и не перекладывает ответственность за противостояние насилию на плечи пострадавших. Во-вторых, криминализация способствует эффективному ходу следствия, так как пострадавшие от домашнего насилия часто не в состоянии сами собрать доказательственную базу по расследуемому преступлению. В-третьих, пострадавшие уже не смогут отказаться от обвинения и забрать жалобу под давлением и запугиванием со стороны родственников и иных лиц в ходе следствия. Если ответственность за принятие решения о подаче жалобы и продолжении дальнейшего уголовного преследования лежит на пострадавших (как, например, при частном и частно-публичном обвинении), то давление и опасность со стороны агрессора не только не исчезают, а, наоборот, могут

⁹⁸ Council of Europe Commissioner for Human Rights, Report Following Visit to Lithuania from 5 to 9 December 2016. 19 April 2017. P. 4–5 // <https://rm.coe.int/168070a746>.

⁹⁹ Ruth Lewis, Russell P. Dobash, Rebecca Emerson Dobash and Kate Cavanagh. Protection, Prevention, Rehabilitation or Justice? Women's Use of the Law to Challenge Domestic Violence. *International Review of Victimology* 2000 7: 179, 181 // file:///C:/Users/Acer/Downloads/Protection_Prevention_Rehabilitation_or_Justice_Wo.pdf

усилиться, поскольку пострадавшие получают «обвинение» в том, что сами «все затеяли», «сами виновны».

Эта практика показывает, что важна активная роль судов в предотвращении насилия в отношении женщин, как органа правосудия.

Юридическая практика Европейского Суда по правам человека и Комитета ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин, а также анализ, проведенный Специальным докладчиком по вопросу о насилии в отношении женщин, высвечивают некоторые общие для государств пробелы в применении защитных предписаний. Выявление этих пробелов способствует выработке передовой практики внедрения механизмов защитных предписаний:

- механизмы вынесения защитных предписаний (предупреждений, запретительных приказов, охранных ордеров) должны допускать их немедленное вынесение – в экстренных случаях и в отсутствии правонарушителя (ex parte);
- органам власти, особенно правоохранительным органам, следует информировать жертв домашнего насилия об их праве ходатайствовать о вынесении защитного предписания;
- соблюдение защитных предписаний должно быть эффективно обеспечено, а правонарушители должны привлекаться к административной ответственности на нарушение запретительных приказов, к уголовной ответственности – за нарушение условий охрannого ордера;
- основное внимание в защитных предписаниях должно уделяться обеспечению безопасности и защиты жертв, а не обращению с правонарушителями;
- срок действия защитных предписаний должен быть достаточным, и они должны содержать четко сформулированные и могущие быть принудительно выполненными указания, обеспечивающие максимальную безопасность;
- органы системы юстиции должны координировать свои действия и обмениваться информацией о вынесенных защитных предписаниях (особенно важна координация между уголовными судами и судами по семейным делам, а также между судами и органами внутренних дел).

Таким образом, нормы Конвенции CEDAW, за соблюдением которых наблюдает КЛДЖ, а также прогрессивный зарубежный опыт, основанный на международных стандартах прав человека, влияют на изменение национального законодательства и практики его применения, используются с целью создания в обществе нетерпимой атмосферы в отношении гендерного насилия, что положительно и эффективно влияет на защиту прав жертв семейного насилия.

Список использованной литературы:

1. Закон РУз «О международных договорах Республики Узбекистан // <https://lex.uz/docs/4193763>
2. Общая рекомендация № 35 О гендерном насилии в отношении женщин, предназначенная для обновления Общей рекомендации № 19 // <http://docstore.ohchr.org/SelfServices/FilesHandler.ashx?enc=6QkG1d%2FPPRiCAqhKb7yhslidCrOIUTvLRFDjh6%2Fx1pWAeqJn4T68N1uqnZjLbtFuavNk4TIH7S3xdU4S7zlngqlbpD0ats8RlrdbnaBjI3TWoqC9ZC0U1GVw3B2Tc7W3b>

3. Указ Президента РУз от 1 марта 2022 г. № УП-81 «О мерах по совершенствованию системы работы с семьями и женщинами, поддержки махалли и старшего поколения» // <https://lex.uz/uz/docs/5884176>
4. Конвенции ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml
5. Council of Europe Commissioner for Human Rights, Report Following Visit to Lithuania from 5 to 9 December 2016. 19 April 2017. P. 4–5 // <https://rm.coe.int/168070a746>
6. Ruth Lewis, Russell P. Dobash, Rebecca Emerson Dobash and Kate Cavanagh. Protection, Prevention, Rehabilitation or Justice? Women's Use of the Law to Challenge Domestic Violence. International Review of Victimology 2000 7: 179. 181 // [file:///C:/Users/Acer/Downloads/Protection Prevention Rehabilitation or Justice Wo.pdf](file:///C:/Users/Acer/Downloads/Protection%20Prevention%20Rehabilitation%20or%20Justice%20Wo.pdf)
7. GREVIO (2017), Baseline Evaluation Report Austria, Council of Europe, p.46 // <https://rm.coe.int/grevio-report-austria-1st-evaluation/1680759619>.

* * *

Kuanishova Dilmira Tuychievna,
I.Karimov nomidagi TDTU katta o'qituvchisi

XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY MAVQEYINI OSHIRISH VA ULARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish masalalarini xalqaro va milliy miqyosda hal etishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga zamonaviy jamiyatda ushbu salbiy holatlar yechimi xotin-qizlar huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy mavqeyini oshirishga chambarchas bog'liq ekanligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: ayol timsoli, xotin-qizlar ijtimoiy mavqeyi, inson huquq va erkinliklari, tazyiq, zo'rvonlik, kamsitish, gender tenglik, deklaratsiya, konvensiya, qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, himoya orderi, davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari.

Аннотация. В статье анализируются особенности решения вопросов защиты женщин от угнетения и насилия на международном и национальном уровнях. При этом констатируется, что решение данных негативных ситуаций в современном обществе тесно связано с обеспечением прав и свобод женщин, а также повышением их социального статуса.

Ключевые слова: образ женщины, социальный статус женщины, права и свободы человека, угнетение, насилие, дискриминация, гендерное равенство, декларация, конвенция, поддержка, защита, охранный ордер, государственная политика, институты гражданского общества.

Annotation. The article analyzes the features of solving the issues of protecting women from oppression and violence at the international and national levels. At the same time, it is stated that the solution of these negative situations in modern society is closely related to ensuring the rights and freedoms of women, as well as increasing their social status.

Keywords: the image of a woman, the social status of a woman, human rights and freedoms, oppression, violence, discrimination, gender equality, declaration, convention, support, protection, protection order, public policy, civil society institutions.

Sharqda ayol va uning matonati, sabr-bardoshi, go‘zalligidan tortib odobini yorituvchi ko‘plab manbalarda ta’rif va tavsiflar mavjud. Masalan, matonatli ayol degan so‘zlarni eshitganimizda xayolimizda sharq xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi tarixida o‘z zamonasining ardoqli siymolari sifatida millat iftixoriga aylangan To‘maris, Bibixonim, Saroymulxonim, Nodirabegim, Zebuniso, Uvaysiy, Zufiyaxonim timsollari gavdalanadi.

Markaziy Osiyoda, umuman Islom dunyosida, ayollarning hayotda tutgan o‘rni masalan, nemis olimasi Annimaris Shimmel “Islom olamida xotin-qizlarning siymosi” asarida Muhammad Allayhissalomning hayotida Xadicha va Oysha onalarning hamda Amir Temurning o‘z davrida Buyuk imperiya yaratishi va boshqarishida Bibixonimning roli haqida alohida to‘xtaladi. Shuningdek, ko‘pchilik manbalarda Amir Temur iqtisodiy og‘ir ahvolga tushib qolganda har doim Bibixonim yordamga kelgan va qiyinchilikdan chiqib ketish yo‘lini ko‘rsatgan deb yozilgan (Masalan, Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” asarida). Jaloliddin Rumiy esa o‘zining “Suhbat al-abror” asarida jinsiy farqlanishda ayolning erkakdan yuqori turishi haqida yozadi. Ushbu asarda ayol quyoshga, erkak esa oyga o‘xshatiladi. Buning ham asl mazmun va mohiyatida ayollarni e‘zozlash yotadi.

Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida ham ayollar timsoli va ularning jamiyatda tutgan mavqeyi masalasiga e’tibor qaratilgan. Jumladan Alisher Navoiyning ayollar timsolini ulug‘lashga, mavqeyini mustahkamlashga bag‘ishlangan asarlarida: “Yer yuzida o‘zining aql-zakovati, mard va donoligi, go‘zal husni, andisha va sabr-toqati, mehr va sadoqati bilan dunyoga dong taratgan ayollar juda ko‘pligi” [1] ta’kidlanadi.

XIX asr oxiridan esa jadidchilar jamiyat yangilanishida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ayollar rolini oshirishni targ‘ib qildilar. Masalan qrim-tatar ma’rifatchisi, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Ismoil Gaspirinskiyning “Doru-r-Rohat musulmonlari”, “Xotinlar o‘lkasi” va boshqa asarlari bunga misol bo‘lishi mumkin. Ismoil Gaspirinskiy ijodida ayol masalasi, uning jamiyatdagi tutgan o‘rni, kelajak avlod tarbiyasidagi roli va boshqa masalalar 1880-yildan boshlab ko‘rina boshlaydi. Ayniqsa, u nashr qilgan “Tarjimon” gazetasining asosiy yo‘nalishlaridan biri ham aynan musulmon ayoli masalasiga qaratilgan edi. Gaspirinskiy o‘zi e’lon qilgan maqolalarida musulmon ayolining jamiyatdagi huquqsizligi, ularning oilada bo‘layotgan nohaqliklar sababli o‘z haq-huquqlarini himoya qilishlari maqsadida hatto shar’iy mahkamalarga ham murojaat qila olmasliklari masalalarini qayta-qayta hayotiy misollar orqali yoritib bordi. Ayniqsa, bu masalalar uning badiiy ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Gaspirinskiy qalamiga mansub “Doru-r-Rohat musulmonlari”, “Farangiston maktublari”, “Sudan maktublari”, “Xotinlar o‘lkasi” kabi roman va hikoyalarida musulmon ayolining jamiyatdagi o‘rni va roli qanday bo‘lishi kerakligi haqida yozilganligi muallifning qanchalik ayollar masalasiga jiddiy yondashganligini ko‘rsatadi [2].

Bugungi kunga kelib O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni ayollarning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash

va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimiz ayollari va ular zamonaviy maqomini oshirish bo'yicha faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning imkoniyatlarini yana bir karra oshirdi [3].

Shuningdek, hozirgi davrda butun dunyoda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda.

Bundan tashqari dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususan shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi" [4] e'tirof etilgan. Lekin shunga qaramay hozirgi kunda aksariyat hollarda jamiyat turli sohalar, ya'ni ishda, o'qishda, oilada ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarda ayolga nisbatan tayziq, zo'ravonlik va kuch ishlatish holatlari kuzatilmoqda. Bu holatda ko'pincha oilaviy mojarolar ko'rinishida bo'lib ayol uzoq vaqt davomidagi kamsitish, tayziq va kuch ishlatishni oddiy turmush tarzi deb o'ylashi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Mazkur muammo dunyo miqiyosdagi ahamiyatga egaligi shundaki, jabrlanuvchilar o'zlariga yetkazilgan zararni oddiy hayot deb tushunishi, oilasining siri ovoza bo'lib ketmasligi yoki oila buzilib ketmasligi, ota-onasi yoki turmush o'rtog'ining obro'sini to'kmaslik uchun hech qayerga murojaat qilmasligi oxir-oqibat ayanchli oqibatlariga olib kelishidadir. Bugungi kunda jamiyat ijtimoiy munosabatlarda keng foydalanilayotgan so'z "Zo'ravonlik tushunchasi" nimani anglatadi? Zo'ravonlik tushunchasi – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmat va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) tushuniladi [5].

Jamiyatda ayollar huquqlariga xalqaro miqyosda e'tibor qaratilishi Ikkinchi jahon urushining so'nggi yillarida boshlangan bo'lib, 1948-yil 10-dekabrda BMT tomonidan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi va uning 2-moddasida bayon qilingan huquqlar erkaklarga ham ayollarga ham hech qanaqa cheklashsiz birdek taalluqli ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Shundan keyin BMT tomonidan 1967-yilda "Ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish deklaratsiyasi" hamda "Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarni bartaraf etish haqidagi konvensiya"ning qabul qilinishi ham ayollar huquqlariga e'tiborning kuchayib borganidan dalolat beradi. 1975-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Xalqaro ayollar yili" deb e'lon qilinishi, 1976–1985- yillar "Ayollar o'n yilligi" deb e'lon qilinishi butun dunyoda ayollar huquqlarining prinsipial masala sifatida qo'yilishiga asos bo'lgan. 1985-yilda Ayollar ahvoli yuzasidan Nayrobi (Keniya)da o'tkazilgan xalqaro Konferensiyada "gender tenglik" tushunchasi yangicha mazmun bag'ishlagan. 1993-yilda Venada o'tkazilgan

Inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro konferensiya kun tartibiga “Ayollarning inson sifatidagi huquqlari – umuminsoniy haq-huquqlarning ajralmas qismi ekanligi” haqidagi masala qo‘yilgan, hamda 1993-yilda “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash to‘g‘risida” Deklaratsiya qabul qilingan. Xalqaro miqyosda va milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi.

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya (CEDAW) 1979-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnoma hisoblanadi. Mazkur konvensiya ayollar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro qonun sifatida ta‘riflangan bo‘lib, 1981-yil 3-sentabrda tuzilgan va 189 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. O‘zbekistonda esa ushbu konvensiya 18-avgust 1995-yilda ratifikatsiya qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu konsititutsion normaning ijrosini ta‘minlash maqsadida davlatimiz “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi, “Bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi konvensiyalarga qo‘shilgan.

O‘tgan yillarda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir 15 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan va ijroga qaratilgan. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator Farmon va qarorlar davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog‘liq vazifalarni belgilab, ularning mas‘uliyatini oshirdi. “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarni yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biridir.

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. Alohida Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi ishlarning holati to‘g‘risida har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo‘yildi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qabul qilingan 2 ta qonunni xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida olib borilgan eng katta islohot va bu tizimga yaratilgan huquqiy asos sifatida e‘tirof etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli Qonuni qabul qilinib xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga huquqiy asos bo‘ldi.

Ushbu Qonunda jinsiy zo'ravonlik, zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, tazyiq, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi, tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, himoya orderi kabi quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan. Shuningdek, ushbu qonunda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlari, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining, Ichki ishlar organlarining, Mehnat organlarining, Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlarining, Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlarining, O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari aniq belgilandi. Shu bilan birga Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda ishtirok etishi bo'yicha normalar o'z aksini topdi.

Umuman olganda bugungi kunga kelib davlatimiz say'i-harakatlari bilan ayol mavqesini yanada yuksaltirish, hamda ularning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish esa fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga bog'liq bo'lib, ularni ushbu jarayonga keng jalb etish va faolligini kuchaytirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining istiqboldagi vazifalari sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 152 bet.
2. Госманов М. Исмаил Гаспиринский. Историко-документальный сборник. – Казань: Жизнь. 2006. – С. 377-378.
3. O'zbekistonda ayollar tashkilotlari // O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi. – Toshkent, 2018. – B. 2.
4. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
5. O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 dagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-561-son, 3-modda.

* * *

Sadullayeva Jamilaxon Ibodulla qizi,

*O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar
davlat qo‘mitasi huzuridagi “Oila va xotin-qizlar”
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi*

Bo‘riyeva Mahbuba Shavkatovna,

*O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar
davlat qo‘mitasi huzuridagi “Oila va xotin-qizlar”
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi*

AYOLLARGA ISHLATILGAN ZO‘ROVONLIKNING TARIXIY ODATLARDAGI AKS ETISHI VA ZO‘ROVONLIK KO‘RINISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollarga nisbatan ishlatilgan zo‘rovonliklar tarixi. Rossiya va Yevropada ayollarga nisbatan zo‘rovonlikni o‘zida aks ettirgan odatlar haqida o‘rganilgan. Shuningdek, zo‘rovonlik ko‘rinishi, turlari va bolalarga nisbatan zo‘rovonlik haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘rovonlik, ayollarga nisbatan zo‘rovonlik, bolalarga nisbatan zo‘rovonlik, zo‘rovonlik ko‘rinishlari.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению истории насилия над женщинами. В России и Европе изучались обычаи, отражающие насилие над женщинами. Она также охватывает виды и типы насилия в отношении женщин и детей.

Ключевые слова: насилие, насилие над женщинами, насилие над детьми, формы насилия.

Annotation. This article is about the history of violence against women. Russian and European customs that reflect violence against women have been studied. It also covers the types of violence towards women and children.

Key words: violence, violence against women, violence against children, forms of violence.

Kirish. O‘zbekistonda so‘nggi bir necha yil ichida ayollar va erkaklar uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan gender tengligi siyosati faol rivojlanmoqda. Bugun biz kamsitish va jins belgisiga asoslangan zo‘ravonlikka o‘rin bo‘lmagan jamiyatni barpo etish harakatidamiz va bu, haqiqatan ham, huquqiy-demokratik jamiyatning muhim shartidir. 2019-yil 2-sentabrda mamlakatimizda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2021-yilning 9-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-736-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi.¹⁰⁰ Mazkur

¹⁰⁰ Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Qonun bilan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga qo'shimchalar kiritildi. Rivojlangan jamiyat, birinchi navbatda, bolalarga, qariyalarga va nogironligi bor shaxslarga nisbatan qanday munosabat ko'rsatilayotgani bilan belgilanadi, ammo hozirgi kunga qadar jamiyatda nogironligi bor kishilarga nisbatan stereotiplar va kamsitishlar ustunlik qilib kelmoqda. Afsuski, nogiron ayollar va qizlar ko'proq kamsitishga moyil. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) statistikasiga ko'ra: nogiron ayollar eng past turmush darajasiga ega bo'lgan ijtimoiy guruhni tashkil qiladi; ayollar va nogiron bolalar ko'pincha shafqatsiz (jismoniy, jinsiy, hissiy) munosabatga duch keladilar; uchinchi dunyo mamlakatlarida nogiron qizlar maktab o'quvchilari orasida juda oz ahamiyatga ega. Bolalikdan nogiron qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu xotin-qizlarga kelajakda jamiyatdagi o'z o'rinlarini topishlariga yordam beradi. Majburiy mehnat, jinsiy ekspluatatsiya, harbiy mojarolarda asirga olish, oilaviy qullik, majburiy nikoh, kelinni sotish, harbiy ziddiyatlarda foydalanish maqsadida ularga bolalarni majburan jalb qilish, odam savdosi va boshqalar – bu qullikning zamonaviy shakllari bo'lib, ularning barchasini bartaraf etish bugungi kunning asosiy maqsadidir. O'zbekistonda so'nggi bir necha yil ichida ayollar va erkaklar uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan gender tengligi siyosati faol rivojlanmoqda. Bugun biz kamsitish va jins belgisiga asoslangan zo'ravonlikka o'rin bo'lmagan jamiyatni barpo etish harakatidamiz va bu, haqiqatdan ham, huquqiy-demokratik jamiyatning muhim shartidir

Ayollarning jamiyatdagi mavqeyi doimo jamoatchilik e'tiborini tortib kelgan. Ushbu masala bo'yicha ilmiy fikrning turli yo'nalishlarida ko'pincha qarama-qarshi qarashlar va fikrlar bildiriladi.

Qadimgi mifologiyada ayollarga sig'inish (qadimgi Yunonistonda – Afrodita, Nike, Demeter; Qadimgi Rimda – Venera, Viktoriya, Setsera) bo'lgan, biroq keyinchalik tarixiy adolatsizlik ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikka sabab bo'lgan. Ayol aql-idrok obyektiga, axloqiy qoralash va jismoniy zo'ravonlikka, xo'jayinining quliga aylantirildi. Shu munosabat bilan A.Bebel ayollarga nisbatan adolat masalasida quyidagilarni ta'kidlagan: "...ayol qullikka tushgan birinchi insondir" Taxminan 1400 yil oldin, Makon cherkovi kengashi (franklar sinodining eng yuqori ruhoniysi) rasmiy ravishda "Ayolning ruhi bormi?" degan savolni ko'rib chiqdi, u yerda bo'lgan ruhoniylarning deyarli yarmi salbiy javob berdi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki o'sha paytlarda ayollar savdosi qo'yilgan, turli maqsadlarda foydalaniladigan va shaxs sifatida hisoblanmaydigan obyekt edi, shuningdek, u keksaygach, o'z taqdiriga yordam bera olmas edi. Ayolning taqdiri bolalar tug'ilishi va xo'jayinning barcha injiqliklarini qondirish edi. Yepiskoflarga yozilgan Ibtido kitobida havoriy Pavlus shunday degan: "Xotinlar, erlaringizga xo'jayin sifatida itoat qilinglar, chunki Masih jamoatning boshlig'i va u yerning najotkori bo'lgani kabi, yer ham xotinlarning boshi va tanasidir".¹⁰¹ Jamoat Masihga itoat qilganidek, xotinlar ham hamma narsada erlariga itoat qiladilar". [15, 56-b]. Qadimgi faylasuflar nikoh munosabatlaridagi zo'ravonlik harakatlariga yetarlicha e'tibor berishmagan, ammo qadimgi yunon mifologiyasida bu mavzu, ayniqsa chaqaloq o'limi qismida

Ибтидо -15. – Б. 56.

juda keng tarqalgan. Ijtimoiy amaliyotni aks ettiruvchi Bibliya hikoyalarida oiladagi zo‘ravonlik ikki shaklda taqdim etiladi – “gunohkor” va “begunoh” harakat, ya‘ni ikkinchi holatda, axloqiy jihatdan oqlanish joiz hisoblangan. Xotinni kaltaklash nafaqat mulk egasi, balki butun oila a‘zolarining erining tabiiy huquqi hisoblangan. Tadqiqotchilar, eramizdan oldingi slavyanlar amaliyotida erning noma‘lum sababga ko‘ra o‘limi yuz berganda, marhum erning jasi bilan birga xotinlarni ustunda shafqatsiz yoqish odati mavjud bo‘lganligini ta’kidlashadi. Bu masala bo‘yicha birinchi mulohazalar Qadimgi Yunonistonda boshlangan. Ma‘lumki, Qadimgi Yunoniston jamiyati quldorlik va qullarga bo‘lingan, odamlar tengsizligi g‘oyasi inson ongiga mustahkam o‘rnashgan va ko‘pchilik mutafakkirlar bu nuqtayi nazarni qo‘llab-quvvatlagan. Platonning “Davlat” risolasi¹⁰²da bayon etilgan pozitsiyaga qarama-qarshi qarashlar an‘anaviy tarzda davom etgan. Risolada u jinslararo mehnat taqsimoti zarurligi haqida gapirar ekan, erkak va ayolning tabiati har xil bo‘lishiga qaramay, bir xil ishni bajarishlariga e‘tibor qaratadi. Rossiyada nasroniylikning qabul qilinishi bilan nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga solish butunlay cherkov vakolatiga bog‘liq bo‘lgan. Knyaz Vladimirning nizomi bu sohadagi cherkov sudining vakolatlarini batafsil bayon qiladi. Cherkov qonunlariga ko‘ra, er-xotin ajrashishi eng og‘ir gunohlardan biri hisoblangan. Cherkov nikohi yagona qonuniy nikoh sifatida tan olingan. Ammo bu qoidalaridan istisnalar mavjud edi, masalan, xotinning gunohlari bilan bog‘liq sabablar ajralish uchun omillardan biri bo‘lishi mumkin edi. Er xotinini zino uchun haydab chiqarishga majbur bo‘lgan, xotin esa, aksincha, erini qabul qilishi va har qanday holatda, hatto er uni aldagan va kaltaklagan bo‘lsa ham, oilani saqlab qolishi kerak edi. Erning aybi uchun ajralishga yo‘l qo‘yilmagan. Shu sababli, xotinlarni kaltaklash barcha tabaqalar orasida juda keng tarqalgan hodisa bo‘lganligi ajablanarli emas edi. Tarixdan bilamizki Hidistonda ham ayollar erlariga ibodat qilishgan agar turmush o‘rtog‘i vafot etishsa ular bilan birga yoqish odati mavjud bo‘lgan. Turmush o‘rtog‘i bilan yoqish odati tugatilgandan so‘ng ham ayollarga boshqa turmush qurish, rangli kiyimlar kiyish, to‘y va bayramlarga qatnashish mumkin bo‘lmagan. Tarixan ayollarga ishlatilgan zo‘rovonlik ko‘rinishlari har-xil bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Umuman olganda zo‘rovonlik qurbonlari asosan ayollar va bolalar hisoblanishadi. Zo‘rovonlikning ko‘rinishlari turlicha bo‘lib ular quyidagilar:

- psixologik zo‘ravonlik. Bu ishda-rahbar xodimga nisbatan, oilada ota-ona farzandlarga nisbatan, psixologik bosim o‘tkazishidir;

- jismoniy zo‘ravonlik. Oilada er-xotonga nisbatan kuch ishlatishi, jarohat yetkazishi yoki bolalarga nisbatan ota-onaning, ota-ona o‘rnidagi ma’sul shaxsning bolaga nisbatan kuch ishlatilishi va boshqalar;

- jinsiy zo‘ravonlik. Bolalar jinsiy aloqa qilishga majburlanishi yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchrashi. Bunday xatti-harakatlarni asosan erkaklar va o‘g‘il bolalar o‘z oilalarida amalga oshiradilar. Erta turmush qurish holatlari ham bundan mustasno emas. Dunyoda 82 million qiz 18 yoshgacha turmushga chiqadi. Ko‘pchilik ancha yoshroq va yoshi kattaroq erkaklarga turmushga chiqishga majbur. Natijada ular zo‘ravonlikka, jumladan, majburiy jinsiy aloqaga duch kelishi mumkin;

¹⁰² Платоннинг “Давлат” рисоласи. – 12 б

– iqtisodiy-moddiy zo'ravonlik. Oilada ishchi kuchning (aksariyat hollarda erning) oilasi va farzandlarining muhim ehtiyojlarini moddiy mablag' bo'la turib bunga zo'ravonlik bilan ta'minlamaslik (bu yerda moddiy taminoti yetarli yoki yuqori daromatga ega sifatida tushuniladi);

– nomus ortidagi qotilliklar – bunda erkaklar oilaning “nomusi” sanalmish qizlarini o'ldirishi, ya'ni, nikohdan tashqari jinsiy aloqa yoki majburiy nikohdan bosh tortish ortidan unga zo'ravonlik qo'llashi nazarda tutiladi;

– ba'zi bolalar behosiyatlikda ayblanadi, natijada ularga qaralmaydi, tahqirlanadi doimo kamsitiladi;

– oiladagi zo'ravonlik. Ko'pgina bolalar o'z uylarida, odatda, o'z ota-onalari tomonidan zo'ravonlikka duch kelishadi. Bunday zo'ravonlik bolalarning his-tuyg'ulariga, rivojlanishiga va hayoti davomida boshqalar bilan munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Hozirgi kunda bolalarga nisbatan zo'rovonlik xalqaro darajadagi muommo bo'lib qolmoqda. Xalqaro hamjamiyat bolalarga nisbatan zo'rovonlikni quydagicha tavsiflaydi: “Bolalarga qarshi zo'ravonlik – jismoniy, psixologik, jinsiy va shuning bilan birga bolaning ehtiyojlarini hisobga olmaslik hamda oilaviy zo'rovonlik, o'z yaqinlari tomonidan zo'ravonlikka qarshi yo'l qo'yish holatlarini kiritgan. 1998-yil Fransiyada bolalar bilan bog'liq zo'ravonlikka qarshi kurash organ xodimlari bilan birgalikda olib borilgan va bolalarga qarshi zo'ravonlikni 75-85% ko'rsatkichlari aynan ularning yaqinlari tomonidan amalga oshirilishi aniqlandi. “Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish uchun eng muhim chora bu ota-onaning psixologik jihatdan oilaga, ota-onalikka tayyorlash va tarbiyalash kerak” – deydi, sotsiolog olim O.Beruzkova.¹⁰³ Bolalar har bir jamiyatning kelajagi hisoblanadi. Shu sababli bolalarga tug'ilganidan har tomonlama sog'lom bo'lishiga harakat qilish lozim. Zo'ravonlikka uchragan bolalar esa hayotida atrofdagilarga va oilasiga nisbatan bu holatni qaytaradi, bu esa zanjirsimon tarzda davom etadi. Zo'ravonlikka uchragan bolalarda juda ko'p salbiy xususiyatlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Jahldorlik, agressiya, passivlik, odamovilik, nafrat, o'ziga past baho berish kabi holatlarda bolalar bilan psixokorreksion ishlar olib borish talab etiladi. Bolalar hali mustaqil fikrlashga ega bo'lmaydilar va o'zida kechayotgan holat hamda hissiyotlarni to'liq yetkazib bera olishmaydi, shu sababli bolalar bilan psixologik korreksion ishlar o'yin terapiyasi yoki art-terapiya orqali olib boriladi. Bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lganligi sababli psixoterapevtik jarayonda bolalar o'yin bilan mashg'ul bo'lishadi va o'yin orqali hayotni anglashadi.

Xulosa qilib aytganda, zo'rovonlik bugungi kunda global muommo sifatida qaralmoqda va kurashilmoqda. Zo'ravonlik qurboni bo'layotgan ayollar yoki bolalarni biz unutmasligimiz kerakki ular bizning, yurtning va dunyoning kelajagidir. Zo'ravonlik qurboni bo'lmasliklari uchun ayollarimizni ilimli, marifatli bo'lishi eng asosiy masala hisoblanadi. Chunki ko'plab tadqiqotlar, izlanishlar shuni ko'rsatadiki nafaqat zo'ravonlikka uchragan ayollar, balki alkogolizim, giyohvandlik, jinoyatchilik, ma'lumot

¹⁰³ In cases of domestic violence psychosocial assistance collective monograph. Primedia E-launch Shawnee, USA P. 160. ISBN: 978-1-64945-233-7 DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.5956178>

darajasi past yoki hech bir kasbni mutaxasisi bo‘lmagan shaxslarda ko‘proq kuzatiladi. Umuman yomon illatlarga moyillik to‘g‘ri sog‘lom fikirlamaslik natijasida sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аристотель. Политика. Т. 3. – М. – Л., 1983. 34, 230, 383.
2. Аристотель. Сочинения: в 4-х томах. Т. 4. – Москва: Мысль, 1983. – С. 376-633-850.
3. Эволюция взглядов на правовое положение женщины в обществе и государстве в трудах философско-правовых мыслителей. – Улан-Удэ: БГУ, 2010.
4. Булычев И.И. О гендерной карте мира в «Утопии» Томаса Мора [Электронный ресурс] / Булычев И.И. // Женщина в российском обществе, 2001.
5. Волков Е.Н. Проблема насилия над детьми и пути их преодоление // под ред. Е.Н.Волковой. – Санкт-Петербург, 2008.
6. Зиновьева Н.О., Михайлова Н.Ф. Психология и психотерапия насилия. Ребенок в кризисной ситуации. – Санкт-Петербург: Речь, 2003.

* * *

Alimova Umida Raxmatillayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedra o‘qituvchisi

Zoxidjonova Munisa Sanjar qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MASALASIGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar tazyiq o‘tkazganlikda va zo‘ravonlik sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsdan undirilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: tazyiq, zo‘ravonlik, jinsiy, voyaga yetmagan, normativ-huquqiy, jinoyat, jamiyat, mexanizim.

Аннотация. Расходы, связанные с оказанием помощи жертвам домогательств и насилия, могут быть взысканы с лица, признанного виновным в домогательствах и насилии.

Ключевые слова: домогательство, насилие, сексуальное, несовершеннолетнее, нормативно-правовое, преступление, общество, механизм.

Annotation. The costs associated with providing assistance to victims of harassment and violence can be recovered from a person found guilty of harassment and violence.

Key words: harassment, violence, sexual, minor, legal, crime, society, mechanism.

Dunyoda ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo‘ravonliklarning 35 foizi jismoniy va jinsiy sheriklari tomonidan sodir etilgan. 2017-yilda dunyo miqiyosida qasddan

o'ldirilgan 87000 ta voyaga yetmagan va ayollarning yarimidan ko'pi (50,000-58 foizi) yangi tanishlari yoki oila a'zolari tomonidan o'ldirilgan. Dunyo bo'ylab 137 ta ayol esa o'z oila a'zosi tomonidan o'ldirilgan. Zo'ravonliklar tufayli halok bo'lgan ayollarning 33-50 foizi erlarining kaltaklari tufayli vafot etgan. Bu o'z navbatida, nozik jins vakillarini maishiy zo'ravonlik jinoyatlardan himoya qilish davr talabi ekanini ko'rsatib turibdi. Jahonda va respublikada jinoyatchilikka qarshi kurash, zo'rlik fenomeni vujudga kelishi, zo'ravonlik va tazyiq ishlatuvchining shaxsi tushunchasi, zo'ravonlik va tazyiq ishlatish orqali sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, bunday holatlardan himoyalaniş usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarning turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan himoyalaniş darajasi ortib bormoqda.

Darhaqiqat, insonni jinoiy tajovuzlardan himoyalash, jinoyatchilikka qarshi kurash muammosi, amaldagi qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda va jinoyatni jamiyat hayotidagi eng salbiy holat deb qaralgandagina hal qilinishi mumkin hisoblanadi. Mazkur masalaga hukumatimiz alohida e'tibor berib, barcha hujjatlarda jinoyatchilikka, shu o'rinda zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olish va unga qarshi kurash masalasini targ'ib qilmoqda. Davlatimizning asosiy vazifasidan biri ham jamiyat hayotida qonunga rioya etishni kuchaytirish va mustahkamlash, sud, prokuratura, adliya va ichki ishlar organlarining bu boradagi mas'uliyatini oshirish yo'lida olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda hal qilinishi lozim va muhim bo'lgan masalalaridan biri zo'ravonlik va tazyiqning oldini olish va undan himoyalaniş hisoblanadi.

Profilaktika xizmatlari tomonidan zo'ravonlik va tazyiq doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning umumiy tartibdagi profilaktikasi faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi bo'lib, ma'muriy hududlarda yashovchi zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan shaxslar, oilalar haqida tezkor vaziyatdan xabardor bo'lish, sodir etilishi mumkin bo'lgan nizolarni barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy ruhiy-muhitni sog'lomlashtirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishdan iboratdir. Ichki ishlar organlarining tayanch punkti profilaktika inspektorlari bevosita o'zlariga biriktirilgan ma'muriy hududlarda zo'ravonlik va tazyiq doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning umumiy profilaktikasini amalga oshirish borasida, eng avvalo, shaxs huquqlari va erkinligini ta'minlash, oilaviy-maishiy hayotda yuzaga kelgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, ayniqsa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida aholi o'rtasida targ'ibot tushuntirish ishlarini olib borish, zo'ravonlik va tazyiq doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish choralarini ko'rish hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etadi. Shuningdek, oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan hamda oila-turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, bunday huquqbuzarlikni

sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshiradi. Zo‘ravonlik va tazyiq doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyati dastlabki profilaktika hisoblanadi.

Jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2- sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ–561-son Qonunining 15-moddasida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo‘yishning umumiy chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Jumladan:

- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; tazyiq va zo‘ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo‘lgan omillarni tahlil qilish, o‘rganish va baholash;
- aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot olib borish;
- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;
- fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o‘z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to‘g‘risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta‘minlash maqsadida axborot-ma‘rifiy faoliyatni amalga oshirish;
- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- tazyiq va zo‘ravonlik sodir etish xavfi bo‘lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralarini amalga oshirish;
- tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;
- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan ta‘sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash;
- aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.

Tegishli hududda tazyiq va zo‘ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq va zo‘ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e‘tiboran 24 soat ichida himoya orderini o‘ttiz kun muddatgacha beradi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O‘RQ-640-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga “Tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik” nomli 2061-modda kiritilib, unga ko‘ra, tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan

yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son Qonunining 24-moddasida ta'kidlanishicha, o'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organi ularning nomidan himoya orderini berish hamda uni uzaytirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, o'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar himoya orderini olish to'g'risidagi ariza bilan shaxsan murojaat qilishga haqli. O'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarning himoya orderini berish hamda uni uzaytirish to'g'risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili hozirligida ko'rib chiqiladi. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar tazyiq o'tkazganlikda va zo'ravonlik sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsdan undirilishi mumkin. Bundan tashqari, zo'ravonlik takroran sodir etilishining oldini olish hamda zo'ravonlikdan jabrlanganning xavfsizligini ta'minlash maqsadida shaxsning zo'ravonlikka moyil xulq-atvorini o'zgartirishda unga ruhiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Новый Узбекистан, где почитают своих женщин [Текст]: Монография / О.Салимова [и др.] – Ташкент: «Тасвир», – 220 с. (Norboyeva T.K. Gender tenglikni ta'minlash – xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhim omili. – Toshkent: Tasvir, 2021. – B. 8-19.)
2. Mahmudova S. Ayol davlat ishini ham uddalaydi: buning uchun gender tenglik ta'minlanishi yetarli. Yangi O'zbekiston gazetasi. 2022-yil 12-noyabrdagi 232-soni, 5-bet.
3. Xalimova, M.V. Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarga oid mas'uliyatni oshirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari: Psixol. fan. dok-ri ... dis-ya avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 74 b.

* * *

Ashurova Sarvinoz O‘ralovna,
Qarshi Davlat Universiteti
Milliy g‘oya ma‘naviyat
Asoslari kafedrası o‘qituvchisi

ZAMONAVIY AYOLNING IJTIMOII MAVQEYI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlarni mehnat bozoridagi mavqeyini oshirish hamda har tomonlilama qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar haqida boradi.

Kalit so‘zlar: roli, uy bekasi, zo‘rovonlik, gender, mehnat bozori, vakt jarayoni, o‘zligini yuqotish, ayollar bandligi, oilaviy majburiyatlar

Аннотация. В данной статье рассказывается о роли современной женщины в общественной жизни, а также о проводимой в нашей стране работе по повышению статуса женщин на рынке труда и оказании всесторонней поддержки.

Ключевые слова: роль, домохозяйка, насилие, гендер, рынок труда, процесс трудоустройства, падение самооценки, занятость женщин, семейные обязательства

Annotation. This article tells about the role of a modern woman in public life, as well as the work carried out in our country to improve the status of women in the labor market and provide comprehensive support.

Keyword: role, housewife, violence, gender, labor market, employment process, drop in self-esteem, women’s employment, family obligations

Har birimiz hayot deb nomlangan ulkan teatr jarayonida ishtirok etmoqdamiz. Ushbu dramatik jarayonda har birimizning o‘z ssenariylarimiz va rollarimiz bor, biz ularni yodlaymiz, mashq qilamiz va ijro etamiz. Ssenariylarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qilishi natijasida xalq, mamlakat, dunyo tarixi yuzaga keladi.

Zamon shiddat bilan rivojlanmoqda, ssenariy mavzulari turlicha bo‘lmoqda, texnologiya yaxshilanmoqda, did va moda tendensiyalari o‘zgarmoqda, lekin bu jarayonning ikki ishtirokchisi o‘zgarmas barqaror bo‘lib qolmoqda: **erkak va ayol**.

Erkaklar va ayollar jinsiy xosligiga qarab ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etadi. Jinsiy identifikatsiya erta bolalikdan boshlanadi va hayot davomida mustahkamlanadi. Erkak, ko‘p mehnat qiladigan va topar-tutarman bo‘lishi kerak. U hissiyotlarini ochiq namoyon qilmasligi, ishonchsiz va zaif bo‘lmasligi kerak. “Ayol esa zaif, mehribon bo‘lishi kerak”. U erkakni hissiy jihatdan “qo‘llab-quvvatlashi” kerak, shuning uchun unga moddiy ko‘mak beriladi. Albatta, bu erkak va ayol rollarining xususiyatlarining ekstremal shakllari. Biroq, jamiyatda bunday stereotiplarga rioya qilish tendensiyasi ham mavjud. Odamlar ko‘pincha aytadilar: “erkaklar va ayollar turli xil rollarga ega, ammo ular teng-ku, nega bu holatni o‘zgartirish kerak?”. Ular an’anaviy erkak va ayol rollarini bir-birini to‘ldiruvchi va jinslar o‘rtasidagi biologik farqlarga asoslangan deb

bilishadi. O'z navbatida, aksariyat ijtimoiy psixologlar an'anaviy gender rollari shaxsning rivojlanishini cheklaydi va ijtimoiy tengsizlikka olib keladi, ular jinsi va yaxlitligidan qat'i nazar, har bir shaxsning salohiyatini cheklaydi, deb taxmin qilishadi.

Xo'sh, zamonaviy jamiyatda ayol qanday rollarni bajaradi?

Sh. Bern, ta'kidlaganidek ko'pchiligimiz ayolning asosiy vazifasi uy bekasi, degan fikrda tarbiyalanganmiz, lekin ayollarning atigi 40 foizi to'liq vaqtini uyda o'tkazadi (bu ko'rsatkichga pensiya yoshidagi ayollar ham kiradi). Qo'shma Shtatlarda eri ishlaydigan va uy xo'jaligini boshqaradigan va ikki yoki undan ortiq bolani tarbiyalaydigan xotinli oilalar soni atigi 7% ni tashkil qiladi.¹⁰⁴

Ammo ayolning uy ishlarini bajarishi uning yetarli ishlamasligini anglatmaydi. Darhaqiqat, o'rtacha uy bekasi haftasiga 48-70 soatini uy ishlarini bajarishga sarflaydi. Shu bilan birga, butun kunni uyda o'tkazish, uy bekasi uchun nafaqat iqtisodiy, balki hurmat, mavqeyi va rag'batlantirilish kabi ko'plab ijtimoiy ehtiyojlarga erishishni cheklaydi.

Betti Fridan o'zining "Ayolning maxsus qobiliyati" kitobida ko'plab uy bekalari o'z rolidan norozi bo'lishlarini ta'kidlaydi. U olgan ma'lumotlarga ko'ra, asosiy muammo ayollar asosan boshqalarning ehtiyojlariga xizmat qilishi va ular o'z shaxsiyatiga ega bo'lmasligida. Ularning roli muhim, chunki bu ularning farzandlari va erlariga hayotda biror narsaga erishishga imkon beradi, lekin boshqalarning hayoti bilan yashash hayotdan bahra olish degani emas. Bundan tashqari yana bir muammo shundaki, uy bekasi odamlar hayotidagi eng muhim voqealardan chetda qolib ketadi va shuning uchun o'zini to'laqonli kamol inson sifatida his etmaydi.

Popova L. V.ta'kidlaganidek, AQShda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ba'zi ayollar uy bekalari rolidan qoniqish topsa-da, biroq hayotdan qoniqish, shu jumladan, o'z-o'zini hurmat qilish va o'zligini anglash hissi ishlaydigan ayollar orasida ko'proq uchraydi. O'zlarini faqat xotin va ona sifatida ko'radigan ayollar ko'pincha "uy bekasi sindromi"ni boshdan kechirishadi. Bu o'zini nochorlik va umidsizlik hissi bilan namoyon qiladi, tez-tez depressiyada, o'zini past baholashda ifodalanadi. Amerika tajribasi shuni ko'rsatdiki, faqat oilaga g'amxo'rlik qilishga bag'ishlangan yillar ayollarni mustaqillik va o'zligini yo'qotishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z joniga qasd qilish, alkogolizm, ruhiy va jinsiy kasalliklarga olib kelishi mumkin¹⁰⁵.

Biroq, ba'zi tadqiqotchilar uy bekalari ishlaydigan ayollarga qaraganda depressiyaga ko'proq moyil va o'z hayotlaridan kamroq qoniqishadi degan fikrlarga qo'shilmaydilar. Shihanning yozishicha, uy bekasi roli ayollarni psixologik noqulayliklarga olib kelmaydi, sababi uy bekasi roli turli klub, jamoa va tashkilotlarda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi uchun yetarli vaqt qoldiradi. Ferri yaqinlaringizga olib kelingan quvonch va yaxshi bajarilgan ishdan qoniqish kabi mukofotlar uy ishlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

¹⁰⁴ Берн Ш. Гендерная психология. – Санкт-Петербург: Прайм – Еврознак, 2001. – С. 123–162.

¹⁰⁵ Попова Л. В. Отношение к социальным ролям женщин: кросскультурное исследование//Гендерные аспекты социальной трансформации/Институт социально-экономических проблем народонаселения РАН. Москва, 1996. – С. 161-174.

Olimlarning uy bekasi roli ayolga turlicha ta’sir qilishi haqidagi xilma-xil fikrlari bo‘lishiga qaramasdan, aksariyat sotsiologlar pul topgan ayol uyda ko‘proq ta’sirga ega degan fikni qo‘llaydilar. Uy bekasining eriga moliyaviy qaramligi uni uyda unchalik ta’sirchan bo‘lmagan shaxsga aylantiradi, chunki bu “erining” puli va erkak “haqiqiy” ish bilan shug‘ullanadigan yagona odamdir (chunki ayolning uydagi ishi moddiy qiymatga ega emas).

Ko‘rib turganimizdek, uy bekasining roli ideal emas, aslida u ko‘proq hurmat va ehtiromga loyiqdir.

XX asrning ikkinchi yarmidan ayollarning mehnat faoliyatining yuqori darajasiga erishilganligiga qaramay, oilada va mehnat bozorida rollarning taqsimlanishini belgilaydigan yozilmagan “ijtimoiy shartnoma” hali ham amal qilmoqda. Tarixan, uzoq vaqt davomida ayollarning uy xo‘jaligini boshqarish va bolalarni parvarish qilish uchun asosiy mas’uliyati borligi, erkakning esa vazifasi oilaning boquvchisi bo‘lish, pul topish deb belgilangan.

Mezenseva Ye. B. o‘zining “Мужчины и женщины в сфере домашнего труда: логика экономической рациональности против логики гендерной идентичности” maqolasida ayollarning haftasiga barcha turdagi uy ishlarga sarflaydigan o‘rtacha vaqti 30,3 soatni, erkaklar uchun esa 14,0 soatni tashkil qiladi deb belgilagan. Shunga o‘xshash natijalar Bler va Lixter tomonidan Qo‘shma Shtatlardagi 3000 turmush qurgan juftliklar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda olingan. Bler, Lixter va Gyunter asarlarida, uy ishlari “jins belgisiga ko‘ra” bo‘linadi va “ayollar” vazifalari, qoida tariqasida, har kuni, ma’lum soatlarda bajarilishi kerak bo‘lgan ishlardan iborat ekanligi ta’kidlanadi. (ovqat pishirish yoki idishlarni yuvish), “erkaklar ishi” esa (bog‘dorchilik yoki uyni ta’mirlash) vaqtini erkinroq tasarruf etish imkonini beradi.

Oilaviy majburiyatlar ayollarni raqobatga bardosh bera olmaydigan ishchi kuchiga aylantirmoqda. Buni ish beruvchilar ham, ayollar ham anglamoqda. Natijada, ayollar mehnat bozorida kamroq raqobatbardosh bo‘lib, bolalar va ish o‘rtasida tanlov qilishga majbur bo‘lishadi yoki uy vazifalari va mehnatni birlashtirish zarurligiga chidashadi.

Bu holda, Ye. B. Mezenseva ta’kidlaganidek, ayollarni mehnat bozorida va uy xo‘jaligida band qilishning umumiy vaqti erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq bo‘lib chiqadi. O‘rtacha haftada ayollarni ish bilan ta’minlashning umumiy vaqti erkaklar ish vaqtidan 25% yuqori, mehnatga layoqatli ayollarning umumiy bandligi esa erkaklarnikiga qaraganda 2 baravar ko‘p. Oiladagi turli xil resurslarning, gender taqsimoti shu jumladan, vaqt resurslarining bir xilligini baholanganda erkaklar xohlagancha ishga vaqt va kuch sarflash va bo‘sh vaqtlarini ixtiyoriy o‘tkazish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega ekanligi erkak va ayollar tomonidan ta’kidlanmoqda.

Shunday qilib, ayollar nafaqat mehnat bozorida kamroq imkoniyatlarga ega, balki o‘zlarining inson kapitaliga sarmoya kiritish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan bo‘sh vaqtlari ham kam.

Ishga qabul qilish jarayonida ish beruvchilar tomonidan ayollarning keng kamsitilishi ularning ishga joylashish imkoniyatlarini, shu jumladan yuqori maoshli va obro‘li

lavozimlarda ishlash imkoniyatlarini cheklaydi. Xususiylar va davlat sektoridagi ish beruvchilar muntazam ravishda ish e'lonlarida xodimning kerakli jinsini ta'kidlaydilar va ayollarning ish joylarini rad etish uchun suhbat jarayonida talab qilinadigan oilaviy sharoitlar haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Professional jihatdan to'g'ri kelgan taqdirda ham yoshi va tashqi ko'rinishi ishga olishda to'siq bo'lishi mumkin.

Jamiyatimizda qat'iy gender-rol stereotiplari hanuzgacha hukmronlik qilmoqda, bu esa ayolning o'ziga va uning ishbilarmonlik faoliyatiga ta'sir qilmoqda. Ushbu nomuvofiqlikning natijasi ayolning ikki tomonlama ishda va uyda bandligi ro'y bermoqda. Agar ayol nafaqat xodim bo'lsa, balki tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullansa unda rollarning haddan tashqari yuklanishiga qo'shimcha ravishda o'ziga xos ichki va shaxslararo muammolar qo'shiladi.

So'nggi asrda ayollarning ijtimoiy rollarida keskin o'zgarishlar ro'y berdi: ayollar ta'lim, siyosat, biznes kabi sohalarga qadam qo'yidilar; ularning iqtisodiyotdagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi.

Jamiyatdagi erkaklar va ayollar rollarining tengsizligi va assimetriyasi muammosi saqlanib tursada ijtimoiy rollari o'tmishdagiga qaraganda ancha o'xshab bormoqda. Bondarenko o'z maqolasida ta'kidlaganidek, dunyo aholisining yarmini tashkil etuvchi ayollar "dunyodagi ishlarning 2/3 qismini bajaradilar, barcha daromadlarning 1/10 qismini oladilar va barcha mulkning 1/100 dan kamiga egalik qiladilar. Amerikalik sotsiolog Ye. Bouldingning ta'kidlashicha, ayollarning roli ko'proq jamiyatning "tashqi" "yaltiroq" tomoni bilan emas, balki "ichki "yashirin" tomoni bilan bog'liq.

Sh.Bern fikriga ko'ra, ko'pchiligimiz dunyo halol va adolatli ekanligi va har kim bu hayotda xarakatiga qarab munosib mukofot oladi va shunga loyiqdir degan fikr bilan o'sganmiz. Biz shunday ekanligiga ishonishimiz kerak, aks holda biz harakat jarayonida, adolatsizlikka qarshi kurashimiz yoki asossiz kamsitishlarga duch kelganimizda o'zimizni aybdor va noqulay his qilishimiz kerak, shuning uchun salbiy holat ko'rganda biz ko'zimizni yumamiz va o'zimizni to'g'ri tutsak, biz hech qanday salbiy holatga tushmaslikka ishonishda davom etaveramiz., va bunday xatti-harakatlar modeli yaxshiroq ekanligiga ishonamiz. Savol berish vaqti keldi: kim uchun yaxshiroq? Patriarxal hukumat uchunmi yoki iqtisodiy farovonlikka erishish va o'zini namoyon qilish imkoniyatini yo'qotayotgan ayollar uchunmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алешина Ю.Е., Волович А.С. Проблемы усвоения ролей мужчины и женщины // Вопросы психологии. 1991.– №. 4, – С. 74 – 82.
2. Бондаренко Л.Ю. Мир, в котором мы живем. Ролевые сходства и различия между российскими и американскими женщинами// Общественные науки и современность. 1997. – № 3. – С. 184-188.
3. Бондаренко Л.Ю. Роль женщины: от прошлого к настоящему// Общественные науки и современность. 1996. – № 6. – С. 163-170.
4. Мезенцева Е.Б. Мужчины и женщины в сфере домашнего труда: логика экономической рациональности против логики гендерной идентичности? //

- Гендерное равенство: поиски решения старых проблем. – Москва: МОТ, 2003.
5. Суковатая В.А. Бизнес-леди: Мифы и реальность // Социологические исследования. 2002. – № 11. – С. 69-77.
6. Турецкая Г.В. Деловая активность женщин и семья // Социологические исследования. 2001. – № 2. – С. 67-73.

* * *

Н.Н. Ибрагимова, З.З. Ибрагимов,
Джизакский Политехнический Институт

ЗАЩИТА ЖЕНЩИН ОТ ПРИТЕСНЕНИЯ И НАСИЛИЯ

Аннотация. Жертва притеснения и насилия - лицо женского пола, находящееся под угрозой совершения притеснения и насилия в отношении нее или пострадавшая в результате притеснения и насилия.

Ключевые слова: притеснения, домогательства, угнетение, насилие.

Annotatsiya. Zulm va zo‘ravonlik qurboni-unga nisbatan zulm va zo‘ravonlik qilish xavfi ostida bo‘lgan yoki zulm va zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayol.

Kalit so‘zlar: zulm, ta‘qib, zo‘ravonlik.

Annotation. Victim of harassment and violence - a female person who is under threat of harassment and violence against her or who has suffered as a result of harassment and violence.

Keywords: harassment, harassment, oppression, violence.

В последнее время в социальных сетях было распространено множество неэтичных сообщений о различных формах насилия в отношении женщин, о психических и физических домогательствах, доводящих их до совершения суицида. Очевидно одно, что случаев насилия в отношении женщин на самом деле может быть гораздо больше. Мы не можем этого отрицать. Потому что, как бы узбекской женщине не было трудно, она не хочет раскрывать это перед знакомыми и соседями, не говоря уже о распространении посредством социальных сетей. По данным Всемирной Организации Здравоохранения, более 25 процентов женщин в возрасте от 15 до 49 лет подвергаются физическому или сексуальному насилию в течение своей жизни. 33 процента этих случаев жестокости приходится на регион Юго-Восточной Азии. В нашем национальном законодательстве, прежде всего, принята Конституция, а также специальные законы, гарантирующие права женщин в соответствии с международными стандартами, а также ряд нормативных правовых актов. В частности, Конституция Республики Узбекистан и Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей

женщин и мужчин» обеспечивают гарантии недискриминации по признаку пола и равных прав, и возможностей для женщин и мужчин.

Кроме того, Закон о защите женщин от угнетения и насилия содержит нормы, касающиеся обеспечения прав, свобод и законных интересов женщин, защиты их от угнетения и насилия. Следует отметить, что Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин от притеснения и насилия» утвержден Указ №3 от 4 января 2020 года «О выдаче ордера для защиты женщин, пострадавших от притеснения и насилия». Настоящий Указ предусматривает порядок защиты женщин, ставших жертвами притеснения и (или) насилия, и налагает ряд ограничений и запретов на лица, совершивших или склонных к насилию, с целью предотвращения повторных случаев.

Жертва притеснения и насилия имеет право на следующие:

- обращение в соответствующие уполномоченные органы и организации или суд с заявлением о совершении в отношении нее притеснения и насилия или угрозе их совершения;
- получение бесплатной правовой консультации, экономической, социальной, психологической, медицинской и иной помощи в специальных центрах, а также посредством бесплатной телефонной линии;
- обращение в органы внутренних дел с требованием о выдаче охрannого ордера, а в случае нарушения условий охрannого ордера информирование их об этом;
- обращение в суд с требованием о возмещении причиненного ей материального ущерба и компенсации морального вреда вследствие совершенного притеснения, и насилия.

Жертва притеснения и насилия при обращении в суд с заявлением о возмещении причиненного ей материального ущерба и компенсации морального вреда освобождается от уплаты государственной пошлины.

С целью обеспечения получения информации о механизме и мерах по оказанию помощи, консультации, предупреждению случаев притеснения и насилия в отношении женщин Министерство по поддержке махалли и старшего поколения обеспечивает круглосуточную бесплатную сеть телефонной линии: 1146 на всей территории Республики Узбекистан.

Сеть телефонной линии функционирует с соблюдением конфиденциальности.

Не допускается разглашение информации, полученной по телефону доверия, за исключением случаев, установленных законодательством.

Основанием для применения индивидуальных мер предупреждения притеснения и насилия в отношении женщин являются

- обращение жертвы притеснения и насилия;
- сообщения физических или юридических лиц;

- непосредственное обнаружение работниками уполномоченных органов и организаций фактов совершения притеснения или насилия либо попытки их совершения;
- материалы, поступившие из государственных органов и других организаций.

Уполномоченные органы и организации, осуществляющие защиту женщин от притеснения и насилия, в случае выявления фактов притеснения и насилия обязаны незамедлительно сообщать об этом в соответствующие органы внутренних дел.

В то время как, в нашей стране действует так много правовых механизмов для защиты прав женщин, очень жаль, что они подвергаются жестокому обращению. Мы призываем всех, включая журналистов и блоггеров, которые близки к народу и рассказывают о их проблемах, бороться с вышеуказанными случаями и выражаем свою готовность вести с ними сотрудничество.

Всем нам нужно помнить! Все женщины находятся под защитой государства. Никто не имеет право оскорблять их, нарушать их права и ограничивать их свободу!

Список использованной литературы:

1. Бегматова Н. З. Загрязнение и охрана окружающей среды. причины и последствия // Символ науки. – 2020. – №. 6. – С. 19-21.
2. Ибрагимова Н. А., Ибрагимов З. З. Джизакский Политехнический Институт Г. Джизак, Республика Узбекистан. Анализ этапа программирования для определения погрешностей процесса обработки деталей с числовым программным управлением.
3. Ахмедов А. А., Кудратов Э. А., Холов Д. М. Инновационная технологии современных лабораторных работ по физике Инновационные технологии в науке и образовании. –2016. – С. 228-230.
4. Имомова Д. А., Мирзаева М. А., Алимкулов С. О. Навыки педагога в использовании инновационных технологий в системе современного образования //International scientific review. – 2016. – №. 9 (19).

* * *

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy psixologiya magistratura mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

OILAVIY ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada oilaviy zo'ravonlikdan jabrlanganlar bilan psixologik xizmatni tashkil etishning xususiyatlari o'rganiladi. Zo'ravonlik uchun javobgarlik masalasi ko'tariladi va jabrlanganlar bilan ishlashning amaliy tajribasi asosida oilaviy zo'ravonlik qurbonining psixologik portreti qayta tiklanadi. Shuningdek, zo'ravonlikka uchragan ayollarga psixologik yordam ko'rsatishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: oiladagi zo'ravonlik, oiladagi zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollar, oiladagi zo'ravonlik uchun javobgarlik, psixologik yordam, ruhiy holat, psixik jarohatlar, zo'ravonlikka qarshi chora-tadbirlar.

Аннотация. В статье исследуются особенности психологической работы с людьми, пострадавшими от домашнего насилия. Ставится вопрос об ответственности за насилие и на основе практического опыта работы с пострадавшими воссоздается психологический портрет жертвы домашнего насилия. В статье также подчеркивается важность оказания психологической поддержки жертвам насилия.

Ключевые слова: насилие в семье, женщины – жертвы домашнего насилия, ответственность за насилие в семье, психологическая помощь, психическое состояние, травма психики, меры против насилия.

Annotation. Features psychological work with people affected by domestic violence are studied in the article. Looks at the question of responsibility for violence on the basis of practical experience working with victims and recreating a psychological portrait of a domestic violence victim. The article also emphasizes the importance of providing psychological support to victims of violence.

Key words: domestic violence, women – victims of domestic violence, responsibility for domestic violence, psychological assistance, mental state, mental trauma, measures against violence.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik inson huquqlarining eng keng tarqalgan va yashirin buzilishlaridan biridir. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, bunday zo'ravonlik har yettinchi jahon mamlakatlaridagi oilalarda sodir bo'ladi va oilani jinoiylashtirish jarayoni nafaqat zaiflashmaydi, balki, aksincha, har yili kuchayib, xavfsizlikka jamiyat va shaxsga tahdid soladigan keng miqyos va chuqurlikka ega bo'ladi. Oiladagi zo'ravonlik jamiyatdagi eng keskin va keng tarqalgan ijtimoiy muammolardan biridir.

Oiladagi zo'ravonlik vayronagarchilik, oila a'zolariga shikast yetkazish, bolalarda shaxs buzilishlarining rivojlanishiga hissa qo'shadi va butun jamiyat salomatligini

yomonlashtiradigan salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli, o‘z oilasida zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish ayniqsa muhimdir [1].

Adabiyotda ko‘pincha oilada zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarga yordam berishning yetarlicha yaxshi tavsiflangan nazariy yondashuvlari va amaliy usullarini topish mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha, zo‘ravonlik qurboniga aylangan ayollarga psixologik yordam berish usullari haqida ma‘lumotlar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda ular amalda faqat inqiroz markazlari ishiga bag‘ishlangan nashrlarda tasvirlangan va dastlabki maslahat va yordam guruhlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu toifadagi mijozlarga psixoterapevtik yordam ko‘rsatish deyarli hisobga olinmaydi, garchi talab ko‘pincha ular tarafidan tushgan bo‘lsa ham. Oilaviy zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar bilan psixologik xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Avvalo, zo‘ravonlik qurbonlari bilan ishlash niyatida bo‘lgan psixologlar zo‘ravonlik sabablari va ular bilan bog‘liq muammolarni tushunish bo‘yicha o‘z g‘oyalari va qarashlaridan kelib chiqib xulosa, tushunchalarga ega bo‘lishlari juda muhimdir. Psixolog zo‘ravonlikdan foydalanishni oqlash muammosiga o‘z munosabatini ko‘rsatishi shart [2].

Psixologning shaxsiy qarashlarini tekshirish uchun yana bir muhim mavzu - zo‘ravonlik uchun javobgarlik masalasi ham o‘rin tutadi. Bugungi jamiyatda jabrlanuvchilarning o‘zlari ularga nisbatan zo‘ravonlik qilishda ma‘lum darajada aybdor, degan fikr keng tarqalgan. Ko‘pincha jamoatchilik oiladagi zo‘ravonlikni faqat shaxsiy yoki oilaviy masala deb biladi, bunday huquqbuzarliklarning jiddiyligi e‘tiborga olinmaydi. Shu bilan birga, qarindoshlar ham, rasmiylar ham ko‘pincha ayolni zo‘ravonlik harakatini har qanday ko‘rinishda qo‘zg‘atganlikda ayblashadi. Ko‘pgina tadqiqotlarda jabrlanuvchilar haqidagi xulosalari ayblov, oshkoralik xarakteriga egadir.

Psixologning zo‘ravonlik haqidagi tasavvurlari, uning tabiati va keltirib chiqaruvchi sabablari zo‘ravonlik qurbonlarining psixologik reabilitatsiyasiga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Psixolog jamiyatda mavjud bo‘lgan stereotip va noto‘g‘ri qarashlardan xoli bo‘lishi va o‘z mijozlariga nafaqat empatik (hissiy), balki ma‘naviy yordam ko‘rsatishi kerak. Birdamlik pozitsiyasi nafaqat jabrlanuvchining aybsizligi haqidagi mulohazani, balki sodir bo‘lgan adolatsizlikni chuqur tushunishni ham o‘z ichiga oladi, shuningdek, boshdan kechirgan zo‘ravonlikning og‘irligini qabul qilish va tan olish va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni tushunishga yordam berishni ham qamrab olishi zarur [3].

Yuqoridagilar ishonch telefonlarida ishlovchi ko‘ngillilar uchun ham, oilaviy zo‘ravonlik muammosi bo‘yicha ishlaydigan professional psixologlar uchun ham zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik yordam ko‘rsatishdan kelib chiqadigan maxsus treninglar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulq-atvor stereotiplari, turli xil psixologik va psixosomatik kasalliklarning shakllanishida muhim bo‘lgan psixologik javob mexanizmlariga salbiy atrof-muhit omillarining psixogen ta‘sirining tabiati kabilar psixologik tibbiy atamalarda aniqlanishi mumkin. Oilaviy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarga samarali psixologik yordam ko‘rsatish uchun psixolog bunday mijozlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy va xulq-atvor xususiyatlarini yaxshi tushunishi kerakligi talab etiladi.

Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollar ikki kategoriyaga bo'linishi mumkin:

- birinchi guruh – bu hodisaga o'z oilasida duch kelgan va ota-onasi oilasida buni bilmaganlar;

- ikkinchi guruh - ota-onalarning bir-biriga yoki bolalarga nisbatan zo'ravonligi bo'lgan oilalarda o'sganlar [4].

Har qanday guruhdagi ayollar bir yoki bir nechta zo'ravonlik harakatlaridan keyin aybdorni tark etishlari yoki oilaviy munosabatlarni tiklashga, saqlashga harakat qilishlari mumkin. Yetarli darajada ehtimollik bilan, birinchi guruh ayollari zo'ravonlikdan qochish yo'lini tanlashlari ehtimoli ko'proq deb taxmin qilish mumkin. Biroq, ko'plab to'siqlar mavjud, ular orasida biz eng muhimlaridan bir nechtasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin [5].

Birinchisi ijtimoiy omildir. Bu insonning gender-rol xulq-atvori va munosabatlarini belgilaydi. Jamiyatning o'zi "turmushga chiqqan ayol" maqomini saqlab qolishi mumkin, chunki jamoatchilik fikrida turmush qurgan ayolning obro'si eridan ajrashgan ayolnikidan yuqori. Ushbu me'yorlar bilan bog'liq holda, ayol ko'proq "bo'lmaslikka, balki ko'rinishga" majburlanadi. Tadqiqotlar asosida ayollarni oilaviy zo'ravonlik holatlarida ushlab turadigan bir nechta munosabatlarni aniqlashga muvaffaq bo'lingan:

- ajralish mag'lubiyat alomati degan fikrga egalik;
- "bolalar uchun" oilani saqlab qolish zarurligiga ishonish;
- oiladagi vaziyatni "yaxshi tomonga" o'zgartirish imkoniyatiga ishonish;
- zo'rlovchiga achinish, usiz "butunlay yo'q bo'lib ketishi"ga ishonish va h.k.

Ikkinchi omil – iqtisodiy. Bu oila a'zolaridan birining mustaqilligini cheklaydi. Mehnat bozorida gender diskriminatsiyasi tufayli ayolning maoshi odatda erkaknikidan past bo'ladi, u uchun ish o'rirlari soni to'liq yoki qisman cheklanadi, bolalarning borligi bandlik va mehnat muammolarini yanada kuchaytiradi.

Uchinchi omil – bu uy-joy. Oilaviy zo'ravonlik holatlarida huquqbuzarni uydan chiqarib yuborishda qonuniy qiyinchiliklar mavjud va uy-joyning juda yuqori narxi tufayli oiladagi zo'ravonlikdan aziyat chekayotgan ayollar uchun yangi uy sotib olish deyarli imkonsiz holatga aylangan.

To'rtinchi omil – psixologik. Ayollar, uzoq vaqt oiladagi zo'ravonlik holatida bo'lganlar (ayniqsa, agar ular ota-ona oilasida ham o'zlariga nisbatan zo'ravonlikni boshdan kechirgan bo'lsa, bolaligida, zo'ravonlik shaxs shakllanishining omillaridan biri bo'lganida) bir qator o'ziga xos belgilar va shaxsiy xususiyatlarni oladi. Ular ko'pincha zo'ravonlik ishlatgan shaxslarga hissiy jihatdan bog'liq. Ular ko'pincha Stefan Karpmaning dramatik uchburchagi yoki "kuch uchburchagi" ga asoslangan agressorning o'zi bilan stereotipik tarzda takrorlanadigan "o'yin" da ishtirok etadilar [8].

Shu munosabat bilan psixolog-konsultantlar ushbu yuqorida keltirilgan omillarni inobatga olgan holda zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan psixologik xizmat ishlarini olib borishlari tavsiya etiladi. Bir tomondan, qoidalarga rioya qilish konsultant ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, boshqa tomondan, bu unga asosiy narsaga erishishga imkon beradi – ikki tomonlama aloqa va ishonchni o'rnatish, qulay maxfiylik va tinchlik

muhitini yaratish kabilarga erishish imkonini beradi. Mijoz uchun o‘z xavfsizligi va zo‘rlovchining yo‘qligidan xabardor bo‘lishi juda muhimdir. Bu unga fikrlarini to‘plashga va hozirgi holatiga e‘tibor berishga yordam beradi. Konsultantning vazifasi mijozning so‘roviga e‘tibor qaratish, hech qanday izohsiz faktlarni aniqlashdir. Psixologik konsultatsiya o‘tkazishda asosiy texnika tinglash bo‘lib, fikr-mulohazalarni “minimal mukofot” texnikasi orqali ifodalash mumkin. Mijozning intensiv fikrlash jarayoniga hissa qo‘shadigan pauzalarga ega bo‘lish konsultatsiya jarayonida katta ahamiyatga ega [6].

Bir qator psixologlar konsultatsiya paytida mijozning fikrlashi, ya‘ni ichki holatini tinglashni, his-tuyg‘ularini va fikrlarini kuzatishni, ularni qabul qilishni va boshqarishni o‘rganishni tavsiya qiladi. O‘z his-tuyg‘ulari va emotsiyalarini tiya olish qobiliyati konsultantga zo‘ravonlik qurboni o‘zi tushgan vaziyatni xotirjam va muvozanatli baholash, unga ma‘lumot yordamini taklif qilish va o‘zi qaror qabul qilishga yordam beradi, shu bilan ishonch va kuchga ega bo‘ladi. Ushbu maslahat usullari “inqirozga aralashish” deb ataladi [7].

Inqirozga aralashuvning asosiy maqsadi ayolga zo‘ravonlik jarohati bilan samarali kurashishga yordam berishdir. Buning uchun maslahat jarayonida psixoterapevt yordamida hal qilinishi mumkin bo‘lgan uchta vazifa qo‘yiladi:

- 1) sodir bo‘lgan voqeani adekvat va aniq tushunish;
- 2) his-tuyg‘ularini va reaksiyalarni boshqarish, affektni yengish;
- 3) jarohat oqibatlarini bartaraf etish uchun xulq-atvor modellarini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Берковис Л. Агрессия: причины, последствия и контроль / Л. Берковис. – Москва: ОЛМА-ПРЕСС, 1999.
2. Берон Р. Агрессия / Р. Берон, Д. Ричардсон. – Санкт-Петербург: Питер, 1998.
3. Василева А. Корни насилия / А. Василева // Женщина плюс. 2000. – № 1. С. 98–113.
4. Гуггенбюль А. Зловещее очарование насилия / А. Гуггенбюль. – Москва: Когито-Сентр, 2006.
5. Женщина в переходный период // Проект МОНЕЕ (Сентралная и Восточная Европа, СНГ, страны Балтики). Региональный мониторинговый доклад № 6 / под ред. Гашпрал Файтома, 2007.
6. Предотвращение домашнего насилия и торговли людьми: учебник для проведения тренингов. – Киев: Winrock International, 2001.
7. Профилактика насилия в семье и обществе: сб. метод. материалов сети кризисных центров Сибири и Дальнего Востока. – Иркутск: Иркутский кризисный центр для женщин, 2003.
8. Соловейчик М.Я. Спасательство / М.Я. Соловейчик // Мастерство психологического консультирования: сб. ст. / под ред. А.А. Бадхен, А.М. Родиной. – Санкт-Петербург: Европейский дом, 2002.

* * *

Odilova Gulchiroy Xusniddin qizi,
Andijon davlat chet tillari institutining 418-guruh talabasi
e-mail: gulchiroyodilova99@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTONDA OILADAGI ZO'RAVONLIKKA QARSHI: HOLAT, MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya. Maqolada yangi O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar hamda gender tenglik sohasini takomillashtirish jahon tajribasining chuqur tahlili asosida o'rganilib, uni mahalliy sharoitlarimizga moslashtirgan holda samarali tatbiq etishning ahamiyati, shuningdek amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: qonunlar, huquqlar kafolati, yordam tizimi.

Аннотация. В статье на основе глубокого анализа мирового опыта исследуется борьба с насилием в семье в новом Узбекистане: ситуация, проблемы и пути решения, а также совершенствование сферы гендерного равенства, важность его эффективной реализации, освещается его адаптация к нашим местным условиям, а также проводимая работа.

Ключевые слова: законы, гарантия прав, система поддержки.

Annotation. In the article, the fight against domestic violence in the new Uzbekistan: situation, problems and solutions, as well as improving the field of gender equality, is studied based on an in-depth analysis of world experience, the importance of its effective implementation, adapting it to our local conditions, as well as the ongoing work is highlighted.

Key words: laws, guarantee of rights, support system.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari alohida toifaga kiritiladi. Chunki bunday holatlarning oldini olish ham, ularning oqibatlarini bartaraf etish ham o'ziga xos farqli jihatlarga ega. Ekspertlarning fikricha, uy sharoitidagi zo'ravonlik va xarassment (tegajog'lik) – bu noxush vaziyatlarning shunday bir turiki, ularga ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq duch keladilar. Boisi oddiy – ular aynan ayol bo'lganliklari uchun ko'p hollarda zo'ravonlik qurbonlariga aylanadilar...

Mamlakatimiz bo'ylab 25-noyabr kuni start olgan "Zo'ravonlikka qarshi birgalikda kurashamiz!" shiori ostidagi "Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" kompaniyasi ham aynan mana shu, global miqyosda murakkab muammo deb tan olingan mavzuga bag'ishlandi.

Aslida, ushbu keng ko'lamli tadbir yurtimizda keyingi besh yilda gender tenglikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan izchil va samarali ishlarning ifodasi bo'lmoqda. Vaholanki, bu marraga yetib kelgunimizcha, O'zbekistonda bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan juda katta ishlar amalga oshirildi.

Gender tenglik demokratik qadriyatlarning bir qismi sifatida: qonunchilik asosini takomillashtirish davom etmoqda.

Har qanday rivojlanayotgan mamlakat, yetakchilar qatoriga qo‘shilishni maqsad qilib olgan ekan, xalqaro demokratik hamjamiyat tomonidan o‘rnatilgan ma‘lum standartlarga rioya qilishi, o‘z qonunchiligi va taraqqiyot dasturlarini ham ularga moslashi zarur bo‘ladi. Shu ma’noda Yangi O‘zbekiston qurilishining ilk kunlaridayoq, ya’ni besh yil avval, gender tenglikka erishish haqiqiy demokratik qadriyatlarning ajralmas qismi sifatida eng ustuvor maqsadlarimiz qatoriga qo‘yildi va bu jihat mamlakatimizning yangi taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan barcha dasturiy hujjatlarga ham kiritildi. Agar avvallari bu yo‘nalish “milliy mentalitet” kabi bahonalar bilan to‘sib qo‘yilgan bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda bunday sun’iy vaj-korsonlardan butunlay voz kechildi. Zero, hatto eng konservativ jamiyatlar ham gender tenglikning zaruratini tan olayotgan bugungi kunda bu omil taraqqiyotimiz, shu jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishimizning zaruriy shartiga aylandi. Bunda xotin-qizlarga nisbatan kuch ishlatish, ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlikni bartaraf etish eng muhim vazifalar qatoriga qo‘yildi. Zero, xalqaro huquq ham davlatlarga bu borada aniq majburiyatlar yuklaydi.

Jumladan, joriy yilning o‘zida mamlakatimizda oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 8 ta normativ huquqiy hujjat (2 ta qonun, 1 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori va 5 ta Hukumat qarori) qabul qilindi. Xususan, “Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni davlat rahbarining 2021-yil 19-maydagi tegishli qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqildi. Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonunlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Mohiyatan ushbu qonun 2019-yilda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilish bilan asos solingan me‘yoriy huquqiy bazani tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu qonun xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga jalb etilgan tuzilma va idoralarning vazifalarini aniqlashtirib, ularning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatini takomillashtirishga zamin hozirladi. Unda nazarda tutilgan eng muhim o‘zgarishlardan biri – bu fuqarolar yig‘inlarining vakolatlari kengaytirilishi bo‘ldi. Jumladan, unga ko‘ra, fuqarolar yig‘inining tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni belgilashi, shuningdek mazkur faktlar to‘g‘risida tegishli ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari hamda ichki ishlar organlarini zudlik bilan xabardor qilishi nazarda tutilgan. Bu juda muhim, chunki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ko‘proq oilada qayd etiladi, oila esa mahallaning bir qismi. Hattoki taraqqiyot har soniyada ilgarilab borayotgan 21-asrda ham o‘zbek jamiyatida mahallaning roli oshsa oshdiki, lekin o‘z ta’sir kuchini yo‘qotgani yo‘q. Qolaversa, zo‘ravonlikka qo‘l urgan shaxs va bunday holatlar qayd etilgan oila, hattoki ularning ajdodlari haqida aynan mahalla fuqarolar yig‘inlarida ishonchli ma’lumotlar bo‘ladi. Kezi kelganda hattoki huquq-tartibot organlarining choralaridan ko‘ra mahalla ahlining

munosabati zo'ravon xulqini o'zgartiruvchi asosiy omil bo'lishi mumkin. Shu jihatdan tegishli normalarning yangi qonunga kiritilishi ayollarga nisbatan oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish borasidagi sa'y-harakatlarning ta'sirchanligini oshiradi.

Sohadagi yangi tuzilmalar – tegishli qonunchilikka rioya qilish va belgilangan vazifalarni amalga oshirishning ishonchli vositasi gender tenglikni ta'minlashga nisbatan hozirda mamlakatimizda qo'llanilayotgan yangi yondashuvning o'ziga xos jihati institutsionalizatsiya jarayonining jadallashuvi bilan bog'liq. Bu bejiz emas, chunki bu o'rinda gender sohasida aniq vazifalar yuklatilgan yangi tuzilmalarni shakllantirish barqaror faoliyat yurituvchi va o'z oldiga qo'yilgan muhim maqsadlarni og'ishmay, izchil amalga oshiruvchi institutlarning butun bir yaxlit tizimga birlashishiga olib keladi. Shu jihatdan mamlakatimizda so'nggi besh yilda O'zbekiston Respublikasi Gender komissiyasi, parlament yuqori palatasi huzurida tegishli qo'mitaning tashkil etilishi, qolaversa, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tuzilishi sohada olib borilayotgan ishlarining samaradorligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda aynan shu tuzilmalarning natijaga yo'naltirilgan faoliyati tufayli qonunchilikni takomillashtirishdan tortib, barcha sohalarda ayollarni qo'llab-quvvatlash, va eng asosiysi – zo'ravonlikdan himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tomonidan joriy yilning aprel oyida oilada zo'ravonlikning oldini olish va oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga amaliy ko'mak ko'rsatish yuzasidan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Uning ijrosini ta'minlash maqsadida Bosh prokuror o'rinbosari rahbarligida vakolatli davlat idoralari rahbarlari darajasidagi Ishchi guruh faoliyati yo'lga qo'yildi. Kengash bilan hamkorlikda Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan "Taziyq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga tibbiy ruhiy yordam ko'rsatish bo'yicha" o'quv qo'llanma yaratildi, Adliya vazirligi tomonidan xotin-qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo'yicha maxsus onlayn kurslar ishlab chiqildi va "kurslar.huquqiportal.uz" elektron platformasiga joylashtirildi. Bu – aynan hozirda qilinayotgan ishlarining ro'yxati va uni hali uzoq davom ettirishimiz mumkin. Muhimi – ularning har biri kundalik hayotimizda xotin-qizlar maqomining o'zgarayotgani, o'ziga bo'lgan ishonchi ortayotgani bilan ahamiyatli.

Himoya orderi oiladagi zo'ravonlikning oldini olish vositasi sifatida;

Shu o'rinda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan amaliy mexanizm haqida to'xtalsak. Mamlakatimizda himoya orderi joriy qilinganida bizda bundan hech kim foydalanmasa kerak deb o'ylaganlar ko'pchilikni tashkil qilgandi. Chunki o'zbek ayollari o'z muammolarini uydan nariga chiqarishni istamasliklari hammaga ma'lum. Bundan tashqari, ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi ta'sirli mexanizmlar ham yo'q edi.

Raqamlarga e'tibor qaratsak, 2020-yilda 14 ming 774 nafar ayolga himoya orderi berilgan bo'lsa, 2021-yilning 10 oyida esa 32 ming 154 nafar ayol bunday orderdan foydalandi va o'z huquqlarini himoya qildi.

Himoya orderidan foydalangan ayollar sonining oshishi muammolar ko'payganligini anglatmaydi. Aksincha, bu jamiyatimizda ayollar orasida huquqiy madaniyatning oshib

borayotgani va joylarda profilaktika inspektorlari samarali faoliyat yuritayotganidan darak beradi. Galdagi vazifa – bu mexanizmning yanada samarali ishlashini ta‘minlash.

Xalqaro miqyosdagi hamkorlik;

Shunisi e‘tiborliki, mamlakatimiz BMTning shartnoma organlari, BMT Xotin-qizlar tuzilmasi, BMT Taraqqiyot dasturi va BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi bilan gender mavzusidagi bir qator masalalar, shu jumladan, gender zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Joriy yilning iyun-iyul oylarida O‘zbekiston “Tenglik avlodi” global Parij forumida faol ishtirok etdi. Unda biz qabul qilgan majburiyatlardan biri – gender zo‘ravonlikka barham berishga qaratilgan, majburiyatlarning yana 2 tasi – reproduktiv salomatlik va xotin-qizlarning iqtisodiy huquqlarini kengaytirishdan iborat.

“Tenglik avlodi” global forumi doirasida o‘tkazilgan “Dunyo yog‘dusi” grantlar tanlovida O‘zbekistondan 4 ta NNT (“Nihol”, “Qalb nuri” (Jizzax), “Istiqbolli avlod” (Xorazm), “Fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash markazi” (Farg‘ona)) grant sohibi bo‘ldi. Hozirgi kunda mazkur NNTlar xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha manzilli ishlar olib bormoqda.

Xorijda qanday?

Albatta, har qanday sohani takomillashtirishda xorijiy tajribani o‘rganish va uni mahalliy sharoitlarimizga moslashtirgan holda samarali tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tenglik ham bundan mustasno emas.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha xotin-qizlar umumiy sonidan 35 foizi, ya‘ni har uchinchi zo‘ravonlikka duch kelmoqda. Bu degani, ushbu muammo jahondagi hech bir mamlakatni chetlab o‘tmagan, u xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan yoki uchinchi dunyo davlati bo‘lsa ham. Shunga yarasha, bu muammoni bartaraf etish yo‘nalishida ko‘pgina mamlakatlar o‘ziga xos tajriba to‘plaganlar. Bunda asosiy tamoyil – davlat va nodavlat tuzilmalarining jamoatchilik bilan doimiy aloqada bo‘lishidan iborat. Chunki zo‘ravonlik, har qanday jinoyat kabi, ogohlik va shaffoflikdan “qo‘rqadi”, zo‘ravonning xatti-harakatlari jamiyat tomonidan qoralanishi esa uni to‘xtatishning eng samarali yo‘li. Shu jihatdan O‘zbekiston ham turli mutasaddi tuzilmalar va jamoat tashkilotlar hamda keng jamoatchilikning bu yo‘nalishdagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi xorijiy tajribasidan foydalanmoqda. Bu ayniqsa, tegishli yo‘nalishda qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning ustida ishlashda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘nalishida ham yangi tajribalar qo‘llanilmoqda. Bu ham juda muhim, chunki xuddi o‘sha himoya orderi yoki boshqa imkoniyatlardan foydalanish uchun ham zo‘ravonlikka duch kelayotgan xotin-qizlar ular haqida bilishlari lozim. Shundagina ular o‘z huquqlarini ro‘yobga chiqara oladilar.

Ayollarni rehabilitatsiya qilish markazlari – ilg‘or xorijiy tajribaning mamlakatimiz amaliyotiga integratsiya qilinishiga misol 2018-yildan boshlab bizning hayotimizga “shelter” tushunchasi kirib keldi. Bu atama avval boshida Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga nisbatan

qo'llaniladi. Hozirda ular Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlari deb yuritilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori zo'ravonlikka uchragan ayollarga yordam tizimini yaratish, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish va uning mudhish oqibatlariga barham berishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Uning asosida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida 29 ta shunday markaz tashkil etildi. Shu paytgacha reabilitatsiya markazlari NNT tarzida faoliyat yuritib kelgan bo'lsa, endilikda ularning faoliyati to'liq davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Bu esa, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan, o'z joniga suiqaqd qilgan yoki qasd qilishga moyil bo'lgan shaxslar bilan ishlash sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqiladi, degan so'z.

Shu o'rinda statistikaga murojaat qilaylik. 2021-yilning 10 oyida "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaz"lariga 7226 nafar fuqarolar murojaat qilgan. Murojaat etgan shaxslarning 6515 nafari ayollar, 272 nafari ularning farzandlaridir. Murojaat qilganlarga markazlar tomonidan 2784 nafariga huquqiy, 3323 nafariga psixologik, 75 nafariga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, 165 nafariga tibbiyot muassasaga yuborish, 861 nafariga boshqa masalalarda ko'maklashildi va amaliy yordam ko'rsatildi, 172 nafariga himoya orderini olib berishda amaliy yordam ko'rsatildi. Demak, hozirda har bir viloyatda faoliyati yo'lga qo'yilgan bunday markazlar zo'ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarga shoshilinch amaliy yordam ko'rsatish, demakki, ruhiy va jismoniy salomatligini, ayrim hollarda hatto hayotini saqlab qolishga xizmat qilmoqda. Aslini olganda bir qarashda olamshumul ko'rinmagan bu holat gender tenglikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan ishlarimizning katta natijasi. Chunki aynan shu markazlarning samarali faoliyati endilikda ko'plab jabrdiydalarga shunchaki yordam ko'rsatish emas, balki ularning hayotini tubdan yaxshi tomonga o'zgartirishni ta'minlaydi. Chunki ularda ayollar nafaqat ko'mak oladi, balki yangi bilimlar, hattoki kasblarni o'zlashtirish yoki o'z biznesini boshlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu jihatdan ushbu tizimni rivojlantirish va takomillashtirish zo'ravonlikka qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar: jamoatchilik e'tiborini jalb qilishning samarali shakli, 25-noyabrdan boshlab keyingi 16 kun davomida biz turli tadbirlar o'tkazish orqali jamoatchilik e'tiborini gender zo'ravonlik muammosiga qaratib kelmoqdamiz. Keng ko'lamli jarayon doirasida mamlakatimizning turli hududlarida anjumanlar, taqdimotlar, seminar treninglar, targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Shuningdek, turli videoroliklar, ma'rifiy materiallar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslar, OAV orqali tarqatilmoqda. Albatta, 16 kunlikning o'tkazilishi keng jamoatchilik orasida katta rezonansga sabab bo'lmoqda. Eng asosiysi, mana shu vaqt davomida ko'plab xotin-qizlar o'z huquqlarini tanib, ular himoyasiga butun bir davlat va jamiyat otlanganini tushunadilar. Zo'ravonlikka qo'l urishi mumkin bo'lgan shaxslar esa har qanday nojo'ya harakat jazosiz qolmasligini anglab yetadilar. Eng asosiysi, zo'ravonlikka duch kelingan har qanday vaziyatda ham yechim topilishiga ishonch

kuchayadi. Shunga qaramay, yilning qolgan qismida, har kuni va hammamiz bu illatga qarshi kurashishimiz mumkin. Bu ishga har birimiz munosib hissa qo‘sha olishimizni doimo esda tutaylik.

Aslida biz sanab o‘tgan va maqola hajmi ixchamligini ta‘minlashga intilganimiz bois, “kadr ortida” qolgan ko‘plab ishlarimiz – bu kundalik jarayon, har kuni, har soatda amalga oshirilayotgan aniq va zarur choralardir. Ularning ro‘yobi nafaqat bugungi kunda opa-singillarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali taraqqiyotimizni kuchaytirishga, balki kelgusida bir necha avlod, balki o‘nlab avlodlarning chindan-da farovon va nurli hayotiga zaminni mustahkamlamoqda.

Foydalanilgan adabyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. <https://www.xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-oilaviy-zo‘ravonlikka-qarshi>.
2. <https://ijtimoiy.uz/1804/>.

UCHINCHI SHO'BA:

BOLALARGA NISBATAN ISHLATILGAN ZO'RAVONLIK HOLATLARIGA QARSHI MUROSASIZ KURASHISH

Norqulov Husniddin Do‘sbekovich,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

OILADA O‘SMIRLARGA NISBATAN ZO‘ROVONLIKNING OLDINI OLISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada o‘smirlarning psixo-pedagogik hayot taraqqiyotida hal etish zarur bo‘lgan muammolar, o‘smirlik davriga xos xususiyatlar, pedagogik vaziyatlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda tarbiyaviy ishga oid vazifalar keltirilgan. Shuningdek, ota-onalar o‘smirlar tarbiyasida asosiy hal etuvchi kuch ekanligi, o‘smirlarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik va uning salbiy oqibatlari ham namoyon bo‘lishi mumkinligi, tarbiyasi qiyin o‘smirlar dunyoqarashi va ular bilan individual munosabatda bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, oilaviy zo‘rovonlik, o‘smirlar zo‘rovonligi, oila tarbiyasi, ota-onalar tarbiyasi, nizoli holatlar, tarbiyaviy hamkorlik, individual yondashuv.

Аннотация. В статье представлены проблемы, которые необходимо решить в психолого-педагогическом жизнеобразовании подростков, особенности подросткового возраста, педагогические ситуации и механизмы их устранения, задачи, связанные с воспитательной работой. Также может проявляться тот факт, что родители являются главной решающей силой в воспитании подростков, насилие в семье в отношении подростков и его негативные последствия, выделены мировоззрение трудновоспитуемых подростков и специфические особенности индивидуальных отношений с ними.

Ключевые слова: подростковый возраст, семейное насилие, подростковое насилие, семейное воспитание, воспитание детей, конфликтные ситуации, воспитательное сотрудничество, индивидуальный подход.

Annotation. The article presents the problems that need to be solved in the psycho-pedagogical life development of adolescents, characteristics of adolescence, pedagogical situations and mechanisms for their elimination, and tasks related to educational work. Also, the fact that parents are the main decisive force in the upbringing of teenagers, family violence against teenagers and its negative consequences can also be manifested, the worldview of teenagers who are difficult to educate and the specific features of individual relations with them are highlighted.

Keywords: adolescence, family violence, adolescent violence, family education, parenting, conflict situations, educational cooperation, individual approach.

Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri – bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Bu borada ota-onalarning bolalarga nisbatan bo‘lgan munosabati ikki asosiy xususiyat, ya’ni ota-onalik muhabbati va ijtimoiy burch nuqtayi nazaridan belgilanadi. Insonparvar jamiyatda bu xususiyatlar bir-biriga zid kelmaydi.

Oilada sog‘lom muhitni yuksaltirish, ajdodlarimizning oila masalasidagi qadriyatlarini targ‘ib qilish maqsadida yurtimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ularning

ma'naviy olamiga e'tibor qaratilib, kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi kabilar yuzasidan jamiyat hayotida o'smir yoshlarga oid ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Professor O.Musurmonova ta'kidlaganidek: "Oilaning asosi er-xotin yoxud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas'ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas'uldirlar" [1].

Zero, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlod farzandlarini dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Demak, oila ota-onalarning farzand tarbiyasi bilan shug'ullanadigan maskani ekan, o'z navbatida tarbiyaning qiyin jihatlari, ya'ni oilaviy zo'ravonlik va uning salbiy oqibatlari ham namoyon bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik hodisasi atrofimizda, turli odamlar hayotida uchrab turadigan ijtimoiy illatlardan biridir. Binobarin, zo'ravonlik yosh, jins, millat, davlat, mansab, mavqe va martaba tanlamaydi.

Zo'ravonlikni qo'llagan odam har vaqt o'zidan ojizroq, ruhiy-emotsional holati barqaror bo'lmagan, ruhiy ezilgan, jussasi kichikroq, jismoniy baquvvat bo'lmagan, zo'ravonga adekvat munosabat ko'rsata olmaydigan, ya'ni zo'ravondan o'zini himoya qilishga jur'ati bo'lmagan, javob qaytarishga mavqeyi yo'l qo'ymaydigan va imkoni bo'lmagan, har jihatdan zo'ravonga tobe' bo'lgan odamni qidiradi va unga nisbatan zo'ravonlik ishlatadi. Zo'ravonlik aslida jismoniy kuchli bo'lgan odamning jismoniy kuchsiz odamga nisbatan aynan kuch qo'llashidir.

"Sog'lom oila – sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan siyosatning olib borilayotgani oilaviy zo'ravonliklarning kamayishiga, joylarda "Jinoyatdan holi mahalla", "Jinoyatdan holi oila"larning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [2] ijrosi doirasida joylarda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Zo'ravonlik verbal (so'zlar orqali) yoki noverbal (harakatlar orqali) tarzda qo'llanilishi mumkin. Verbal zo'ravonlik so'zlarni o'ziga qurol qilib oladi. So'zlar orqali o'zga odamga hujum qilinadi. Hujumdan maqsad esa o'zga odamdan o'ch olish, uning nafsoniyatiga tegish, uni yerga urish, uni yo'q qilish, unga ruhiy zarar va zarba yetkazish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini sindirish, uni o'ziga ruhiy-psixologik jihatdan qul qilib olish va ojizligiga iqror qildirish kabilardan iborat bo'ladi.

Bu borada tadqiqotchi olimlarimiz ham: "O'smirlik davri tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanishi jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir" [3] – degan fikrlarni ilgari surishadi.

Zo‘ravonlik nafaqat aniq bir shaxs hayotiga, uning joni, sog‘lig‘i, psixologik holatiga keskin salbiy ta‘sir o‘tkazadi, tiklab bo‘lmas iz, yara qoldiradi, balki zo‘ravonlikning juda katta ijtimoiy va iqtisodiy zarari ham mavjud. Ba‘zi mamlakatlar gerder zo‘ravonlik oqibatida o‘z yalpi ichki mahsulotining 3,7 % dan mahrum bo‘ladi. Bu esa mana shu mamlakatlardagi ta‘lim tizimi rivoji uchun ajratiladigan budget mablag‘laridan ikki baravar ortiqrog‘ini tashkil qiladi.

Zo‘ravonlik illati haqida uzoq davr mobaynida yurtimizda hech nima deyilmagan va bugun bu to‘g‘risida ochiq gapirilmoqda. Kundalik turmushimizda markaziy shaharlarda ham, chekka qishloqlarda ham bu turdagi muammo bilan to‘qnash kelayotgan o‘smirlarimiz mavjud. Oilada o‘smirlar zo‘ravonligini hech qanday holatda oqlab bo‘lmaydi, chunki u insonning asosiy huquqlarini cheklashga harakat qiladi. Zo‘ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo‘rlash, iqtisodiy cheklovlar qo‘yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo‘ravonlik sifatida baholanadi.

Bu borada olimlarimiz “Oilaviy sharoit, muhitning salbiy ta‘siri, ya‘ni oiladagi janjallar, er-xotin orasidagi nizoli holatlar, ichkilikbozlik, oilaviy turmushga, bola tarbiyasiga e‘tiborsizlik yoki bolani haddan tashkari erkalatib yuborish, aytganini qilish, injiqliklarini “ko‘tarish”, bolaning xatti-harakatlarini nazorat qilmaslik, keragidan ortik pul bilan ta‘minlash ham bolani injiq, qaysar, o‘jar, intizomsiz, axloqsiz bo‘lib qolishi uchun imkon beradi. O‘smir yoshda ularga ota-ona ham, o‘qituvchi ham, xatto mahalla, qo‘ni-qo‘shnilar ham juda e‘tiborli bo‘lishlari kerak” [4] – deb keltirishgan.

Zo‘ravonlikni o‘tkazayotgan oiladagi shaxsning asl maqsadi o‘z ta‘siri ostidagi o‘smirlarni to‘la ravishda nazorat qilish, uning erkini o‘z qo‘liga olish, o‘z ustunligini unga ko‘rsatish va jabr qilish uchun, zo‘ravonlikni o‘tkazish uchun o‘ziga erk berishdan iboratdir. Shu bir marta zo‘ravonlik qilgan shaxs mazkur aktdan huzur qila boshlaydi, o‘z agressiyasidan, o‘zini qiynagan emotsional holatlardan zo‘ravonlikni o‘tkazish orqali ozod bo‘la boshlaydi, shunga ko‘ra zo‘ravonlik holatlari ba‘zan alohida shafqatsizlik bilan amalga oshiriladi.

Ba‘zi xalqlarda esa zo‘ravonlik oilaviy munosabatlarning odatiy usuli sifatida baholanadi. Chor atrofdada hamma oilalarda tez-tez uchrab turgani sabab, ko‘pchilik zo‘ravonlik holatlariga e‘tiborsiz bo‘lib qoladi. Zo‘ravonlikning **ruhiy, jismoniy, jinsiy va iqtisodiy** turlarini alohida e‘tirof etish kerak.

Oilada sodir etiladigan zo‘ravonlik ish joyidagi yoki ta‘lim muassasidagi zo‘ravonlikdan o‘z mohiyati, kuchi va darajasi bilan ajralib turadi. Oilada zo‘ravon shaxs jabrlanuvchini to‘liq nazorat qila oladi, jabrlanuvchining zo‘ravondan qochishi, xavfsiz joyga ketishining imkoniyati bo‘lmay qoladi. Zo‘ravon shaxs ustunlikka ega bo‘ladi. Chunki u o‘z qilmishi uchun mos vaqtni poylaydi va jabrlanuvchi yakka qolgan, ular munosabatlariga hech kim aralasha olmaydigan paytga hujum qiladi.

Aslida deyarli barcha oila a‘zolari zo‘ravonlikdan jabr chekadilar, masalan agar zo‘ravonlik ota tarafidan onaga qaratilgan bo‘lsa, bolalar, albatta, aziyat chekadilar, yig‘laydilar, eziladilar, ko‘mak bergisi keladi, ammo bu ishni qila olmaydi, chunki

otasi ulardan ko'ra jismoniy baquvvatroq bo'ladi. Zo'ravon shaxs va jabrlanuvchi o'rtasida emotsional bog'liqlik mavjud bo'ladi. Jabrlanuvchi zo'ravonga nisbatan kuchli emotsional qaramlikni his etadi. Ko'pchilik vaziyatlarda zo'ravon shaxs insonga yaqin kishi bo'lganligi bois jabrlanuvchi zo'ravonning oldini oladi, uning xatti-harakatlarini oqlashga sa'y-harakat qiladi.

Ko'pchilik o'zbek oilalari ichida bo'layotgan voqea-hodisalar sir tutiladi, hattoki eng yaqin kishilar ham ichkarida nima bo'layotganligidan bexabar bo'ladilar yoki aralashishini istamaydilar. Jabrlanuvchi o'smirlarning o'zlari ham oiladagi vaziyat haqida saqlashni ma'qul ko'radilar.

O'zbeklar mentaliteti va milliy tafakkurida o'smirlar, xususan qizlar erkaklarning ustuvorligi va qudrati kabi qadriyatlar asosida tarbiya qilinadi va o'sib ulg'ayadi. Onaga o'z umr yo'ldoshini hurmat qilish uqtiriladi. Ayol kishiga kichkinaligidan erkak kishini erkak bo'lgani uchun hurmat qilish lozimligi uqtiriladi. Aslida erkak kishi bunga loyiqmi degan savol ham tug'iladi. To'g'ri erkak kishini adolatli, mehr va muhabbatli bo'lganligini uchun hurmat qilish lozim.

Ona o'z o'g'li va qiziga nisbatan ham jinsiy nuqtayi nazardan farqli munosabatda bo'ladi. Bilamizki, onasining zo'ravonlikka yuz tutganini ko'rib ulg'aygan qizlar o'zlari ham keyinchalik shunday zo'ravonliklarga yuz tutadilar. Otalari onalariga nisbatan bo'lgan zo'ravonliklarini ko'rib ulg'aygan bolalar ham o'z ayollariga nisbatan zo'ravon bo'lib ulg'ayishlari xavfi katta bo'ladi. O'smir o'g'il va qiz o'z ota-onasiga ikkinchi darajali odamdek munosabat qilganiga qarab jamiyatdagi rolini topadi. Ushbu global muammoni butun dunyoda ko'rishimiz mumkin.

Agar zo'ravonlik o'tkazgan ota-ona o'z qilmishlari noto'g'ri ekanini tan olmasa va mas'uliyatni o'z bo'yniga olmasa, bundan o'smirlarning salbiy xarakterlari rivojlanib boradi.

Zo'ravonlikdan jabrlangan o'smirlar xulq-atvori va ruhiy holatining tahlili natijasida ular quyidagi xususiyatlarga ega ekanligi oydinlashadi:

- jabrlanuvchi o'smirlarga odamovilik, yakkalik, kamgaplik, emotsional yopiqlik, o'y xayolga berilish, ba'zan esa qo'rslik, savollarga javob bermaslik, "mening ishlarimga aralashmanglar" deyish, oila a'zolari va yaqinlarini ko'rishni istamaslik, ulardan o'zini olib qochish, yig'loqilik, emotsional bo'shlik, depressiya kabilar xosdir;

- jabrlanuvchi o'smirlarga o'ziga past baho berish, sha'ni, qadr-qimmatini kamsitilganligi yuzasidan chuqur iztirobga berilish, uning sabablarini o'zidan qidirishga urinish, "men o'zim aybdorman" deb o'z-o'zini ichini yeyish, g'am-g'ussaga berilish holatlari xosdir;

- zo'ravonlikni boshidan o'tkazgan o'smirlarga qo'rqish, "yana boshimda kaltak sinadi" deyish, zo'ravondan hayiqish, doimiy xavotir, o'z-o'zini chuqur nazorat qilish, asablarning taranglashuvi, o'zini bo'sh tuta olmaslik, jismoniy va ruhiy ojizlik xosdir;

- jabrlanuvchi o'smirlarga o'zining tashqi ko'rinishi muhim bo'lmaslik, unga e'tiborsiz bo'lib borish, makiyaj, soch turmaklash, kiyinish kabildan mustaqil voz kechish, o'zini chiroyli olib yurish kerak emas degan fikrning ustuvorligi, tabiiy ehtiyojlarga beparvolik kabi holatlari ham xosdir;

– jabrlanuvchi o‘smirlarda yemakdan voz kechish, ishtahasizlik, hamma ovqatdan voz kechish, natijada juda ozib ketish, yoki unga qarshi tarzda, emotsional ozuqani suiste‘mol qilish, bulemiya holatining vujudga kelishi, ya‘ni hamma narsani istisnosiz og‘izga olib yutish, ovqatdan “o‘ch” olish, kattiq semirib ketish, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish, zaharlanishni istash, tinchlantiruvchi psixotrop dorilarni ko‘p iste‘mol qilish;

– barcha bilan ochiq muloqotni istamaslik, xuddi gaplashadigan bo‘lsa, o‘zini sirlarini aytib qo‘yadigandek tutish, odamlarning ko‘ziga qaramaslik, o‘zini “iflos” bir narsa sifatida his etish, tez-tez yuvinishga harakat qilish, ho‘ngrab sababsiz yig‘lash, bil‘aks yaqinlariga, o‘zi sevgan va ardoqlagan odamlarga juda katta e‘tiborlilik va mehr, yoki aksincha, ularga ham keskin gapirish, o‘z aka-ukalariga nisbatan loqayd yoki tajovuzkor munosabatda bo‘lish, ba‘zan ulardan o‘ch olish va ularga ham zo‘ravonlik ko‘rsatish, ularni ayamaslik, emotsional holatning turg‘un emasligi, bir yig‘lash, bir kulish, odamlarga ishonchsizlik bilan qarash kabilarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek mentalitetida o‘smir qizlarimiz erkaklar va jamoat bilan muloqot qilish malaka va ko‘nikmalariga aksar hollarda ega bo‘lmaydi. Katta bo‘lgani sari ko‘pchilik hollarda jamoaviy hayotdan uzoqlashtiriladi. Faqat, ota-onasi, akasi, ukasi hamda yaqin karindoshlari bilan muloqot qilganda ham salom-alikdan nariga o‘tmaydi. Aksariyat onalarning o‘zlari ham o‘smir qizlariga bu boradagi tarbiya masalalarini singdirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega emasliklari achinarlidir.

Oilada o‘smirlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish profilaktikasi samaradorligini oshirishning quyidagi yo‘llarini keltirish mumkin:

– ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan notinch oilalardagi o‘smirlarga nisbatan bo‘layotgan zo‘rovonliklarni o‘z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo‘lgan oilalar bilan profilaktika ishini tashkil etish;

– oilada jabrlanuvchi o‘smirlarning tutgan o‘rnini hamda jabr ko‘rishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– notinch oilalarda yashayotgan shaxslarning zo‘ravonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida tushuntirish ishlarini olib borish;

– zo‘rovonliklardan jabrlangan o‘smirlarning individual va ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda profilaktika tadbirlarini kuchaytirish;

– oilada o‘smirlarga nisbatan zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga doir dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

– oiladagi zo‘rovonliklarni aniqlash, tahlil qilish hamda mavjud kuch va vositalardan foydalangan holda ularni hal etish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– zo‘ravonlik holatlarini sodir etgan ota-onalarni va undan jabrlangan o‘smirlarning profilaktik hisobini yuritish hamda bunday ma‘lumotlarning tahlilini amalga oshirish;

– zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi organlar va muassasalar bilan hamkorlik qilish;

– zo‘ravonlik va unga bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan ota-onalarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanmayotgan va ular bilan shavqatsiz muomalada bo‘layotgan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni ota-onalik

huquqidan mahrum qilish to'g'risida sud va prokuratura organlariga taqdimnomalar kiritish;

- oiladagi zo'ravonlik va uning bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etgan, ulardan jabrlanganlar bilan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'rish.

Oilada o'smirlarga nisbatan zo'rvonliklarni keltirib chiqaruvchi holatlarning oldini olishga qaratilgan taklif va tavsiyalar:

- oilada o'smirlar tarbiyasi va ularning ruhiy holati, shu davrda ular bilan muloqat qilish madaniyatini o'zlashtirishga erishish;

- oila va maktab o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish. Tarbiyachilarda ota-onalar bilan ishlash rejasini o'smirlar psixologiyasiga, uning o'tish davridagi ruhiy holatiga qaratish;

- oilada ota-onalarning barcha farzandlariga bir xil munosabatni shakllantirish, o'smirni kamsitmaslik yoki uni me'yoridan ortiq erkalamaslik hamda oilada kun tartibini to'g'ri yo'lga qo'yish;

- ota-onalar farzandlarni yolg'izlatib qo'ymasliklari, o'smirdagi har bir o'zgarishni ota-ona ilg'ashi va salbiy holatlarning oldini olish chorasini topishi, o'smirning do'st tanlashiga ko'maklashishi;

- o'smirlarni har yili kamida bir marta tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashga erishish, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush madaniyatiga erishish;

- ota-onalar farzandlari o'rtasida sog'lom muloqotni doimiylashtirishga erishish, ular o'rtasida o'zaro hurmat, muloqat madaniyati, milliy qadriyatlarimiz asosida so'zlashishga erishish;

- internetda uzoq vaqt o'tiradigan o'smirlarning xulqini nazoratsiz qoldirmaslik, ota-ona tomonidan farzandning qiziqishlari va uning turli ehtiyojlariga tushunish bilan munosabatda bo'layotganliklarini anglatish;

- oila davrasida ota-onalar o'smirlarning dam olishi, ehtiyojlari va qiziqishlari, yaqin do'stlari va maktab, kollej va litseydagi yutuqlari bilan tanish bo'lishlari.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarning qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish zarur. Shuningdek, o'smirlar guruhlari va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishlari, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini his qilib turishlari, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish muhim hisoblanadi.

Demak, ota-onalar o'smirlarni dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlashlari, ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish hamda Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash kabi masalalar hamisha dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oynisa Musurmonova. Oila ma'naviyati-milliy g'urur. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2000. – 60-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi “Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3827-son qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018 y., 07/18/3827/1445-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/61/0084-son).
3. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o‘quv metodik qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2004. – 43 bet.
4. Karimova V.M. Murosa kilish madaniyati. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2008. –24 bet.

* * *

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna,

*Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

OILADAGI NOTO‘G‘RI TARBIYA SHAKLLARINING BOLANING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Maqolada oiladagi tarbiya shakllarining o‘ziga xos xususiyatlari, oiladagi noto‘g‘ri tarbiya shakllarining bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’siri borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, bola shaxsi, ota-ona, tarbiya shakllari, gipoproteksiya, emotsional raddiya.

Аннотация. В статье размышляется об особенностях форм воспитания в семье, негативном влиянии неправильных форм воспитания в семье на формирование личности ребенка.

Ключевые слова: семья, воспитание, личность ребенка, воспитание, формы воспитания, гипопротекция, эмоциональное отторжение.

Annotation. The article reflects on the peculiarities of the forms of upbringing in the family, the negative impact of improper forms of upbringing in the family on the formation of the child's personality.

Keywords: family, upbringing, child's personality, upbringing, forms of upbringing, hypoprotection, emotional rejection.

Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan jinoyatchilik, givohvandlik va o‘z joniga qasd qilish kabi turli xil jamiyatimiz uchun yot bo‘lgan illatlar oilaviy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, ota-onalar o‘z farzandlarining o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va ta’sir ko‘rsatish usullarini bilmasliklari, ayrim hollarda ularga nisbatan zo‘rovonlik bilan munosabatda bo‘lishlari tufayli sodir etilayotgaganligi oilada ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos tomonlarini psixologik

qonuniyatlarini ochib berishni taqazo etadi. Chunki tarbiya jarayonida bolaga bo'lgan munosabatlarda yo'l qo'yilgan xatolar bola ulg'aygan paytda uning kelgusi hayotida jiddiy muammoga aylanishi mumkin. Ayrim ayollarning yoshligida, boshdan kechirgan qiyinchiliklari keyinchalik ularning muammoli ona sifatida shakllanishiga asos bo'lishi, bu esa ularning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlariga salbiy ta'sir etishi va muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish oilaviy munosabatlarda sog'lom muhitning yuzaga kelishiga, bolalarda ijobiy fazilatlarning va individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi nosog'lom psixologik muhit esa bolaga nisbatan zo'ravonlikning yuzaga keltiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ota-onalar bola tarbiyasiga turlicha yondashadilar va bola bilan munosabatda turli uslublardan foydalanadilar. Ayrim tarbiya uslublari bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan avtoritar uslub qattiq qo'llik asosida olib boriladi. Munosabatlar avtoritar asosga qurilgan oilalarda bolalar doimo kattalarning ta'qibi ostida bo'ladilar. Boladagi tashabbus ota-ona tomonidan ta'qiqlanadi. Har bir xatti-harakati uchun bola, albatta, jazolanadi. Bu usul bilan tarbiyalangan bolalar qo'rqq, jur'atsiz bo'lib qoladilar, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydilar. Chunki ota-ona ularga sharoit yaratib bermaydi.

Olimlar noto'g'ri tarbiya shakllari ham bolani rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar. Noto'g'ri tarbiya shakllaridan biri gipoproteksiya (qo'llab-quvvatlamaslik, himoyalashning yo'qligi) – bolaga nisbatan diqqat-e'tiborning yetishmasligi, uning uchun qayg'urmaslik, nazorat qilmaslik, nima bilan mashg'ul bo'lib yurganligiga qiziqmaslik, bola ehtiyojlarining qondirilmashligi bilan xarakterlanadi.

Bolani emotsional jihatdan xo'r lashda esa ota - ona bolaga umuman e'tibor bermaydi, u haqda umuman qayg'urmaydi, uni nazorat ham qilishmaydi. Bu esa bolada emotsional xo'r lanish hissini keltirib chiqaradi va uning shaxsida salbiy sifatlarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Mutloq gipoproteksiya (bolani umuman tashlab qo'yish)da esa bola ehtiyojlari qondirilmaydi va nima qilib yurganligi nazorat qilinmaydi. Bolaning ovqatga, kiyimga, dam olishga bo'lgan ehtiyojlariga umuman e'tibor berilmaydi.

Yashirin gipoproteksiya – ota-ona bola uchun shunchaki yuzaki qayg'urganligi sababli bolani qo'llab-quvvatlash ham juda past darajada bo'ladi. Ota-ona, go'yoki bolasi uchun qayg'urayotganga o'xshaydi, lekin aslida faqat uning hayotiy ehtiyojlarinigina qondirishadi, xolos. Bunda birgalikdagi faoliyat va muloqotda hamkorlikning yo'qligi, bolaga chinakamiga g'amxo'rlik qilinmaslik kuzatiladi. Talab qo'yiladi-yu, lekin uning bajarilishi nazorat qilinmaydi. Bola ich-ichidan emotsional xo'r lanishni his qilishi mumkin.

Perfeksionizm – ota-ona bolani tarbiyalashda “shu ishni qilmaganing uchun mana buni olib bermayman” qabilida bolani tarbiyalashga harakat qilishadi, lekin ularda, aslida bolani qo'llab-quvvatlash istagining o'zi bo'lmaydi, chunki bunday ota-onalar bolasini yaxshi ko'r maydilar. Bunday holat ko'pincha o'gay ota-onalarda bo'ladi. Ular, bola ota-ona mehri va g'amxo'r ligiga munosib emas, chunki u biron ishni yoki o'z

burchlarini bajarmaydi, shuning uchun u jazolanishi kerak, – deb hisoblaydilar. Buning natijasida bola noto‘g‘ri idrok qilinadi va unda emotsional xo‘rlanish yuzaga keladi.

Ma‘lumki o‘zaro munosabatlardagi nizolarda tomonlarning har biri o‘zini haq deb hisoblaydi. Shunday ekan, ona va bola munosabatlarida muammoli va nizoli vaziyat yuzaga kelib qolgan hollarda ota-onalar o‘z tarbiya uslubini haq deb hisoblashi tabiiy bo‘lganidek, farzand ham o‘zini haq deb biladi. Demak bunday vaziyatlarda ota-onalar muammoga faqat o‘zining emas, balki bolaning nuqtayi nazaridan ham qarashi lozim.

Ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlarining sayozligi ham bu borada muammo, qiyinchilik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Gap shundaki, ota-onalar aksariyat hollarda tarbiya jarayonida farzandini o‘ziga xos tomonlarini, uning qobiliyat va layoqatlarini, mayl va istaklarini yetarlicha hisobga olmaydilar. Ular ko‘pincha bola tarbiyasini o‘zlari o‘ylagan yo‘nalish asosida ma‘lum bir “qolip”ga moslab va ma‘lum natijani ko‘zda tutib amalga oshiradilar. Farzandi ulg‘aymasdan turib uni qanday yashashi, kim bo‘lishi, qayerda ishlashi va hokazolar haqida aniq rejalar tuzadi. Tarbiya jarayoni esa o‘z navbatida bolani shu tasavvurga moslashtirish borasidagi mashaqqatli yo‘lga aylanib qoladi. Bu faqat ota-onalar uchun emas, balki farzand uchun ham qator noqulayliklar yaratadi. Natijada ota-onalar va farzand o‘rtasida “jarlik” paydo bo‘ladi, farzandning kattalar ko‘rsatmasiga qarshi borishi, ota-onasidan ko‘ra o‘zgalarga yaqinroq bo‘lish hollari kuzatiladi. Shuning uchun bola shaxsiga qaratilgan har qanday zo‘ravonlikning oldini olish lozim. Buning uchun oilaviy qadriyatlarni ustuvorligini ta‘minlash, oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish, hayotga nibatan munosabatni o‘zgartirish lozim. Ko‘pincha insonni hayotga munosabati va dunyoqarashi ham tarbiya jarayonida o‘ziga xos muammolarni yuzaga keltiradi. Hayotga munosabatimizni o‘zgartirish – tarbiyadagi usullarimizni qayta qurish demakdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2007. –152 b.
2. Qurbanova G.A. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta’siri. Psixol. f. n... dis. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2009. – 26 b.
3. Abdullayeva D.U. Oilada ota-onalar va bola munosabatlarining o‘ziga xosligi. Jamiyatning barqaror ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish yillarida zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari. // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 188-193.

* * *

Yuldashev Sanjar Ruzimurodovich,

Nizomiy nomidagi TDPU

“Amaliy psixologiya” kafedrası dotsenti v.b. PhD,

BOLALAR SAVDOSI JINOYATINING SODIR ETILISHI SHAKLLARI VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar savdosiga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hujjatlar tahlili asosida ushbu jinoyatchilikning namoyon bo'lish shakllari tizimlashtirilgan. Shuningdek, tezislarda bolalar savdosi qurbonlarida yuzaga keluvchi psixologik oqibatlar ham atroflicha ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *odam savdosi, bolalar savdosi, transmilliy jinoyatchilik, bolalar pornografiyasi, bolalar fohishabozligi, qullik.*

Аннотация. *В настоящей статье на основе анализа международных документов в сфере противодействия торговле детьми систематизированы основные формы проявления данного вида преступности. Также, в тезисах подробно рассматриваются психологические последствия возникающих у жертв торговли детьми.*

Ключевые слова: *торговля людьми, торговля детьми, транснациональная преступность, детская порнография, детская проституция, рабство.*

Annotation. *Based on the analysis of international documents in the field of combating child trafficking, this article systematizes the main forms of manifestation of this type of crime. Also, the abstracts examine in detail the psychological consequences that arise in the victims of child trafficking.*

Key words: *human trafficking, child trafficking, transnational crime, child pornography, child prostitution, slavery.*

Bolalar savdosi odam savdosining keng tarqalgan turi sanaladi. Transmilliy jinoyatchilikning ushbu yo'nalishiga qarshi kurash borasidagi xalqaro faoliyat uzoq davrlarga borib taqalsada, biroq aynan bola savdosini taqiqlash bilan bog'liq maxsus xalqaro shartnomalarning evolyutsiyasi 1980-yildan boshlab faollashgan. 1980-yil Gaagada BMTning “Bolalarni xalqaro o'g'irlashning fuqarolik-huquqiy jihatlari to'g'risida”gi konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu xalqaro shartnoma bolalar savdosi jinoyatini sodir etish usullaridan biri – o'g'irlash harakatini kriminallashtirdi va bolalarni ko'chirishni noqonuniy deb e'tirof etdi.

Biroq, bolaning voyaga yetishish yoshini belgilash bo'yicha ushbu konvensiyadagi yondashuv boshqa universal xalqaro shartnomalardan jiddiy farqlanadi. Mazkur konvensiyaning 4-moddasida “bola 16 yoshga to'lganda Konvensiyani qo'llash tugatiladi” deb belgilab qo'yilgan.

1989-yilda YUNISEFning tashabbusi bilan BMTning “Bola huquqlari to'g'risida”gi konvensiyasi xalqaro hamjamiyatda ushbu yondashuvni o'zgartirdi. Konvensiyaning 1-moddasida “... 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan

qo‘llaniladigan qonun bo‘yicha u ertaroq balog‘atga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi” deb e‘tirof etildi.

Yuqorida qayd qilingan xalqaro shartnomalar dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida kuchga kirib bo‘lgan bo‘lsada, biroq bola savdosi, bolalarni majburiy mehnatga jalb qilish va shahvoniy ekspluatatsiya qilish holatlari avj olishni davom ettirdi. Shu sababli, xalqaro hamjamiyatda bola savdosiga oid siyosiy-huquqiy tizimni modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu borada bolalar savdosi va uning turli shakllarini taqiqlovchi ikkita quyidagi asosiy xalqaro shartnomalar yuzaga keldi:

1. 1999-yil 17-iyunda Jenevada XMT tomonidan imzolangan “Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va unga barham berishning tezkor choralari to‘g‘risida”gi konvensiyasining 3-moddasida **“bolalar savdosi”** tushunchasi **“bolalar mehnatining eng yomon shakllari”** tushunchasiga tenglashtirilgan.

Mazkur konvensiyada keltirilgan ta‘rifga ko‘ra (3-modda), *“bolalar mehnatining eng yomon shakllari”* deganda qo‘yidagilar tushuniladi:

- qullikning barcha shakllari yoki qullikka o‘xshash amaliyot (masalan, bolalarni sotish, uzoq muddatda tutqinlikda ushlab turish, qattiq qaramlik, majburiy yoki zo‘raki mehnat, qurolli to‘qnashuvlarda foydalanish);
- bolani fohishalik bilan shug‘ullanish, pornografik mahsulotlarni tayyorlash yoki pornografik namoyishlar uchun foydalanish, yollash yoki taklif qilish;
- noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanish, xususan giyohvandlik vositalarini sotishda foydalanish;
- o‘z xarakteri yoki sharoitlariga ko‘ra bolaning sog‘lig‘i, xavfsizligi yoki axloqiga zarar yetkazuvchi ishlar.

2. Undan keyin, BMT oliy xalqaro tashkilot sifatida jahon mamlakatlarida bolalar savdosi bilan bog‘liq vaziyat va orttirilgan tajribadan kelib chiqib, voyaga yetmagan fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga doir xalqaro standartlarni kuchaytirish maqsadida, 2000-yil 25-mayda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga daxldor Fakultativ protokolni qabul qildi. Ushbu hujjatda bolalarni ekspluatatsiya qilishning 3 xil shakli ko‘rib chiqilgan: *bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi*. Uning 2-moddasi “a” bandida “bolalar savdosi” hodisasiga alohida tushuncha berib o‘tilgan. Unga ko‘ra, **bolalar savdosi deganda, har qanday shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan rag‘batlantiruv yoki boshqa to‘lovlar evaziga boshqa shaxs yoki shaxslar guruhiga bolalarni taqdim etish bilan bog‘liq har qanday harakat yoki bitim tushuniladi.**

Adabiyotlarda keltirilishicha, bugungi kunda bolalarni “tirik tovar” sifatida sotishning sabablari sifatida quyidagilarni ma‘lum qilish mumkin: iqtisodiyotning globallashuvi, aholining mehnat safarbarligining oshishi, ayrim mamlakatlar iqtisodiyotining sustligi; rivojlangan mamlakatlarda bolalar ishtirokidagi seksual xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishi; oila institutining inqirozga uchrashi; Internet tarmog‘idan, ayniqsa bolalar pornografiyasiga oid saytlardan foydalanuvchilarning sonini oshib borayotganligi; ayrim mamlakatlarda bolalar savdosiga qarshi kurash borasidagi zaruriy huquqiy vositalarning to‘liq shakllantirilmaganligi.

Bola savdosining eng keng tarqalgan turi bo'lib bolalarni fohishabozlikka jalb qilish sanaladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda bolalar fohishabozligidan eng ko'p Osiyo mamlakatlarida, ya'ni 1 mln ga yaqin bola jalb qilingan. Hindistonda 1,5-2 mln, AQShda 100000 va Lotin Amerikasida 500000 ni tashkil qiladi. Shuning bilan bir qatorda, uyushgan jinoiy guruhlar bolalarni "seks-turizm" ga jalb qilishda va mijozlarni qidirishda internet tarmoqlaridan ham foydalanadi. Eng achinarlisi shundaki, ushbu jinoyat bolalar psixikasiga juda ham salbiy ta'sir ko'rsatadi va ushbu holatdan chiqqandan keyin ham ularni jismonan va ma'nan yetuk inson sifatida kamol topishiga to'sqinlik qiladi. Odatda, bunday bolalar jamiyatdan ajralib qoladi va ularni ijtimoiy foydali mehnat turiga qaytarish mushkul ish sanaladi.

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar tomonidan voyaga yetmagan shaxslarni ushlab turishda ko'proq quyidagi usullar qo'llaniladi: shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini musodara qilish; ularni huquq-tartibot idoralariga topshirishni vaj qilgan holda qo'rqitish; zo'rlash yoki zo'rlash bilan tahdid qilish; voyaga yetmagan shaxslarning oila a'zolariga nisbatan zo'rlash bilan tahdid qilish; ijtimoiy izolyatsiya; voyaga yetmagan shaxslarni yopiq binolarda saqlash yoki uning erkinligini boshqa usullar bilan cheklash; voyaga yetmaganlarning zimmasiga noma'lum qarzlarni qo'yish; voyaga yetmagan shaxslarni moliyaviy vositalardan mahrum qilib qo'yish.

Xorijlik tadqiqotchilar bolalar savdosining oqibatini uch guruhga bo'lib o'rganadi:

1) jismoniy salomatlik uchun oqibatlar:

– turli kasalliklar, shu jumladan jinsiy yo'l orqali yuquvchi kasalliklar, VICH infeksiyasiga duchor bo'lishi;

– bir qator simptomlar: ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, ko'krak sohasidagi og'riqlar, nafas olish yo'llaridagi muammolar, bosh aylanishi, qorin, oshqozon, bel og'riqlari, teri kasalliklaridan azob chekishi;

– shahvoniy ekspluatatsiyaga jalb qilingan qizlarning homilador bo'lib qolish ehtimoli, majburiy abort holatlari;

– badanining qon talashib qolishi (ko'karishi), tirnalishi va yaralanishi.

2) Psixik salomatlik uchun oqibatlar:

– depressiya;

– ruhan tushkunlikka tushishi va umidsizlik hissiyotining vujudga kelishi;

– aybdorlik va or-nomus azobi;

– o'zini o'zi joniga qasd qilish fikriga kelishi;

– ozib, sillasi qurishi va uyqusizlik muammosi;

– ekspluatatsiya holatlariga o'xshash voqealarni ko'rganida to'satdan tasavvurlarning kelib chiqishi va xavotirlanish, g'azablanish yoki qo'rquvning boshqa simptomlarining kelib chiqishi;

– assotsiativ aloqalarning buzilishi yoki emotsional uzoqlashish, begonalashish;

– diqqat-e'tiborini bir joyga to'play olmaslik, predmet va hodisalarning tuzilishini anglash qobiliyatining cheklanishi;

– o'z-o'ziga ishonchining yo'qolishi;

– o'z-o'zini ayblashi, o'ziga nisbatan oldi-sotdi bitimlarining obyekt kabi tasavvur qilish va h.k.

3) Xulq-atvor uchun oqibatlar:

- jabrlanuvchilar yoshi katta fuqarolarga ishonmay qolishlari mumkin;
- jabrlanuvchilar ekspluatatsiya vaqtida salbiy xulq-atvor modelini o‘zlashtirib qo‘ygan bo‘lishlari mumkin;
- jabrlanuvchilar boshqa shaxslar, shu jumladan oila a‘zolari bilan ham munosabat o‘rnatishga qiynalib qolishlari mumkin;
- jabrlanuvchilar ko‘p hollarda alkogol yoki narkotik moddalarga jismonan qaram bo‘lib qolishlari mumkin;
- g‘azabning oshib ketishi uning doiradan chiqib ketishiga va o‘ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazishga olib kelishi mumkin;
- agressiv xulq-atvorga ega bo‘lib qolishi va shu sababli atrofdagi shaxslar uchun xavf uyg‘otishi mumkin;
- jabrlanuvchilar ijtimoiy foydali turmush faoliyatini boshlay olmaslikdan qo‘rqishadi;
- o‘g‘rilik va boshqa maishiy jinoyatlarga qo‘l urishi mumkin;
- oila a‘zolari ularning o‘tmishi to‘g‘risida bilib qolishganligidan qo‘rqib doimiy turar joyiga borishni xohlamaydi;
- ularning muloqot muhitining o‘zgarishi, “noto‘g‘ri” shaxslar bilan tez til topishishi va ular bilan munosabatda bo‘lishni afzal deb bilishi mumkinligi va h.k.

Umuman olganda, bola savdosi odam savdosining insoniyat uchun eng xavfli va oqibatli ko‘rinishlaridan biridir. Aslida odam savdosining barcha shakllari xavfli hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda ma‘lum bo‘lmoqdaki, aksariyat hollarda, ayniqsa shahvoniy savdo bilan bog‘liq holatlarda fuqarolar axloqiy, iqtisodiy yoki boshqa omillar ta‘siri ostida ixtiyoriy rozilik asosida odam savdosi jinoyatchilari to‘riga tushib qolmoqda. Bolalar esa o‘z fiziologik va psixologik xususiyatlariga ko‘ra doimo g‘amxo‘rlik va himoyaga muhtoj bo‘ladi. Chunki, ular hali jamiyatda to‘liq moslashmagan, tolerantlik hissiyoti shakllanmagan, insonlar o‘rtasida uchrab turuvchi zararli odatlar va tahdidlarga nisbatan immunitet hosil bo‘lmagan, ya‘ni bir so‘z bilan aytganda “inson – inson uchun bo‘ri” naqlining mohiyatini tushunib yetmagan bo‘ladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, bolalar savdosiga qarshi kurashning psixologik jihatlarini kuchaytirish maqsadida, quyidagilarga diqqatni qaratish maqsadga muvofiqdir:

- aynan jabrlanuvchi bolalar bilan, ularning gender xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda psixologik debrifing va intervensiya o‘tkazish malakalariga ega bo‘lgan psixolog-reabilitologlarni tayyorlash;
- bolalar savdosi qurboniga aylangan yoki shu kabi tahdidlarga uchragan bola va o‘smirlar bilan takroriy viktimlashuvning oldini olishga qaratilgan korreksion-profilaktik isharni yo‘lga qo‘yish;
- uyushmagan yoshlar hamda nazoratsiz qolgan bolalarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda noformal va interaktiv klublarni tashkil etish, hamda ularda jinoyatchilik va viktimlikka qarshi psixologik immunitetni mustahkamlashga oid ishlarni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Конвенция о гражданско-правовых аспектах международного похищения детей // Национальное и международное законодательство в области борьбы с торговлей людьми. – Ташкент: “Адолат”. – 2009. – С. 45-48.
2. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. Mas'ul muhar. Saidov A.X. –Toshkent: “Adolat”. – 2004. – B. 221.
3. Конвенция №182 О запрещении и немедленных мерах по искоренению наихудших форм детского труда // Рустамбаев М.Х. Торговля людьми. – Ташкент: ТГЮИ, 2009. – С. 247.
4. Факультативный протокол к Конвенции ООН о правах ребенка, касающийся торговли детьми, детской проституции и детской порнографии // Национальные и международное законодательство в области борьбы с торговлей людьми. – Ташкент: «Адолат», 2009. – С. 72.
5. Всемирный доклад о торговле людьми. Режим доступа: http://www.unodc.org/documents/humantrafficking/Executive_summary_russian.pdf
6. Соловей Т.И. Международное сотрудничество в борьбе с незаконным вывозом для сексуальной эксплуатации и растления несовершеннолетних // Вопросы ювенальной юстиции. 2007. Н 1 // Справочно-правовая система «Консультант Плюс».
7. Мюрен О'Браян, Тео Нотен, Анке Ван ден Борн. Противодействие трафику детей в сексуальных целях. – Амстердам. Бангкок, 2006. – С. 65-66.

* * *

Egamova Maxfirat Esanovna,
Toshkent Moliya instituti, PhD., dots.

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING FARZANDINGIZGA TA'SIRI

Anotatsiya. *Xozirgi vaqtda aktual bo'lib borayotgan muammolardan biri bo'lgan oiladagi ota onalarning munosabati va uning farzand psixologik xolatiga ta'siriga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *oila, zo'ravonlik, tarbiya, odob, axloq, tajovus, farzand.*

Аннотация. *Одна из актуальных проблем отношение родителей в семье, что является одной из проблем, которые становятся актуальными в настоящее время, и ее влиянию на психологическое состояние ребенка.*

Ключевые слова: *семья, насилие, воспитание, нравы, мораль, агрессия, ребенок*

Annotation. *One of the urgent problems is the attitude of parents in the family, which is one of the problems that are becoming relevant at the present time, and its impact on the psychological state of the child*

Key words: *family: violence, upbringing, morals, morality, aggression, child*

Shubhasiz, uning ota-ona farzandning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning xulq-atvor modellari, xatti-harakatlari esa bolalar uchun to'g'ri va noto'g'ri harakatlarga

na‘muna bo‘lib xizmat qiladi. Har birimiz uchun ota-ona munosabatlarining namunasi bor, lekin u har doim ham sevgi va o‘zaro hurmatni o‘z ichiga olmaydi. Dunyodagi ko‘plab bolalar har kuni oiladagi zo‘ravonlikka guvoh bo‘ladilar.

Har birimizning boshimizdan o‘tgan epidemiologik vaziyat sharoitida odamlar uyda ko‘proq vaqt o‘tkazishni boshladilar. Ko‘pgina mamlakatlarda oiladagi zo‘ravonlik qurbonlari soni ortdi. Oiladagi zo‘ravonlik qurbonlarining 70% dan ortig‘i ayollar va qizlardir. Hozirgi paytda Respublikada 197 ta reabilitatsiya markazi faoliyat yuritmoqda. Ma‘lumotga ko‘ra, ushbu markazlarda o‘tgan yilning dekabr oyigacha 21 mingdan ortiq fuqarolarning murojaatlari qabul qilingan. Shundan 986 nafari erkak, 788 nafari bola va 19784 nafari ayol¹⁰⁶. Oiladagi zo‘ravonlik–bu insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazadigan, barcha oila a‘zolarining optimal ishlashiga xalaqit beradigan va bolaning normal rivojlanishi uchun xavf tug‘diradigan, har qanday oila a‘zosining huquqlarini buzadigan har qanday harakat.

Bolalar oiladagi zo‘ravonlik sharoitida eng zaif bo‘lib qoladilar. Nima uchun?

- oiladagi zo‘ravonlik guvohi bo‘lgan va ko‘pincha jabrlanuvchiga aylangan bola hamma narsa boshqacha bo‘lishi mumkinligini tasavvur ham qilmaydi;
- bola, ayniqsa kichik yoshdagi farzandlar, ota-onasiga bog‘liq, u faqat uydan chiqa olmaydi. Bolalar nima uchun dadam onamni kaltaklaganini tushunolmaydilar va qoida tariqasida, sodir bo‘layotgan voqealar uchun o‘zlarini ayblaydilar;
- bolalar ko‘pincha kattalarga o‘z muammolari haqida ochiq-oydin aytib berish kerakligini bilishmaydi. Ularga yordam berish faqat ota-onalar ishtirokida amalga oshirish mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlik bolaga u zo‘ravonlik obyekti bo‘lmasa ham, unga baribir salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tajovuzkorning harakatlari faqat bitta odamga, odatda ayolga (onaga) qarshi qaratilishi mumkin. Ota-ona munosabatlarida zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalar tashvish, depressiya, maktabning yomon ishlashi, o‘zini past baholash, qo‘rquv va kabuslar, ovqatlanish buzilishi (ortiqcha ovqatlanish yoki ovqatdan bosh tortish) kabi hissiy va xulq-atvor muammolariga duch kelish xavfi yuqori. Bunday bolalar bolalik va o‘spirinlik davrida tajovuzkor xatti-harakatlarga moyil bo‘lishi mumkin yoki aksincha, atrofdagi dunyoga befarq munosabatda bo‘lishlari va kelajakda kelajakdagi oilaviy munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Ota-ona munosabatlarida zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari:

- o‘zini past baholash, bu aybdorlik, uyat, pastlik tuyg‘ularini saqlash va mustahkamlashga hissa qo‘shadi;
- ular tez-tez g‘azabni his qilishadi, ular zaifroq, yoshroq bolalarga ko‘rsatishi mumkin. Ba‘zan g‘azab portlashlari hech zohiriy sabab bor;
- ular haddan tashqari passiv, ular o‘zlarini himoya qila olmaydilar;
- ular o‘zlariga e‘tiborni jalb qiladilar, ko‘pincha bo‘ysunuvchi, namoyishkorona xatti-harakatlar bilan;
- ular tashvish, sog‘inch, yolg‘izlik tuyg‘ularini boshdan kechirishadi. Uyqu buzilishi bor.

¹⁰⁶ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/03/gender-issues/> сайти маълумотлари

Nima qilish kerak?

Agar ona va farzand oiladagi zo'ravonlik holatida bo'lsa, yordam so'rash kerak! Bu zaiflik emas! Esda tutish kerakki, bu bizning ruhiy kuchimiz va hayotimizni va bolalaringizning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish istagi haqida gapiradi.

Oilada zo'ravonlik sodir bo'lgan vaziyatda nima qilish kerakligini aniqlashga yordam beradigan bir qator oddiy harakatlar mavjud:

- o'zingizni ijtimoiy muhitingizdan ajratmaslikka harakat qiling, do'stlaringiz (qiz do'stlaringiz), qarindoshlaringiz, qo'shnilaringiz va hamkasblaringiz bilan yaqin munosabatlarni saqlang;

- bunday holatlarning oldini olish va o'zingizni va farzandlaringizni himoya qilish uchun turmush o'rtog'ingiz (sherigingiz) zo'ravonlik ko'rsatadigan holatlarga e'tibor bering;

- o'zingiz uchun uyda qurol sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan narsalar mavjud bo'lgan joylardan (masalan, oshxonadan) uzoqroq bo'lgan joyni aniqlang va shu bilan birga kvartiradan (uydan) chiqishga yaqin bo'ladi; agar sizga nisbatan zo'ravonlik ishlatilsa, iloji bo'lsa, kvartirani tark eting;

- IIV, boshpanalar, ayollar, qo'shnilar, do'stlar uchun inqiroz xonalarining telefon raqamlarini yoddan bilib oling, ularga xavf tug'ilganda murojaat qilishingiz mumkin;

- IIVga qanday murojaat qilishingiz mumkinligi haqida o'ylab ko'ring; IIVga istalgan vaqtda bepul qo'ng'iroq qilishingiz mumkinligini unutmang;

- farzandlaringizga zo'ravonlikni hech qanday holatda oqlash mumkin emasligini tushuntiring va ishontiring, hech qachon zo'ravonlik sababi siz yoki farzandlaringiz deb o'ylamang;

- bolalar bilan kvartirani (uyni) tezda qanday tark etishni mashq qiling;

- qayerdan yordam olishingiz mumkinligini hal qiling, turmush o'rtog'ingiz (sherigingiz) nima qilayotganini aytib bering va o'zingiz bo'lgan vaziyatdan uyalmasligingizni unutmang;

- inqirozli vaziyatni kutmang, huquqlaringiz haqida maslahat markazi, boshpana yoki inqiroz xonasi mutaxassisi bilan oldindan maslahatlashing;

- o'zingizni xavfsiz his qiladigan joyga qanday va qanday jamoat transportida borishni rejalashtiring yoki har doim yoningizda taksi uchun pulingiz bor;

- uydan zudlik bilan chiqib ketishingiz kerak bo'lsa, kerakli telefon raqamlari va hujjatlarni osongina kirish mumkin bo'lgan joyda saqlang;

- kiyim-kechak, dori-darmonlar, bir nechta bolalarning sevimli o'yinchoqlari va inqiroz holatida sizga kerak bo'ladigan boshqa narsalar solingan sumkani xavfsiz joyda saqlang.

Oiladagi zo'ravonlik yashirish, tinchlantirish, toqat qilish yoki azob chekish kerak bo'lgan narsa emas. Oiladagi zo'ravonlik, agar u sodir bo'lgan bo'lsa, kelajakda uning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun to'xtatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Берковиц Л. Агрессия. Причины, последствия и кон- 2. Кочеткова С. В. Опыт анализа насилия в семе // Сотрол. – Санкт-Петербург, 2004. сис. – 1999. – № 12
2. Данилова О.Л. Психология восприятия насилия: культурный и гендерный аспекты // Практикум по гендерной психологии / под ред. И.С.Клесиной. – Санкт-Петербург, 2003.
3. Орлов А.Б. Психологическое насилие в семе — определение, аспекты, основные направления оказания психологической помощи // Психолог в детском саду. – 2000. – № 2-3.

* * *

Xolmurodov G‘ulom O‘tkir o‘g‘li,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK VA EHTIYOTSIZ MUNOSABATLARNING KO‘RINISHLARI VA TURLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi, kelib chiqish sabablar va omillar, bolalarning yoshi, jinsidagi farqlarga ko‘ra zo‘ravonlik turlari asosiy xususiyatlari, xalqaro amaliyotda bolalarga nisbatan zo‘rvonlik va ehtiyotsiz munosabatning tasnifi kabi jihatlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *zulm, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, uydagı zo‘ravonlik.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены такие аспекты, как понятие насилия в отношении детей, его причины и массы, основные характеристики видов насилия по различиям в возрасте и поле детей, классификация насилия в отношении детей и неосторожного обращения в международной практике.*

Ключевые слова: *угнетение, насилие над удавами, физическое насилие, психологическое насилие, сексуальное насилие, насилие в семье.*

Annotation. *This article discusses such aspects as the concept of violence against children, its causes and masses, the main characteristics of the types of violence by age and gender differences of children, the classification of violence against children and careless treatment in international practice.*

Key words: *oppression, boa abuse, physical abuse, psychological abuse, sexual abuse, domestic violence.*

“Bolalarga nisbatan zulm” tushunchasi butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta‘rifga tayanadi: “Zulm” yoki “...bolalar bilan qo‘pol munosabatda bo‘lish”, “bolaning sog‘ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha

turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya" [1]ni anglatadi. Xalqaro amaliyotda qabul qilingan "Bolaga nisbatan zulm" atamasi o'zida "ehtiyotsiz munosabat" hamda "Tashlab qo'yilganlik" tushunchalarini o'zida mujassam etadi.

Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi [2].

Bolalar duch keladigan zo'ravonlikning ko'rinishlari uning yoshi va rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Bunday o'zgarishlar bola o'z uyidan tashqaridagi olam bilan muloqotga kira boshlaganida, ayniqsa yaqqol seziladi. Bolalar rivojlanib barobarida ular mustaqil ulg'ayib boradilar va o'z uylaridan tashqarida o'tkazadigan vaqt ham ortib boradi; shuning uchun ham kattaroq yoshdagi bolalarning o'z uylari va oilalaridan tashqarida zo'ravonlik qurboniga aylanish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik turlariga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz: Xuddi shunga ko'ra, zo'ravonlikning bir necha turlari mavjud. Ulardan biri jismoniy zo'ravonlik bolaga nisbatan qasddan ishlatilgan, bolaning sog'ligi, hayoti rivojlanishi yoki qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi yoki zarar yetkazish ehtimoli yuqori bo'lgan kuchdir. Dunyoning turli hududlaridagi bolalar o'z oila a'zolari tomonidan amalga oshirilgan kaltaklash, tepkilash, silkitish, do'pposlash, tishlash, kuydirish, bo'g'ish, zaharlash va dimiqtirishlarni boshdan kechirmoqdalar. Ba'zi jiddiy hollarda bunday zo'ravonlik bolaning o'limiga, nogiron bo'lib qolishiga yoki jismoniy jarohat olishiga sabab bo'ladi. Boshqa hollarda jismoniy zo'ravonlik ko'zga tashlanuvchi iz qoldirmasligi mumkin. Ammo har qanday holda ham jismoniy zo'ravonlik bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlikni qo'llash ota – onalar tomonidan o'z bolalarini tepish, urish, tishlash va kaltaklash xayollari tashvishga solarli darajada keng tarqalgan.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, jismoniy jazolash "qanchalik yengil bo'lmasin, ma'lum darajadagi og'riq yoki noqulaylik yetkazish maqsadida jismoniy kuch ishlatish orqali amalga oshirilgan har qanday jazolash"dir[3]. Uy sharoitida jismoniy jazolash ko'plab mamlakatlarda qonunan yo'l qo'yib berilayotganligi va jamiyat tomonidan xayrixohlik topayotganligi tufayli saqlanib qolayotgan bo'lib, ushbu muamoning tarqalishi ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Jazolashning bunday uslublari bolalarni qo'rquv orqali quyidagicha xulq-atvorga majbur qiladi: bu bolalarda o'zlarini tutishga hohish uyg'otmaydi, bolalar kaltak yeganlaridan keyin kattalarning xohishlariga bo'ysunsalarda, bolalar bevosita kaltaklanish xavfi mavjud vaqtdagina o'zlarini yaxshi tutishga ko'nikadilar.

Zo'ravonlikning yana biri jinsiy zo'ravonlikdir. Ma'lumotlarga qaraganda 18 yoshga to'lmagan taxminan 150 mln qiz va 73 mln o'g'il bola majburiy jinsiy aloqa va

jinsiy zo‘ravonlikning qurboniga aylangan ekanlar. Bunday jinsiy zo‘ravonliklarning aksariyati bola mansub bo‘lgan oilaning boshqa a‘zolari tomonidan amalga oshiriladi. Qizlarni jinsiy zo‘rlash holatlari hamda o‘g‘il bolalarni ham shunday zo‘rlash holatlari qarindoshlari va o‘gay ota – onalari tomonidan amalga oshirilganligi aniqlangan. Ko‘p odamlar, bolalar maktabda yoki mahallada o‘ynayotganlarida jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lishlari xatari yuqori ekanligi haqida so‘z yuritadilar, lekin ular bolalar o‘z uylarida va oilalarida shunday zo‘ravonlik qurboni bo‘lyaptilar. Oilada shahvoniy xos bo‘lgan uyat, or – nomus va inkor qilish kabilar mavjud muammo xususida sukut saqlash odatini keltirib chiqaradi va bunda bolalar boshlaridan kechirgan jinsiy zo‘ravonlik to‘g‘risida gapira olmaydilar, kattalar esa o‘z uylarida bolalar yuz tutayotgan shahvoniy zo‘rlanish xatari xususida sukut saqlaydilar va kattalar ular taniydigan kimsa biron bolani jinsiy zo‘rlayotganini bilsalar nima qilish yoki nima deyish kerakligini bilmaydilar. Bolalarning aksariyati o‘z uylarida boshidan kechirgan shahvoniy zo‘ravonlik to‘g‘risida hech kimga ayta olmaydilar. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik bo‘yicha butun jahon hisoboti ularga va ularning oilalariga biror nima bo‘lishidan qo‘rqadilar, oilalari sharmanda bo‘lishidan tashvishlanadilar. Oilalarda jinsiy zo‘ravonlikni boshidan kechirganligini ma‘lum qilgan o‘g‘il bolalar zaif va “erkak emas” deb baholanishlari mumkin.

Ba‘zi mamlakatlarda oilaning ayol a‘zosi o‘z bokiraligidan mahrum bo‘lgan deb gumon qilinsa, jumladan zo‘rlash qurboni bo‘lgan bo‘lsa ham oila sha’niga dog‘ tushirgan deb sanaladi va oilaning boshqa a‘zolari tomonidan uni qatl qilishlargacha olib borish mumkin. Bundan tashqari odamni nafsoniyatiga tegish, mensimaslik, turmush qurish takliflarini rad etish zo‘ravonlik ko‘rinishidagi munosabatlarga olib kelishi mumkin.

Jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlarida bolaga ma‘lum darajada ruhiy zarar yetkaziladi. Lekin bundan tashqari ruhiy zo‘ravonlik, xafa qilish, laqab qo‘yish, e‘tiborsizlik qilish, yakka-latib qo‘yish, rad etish, do‘q- po‘pisa bilan qo‘rqitish, befarq bo‘lish va yerga urish kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lib, bu bolaning psixologik rivojlanishi va salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud. Zo‘rlilik hukm suradigan oilaviy muhitda doimiy ravishda zo‘ravonlik ro‘y berishini kutish natijasidagi doimiy qo‘rquv va tashvish; u ro‘y berayotganda esa og‘riq; xo‘rlanish va qo‘rquv; nisbatan kattaroq yoshdagi guruhlarda esa, ota-ona tomonidan inkor qilinganlik tufayli yolg‘izlik, ishonchsizlik va ba‘zan o‘z-o‘zidan nafratlanish kabilar mavjud bo‘ladi.

Ruhiy zo‘ravonlik boshqarilmagan asabiylashishning mahsuli bo‘lishi yoki bo‘lmasa, u jismoniy jazolashdan ko‘zlangan maqsadga o‘xshash maqsadlarga ega bo‘lishi, ya‘ni bolani qo‘rqitib bo‘ysundirish va uning isyonkor xulq-atvorini “qayta tarbiyalash”dan iborat bo‘lishi mumkin. Bolalar “so‘zlar hech qachon menga og‘riq berolmaydi” iborasini bilishlari mumkin bo‘lsada, haqiqat shundan iboratki, ko‘plab bolalar inkor qilgan ruhiy azob va tashvishni, o‘zlariga bo‘lgan ishonchga hujum qilishi orqali xo‘rlanish ham chidab bo‘lmaydigan azob deb biladilar. Jazolanishning ruhiy uslublari dunyoning barcha mintaqalarida uchraydi.

Va eng so‘nggi zo‘ravonlik turi – bu bolaga nisbatan ehtiyotsiz munosabatdir. Zo‘ravonlikning ushbu turi ota-onalar yoki tarbiyalovchilarning qurblari yetgan holatda yoki shunday xizmatdan foydalanish uchun bilim va imkoniyatlari mavjud bo‘lgani

sababli bolaning jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondirmaslik, yoki bolaning xavf-xatarga yuz tutishidan himoya qilmaslikdir. Ammo ko'p holatlarda qasddan amalga oshirilgan ish bilan e'tiborsizlik va ehtiyot qilish imkoniyatlari yo'qligi tufayli amalda yuzaga kelgan natijani farqlash mushkul bo'ladi. Omma salomatligi darajasi past bo'lgan holatlarda va yetarlicha ovqatlanmaslik sharoitlarini e'tiborsizlik holati deb ta'riflash mumkin. Oilalar keng ma'noda qaralganda, bolalarni zo'ravonlikning barcha ko'rinishlarda himoya qilish bo'yicha katta salohiyatga egadirlar. Shu bilan birga oilalar bolalarning o'zlariga ham o'z-o'zini himoya qilish vakolatini berishlari mumkin. Chunki oila-uning barcha a'zolari, ayniqsa bolalar, o'sishlari va farovon hayot kechirishlari uchun mavjud bo'lgan tabiiy muhitdir. Ammo oilalar bolalar uchun, xususan, go'daklar va yosh bolalar uchun xavfli joy bo'lishi mumkin. Ota-onalar yoki boshqa oila a'zolari tomonidan bolalarga nisbatan zo'ravonlik qo'llanishi jismoniy, jinsiy, ruhiy zo'ravonlik shu bilan birga bolaga nisbatan ehtiyotsiz munosabat kabi zo'ravonliklarni tan olish va hujjatlashtirish endigina boshlandi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish oila kontekstida, uning qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, juda ham qiyin. Bunday holatlarga hali ham "shaxsiy masala" deb qaralishi sababli aralashmaslikni afzal ko'rish mavjud. Ammo qadr-qimmat, uning jismoniy yaxlitligi bo'yicha inson huquqi bunda bolalar va kattalarning teng huquqqa ega ekanliklariga to'la hurmat ko'rsatish hamda davlatning ushbu huquqlarga amal qilinish bo'yicha majburiyatlari oila yashayotgan uyning ostonasida to'xtab qolmaydi.

Davlat va uning muassasalari bolalar huquqlarini hurmat, himoya va ado etish bo'yicha majburiyatlari uning bevosita faoliyatidan kengroq doirani qamrab oladi hamda ota-onalar, qonuniy boquvchilar va boshqa bolalarning huquqlarini poymol qilmasliklarini ta'minlovchi chora-tadbirlar qabul qilinishini talab etadi. Davlat kerakli himoya bilan ta'minlash orqali zo'ravonlikning oldini olish va zo'ravonlik ro'y berganda unga nisbatan javob choralarini ko'rish uchun qonunlar, tartib-qoidalar va dasturlar doirasini ishlab chiqib, o'rnatish lozim.

Kichik yoshdagi bolalar o'z uyida yuz beradigan zo'ravonlikka uchrashi ehtimoli nisbatan yuqori bo'ladi. Jismoniy jazolarning har qanday ko'rinishi tahqirlovchi bo'lishi barobarida bolalar oilada uchraydigan ba'zi nojismoniy jazolar borki, ular ham jismoniy jazolash turlari bilan deyarli bir xilda tahqirlovchi, shafqatsiz va zarar yetkazuvchidir. Bundaylarga muntazam ravishda dag'-dag'alar qilish, haqoratlash, nomaqbul laqablar bilan chaqirish va og'zaki zo'ravonlikning boshqa ko'rinishlari, shuningdek, yerga urish, yakka-latib qo'yish va tan olmaslik kabilar kiradi. Bevosita zo'ravonlikdan tashqari ko'plab bolalar katta yoshdagi oila a'zolari o'rtasidagi zo'ravonliklarning guvohi bo'ladilar va bunday holatlar jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi yaqindagina tan olindi.

Uydagi va oiladagi zo'ravonliklarning barcha ko'rinishlari bolaning kelajakdagi rivojlanishga, uning ulg'aygandagi fe'l-atvori va farovonligiga hamda kelajakda otonalik qilishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari aynan uyda bolalar ilk marotaba jinslar o'rtasidagi tengsizlikni boshdan kechiradilar va aynan uyda kelajakdagi nomunosib boshqaruv kuchiga egalik asosidagi munosabatlar shakllanadi yoki qarshilikka uchraydi.

O‘g‘il bolalarning tajovuzkor va yakka hokim bo‘lishlari, qizlar esa, quloq soluvchi, mo‘min-qobil beka sifatida rag‘batlantirishlari mumkin. Jinslarning roli bunday stereotiplar zo‘ravonlik qo‘llanilishi va jinslar o‘rtasidagi tengsizlikning boqiy saqlanib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Uy va oilada – yuz beruvchi jismoniy, ruhiy va jinsiy zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari, ularning bolalarga bo‘lgan ta‘siri hamda bunday zo‘ravonliklarni kamaytirish va yo‘qotish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir qator choralar bor. Ammo oilaning bunday roli davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib turilishi kerak va jumladan, bola manfaati uchun kerak bo‘lganda oila ostonasidan xatlab o‘tib, u yerda tartib o‘rnatish ham davlat mas‘uliyatlari doirasiga kirishi lozim.

Uy va oila sharoitlarida bolalar turli hamlalar va jismoniy zo‘ravonlikning boshqa ko‘rinishlariga, jinsiy zo‘ravonlik, zararli urf-odatlar, kamsitilish va ruhiy zo‘ravonlik, bolalarga nisbatan ehtiyotsiz munosabatlarning boshqa ko‘rinishlariga duch keladilar. Xuddi hamla va jismoniy zo‘ravonlikning boshqa ko‘rinishlari kabi, nojismoniy zo‘ravonliklarga ham chora ko‘rmaslik, masalan, bolaning do‘stlari, qo‘shnilari yoki mehmonlari tomonidan oldini olish mumkin bo‘lgan zo‘ravonlikka yuz tutishdan to‘xtatib qolmaslik; “tamg‘a qo‘yish” yoki butunlay ajratib qo‘yish holatlari hamda bolaning farovonligini taminlash, bolalar uchun mavjud bo‘lgan sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanmaslik orqali bolaga zarar yetkazishdir.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ko‘lamini borgan sari yaqqolroq ko‘rinib borayotganiga qaramasdan hozirda uni bartaraf etish tomon harakatlanish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Zo‘ravonlik inson duch kelishi muqarrar bo‘lgan narsa emas.

Shu o‘rinda davlatimiz inson huquqlarining himoya qilish bo‘yicha majburiyatlarining bolalarga taalluqli qismlariga tobora ko‘proq e‘tibor berib, ularni amalga oshirmoqda va shu bilan birga zo‘ravonlikni keng tarqalganligi va bolalar hayotiga uzoq muddatli ta‘sirini yanada yaxshiroq anglab yetmoqda. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish davlatimizning bosh maqsadiga aylangan. Bundan tashqari yosh bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning mavjud barcha zo‘ravonlik turlarini kamaytirish borasida jamiyatimiz ulkan salohiyatga ega va uning bolalarga nisbatan zo‘ravonlik natijasida yuzaga keladigan uzoq muddatli ijtimoiy muammolar va salomatlikka taalluqli oqibatlarini kamaytirish borasidagi salohiyati ham e‘tiborga molikdir. Har qanday jamiyat uning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘iy nazar, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka hozir barham berishi kerak. Bu esa o‘z navbatida jamiyatlarning dunyoqarashini va uning zamirida yotgan zo‘ravonlik bilan aloqador iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarining o‘zgartirishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Социология молодёжи. Учебник. под ред. В.Т Лисовского. – Санкт-Петербург, 2016.
2. Ганиева М.Х., Латипова Н.М., Алексеева В.С. Социальное обеспечение и социальная защита детей и молодёжи. Учебное пособие. – Ташкент: ИЖОДПРИНТ, 2017.- 256 с.
3. Безрукова О.Н. Социология молодежи: Учебно-методическое пособие. Факультет сотсиологии СПбГУ. – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2015. – С. 35.

* * *

Kazaqova Parida Sulaymanovna,
Xonqa pedagogika kolleji o'qituvchisi

Bobonazarova Go'zalxon Odil qizi,
*Urganch davlat universiteti Maktabgacha
ta'lim 3-bosqich talabasi*

MAKTABGACHA TA'LIM DAVRIDA BOLALARNING AXLOQIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yosh davrida bo'lgan bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, milliy urf-odat va an'analarning bolalar ongiga singdirish, ijtimoiy muhit qoidolari, Ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri axloqiy tarbiya ekanligi, shaxsni ijtimoiy-axloqiy me'yorlardan xabardor etish axloqiy tarbiyaning asosini tashkil qilishi keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, xulq – atvor qoidolari, ibratli maslahat, milliy urf-odatlar, axloqiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, psixologik xususiyat.

Аннотация. В данной статье широко разъясняется, развитие нравственных качеств дошкольников, привитие в сознании детей национальных обычаев и традиций, правил социальной среды, нравственное воспитание является одним из важных компонентов социального воспитания, осознание социальных и нравственных отношений нравственного воспитания.

Ключевые слова: нравственное воспитание, правила поведения, образцовые советы, национальные традиции, нравственные процессы, социальная среда, психологические особенности.

Annotation. This article explains widely the development of the moral qualities of preschoolers, the inculcation in the minds of children of national customs and traditions, the rules of the social environment, moral education is one of the important components of social education, awareness of the social and moral relations of moral education.

Key words: moral education, rules of conduct, exemplary councils, national traditions, moral processes, social environment, psychological characteristics.

Ma'naviy barkamol, komil inson tarbiyasi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Axloqiy tarbiya — jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidolari, me'zonlarini o'quvchilar ongi hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri axloqiy tarbiya sanaladi. Shaxsni ijtimoiy-axloqiy me'yorlardan xabardor etish axloqiy tarbiyaning asosini tashkil qiladi. Axloq (lot. "moralis" xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidolari, mezonlarning majmuyi sifatida aks

etadi. Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqga oid ibratli maslahatlar, hikoyalar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, bundan tashkari, Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Sa‘diy Sheroziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topgan. Ma’naviyati axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishini zaruriy komponentlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya vositalari tarbiyalanuvchilarga sensomotor qo‘zg‘atuvchi sifatida ularning ko‘rish, eshitish, ta‘m bilish, fahmlashlariga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazadi.

Tarbiya vositalariga tarbiyachi foydalanadigan o‘quv qo‘llanmalari, kitoblar, badiiy adabiyot maqsadini amalga oshirish uchun tarbiyachi qo‘llaydigan buyumlar, rasmlar, kishilarning ibrat namunasi, ommaviy axborot vositalari: radio, televidenie, videomateriallar, gazeta, jurnallar ham tarbiya vositalari sifatida alohida e‘tiborga molikdir. Shu bilan birga, bolalar jamoasi, faoliyati turlari (o‘yin, mehnat, o‘qish) da qo‘llaniladigan mashqlar o‘quvchilarning tabiiy kuchlarini rivojlantirib, ularda bilim, ko‘nikma, malaka va odatlarni, axloqiy qarashlarni shakllantiradi. O‘quvchi talabalarni tarbiyalashda guruh jamoasi muhim rol o‘ynaydi. Jamoa deganda o‘quvchilar va talabalar hayotini jamoaviy hayot talablari asosida tashkil qilishni tushunish kerak. Kishilarning maqsadsiz to‘plami emas, ijtimoiy maqsad birligida tashkil qilingan jamoa kuchli tarbiya vositasi bo‘la oladi.

Jamoa hamkorlikdagi faoliyat oqibatida rivojlanadi. Shuning uchun jamoaning butun hayoti tarbiyaviy maqsadlarga bo‘ysundirilgan bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning ma’naviy axloqiy tarbiyasini maqsad qilib olgan tarbiyachi shunga muvofiq ular hayotini tashkil qila olishi lozim. Bunda asosiy “material” mustaqil mamlakatimizning ijtimoiy voqeligi bo‘lishi kerak. Ya’ni o‘quvchilarning o‘qishi, o‘yini, mehnati mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, mafkuraviy jarayonlar bilan uyg‘un olib borilishi lozim. Ta’lim jarayonida axloqiy tarbiya ma’naviy tadbirlar asosida olib boriladi, chunki ma’naviy tadbirlar rejalari har bir oyga mo‘ljallangan bo‘lib, bu tadbirlarda o‘quvchi yoshlar o‘z fikr mulohazalari bilan qatnashib, axloqiy jihatdan kamol topadilar. O‘quvchilar jamoasida ma’naviy axloqiy tarbiyalashni tashqil qilishda jamoa majlisi, ya’ni ochiq muloqotlar ham muhim vositani bajaradi. Chunki unda jamoa hayotining xilma-xil masalalari muhokama qilinishi va ma’lum umumiy fikr ishlab chiqilishi o‘quvchilarning muammolari o‘rganilib, ularni bartaraf qilish mumkin. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida axloqiy tarbiya jarayonining xususiyatlaridan biri shuki, unda o‘quvchilar jamoasi o‘zining sarmazmun hayoti va huquqlari doirasida o‘z rivojlanishida tartib intizomini mustahkamlab, har bir o‘quvchi va butun jamoa faoliyatini nazorat qilish, tartibga keltirishni, ma’lum rejim asosida uni boshqarishni amalga oshiradi. Jamoada bunday fikrlarni tarbiyalashda unda shakllangan jamoa fikri o‘quvchilar xulq-atvoriga bir qator talablar qo‘yadi. Bu talablar jamoa a‘zolarining xulq-atvoriga mustahkamlanib, uning odat va an‘analariga aylanadi. Bundan tashqari jamoa fikrining ta‘sir kuchi bizning milliy

xususiyatlarimiz bilan bog'lik. Ko'pchilik Sharq musulmon xalqlaridan, ayniqsa, qadimiy tarixi, tili, madaniyati bilan ajralib turuvchi o'zbek xalqi milliy mentollitetida jamoaviy fikr o'ta katta ta'sir kuchiga ega. Buni jamoa bo'lib turli tadbir, to'y, maraka, marosimlarni bamaslahat o'tkazish, mahalla kuyda uyushib yashash, farzandlar tarbiyasida ibrat namuna va fidoiylilik ko'rsatish kabi sifatlarida yaqqol ko'rish mumkin. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil qilishda jamoa bilan munosabati haqida gapirar ekamiz, shuni ta'kidlash lozimki, o'z xulq-atvori va harakatini ongli ravishda jamoa manfaati, ijtimoiy foydaga yo'naltirib, ular uchun kurashga tayyor va boshqalardan ham aynan shuni talab qiladigan o'quvchini tarbiyalash har qanday tarbiyalashning asosiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2003.
2. Djamilova N.N. va Xasanboeva O. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008.

* * *

Kazaqova Parida Sulaymanovna,
Xonqa pedagogika kolleji o'qituvchisi

Yusupova Mehribon O'ktamovna,
TATU Urganch filiali o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM DAVRIDA BOLALARDA HUQUQIY TARBIYANING METODOLOGIK ASOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqning vujudga kelishi to'g'risida turli xil nazariy qarashlar, huquqiy tarbiyaning ta'lim va tarbiyani tashkil etishdagi o'rni va uning huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirishda zaruriy shartligi, huquqiy tarbiyaning ta'limdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, konvensiya, huquqiy madaniyat, huquq, qonun, siyosiy, innovatsion texnologiya, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, konsepsiya huquqiy mafkura, umumjahon deklaratsiya.

Аннотация. В данной статье научно анализируются различные теоретические взгляды на правотворчество, роль правового воспитания в организации воспитания и обучения и его предпосылки для повышения уровня правовой культуры, роль правового воспитания в образовании.

Ключевые слова: правосознание, условность, правовая культура, право, право, политическая, инновационная технология, демократическое государство, гражданское общество, концепция, правовая идеология, всеобщая декларация.

Annotation. *This article scientifically analyzes various theoretical views on lawmaking, the role of legal education in the organization of education and training and its prerequisites for raising the level of legal culture, the role of legal education in education.*

Key words: *legal awareness, conventionality, legal culture, law, law, political, innovative technology, democratic state, civil society, concept, legal ideology, universal declaration.*

Tarbiya – murakkab ish, uning shart-sharoitlarini yaxshilash esa har bir kishining muqaddas burchidir. Suqrot jamiyatda insonlarning huquqiy bilimi, huquqiy ongi, madaniyati qanchalik yuqori shakllanganligi ularning huquqiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Bolalar – kelajagimiz. Bugungi kunda ular qanday axloqiy xatti-harakatlarga sarflaymiz, bizning umumiy ertangi kunimiz bevosita bog‘liq. Bolaning huquqi haqida ongli ravishda bilish, to‘liq, madaniyatli, o‘zini o‘zi ta‘minlash etadigan shaxsni shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakda huquqiy tarbiya jihatdan yetuk bo‘lishi uchun maktabgacha ta‘lim muassasalarida huquqiy tarbiyani bolalarga singdirish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi hamda huquqiy tarbiyani bolalikdan o‘rganib borish lozimligi boshlang‘ich tarbiya maskanlarida bolalarga huquqiy tarbiyani shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Demak, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiyani o‘rgatib borishi hamda ta‘limning turli usullaridan munosib foydalanishi kerak. Bolalarga huquqiy tarbiya haqida tushuncha berishda tarbiyachidan yangi innovatsion texnologiyalardan hamda kasbiy malakasidan unumli foydalanib tushunchalar berib borishi talab etiladi. Yosh avlodning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish g‘oyasi yosh avlodda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishni taqozo etadi.

Ma‘lumki, mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab yurtimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Zero, demokratik huquqiy davlat yuksak darajada rivojlangan huquqiy ong va huquqiy madaniyatga tayanadi. Bolalarda huquqiy madaniyatni yuzaga chiqarish uchun, avvalo, huquqiy ongni shakllantirish zarur. Huquqiy ong shaxsning barcha kechinmalari, fikr, g‘oya va qarashlarini tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida ikki tarkibiy qismdan iborat. Birinchisi, huquqiy ruhiyat – inson ongiga hissiy hodisalar bilan ta‘sir ko‘rsatuvchi tuyg‘ular, kechinma va holatlar. Ikkinchisi, huquqiy mafkura – huquqiy borliq to‘g‘risida nisbatan shakllangan qarashlar, tushunchalar, e‘tiqod, konsepsiyalar va nazariyalardir. Huquqiy ong, dastavval, oila va maktabgacha ta‘lim muassasalarida rivojlantirib boriladi. Oilada burch, mas‘uliyat va hurmat hissi tarbiyalab borilsa, maktabgacha ta‘lim muassasalarida burch, mas‘uliyat bilan birga Konstitutsiyaning ilk saboqlari ham beriladi. Huquqiy ta‘lim va tarbiya o‘zaro bog‘liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta‘lim bolalarga huquqiy me‘yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizim- langan bilimlarni berish, ularda huquqiy

bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ilk huquqiy ta'lim tarbiya berishda

bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Huquqiy qoidalarni bayon qilib berishda o'yin usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Bolalarga ilk huquqiy tushunchalarni berish orqali ularning shu davrdagi yoshiga mos qonun-qoidalarga rioya qilish maqsadi qo'yiladi va mashg'ulotlar tufayli ijobiy natijalarga erishiladi. Huquqiy ta'lim mashg'ulot tarzida bolalarga tevarak atrof, tabiat bilan tanishish, badiiy adabiyot, odobnoma mashg'ulotlarini mujassamlashtirib, har bir yo'nalishni bir-biriga moslab, uzviy ravishda olib boriladi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida ham qonun ustuvorligiga bejizga e'tiborni qaratgani yo'q. Sababi, qonun ustuvor bo'lgan joyda o'sish va taraqqiyot borligi rivojlangan davlatlar tajribalaridan ma'lum. Shu bois, farzandlarimizda kichik yoshidanoq huquqiy madaniyatni shakllantirib borsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Aniqrog'i, bolalarimiz kichikligidanoq o'z haq-huquqlarini topib, kattalar oldida burch va

mas'uliyatlarini to'g'ri aniqlab, ma'nan va jismonan barkamol avlod bo'lib,

shakllanishlari lozim. Dunyoda bolalardan ko'ra himoyaga muhtojroq insonlar yo'q. Bir og'iz iliq so'zdan ularning ko'ngli tog'dek ko'tarilib, salgina dildaxlikdan ko'ngillari vayron bo'ladi. Ba'zan kattalar e'tiborsizlik qilib kichiklarni no'rin ranjitib qo'yadilar. Arzimas sho'xliklari uchun qattiqqo'llik bilan jazolaydilar. To'g'ri, farzand tarbiyasi uchun ota-ona, tarbiyachilar javobgardir. Biroq, kerak bo'lganda qo'llaniladigan jazo choralari me'yorida oshib ketmasligi lozim. Aks holda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

BMTning —Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida

g'amxo'rlik va yordam bilan ta'minlangan huquqiga ega ekanliklari alohida bandlarda yozilgan. BMT Nizomida e'lon qilingan g'oyalar – tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tinchlik ruhida tarbiyalashlari lozimligini ta'kidlagan.

Huquqiy tarbiyaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konsensiya, O'zbekiston davlati va Prezidenti tomonidan yaratilgan asarlar, qabul qilingan va ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalar egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova O.A, G'afforova Z.M, Davlat va huquq asoslari.–Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.

* * *

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li,

UrDU tadqiqotchisi, Pedagogika fakulteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

sh.xudayberganov.urdu@mail.ru

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK ERKINLIKNI TA’MINLASHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI (QOZOG‘ISTON UNIVERSITETLARI MISOLIDA).

Annotatsiya. Asosiy mezon sifatida universitetning akademik erkinligini ta’minlash muhimligini aniqlash, uning yanada rivojlanishi va raqobatbardoshligi, akademik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, hozirgi bosqichda Qozog‘istonda universitetlar erkinligi. Ushbu maqolada Qozog‘iston qonunchiligini tahlil qilish misolida universitetning akademik erkinligiga davlatning ta’sirini cheklash bo’yicha takliflar, universitetning raqobatbardoshligini oshirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun akademik erkinlikni ta’minlash zarurati belgilandi, akademik erkinlik darajasining pasayishiga ta’sir qiluvchi salbiy omillar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: akademik erkinlik, akademik halollik, akademik erkinlikni tadbiq qilish bosqichlari, akademik erkinlik g‘oyasining ijtimoiy-pedagogik asoslari.

Аннотация. Определение важности обеспечения академической свободы вуза как основного критерия, определяющего его дальнейшее развитие и конкурентоспособность, определение факторов, влияющих на академический уровень свободы вузов Казахстана на современном этапе. В данной статье на примере анализа законодательства Казахстана предложения по ограничению влияния государства на академическую свободу вуза, необходимость обеспечения академической свободы для повышения конкурентоспособности вуза и саморазвития, выявлено негативное влияние на снижение уровня академической свободы факторов.

Ключевые слова: академическая свобода, академическая честность, этапы реализации академической свободы, социально-педагогические основы идеи академической свободы.

Annotation. Determining the importance of ensuring the academic freedom of the university as the main criterion, determining its further development and competitiveness, determining the factors affecting the academic level Freedom of universities in Kazakhstan at the current stage. In this article, on the example of the analysis of the legislation of Kazakhstan, proposals to limit the influence of the state on the academic freedom of the university, the need to ensure academic freedom to increase the competitiveness of the university and self-development, the negative impact on the decrease in the level of academic freedom were determined. factors are considered.

Key words. Academic freedom, academic honesty, stages of implementation of academic freedom, socio-pedagogical foundations of the idea of academic freedom.

Universitetning ta’lim tizimiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarga eng yaxshi javob berish qobiliyatining asosiy elementi akademik erkinlik va davlatdan avtonomiya olish imkoniyatidir.

Agar akademik erkinlik institutining rivojlanish tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash mumkinki, universitetlar ko'pincha tashqi institutlar bilan nizolarga kirishishlari kerak edi.

Akademik erkinlikning atributlaridan biri Germaniya, AQSh shartnomalarning maxsus tizimidir. Professorlarni yo'llash uchun: ular ochiq gapirganliklari yoki boshqa mavzular bo'yicha qarashlari uchun ishdan bo'shatilmaydilar, chunki ular akademik hamjamiyat tomonidan himoyalangan.

Vaqt o'tishi bilan akademik erkinlikning ta'rifi o'zgartirildi, kengayuvchi yoki toraytiruvchi talqinga duchor bo'ldi.

Hozirgi bosqichda ba'zan akademik erkinlik yordamning har qanday ko'rinishi sifatida qabul qilinadi:

samarali o'qitish va tadqiqot, shu jumladan, universitetni boshqarish jarayoniga professor-o'qituvchilarni keng jalb etish, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish kanallarini kengaytirish, o'quv xonalari va laboratoriyalarni zamonaviy jihozlar bilan jihozlash. *"Akademik erkinlik"* tushunchasi muvaffaqiyatga erishish uchun zarur omillarning mavjudligi sifatida qabul qilinadi.

Biroq ko'p universitetlar akademik erkinlikka tegishli deb da'vo qilsalar ham, aslida cheklaydilar, o'quv dasturlari mazmuni, o'rganilayotgan materialning mavzularini berish, ma'lum bir narsaga yo'l qo'ymaydi.

Akademik erkinlik bilan bog'liq savollar, boshqa tomondan, bilimlarni o'zgartirishni nazorat qilish, ularni Internet orqali tarqatishning zamonaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, muammoni keltirib chiqaradigan masofaviy ta'lim yangi innovatsion bilimlar uchun intellektual mulkni himoya qilish.

Bir narsa aniq, bugungi kunda akademik erkinlik oliy toifali universitet faoliyati uchun zarur shart. Akademik erkinlikning yuqori darajasi asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Universitetning yuqori darajadagi akademik erkinlik darajasi uning yuqori darajadagi ilmiy tadqiqotlarini rag'batlantiradi, fikr va mulohazalarni ifodalaydi.

Akademik erkinlikka ega bo'lish zamonaviy oliy ta'limning asosiy qadriyatidir.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy ta'lim va uning o'zgarishi asosiy omillarga ta'sir qiladi:

tijoratlashtirish, ommaviy xarakter, mavjudlik va h.k.

Akademik erkinlik shartnoma va kelishuvlar tizimi orqali professor sifatida ishlash huquqini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim omil akademik erkinlik universitetning qanday boshqarilishi, uning yetarli darajada moliyalashtirilganligi muhim emas. (Buning mohiyati shundaki, akademik erkinlik professorning imtiyozini emas universitetni boshqarishda ishtirok etishi, iloji bo'lsa, boshqaruv masalalari bo'yicha o'z fikrini bildirishi.)

Universitetlar tarkibi mahsuldorlik va samaradorlikni berishga majburdir, uning ishini baholash va tartiblash kerak, ammo agar salbiy natijalar bo'lsa, ishdan bo'shatishgacha bo'lgan ma'muriy choralarni qo'llash kerak, tabiiyki, puxta mansabdor shaxsdan keyin.

Bugungi kunda akademik erkinlikdagi cheklovlar ko‘plab mamlakatlardagi universitetlarga xosdir.

Talabalarning umumiy soni to‘g‘risida qaror qabul qilish va qabul mezonlarini belgilash qobiliyati institutsional avtonomiyaning asosiy jihatlaridir. O‘qish joylari soni muhim ahamiyatga ega universitet profili va moliyasi uchun ahamiyatli va tanlov imkoniyati talaba qiziqishlari sifati va mosligini ta‘minlashga katta hissa qo‘shadi.

Inson resurslarini boshqarish, shu jumladan ishga qabul qilish, ish haqi, ishdan bo‘shatish va rag‘batlantirish. Universitetlarda bo‘lishi kerak eng munosib va malakali ishga qodir o‘qituvchilar va ma‘muriy xodimlar tashqi retseptlarsiz yoki aralashuviz.

Moliyaviy avtonomiya qobiliyatni anglatadi:

- universitet o‘z mablag‘larini mustaqil ravishda boshqarishi mumkin uning byudjetini ajratadi;

- universitetning ichki moliyaviy masalalari bo‘yicha erkin qaror qabul qilish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘z mablag‘larini mustaqil boshqarish imkonini beradi.

Yevropa va jahonning boshqa yetakchi universitetlari tajribasini o‘rganish shuni ta‘kidlash imkonini beradiki, ularning akademik erkinlikka sodiqlik amaliyoti Qozog‘iston oliy ta‘lim muassasalari tizimini o‘zgartirishda javob topadi.

Boloniya jarayoni tamoyillari bo‘yicha ta‘limning sobiq chiziqli tizimidan kredit amaliyotiga o‘tish usullari alohida qiziqish uyg‘otadi. Qozog‘iston ta‘lim siyosati Boloniya jarayonining ustuvor yo‘nalishlariga asoslanadi va ta‘minlashga qaratilgan orqali yuqori sifatli ta‘lim kafolatlanadi.

Qozog‘iston oliy ta‘lim tizimi jahon tendensiyalari, jarayonga mos ravishda ishonch bilan rivojlanmoqda, akademik erkinlik haqiqiy atributga aylanmoqda ta‘lim jarayoni, Qozog‘iston rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda.

Akademik erkinlikni rivojlantirishni cheklovchi omillar milliy darajada oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim sohasidagi qonunchilikdagi muntazam o‘zgarishlar, shuningdek, ta‘limni massivlashtirish va utilitarizatsiya qilishning global tendentsiyasidir.

Qozog‘iston jamiyati, qozoq mentalitetini hisobga olgan holda, akademik erkinlikni ko‘pincha qabul qiladi.

Biz uchun hozirgi vaqtda ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar juda dolzarbdir, chunki ular orqali universitetning o‘zini namoyon qilishini aktuallashtiradi va ta‘lim dasturlari, ularning mashhurligi va sifati ta‘lim xizmatlari iste‘molchilari uchun universitetning jozibadorligini ta‘minlaydi.

Quyida biz ta‘lim dasturlarini ochish jarayonida duch kelgan akademik erkinlikni cheklashning bir qator misollarini keltiramiz:

1. Qozog‘iston Respublikasi oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim mutaxassisliklari tasniflagichi hisoblanadi, yangi ta‘lim ochishda cheklovchi mehnat bozorini ta‘minlash dasturlari.

2. Klassifikatorning mavjudligi protsedura bilan bog‘liq ta‘lim dasturlarini (mutaxassisliklarini) litsenziyalash. Bizning fikrimizcha, ta‘lim faoliyati litsenziyalanishi kerak. Lekin ta‘lim dasturlari jamoatchilik tomonidan tan olinishi, ya‘ni akkreditatsiyadan o‘tishi kerak.

3. Davlat ta'lim standartlari va namunaviy o'quv dasturlari ham ta'limni amalga oshirishda universitetlarning akademik erkinligiga to'sqinlik qiladi, dasturlari va talabalar tomonidan individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish.

4. Bakalavriat, magistratura, doktoranturaning ta'lim dasturlariga qabul qilish tartibi. Universitetlar, hatto xususiy universitetlar ham ta'lim dasturlari uchun abituriyentlarni tanlash mezonlarini mustaqil ravishda belgilash huquqidan mahrum.

5. Talabalar kontingentini aniqlash masalalarida universitetning akademik erkinligini cheklash Tashkilotlar faoliyatining namunaviy qoidalarida belgilangan.

tegishli turdagi shakllanishlar, xususan "Talabalarining qisqartirilgan kontingenti aniqlandi: kunduzgi, kechki va yarim vaqtda ularning soni asosida ta'lim shakllari tashkillashtiriladi."

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra kelgusi yillarda talabalar kontingentining ko'payishi birinchi navbatda kattalar hisobidan sodir bo'lishi mumkin, ish joyida sirtidan o'qitilishi kerak bo'lgan iqtisodiy faol aholi va masofaviy texnologiyalardan foydalanish munosabati bilan oliy o'quv yurtlaridan o'qishga kirishdagi cheklovni olib tashlash kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bozor iqtisodiyoti, ta'limdagi raqobat muhiti, jamiyatda e'tirof etishning o'zi yetarli. Ta'lim sifatini oshirish, universitetlarning mas'uliyati va o'zini-o'zi rivojlantirishni rag'batlantirish. Bunday sharoitlarda akademik erkinlik, universitetning ijro etuvchi organning ortiqcha aralashuvidan mustaqilligi muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Европейский опыт формирования общего понимания содержания квалификаций и структур степеней // <http://www.edst.msu.ru/conf/docs/europe.doc>
2. Г.К. Ахметова, Г.Н. Паршина, А.К. Мынбаева, А.М. Алыбаева.-Методология идентификации образовательных программ, – Алматы: Қазақ университеті, 2009. - 44с.
3. Постановление правительства Республики Казахстан №1080 «Об утверждении государственных общеобязательных стандартов образования соответствующих уровней образования» от 23 августа 2012 г.
4. www.google.uz

* * *

Djo‘raev Farxod Qurbonboevich,

*Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi.*

Email:fahoddjoraev306@gmail.com

HARBIY KADRLARDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING NATO TAJRIBASI

Annotatsiya. Maqolada harbiy xizmatchilar ongi va tafakkurida g‘oyaviy-mafkuraviy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning xalqaro-empirik tajribasi NATO harbiy tashkiloti misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilar, ma‘naviy-mafkuraviy barqarorlik, mudofaa va xavfsizlik, NATO harbiy ittifoqi.

Аннотация. В статье на примере военной организации НАТО показан зарубежный эмпирический опыт формирования и развития идейно-мировоззренческих навыков в сознании и мышлении военнослужащих.

Ключевые слова: военнослужащие, морально-идеологическая устойчивость, оборона и безопасность, военный союз НАТО.

Annotation. Using the example of the NATO military organization, the article shows foreign empirical experience in the formation and development of ideological and worldview skills in the minds and thinking of servicemen.

Keywords: military personnel, moral and ideological stability, defense and security, NATO military alliance.

Yangi asr boshiga kelib, jahon mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy-siyosiy, harbiy va boshqa sohalarda keskin tabaqalanish vujudga keldi. Taraqqiyotning barcha yo‘nalishlarida boshqalardan ilgarilab ketgan mamlakatlar tajribasini kuzatib shunday xulosaga kelish mumkinki, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni tizimli tashkil etgan davlatlar boshqa sohalarda ham (jumladan harbiy sohada) o‘zining muayyan ijobiy natijalarini qayd etgan. Demak, bir sohaning rivoji alohida ravishda sodir bo‘lmaydi. Jamiyatda barcha sohalar bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

Yangi davr har bir davlatdan barcha yo‘nalishlarda olib boriladigan islohotlar qatorida mafkuraviy yo‘nalishni ham kun tartibidagi birlamchi masala sifatida olib borishni taqozo etmoqda. Jamiyat a‘zolarining g‘oyaviy-mafkuraviy takomili ham o‘sha jamiyatning turli yo‘nalishlardagi tizimli islohotlari bilan birga kechadi. Zero, bugungi kun mafkuraviy tajovuzning turli ko‘rinishlarini insoniyatga taqdim etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bosh qo‘mondoni, mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning

hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz hamda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishimiz va uning oldini olishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim" [1].

Doimiy rivojlanib borishni, modernizatsiya qilishni taqozo qiladigan muhim sohalardan biri – bu harbiy sohadir. Rivojlangan mamlakatlar o'zining harbiy takomili uchun milliardlab mablag' sarflamoqda. Buning obyektiv sababi bor, albatta. Mintaqada va jahonda tinchlikni ta'minlash, o'z fuqarolarini tashqi va ichki xavf-xatarlardan himoya qilish milliy xavfsizlikni ta'minlash va barqaror taraqqiyotga erishish vositasidir. Shu sabab, mudofaa tizimi rivojini yanada yuksaltirish mamlakat mudofaa va xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish va muntazam yangilab borishni shartlab qo'yadi. Bugungi kunda mudofaa strategiyasini to'g'ri va maqsadli yaratish nafaqat, milliy armiyani zamonaviy qurol-aslahalar va askarlar bilan ta'minlash balki, Qurolli Kuchlarning g'oyaviy ko'nikmalarini rivojlantirish, mafkuraviy saviyasini milliy manfaatlardan kelib chiqib shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu sababdan, harbiy kadrlarda g'oyaviy ko'nikmalarni rivojlantirishning xalqaro-empirik tajribasini o'rganish va uning eng muhim strategik yo'nalishlarini milliy tajribada qo'llash natijadorlikka sabab bo'ladi.

Xalqaro tajribani o'rganishda, eng avvalo, harbiy qudratini global masshtabda namoyon qilib kelayotgan NATO (Shimoliy Atlantika harbiy ittifoqi) misolida ko'rib chiqish zarurati tug'iladi. Muntazam armiya tarkibidagi harbiy ofitser, komandir – serjant kadrlar ularni tayyorlashga mas'ul bo'lgan ta'lim tizimidan boshlanadi. NATOning mazkur yo'nalishda kadrlar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlariga e'tibor qaratamiz: Mazkur dasturga ko'ra, "harbiylar maxsus fazilatlarga, tegishli bilim, ko'nikma va harbiy odob-axloq qoidalariga ega bo'lishni nazarda tutadi. Harbiylar o'zlarining kasbiy-axloqiy bilimlarini yuqori darajaga ko'tarishni o'z martabalaridan kelib chiqib o'rganadilar" [2].

"Ishlagan lavozimidan qat'i nazar, harbiy – mansab serjanti yoki ofitser - harbiy odob-axloq qoidalariga, qo'mondonlik fazilatlarga sodiqligini, harbiy kasbga mansubligini ko'rsatishi va o'zini vataniga xizmat qilayotgan fuqaro sifatida his qilishi kerak. Harbiyning sakkizta asosiy xususiyati: burch, or-nomus, fidoyilik, o'z vataniga xizmat qilishga tayyorlik, malakalilik, jamoaviylik, davlat hokimiyati organlariga bo'ysunish, namunali tashkilotchilik qobiliyati (qo'mondonlik fazilatlari) bo'lishi shart" [2].

Tashkilot Qurolli kuchlarining barcha shaxsiy tarkibini ruhlantirish zarurati harbiy soha faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u boshqa vositalar qatori o'z mamlakatini qolaversa, ittifoqchi davlatlarni mudofaa qilish, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikni o'rnatish, saqlash targ'ibotini o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilar g'oyaviy-ruhiy kuch ko'magida muayyan vaziyatni tezda tahlil qilish va tegishli qaror qabul qilish, dushman harakatlarini sezish, aniqlash va bartaraf etish kabi vazifalarni mukammal ado etishga erishadilar. AQShlik davlat va jamoat arbobi Uilyamson Myurrey ta'riflaganidek, "harbiy soha vakillarining asosiy kuch-qudrati ularga yuklatilgan tinchlikni saqlash va o'rnatishgacha bo'lgan to'liq ixtiloflar doirasidagi har qanday vazifalarni bajarishdagi ruhiy-ma'naviy tayyorgarlik bilan belgilanadi" [3].

Myurreyning fikrlarini yana bir mutaxassis AQShning quruqlikdagi qo‘shinlar generali E.Shinsekining quyidagi qarashlari tasdiqlaydi: “Armiya xavfli hududlarda beqaror vaziyatni barqarorlashtirish vazifasini bajaradi. Shu ma’noda armiya xalqning sadoqatini eng yuqori darajada bajarishi lozim. Bizning maqsadimiz armiya jangovar, yetuk va ruhiy barqaror bo‘lishi kerak – tinchlik davrida ishonchli, urushlar davrida esa yengilmas” [4].

E’tiborimizni tortgan jihatlardan biri – bu NATO harbiy kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashda harbiylarning ma’naviy-ruhiy kamolotiga qaratadigan e’tiboridir. Yaratilgan o‘quv dasturlarining aksariyatida mazkur masala strategik ahamiyatga molik tizimli faoliyat sifatida qaralgan.

Fikrlarimizni dalillash maqsadida “Qo‘mondonlik oliy harbiy ta’limining kadrlar tayyorlash namunaviy o‘quv dasturi” “Qo‘mondonlik sifatlari va odob-axloqi” bo‘limida “Kasbiy harbiy odob-axloqni o‘rganish va rivojlantirish” moduli shakllantirilgan. Mazkur modulda qadriyatlar tizimi, shaxs xarakterining shakllanish jihatlari va uning axloqiy me’yorlari alohida mavzu sifatida o‘tilishi rejalashtirilgan. Unga ko‘ra, “har bir tinglovchi turli xil individual va jamoaviy fazilatlarining mavjudligi uchun baholanadi, shundan so‘ng ularning har biriga olingan bahodan kelib chiqib vazifalar taqsimlanadi” [5].

“Harbiy kadrlar tayyorlash bosqichining oxirida bitiruvchilar 50 kishidan ko‘p bo‘lmagan otryad, ekipaj, yoki vzvodga rahbarlik qilishlari kerak. Eng asosiysi, bitiruvchilar harbiy koalitsiya kuchlarining bir qismi sifatida turli etnik, ko‘p millatli va madaniy kelib chiqishi turlicha bo‘lgan erkaklar va ayollarni o‘z ichiga olgan aralash jamoalarni boshqarishga qodir bo‘lishi kerak” [5].

E’tiborlisi shuki, NATO kadrlar tayyorlash kurslarini bitirgan harbiy kadrlarni birinchi navbatda o‘z shaxsiy fazilatlari, sarkardalik xususiyatlari, o‘z Vatani manfaatlari uchun xizmat qilayotganliklarini teran anglashlari talab etiladi. Harbiy kadrlarni tayyorlashda uch muhim yo‘nalish ko‘rsatilgan. Bular: jangovar tayyorgarlikning yuqori darajasi, siyosiy tayyorgarlik hamda ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik. Mazkur uch yo‘nalishdagi tayyorgarlikni tahlil qilish asnosida quyidagi umumiy tasavvurlar shakllanadi:

- ❖ jangovar tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy o‘ziga tegishli qurollardan foydalana bilish, jang maydonida o‘zini qanday tutish, harbiy tartib-intizomga qat’iy rioya qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi;

- ❖ siyosiy tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy o‘z faoliyatini nima maqsadda olib borayotganini teran anglaydi, mamlakat milliy manfaatlarini tushunadi va harbiy harakatlar olib borishning asosiy maqsadi tinchlikni ta’minlash ekanligini mushohada qila oladi;

- ❖ ma’naviy-ruhiy jihatdan yuksaklikka erishgan harbiy esa, o‘zining harbiy harakatlari ortida Vatan xavfsizligi, tinchligi va barqarorligi turganini his etadi. O‘z kasbini bajarishi uning oilasi, yaqinlari va o‘zi yashaydigan jamiyat uchun eng foydali bo‘lishini tushunadi.

Biz yuqorida nomini qayd etgan o‘quv dasturida harbiylarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Unga ko‘ra, “Shaxsiy fazilatlar – jamoaviy fazilatlarni shakllantirishni ta’minlaydigan va shaxsning

qarorlari va harakatlarini belgilaydigan axloqiy fazilatlar"[5] deb ko'rsatilgan. Shaxsiy fazilatlarga ega harbiy xizmatchida haqiqiy sarkarda xislatlari mavjud bo'ladi, oqilona qarorlar qabul qiladi, mardlik va fidoyilikni dastlab o'z harakatlarida ko'rsatib, keyin boshqalardan talab qiladi.

Shaxsiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan harbiy xizmatchining ijobiy xususiyatlari haqida o'quv dasturida quyidagi jihatlar keltirilgan:

1) o'ziga ishonib topshirilgan jangovar topshiriqni bajarishda haqiqiy harbiydan talab qilinadigan qo'mondonlik fazilatlarini namoyish etish qobiliyati;

"shaxsiy o'rnak ko'rsatish, faol jamoani shakllantirish va boshqarish, gender va irqiy tenglikni targ'ib qilish, tashabbuskorlik, qo'l ostidagilarga g'amxo'rlik qilish va ularning muvaffaqiyatini rag'batlantirish, aloqa tizimlari va aloqa vositalaridan samarali foydalanish, o'zi va bo'linmasi uchun javobgarlik mas'uliyati, qo'l ostidagilarga ma'naviy-psixologik yordam ko'rsatish, jamoadoshlarning yutuqlarini e'tirof etish va muvaffaqiyatsizliklari haqida konstruktiv fikr bildirish" [5].

2) Jamiyat hayoti va shaxsiy hayotning barcha jabhalarida namunali xulq-atvor uchun armiya va jamiyat talablariga rioya qilish.

3) o'z askarlarini tayyorlash va bo'linmaning jangovar tayyorgarligi uchun ma'naviy javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

4) Boshqalarga hurmat ko'rsatish tenglik tamoyillariga rioya qilish.

5) Atrofdagilarga, ularning dini, millati, urf-odatlarini, qadriyatlariga iliq munosabat.

6) Harbiy va ma'naviy jasorat tushunchalarini anglash, halollik va qat'iyatlilik, ruhiy barqarorlik, o'zini va o'zgalarni qadrlash hurmat qilish, harbiy soha qadriyatlariga muvofiq hayot kechirish.

NATO qurolli kuchlarining ma'naviy-ruhiy takomiliga sabab bo'luvchi omillarni ko'rib chiqamiz. Fikrimizcha ular quyidagilardan iborat:

➤ fuqarolar ongi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatishning aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, tizimli yo'nalishi;

➤ barcha fuqarolarga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatishning mukammal darajasi;

➤ harbiy sohani egallashga bo'lgan rag'bat tizimining yuqori darajasi, tizim rivoji uchun yaratilgan yirik loyihalar, dasturlarning amalda samarali bajarilishi;

➤ harbiy-vatanparvarlik g'oyalari turmush tarzining bir qismiga aylantirilganligi, milliy an'analar, urf-odatlarni mudofaa tizimi bilan uyg'unlashtirib yuborilganligi;

➤ harbiy vatanparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilish va mazkur jarayonga barcha moddiy va ma'naviy resurslarning (ijtimoiy ta'minot, moliyaviy barqarorlik) yo'naltirilganligi;

➤ harbiy soha vakillarini jamiyatning eng faol qatlami sifatida e'tirof va munosabatning yuqori darajasi, jarayonga turli targ'ibot vositalari (OAV) jalb etilishi;

➤ davlat va jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, diniy va boshqa tuzilmalarning harbiy soha bilan faol hamkorligi;

➤ harbiy xizmatchilar ma'naviy-ruhiy kamolotini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot faoliyatining samarali yo'lga qo'yilganligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, har qanday zamonaviy armiya kutilmagan tahdidlarni bartaraf etishga tayyor bo‘lishi xavfsizlikni ta‘minlashning birlamchi talabidir. Qurolli kuchlarning harbiy va g‘oyaviy-mafkuraviy imkoniyatlaridagi o‘zaro aloqadorlik samaradorlikni ta‘minlaydi. Taniqli davlat va jamoat arbobi Jorj Vashingtonning “Qo‘shinning kayfiyati, ruhiy holatining barqarorligi urushda g‘alaba qozonishning kalitidir. Biz doimo odamlarning kayfiyatini hisobga olishimiz kerak. Bu, ayniqsa, biz olib borayotgan urushlar sharoitida ma‘naviyat va fidoyilikka bo‘lgan e‘tiborni oshirishni talab etadi. Intizom armiyaning ruhidir. Bu kichik qo‘shinni qudratli kuchga aylantiradi, zaiflarga muvaffaqiyat va barchaga hurmat keltiradi” degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaganligini ko‘rish mumkin.

Hozirgi davrda Shimoliy Atlantika harbiy ittifoqi (NATO) jahondagi 30 nafar davlatning harbiy kuchlarini o‘zida jamlagan eng yirik harbiy xalqaro tashkilot sifatida o‘z oldiga harbiy xizmatchilarning jismoniy, texnik va taktik layoqatini oshirish bilan bir qatorda, askarlarning axloqiy-ma‘naviy salohiyatini oshirishga o‘z e‘tiborini qaratmoqda. Biz tashkilotning o‘quv dasturlari, mafkuraviy targ‘ibot materiallari misolida mazkur jarayonni yoritishga harakat qildik. Tashkilot tajribasidan kelib chiqib, harbiy xizmatchining jangovarlik xislatlarini shakllantirish uning ma‘naviy-ruhiy imkoniyatlarini oshirish bilan bir davrda kechishi lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 25.
2. Типовой базисный учебный план (ТБУП) подготовки командного состава в системе специального военного образования. Академия вооружённых сил Канады PO. Box 17000 Stn Forces g. Kingston (prov. Ontario). david.emelifeonwu@forces.gc.ca
3. Williamson Murray, “Testimony House Armed Services Committee: Subcommittee on Professional Military Education,” [«Заявление Комиссии палаты представителей по делам ВС: подкомитет по специальному военному образованию»], не опубликовано, 10 сентября 2009 г., стр. 4.
4. Eric K. Shinseki. “Intent of the Chief of Staff, Army, 23 June 99” excerpt. Available from <http://www.army.mil/armyvision/intent.htm>.
5. Типовой базисный учебный план (ТБУП) подготовки командного состава в системе специального военного образования. Академия вооружённых сил Канады PO. Box 17000 Stn Forces g. Kingston (prov. Ontario). david.emelifeonwu@forces.gc.ca.

TO'RTINCHI SHO'BA:

**NOGIRONLIGI
BO'LGAN SHAXSLARNI
ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA
QILISH**

А.Инаков,
директор Агентства по развитию
медико-социальных услуг

РАЗВИТИЕ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ ЛЮДЯМ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА И ЛИЦАМ ИНВАЛИДНОСТЬЮ - КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

На сегодняшний день поддержка чести и достоинства человека у нас в стране возведено в ранг государственной политики. Особенно, в направлении улучшения качества жизни престарелых и лиц с инвалидностью, защита их прав и интересов, обеспечение их полноценной жизнедеятельности реализуются целенаправленные работы.

Проведенные реформы в республике за последние 5 лет привели конкретным результатам и в основе реализованных мер лежат особое внимание и чуткое отношение Руководителя страны к судьбам и чаяниям престарелых и лиц с инвалидностью.

Совершенствовалось и приведено в соответствии международным стандартам законодательная и нормативно-правовая база. Приняты Законы Республики Узбекистан “О правах лиц с инвалидностью” и “О ратификации Конвенции ООН “О правах инвалидов”.

Только лишь в текущем 2022 году утверждены 3 Указа Президента Республики Узбекистан, 4 Постановлений Президента Республики Узбекистан, 2 Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан и 4 ведомственные нормативно-правовые документы, направленные на дальнейшее развитие отрасли.

В настоящее время разработаны, согласованы с заинтересованными министерствами и ведомствами, проведены юридические экспертизы в Министерстве Юстиции следующие проекты:

Закон Республики Узбекистан “О социальной работе”;

Указ Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по совершенствованию медико-социальных услуг престарелым и лицам с инвалидностью и развития деятельности медико-социальных учреждений”;

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “Об утверждении Положения о временном, бесплатном обеспечении техническими средствами реабилитации детей с спинальной мышечной атрофии, находящимся на лечении в домашних условиях”.

В период 2017-2022 годы:

охват бесплатным медико-социальным обслуживанием увеличен с 80,0 тыс. до 145 тыс. (рост 80,0%);

более 18,0 тыс. одинокие и одиноко проживающие престарелые и лица с инвалидностью, нуждающиеся в постороннем уходе полностью охвачены домашним социальным обслуживанием;

перечень ежемесячно бесплатно выдаваемых продуктов питания и средств гигиены более чем 4,0 тыс. одиноким престарелым и лицам с инвалидностью, нуждающиеся в постороннем уходе увеличен с 15 до 19;

начиная с июня текущего года вместо бесплатно выдаваемых продуктов питания и средств гигиены выдаются компенсации по 300,0 тыс. сум к их ежемесячным пенсиям;

общее количество одиноких престарелых и лиц с инвалидностью взятых на полное государственное обеспечение и проживающих в домах “Саховат” ва “Мурувват” увеличилось на 14,0% и достигло 9,3 тыс.;

перечень бесплатно выдаваемых протезно-ортопедических изделий и технических средств реабилитации нуждающимся увеличен с 22 видов до 30;

обеспечение нуждающихся протезно-ортопедическими изделиями и техническими средствами реабилитации увеличилось в 2 раза и превысило 40,0 тыс. изделий. Внедрена новая система покупки изделий нуждающимися по их собственному выбору, при помощи сертификатов;

общее количество оздоровленных в санаториях и прошедших реабилитации увеличилось на 20,0% и достигло 45,0 тыс. человек;

проведены работы по новому строительству, реконструкции и оснащению медико-социальных учреждений на сумму 340,2 млрд.сум. В текущем 2022 году завершаются работы по строительству, реконструкции и капитальному ремонту 9 медико-социальных учреждений на сумму 89,1 млрд.сум.

Вновь построены и введены в строй санатории в городах Карши и Ургенч по 75 коек и в г. Бухаре на 100 коек, в Кумкурганском районе детский дом “Мурувват” на 150 коек, в Термезском районе региональный центр реабилитации и протезирования на 100 коек. В октябре 2022 года введен в строй ввод новый женский дом “Мурувват” на 300 коек в Шараф Рашидовском районе Джизакской области, в декабре 2022 года в Наманганском доме «Саховат» организован «Сад для престарелых» на 50 мест, с дневным обслуживанием.

Согласно Постановления Президента Республики Узбекистан от 27 ноября 2021 года №22 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности службы медико-социальной экспертизы и системы установления инвалидности детям” на сегодняшний день:

вместо старой системы врачебно-трудовых экспертных комиссий создана новая, единая системы медико-социальных экспертных комиссий;

вновь созданы 19 педиатрические медико-социальные экспертные комиссии для установления инвалидности детям до 18 лет;

внедрен новый порядок установления инвалидности при явных признаках инвалидности и анатомических дефектах, а при установлении инвалидности гражданам определить ее срок на бессрочно.

с 1 декабря 2021 года запущен механизм представления медико-социальными экспертными комиссиями в информационную систему «Служба занятости» сведений, о видах трудовой деятельности, которые могут быть осуществлены лицами с инвалидностью;

с 1 апреля 2022 года внедрен механизм представления медико-социальными экспертными комиссиями информации в внебюджетный Пенсионный фонд о детях с инвалидностью до 18 лет, нуждающихся в постороннем уходе, для последующей ежемесячной выплаты их родителям по 500,0 тыс. сум.

Вышесказанные служат уверенными шагами, в направлении перехода у нас в республике к общепринятой “социальной модели” установления инвалидности.

На сегодняшний день при техническом содействии представительств ООН в Республике Узбекистан как ПРООН, ЮНИСЕФ, ВОЗ, Всемирный Банк подготовлен проект Указа Президента Республики Узбекистан, в котором предусматриваются механизмы поэтапного перехода у нас в стране к “социальной модели” установления инвалидности. В его основе лежат принципы построения в республике общества для всех, в том числе, и для лиц с инвалидностью.

Разработаны проекты Концепции поэтапного перехода от старой «медицинской» модели определения инвалидности к общепризнанной «социальной» модели и «Дорожной карты» по ее реализации. Вопрос создания «безбарьерной среды» для лиц с инвалидностью определен в качестве одного из приоритетных в этих документах. И соответственно, на объектах, направленных на создание условий для проживания инвалидов на местах – на дорожных инфраструктурах, общественных автомобильных транспортах, объектах социальной инфраструктуры - в дошкольных образовательных учреждениях, общеобразовательных школах, институтах, поликлиниках, больницах, базах отдыха постепенно будут решаться вопросы создания действительно «безбарьерной среды», расширение возможностей лиц с инвалидностью свободно передвигаться, учиться, получать образование, приобретать конкурентоспособные на рынке труда профессии, лечиться, отдыхать, заниматься спортом, в том числе паралимпийскими видами спорта. Следует отметить, что этот процесс довольно сложный и долговременный и сложно завершить его за один-два года. Самое главное то, что Правительством обозначена эта проблема, которая, несомненно поэтапно найдет свое решение.

Ратификация Конвенции ООН о правах инвалидов поставила перед нашим государством и обществом ответственные задачи. Поэтапный переход на «социальную» модель инвалидности, финансовая поддержка лиц с инвалидностью, желающих начать собственную трудовую деятельность, финансовая поддержка предприятий, на которых работают лица с инвалидностью, широкое внедрение инклюзивного образования в общеобразовательных школах, расширение квот приема юношей и девушек с инвалидностью в высшие учебные заведения, создание в учреждениях для них беспрепятственную среду и другие вопросы являются лишь частью комплексных работ, проводимой государством и обществом.

В этом актуальном направлении дополнительно проделаны следующие:

обмен медицинскими документами между Врачебно-консультативными комиссиями и Медико-социальными экспертными комиссиями постепенно осуществляется посредством электронного документооборота.

Так, с 1 августа 2022 года медицинские заключения и необходимые документы, необходимые для установления инвалидности лечебно-профилактическими учреждениями города Ташкента в медико-социальные экспертные комиссии направляются в электронной форме. С января 2023 года этот опыт будет внедрена также в Республике Каракалпакстан и во всех областях республики.

В 2021 году впервые в истории Узбекистана дети и взрослые, имеющие инвалидность, были бесплатно обеспечены современными техническими средствами реабилитации. В том числе, 4 тысяч пар современных цифровых слуховых аппаратов для 2 тысяч слабослышащих детей, обучающихся в специализированных школах-интернатах, 1,8 тысяч штук аудиотермометров для слабовидящих детей и взрослых, 2 тысяч голосовых тонометров, 4 тысяч штук разборной азбуки по Брайлю, 1,1 тысяч человек с инвалидностью были обеспечены современными электроинвалидными колясками, 5 тысячами смарт-часами со специальными функциями для оповещения одиноких престарелых и лиц с инвалидностью, нуждающихся в постороннем уходе в критических и экстренных ситуациях об экстренной помощи. Все центры реабилитации и протезирования обеспечены 14 современными роботизированными экзоскелетами, способствующих восстановлению функций самостоятельной ходьбы у детей и взрослых с ограниченными возможностями.

Согласно поручения до конца текущего года 120 воины-ветераны, участники войны в Афганистане будут обеспечены 130 современными протезно-ортопедическими изделиями. На сегодняшний день подготовлен полный список нуждающихся, разработаны и утверждены технические задания к приобретаемым изделиям и начаты организационные работы по проведению соответствующих тендерных торгов. Согласно графика в ноябре-декабре 2022 года все нуждающиеся ветераны будут полностью обеспечены современными протезно-ортопедическими изделиями.

Откровенно говоря, мы находимся в начале процесса создания безбарьерной среды для людей с ограниченными возможностями. Правда, вопрос установления пандусов в целях обеспечения свободного передвижения лиц с инвалидностью в объектах социальной инфраструктуры всегда был в центре внимания нашего государства. Ну и понятно, что «безбарьерная среда» — это не только установка пандусов.

В Стратегии развития перед Агентством на 2022 год поставлены две основные задачи:

первая – это постепенный переход к «социальной модели» определения инвалидности;

вторая – переход к новой системе, предусматривающей повышение роли и места государства в протезировании, по этапное обеспечение нуждающихся граждан современными протезно-ортопедическими изделиями.

В настоящее время подготовлен проект директивного документа по выполнению обеих задач, который согласован с соответствующими министерствами, ведомствами, общественными организациями, прошел

правовую экспертизу в Министерстве юстиции. С утверждением документа задачи, указанные в Стратегии развития, будут реализовываться на основе конкретных механизмов.

Конвенция ООН о правах инвалидов реализуется в соответствии с процедурами определения инвалидности. Для обеспечения безусловного выполнения этих работ был организован ряд семинаров, тренингов и круглых столов. Был внимательно изучен опыт таких стран как Литва, Грузия, Молдова, Российская Федерация и республика Беларусь. Утверждены меморандумы о сотрудничестве с соответствующими научно-практическими центрами и институтами Российской Федерации и Республики Беларусь.

На сегодняшний день совместно с профильными министерствами, ведомствами, общественными организациями, ЮНИСЕФ, представительства Программы развития ООН в Узбекистане разработан и прошел правовую экспертизу в Министерстве юстиции проект нового Закона Республики Узбекистан «О социальной работе».

Законопроект включает в себе такие понятия как социальная работа, социальные услуги, социальный работник, помощник социального работника, работник по социальному обслуживанию на дому, стандарты социального обслуживания, перечень получателей социальных услуг, перечень поставщиков социальных услуг и другие. Кроме того, в проекте изложены основные принципы государственной политики в сфере социальной работы, полномочия органов в сфере социальной работы, деятельность социального работника - обязанности социального работника, социальной работы по обеспечению защиты детей, в системе образовательных учреждений (дошкольных, школьных, профессионально-технических), здравоохранения, медицины предусмотрены такие нормы, как оказание социальных услуг, правоохранительных органах и органах самоуправления.

Указом Президента Республики Узбекистан от 25 июля 2022 года “Об утверждении Стратегии социальной защиты населения Республики Узбекистан” Перед Агентством поставлены конкретные задачи.

Одним из основных направлений стратегии является развитие социального обслуживания малообеспеченных категорий населения и семей.

В направлении развития системы социального обслуживания населения определены следующие цели:

- первая цель - развитие направления оказания социальных услуг малоимущим слоям населения на уровне махалли, то есть оказывать социальную помощь и услуги на основе комплексного подхода по выводу конкретных семей из сложной жизненной ситуации, в которую они попали;

- вторая цель заключается в укреплении потенциала работников социальных служб. Развитие системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации социальных работников, развивать деятельность районных (городских) отделов Агентства по развитию медико-социального услуг и укреплять их кадровый потенциал;

– третья цель - разработка и утверждение перечня социальных услуг малообеспеченным слоям населения (социально-медицинских, социально-педагогических, социально-психологических, социально-правовых, социально-бытовых и социально-экономических услуг), гарантируемых государством и стандартов этих услуг

В рамках реализуемых в нашей стране кардинальных реформ создание и развитие возможностей для самореализации каждого члена общества, уважение человека и его достоинства, всесторонняя поддержка людей, нуждающихся в поддержке и помощи, являются приоритетными направлениями социальной политики государства.

В заключении нужно отметить, что в республике созданы все необходимые условия по обеспечению полноценной и активной жизнедеятельности престарелых и лиц с инвалидностью, их социальной поддержки и работы в этом направлении будут расширены на системной основе.

* * *

Qodirova Feruzaxon Usmanovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNI TO'LAQONLI HAYOTGA TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Jahonda ta'lim barcha uchun tamoyiliga asoslangan inklyuziv ta'limni keng joriy etish, uzluksiz ta'limning barqarorligini ta'minlovchi umumpedagogik qarashlar, ilg'or tendensiyalar, innovatsion hamda variativ texnologiyalarni aniqlash, tanlash va amaliyotga samarali joriy etish bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari AQSH, Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston hamda boshqa davlatlarda olib borilmoqda. Nogironlikni erta aniqlash texnologiyalari, ta'lim muassasalarida korreksion-kompensatsion yondashuvlar, kommunikativ tizim tamoyillarini samarali qo'llash orqali o'quv fanlarini o'qitish, o'quvchilarni oilaga, mehnatga tayyorlash mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilgan.

Mamlakatimizda jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishning huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chiqildi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etiluvchi kar, zaif eshituvchi bolalar uchun oilada yakka tartibdagi, ixtisoslashtirilgan va inklyuziv ta'lim mazmuni zamon talablari hamda xalqaro miqyosdagi yondashuvlar asosida takomillashtirildi. Natijada mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, zamon talablari

asosida o‘qitish, tarbiyalash bo‘yicha ta‘lim xizmatlarining optimallasuvi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish mexanizmlarining yanada modernizatsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratildi.

Nogiron bolalar orasida kar va zaif eshituvchi bolalar bor bo‘lib, ularning ijtimoiylashuvida muhim omil – bu nutqdir.

Nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda birinchi o‘ringa, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so‘nggina kar-soqov ekanligi holatini qo‘yish kerak. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me‘yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o‘sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda hayotiy ko‘nikmalarni egallab borishi lozim. Bolalar o‘zlarining muayyan sifat va ko‘nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari muhim. Ular o‘zlarini boshqa ko‘pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish orqaligina ularni to‘laqonli hayotga tayyorlashga erishiladi. Karlikni kompensatsiya qilishda ko‘ruv idrokining ahamiyati kattadir.

Agar nuqson qanchalik erta aniqlanib, to‘g‘ri tashxis qo‘yilib, kar bolaga e‘tibor maxsus tashkil etilsa, nuqsonni bartaraf etish, bilinmaydigan holatga keltirish imkoniyati keng bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, ruhiy, jismoniy va ular bilan bog‘liq holda aqliy rivojlanishi orqada qoladi, ya‘ni bola ijtimoiy muhitdan cheklangan holda rivojlanadi. Bunda ota-ona va yaqinlarining e‘tibori qanchalik kuchli bo‘lmasin, maxsus yondashuv tashkil etilmas ekan, bolaning umumiy rivojlanishi orqada qolaveradi. Chunki eshitish idrokining vazifalari nihoyatda muhimdir. Kar bola nafaqat oddiy nutqiy tovushlarni, balki nonutqiy tovushlarni ham qabul qila olmaydi, qabul qilsa ham, farqlay olmaydi. Shu bilan birga, kar bola ovozli, so‘zli nutq mavjudligini, ular inson faoliyatini tashkil etishini, boshqarishini ham anglamaydilar. Natijada ular boshqalarning so‘zlarini eshitmagach, o‘zlari ham so‘zlarni talaffuz etishdek, gapirishdek oliy-ijtimoiy ne‘matlardan bahramand bo‘la olmaydilar. Demak karlik juda chuqur ijtimoiy sifatlarning shakllanishiga salbiy ta‘sirini berganligi bois, kar bola jamiyatdan ajralib qolishi mumkin. Bola ko‘rib, ta‘m, hid bilib, teri orqali sezib yashasa-da, bu harakatlar yashash uchun yetarli bo‘lmaydi. Chunki ular atrofdagilar bilan muloqotga kirishmaguncha, axborot almashmaguncha eshituvchilar olamiga uyg‘unlasha olmaydilar. Bolada nutqni rivojlantirish ishlari oilalarda mustahkam va tizimli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lmog‘i lozim.

Oilada nutqiy muhitning shakllantirilishi, eshitishni erta korrektsiyalash, nutqiy idrok va nutqni rivojlantirish bo‘yicha maxsus ishlarni tashkil etish bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatga samarali uyg‘unlashuviga ijobiy ta‘sir qiladi. Kar bolalarga olamni tanitish va uning sirlarini sodda va tushunarli axborotlarda o‘rgatish lozim. Shundagina ular maktab ta‘limini egallaydi. Maktab ta‘limi nogiron bolalarni ijtimoiylashuvining muhim bosqichidir. Qachonki, o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga o‘quvchilar tayyor bo‘lsalar, shundagina ular uchun tashkil etilgan maxsus ta‘limning sifat va samaradorligi ortadi. Bu esa, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyor bo‘lishlarida muhim mezon bo‘lgan dunyoqarashni tarkib toptiradi va rivojlantiradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning quyidagi qoidalarini ajratdik. Ular:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida korreksiya va rivojlantirish ishlarining birligi. Ushbu qoida kar va zaif eshituvchi bolalarda mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, tuzatish va yumshatish ishlari faqat bir tomonlama bo'lmasligini ta'minlaydi. Masalan, tovush talaffuzini to'g'rilash ishi ma'lum rivojlantiruvchi kontekst asosida olib boriladi. Bola tovushning hosil bo'lish o'rne, usuli, ovoz va shovqinning ishtirokini his qilishga o'rgatilgan holda so'zlar va ulardagi tovushlarni talaffuz qiladi. Bu so'zlar aynan bola hayotida uchragan, uchraydigan so'zlar bo'lishi talab etiladi. Bola so'zning nafaqat tovushli, balki ma'no jihatini ham o'zlashtirgan holda o'z nutqini, talaffuzini nazorat qiladi. Shundagina bola shu tovush ishtirok etgan so'zlarni boshqalarda ko'rib-eshitishi natijasida (labdan o'qib yoki qisman bo'lsa-da eshitib) xotirasida saqlangan va egallangan ko'nikmalaridan hayotda foydalana oladi.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni har tomonlama rivojlantirishda yosh davri xususiyatlari va bolaning individual xususiyatlari birligi. Bu qoida ta'lim-tarbiya jarayonining sog'lom bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqishi bilan bir qatorda kar va zaif eshituvchi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi. Kar va zaif eshituvchi bola ham sog'lom bolalar kabi shaxs rivojlanish davrlarining har birini bosib o'tadi. Me'yorda rivojlanishning yoshga ko'ra chegaralari va ma'lum mezonli o'lchamlari mavjud. Bunda bolaning yoshiga mos ravishda ham jismoniy, ham ruhiy rivojlanishi tushuniladi. O'qituvchi va tarbiyachilar esa, bu holatni payqashi va to'g'ri yo'naltira olishi lozim.

3. Kar va zaif eshituvchi bolalarni rivojlantirishda tashxis va korreksiya ishlarining birligi. Eshitishning buzilish darajasi, bolaning psixofiziologik rivojlanishini o'rganib, unga tegishli tashxis qo'yish, shu asosda keyingi korreksiya ishlarini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirish uchun muhim hisoblanadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni eshitishga o'rgatish ishlarida korreksiya choralarining ahamiyati kattadir. Eshitishni rivojlantirishda mashqlarning roli nihoyatda muhim. Mashqsiz, ko'nikma, uquvlar rivojlanmaydi. Bolalarni ma'lumotlarni eshitishga o'rgatish kerak, shundagina ular qayta-qayta mashq qilish orqali bolalar nutqni to'liq bo'lmasa-da, ma'nosini ilg'ashga intiladilar. Korreksion ishlarning vazifalari faqat to'g'ri va to'liq tashxislash orqali hamda bolalarni rivojlantirishning eng maqbul natijalarini bashoratlash asosida belgilab olinishi lozim. Rivojlantirish ishlari bolaning eng yaqin rivojlanish zonasidan kelib chikib belgilanadi va korreksiya va rivojlantirish ishlarining o'zaro bir-biri bilan aloqadorligiga asoslanadi. Ta'lim-tarbiya mazmuni, usullari va vositalari bola imkoniyatidan murakkabroq bo'lishi va bolaning xatti-harakatlari to'siqlarni yengib o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi rivojlantirish ishlarining asosini tashkil etadi.

4. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan korreksiya ishlarini amalga oshirishda turli faoliyatlarga tayanish. Uslubiy vazifalar bilan bog'liq ravishda pedagogik jarayondan ko'zlangan maqsadga erishishning vositalari, yo'llari, usullarini belgilab beradi. Faoliyat tamoyili bola qaysi yosh davrni bosib o'tayotgan bo'lsa, shu davrda u uchun qaysi

faoliyat ustuvorlik qilishini anglagan holda rivojlantirish ishlarini rejalashtirish va olib borishni ko‘zda tutadi.

5. Korreksion ishlarni olib borishda har bir bolaga alohida bir olam, shaxs yoki iqtidorli bola sifatida yondashish. Bu qoida korreksion ish olib borilayotganda bolalarni ajratmaslik, ularga nisbatan mensimaslik munosabatida bo‘lmaslikni taqozo etadi. Zero, har bir topshiriq bolaning imkoniyatiga mos bo‘lishi bilan bir qatorda yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkonini berishi lozim. Bu xususda Biz sanab o‘tilgan qoidalarga tayangan holda tadqiqotning o‘rgatuvchi tadqiqot mazmunini yaratish va amaliyotga joriy etishda tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan pedagoglarga “Sening imkoniyating cheklanganligi uchun shuni qilsang bo‘ldi emas, balki sen bunga qodirsan”, shiori asosida yondashishni tavsiya qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmanovna, Q. F. (2020). “RAQAMLI PEDAGOGIKA”–ISTIQBOL BUGUNDAN BOSHLANADI: IMKONIYATLAR, STEREOTIPLAR, KELGUSI REJALAR. Современное образование (Uzbekistan), (8 (93)), 4-9.
2. Qodirova, F. U., & Kenjayev, N. U. (2020). Inklyuziv ta’lim sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o‘qishiga ta’sir etuvchi omillar. Academic research in educational sciences, (3), 904-910.

MUNDARIJA

BIRINCHI SHO'BA: OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH VA UNING OLDINI OLISH

Tursunov A.S., Murodov A.Sh. Profilaktika inspektorlarining fuqarolarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha faoliyatini tashkil etish masalalari.....	4
Murodov A.Sh. Notinch oilalar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish yo'nalishlari	13
Saipova M. Mehnat migrantlarining oilaviy holati, ular duch keladigan zo'ravonlik turlari	19
Yusupova M.U. Основные факторы, оказывающие влияние на процесс создания идеальной семьи.....	22
Razzakova N.I. Oilaviy zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga qarshimiz!	27
Azimova M.M., Kurbanova N.M., Azizova G.S., Xodjalimova M.Z. Oilaviy zo'ravonlikka qarshimiz.....	31
Turayev L.Sh. Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbar kadrlarida eng muhim kompetensiyalarni rivojlantirish zaruriyati	35
Yerejepova Sh, Jalgasova Z. Yangi O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar	40
Jurayeva Sh.S. Oiladagi zo'ravonlik – oilaviy nizolarning shakli sifatida.....	44
Raxmanov R.N. Notinch oila tushunchasi va uning kriminologik tavsifi	47
Eshqobilova S.Y. Shamol sindirgan gullar... Yangi O'zbekiston oiladagi zo'ravonlikka qarshi: muammo, sabab, tahlil va yechimlar!	53

**IKKINCHI SHO‘BA:
XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN
HIMOYA QILISH MASALALARI**

Nishonova N.R. Zo‘ravonlik: xotin-qizlarning oiladagi zo‘ravonlik muammosi	58
Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining ma‘naviy merosida oila va xotin-qizlar masalalari	63
Niyozova S.S. Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimgligining oldini olish masalalari.....	67
Zakirova A.G., Abdurasulova Q.R. Xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishining sabablari va uning oldini olish.....	76
Qosimova D. O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash masalalari.....	85
Нишанова Н.Р., Кулуева Ф.Г. Расширение прав и возможностей для женщин	90
Xalikova R.E. O‘zbekistonda xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan himoya qilinishida islohotlarning o‘rni.....	93
Abbasova M.S. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy muhitdagi gender tengligi.....	97
Qurbonova Z.T. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish	102
Umarova N.Sh., G‘aniyeva G.Y. Jamiyatda shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvining gender tenglik muammolari.....	105
Usmonova Sh.A., Elmuratova U.F. Jamiyatda ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirish gender tengligini ta‘minlashda muhim omil	108
Usmanov J.B. Islom dinida va aruziyning asarida al-iffa kategoriyasi.....	112
Qulmatov N.E. Abu Iso Muhammad at-Termiziy hadislarida keltirilgan xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatning bugungi o‘zbek oilalaridagi ahamiyati	116
Komilova X.T. Xotin-qizlarning ilmiy faoliyati rivojlanishi gender assimetriya va gender stereotiplari	120
Алимжанова Д.М., Пулатова Ш.А. Значение судебной власти в противодействии гендерной дискриминации.....	123
Рашидова Д.С. 25 Ноября – международный день борьбы за ликвидацию насилия в отношении женщин	128

Toshpulatov A.I. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi erkaklar va ayollarning jinoyat sodir qilganligi uchun teng javobgarlikni nazarda tutadimi?.....	133
Annayeva N.R. Ta'lim tizimidagi asosiy gender yondashuvlari	137
Matrasulov D., Nurmonova Z. Migratsiya – ijtimoiy fenomen: migrant xotin-qizlarning tazyiq va zo'rvonlik qurboniga aylanishining sabab va omillari.....	141
Гулнора А.И. Вопросы совершенствования национального законодательства по противодействию насилию в отношении женщин.....	151
Kuanishova D.T. Xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini oshirish va ularni zo'rvonlikdan himoya qilish masalalari	159
Sadullayeva J.I., Bo'riyeva M.Sh. Ayollarga ishlatilgan zo'rvonlikning tarixiy odatlarda aks etishi va zo'rvonlik ko'rinishlari	164
Alimova U.R., Zoxidjonova M.S. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish masalasiga doir mulohazalar	168
Ashurova S.O'. Zamonaviy ayolning ijtimoiy mavqeyi.....	172
Ибрагимова Н.Н., Ибрагимов З.З. Защита женщин от притеснения и насилия	176
Yangiboyeva D.R. Oilaviy zo'rvonlikka uchragan ayollarga psixologik yordam ko'rsatishning o'ziga xos jihatlari	179
Odilova G.X. Yangi O'zbekistonda oiladagi zo'rvonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar	183

UCHINCHI SHO'BA:
BOLALARGA NISBATAN ISHLATILGAN ZO'RAVONLIK
HOLATLARIGA QARSHI MUROSASIZ KURASHISH

Norqulov H.D. Oilada o'smirlarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish masalalari.....	190
Abdullayeva D.U. Oiladagi noto'g'ri tarbiya shakllarining bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'siri.....	196
Yuldashev S.R. Bolalar savdosi jinoyatining sodir etilishi shakllari va psixologik oqibatlari.....	199
Egamova M.E. Oiladagi zo'rvonlikning farzandingizga ta'siri	203

Xolmurodov G.O. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va ehtiyotsiz munosabatlarning ko‘rinishlari va turlari.....	206
Kazaqova P.S., Bobonazarova G.O. Maktabgacha ta‘lim davrida bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	211
Kazaqova P.S., Yusupova M.O. Maktabgacha ta‘lim davrida bolalarda huquqiy tarbiyaning metodologik asosi.....	213
Xudayberganov Sh.Sh. Oliy ta‘lim muassasalarida akademik erkinlikni ta‘minlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari (Qozog‘iston universitetlari misolida).....	216
Djo‘raev F.Q. Harbiy kadrlarda g‘oyaviy-mafkuraviy ko‘nikmalarni rivojlantirishning nato tajribasi.....	220

**TO‘RTINCHI SHO‘BA:
NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI
ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH**

Инаков А. Развитие медико-социальных услуг людям пожилого возраста и лицам инвалидностью - как один из основных факторов устойчивого развития современного общества.....	226
Qodirova F.U. Nogironligi bo‘lgan bolalarni to‘laqonli hayotga tayyorlashning dolzarb masalalari	231

“YANGI O‘ZBEKISTON OILADAGI ZO‘RAVONLIKKA QARSHI: HOLAT, MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to‘plami

“Mahalla va oila nashriyoti”

Toshkent – 2022

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**

Muharrirlar: **U. Yunusov,
O‘. Nomozova,
N. Xusenova**

Badiiy muharrir: **F. Sobirov**

Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



1940

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 29.12.2022.
“Times New Roman” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{8}$
Nashriyot bosma tabog'i 34,2.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
M.Ismoilıy ko'chasi 1-G uy.

“RAZIKOV” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Yakkasaroy tuman, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.